

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

RAXMATOVA XAYRIXON ASHIRALIYEVNA

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA

DARSLIK

(5A110901-Pedagogika nazariyasi va tarixi)

Toshkent – 2021 yil

Raxmatova X.A. Pedagogik diagnostika va korreksiya /Oliy ta'limning magistratura (5A110901-Pedagogika nazariyasi va tarixi) yo'nalishi uchun darslik

ANNOTASIYA

Mazkur darslikda pedagogik diagnostikaning nazariy va amaliy asoslari, rivojlanish tarixi, metodlari, korreksion faoliyatning asosiy tamoyillari, bosqichlari hamda metodlarining kognitiv tavsifi xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, o'quv jarayonini tashxislashning o'ziga xos jihatlari, o'quvchilarning aqliy rivojlanganlik, axloqiy tarbiyalanganlik hamda kasbga yo'naltirilganlik darajasini tashxislash, tashxislash yordamida sinf (guruh) jamoasi va oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini baholash, shuningdek, tashxislash orqali uzluksiz ta'limda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning empirik asoslari ko'rsatib berilgan. Darslik respublika o'qituvchilar, pedagog xodimlar, oliy ta'lim muassasalarining talabalari, ilmiy tadqiqotchilar, xususan, magistrantlar hamda pedagogik diagnostika masalalariga qiziqqan shaxslar uchun mo'ljallangan.

АННОТАЦИЯ

В данном учебнике рассматриваются теоретические и практические основы диагностики, история развития, а также когнитивное описание методов, основных принципов и этапов коррекционной деятельности. Также в учебнике освещены особенности диагностики процесса обучения, диагностирование уровня интеллектуального развития, нравственного воспитания и профессиональной направленности учащихся, оценка образовательного потенциала класса (группы) и семьи с помощью диагностики, а также эмпирические основы планирования образовательных работ в непрерывном образовании с помощью диагностирования. Учебник предназначен для преподавателей, воспитателей, студентов высших учебных заведений, исследователей, в частности магистрантов и тех, кто интересуется педагогической диагностикой.

ANNOTATION

This textbook examines the theoretical and practical foundations of diagnostics, the history of development, as well as the cognitive description of methods, basic principles and stages of correctional activity. The textbook also shows the features of diagnostics of the learning process, diagnostics of the level of intellectual development, moral education and professional orientation of students, assessment of the educational potential of the class (group) and family using diagnostics, as well as the empirical foundations of planning educational work in continuous education using diagnostics. The textbook is intended for teachers, educators, students of higher educational institutions, researchers in particular undergraduates and those who are interested in pedagogical diagnostics.

Taqrizchilar:

Asqarova O'giloy Mamashokirovna pedagogika fanlari doktori, prof. NamDU

Erkaboeva Nigora Shermatovana pedagogika fanlari doktori, prof QDPU

Nishonov Mahmudjon Sobirovich pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. NamDU

SO‘ZBOSHI

Inson kapitali global axborotlashuv, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bois jahonning iqtisodiy jihatdan etakchi inson kapitalidan samarali foydalanish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda ham uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim oluvchilarning iqtidorini baholash, ularning imkoniyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “ta’lim olishga munosib, yuksak aql-zakovat va etakchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshlarni aniqlash”¹ ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat istiqbolini ta’minlashiga ishonch bildiradi. Bu esa o‘z navbatida respublika uzluksiz ta’lim tizimi oldida “yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy etuk insonlar etib tarbiyalashdan iborat”² muhim ijtimoiy-pedagogik vazifani qo‘yadi.

Pedagogik fikrlar tarixi taraqqiyotida o‘qitish sifatini ta’minlash va natijasini kafolatlash, tarbiya samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Ta’lim va tarbiya jarayoni ijtimoiy sub’ektlar – o‘qituvchi hamda o‘quvchilar ishtirokida tashkil etiladi. O‘qituvchilar kasbiy kompetentligining turli darajada bo‘lishi, o‘quvchilarning yosh, fiziologik, psixologik jihatdan bir-biridan farqli imkoniyatlarga egaligi o‘qitish va tarbiya jarayonida muayyan, xususan, bir guruh o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtira olmasligi, ularda ijtimoiy-pedagogik talablarni bajarishda me’yordan og‘ish holatining kuzatilishi kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Mavjud muammolarni bartaraf qilish maqsadida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida psixologiya sohasida turkum tadqiqotlar amalga oshirildi. Natijada XX asarning dastlabki o‘n yilliklarida “psixologik diagnostika” nazariyasi, so‘nggi o‘n yilliklarida esa “pedagogik diagnostika” nazariyalari asoslandi. Ushbu nazariyalarning asosiy g‘oyasi va tadqiqot yo‘nalishini ta’lim sifatini real holatni tashxislash asosida tahlil qilish hamda baholash tashkil qiladi. Namoyon bo‘layotgan nuqsonlarni bartaraf etish, tuzatish choralari belgilashga bo‘lgan ijtimoiy-pedagogik ehtiyoj OTMda “Pedagogik diagnostika va korrekciya” o‘quv fanini o‘qitish zarurligini ko‘rsatdi.

OTMning magistratura yo‘nalishida “Pedagogik diagnostika va korrekciya” o‘quv fanining o‘qitilishi magistrantlarda kasbiy faoliyat jarayonida ta’lim sifatini ta’minlashga to‘sqinlik qiluvchi holatlar – fanlarni o‘zlashtira olmaslik, ijtimoiy-pedagogik talablarni bajarishda me’yordan og‘ishni bartaraf etish malakalarini rivojlantirish bilan birga ularni amaliy jihatdan ilmiy-pedagogik tadqiqotni samarali tashkil etishga tayyorlaydi. O‘quv fani asoslarini puxta o‘zlashtirish magistrantlarda mavjud vaziyatni to‘laqonli tahlil qilish, sintezlash, nuqsonlarning kelib chiqishiga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi barcha omillarni o‘rganish, muammoni bartaraf qilishga tanqidiy yondashish, samarali metod va metodikalarni tanlash, ulardan maqsadli foydalanish malakalarini rivojlantiradi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 227-б.

² Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016. – 14-б.

Ushbu o‘quv fanining kishilik jamiyatining turli bosqichlarida yaratilib, o‘qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini kafolatlashga xizmat qiladigan novatsion va innovatsion xarakterdagi metod hamda metodikalar bilan magistrant-talabalarni yaqindan tanishtirishga xizmat qilishi uning amaliy ahamiyatini oshiradi.

“Pedagogik diagnostika va korrektsiya” o‘quv fanining tarkibiy tuzilmasidan o‘rin olgan mavzular nazariy, amaliy hamda tadqiqot xarakteriga ega.

I BOB. “PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA” FANINING NAZARIY ASOSLARI

1-mavzu. Pedagogik diagnostikaning predmeti va tarixiy rivoji

Reja:

1. “Pedagogik diagnostika va korreksiya”ning o‘quv fani sifatida shakllanishi hamda rivojlanishi.
2. “Pedagogik diagnostika” tushunchasining mohiyati.
3. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining mazmuni.
4. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining asosiy tushunchalari.

Tayanch tushunchalar: diagnostika, pedagogik diagnostika, korreksiya, tashxis (diagnoz), tashxislash, tashkil etish, nazorat qilish, korreksiyalash, baholash.

I. “Pedagogik diagnostika va korreksiya”ning o‘quv fani sifatida shakllanishi hamda rivojlanishi. Zamonaviy sharoitda “Pedagogika” fani har tomonlama rivojlangan, komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish masalasini hal qilishga yo‘naltirilgan. Asrlar davomida shakllangan ta‘lim va tarbiya tizimi yuksak ong, tafakkur, dunyoqarash, axloqiy fazilatlar va hayotiy tajribaga ega shaxsni tarbiyalashga doir boy an‘analarni o‘zida aks ettiradi. Kishilik taraqqiyotining turli bosqichlarida pedagogika amaliyotida ana shu boy an‘analarga tayanib kelingan. Biroq, mavjud pedagogik an‘analar turg‘un xarakterga ega bo‘lmay, o‘z g‘oyalari ijtimoiy borliqda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, erishilayotgan yutuqlar asosida dinamik, dialektik ravishda boyitib boradi. Bu esa o‘z navbatida pedagogika jarayon, faoliyat va ilmiy-tadqiqot sohalarida yangidan yangi yo‘nalishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Yangi yo‘nalish g‘oyalari, tamoyillarining tobora boyib, ko‘payib borishi esa pedagogik turkum fanlar sirasida mustaqil fanlarning shakllanishini ta‘minlaydi. So‘nggi chorak asr mobaynida pedagogik turkum fanlarining soni “Ijtimoiy pedagogika”, “Pedagogik texnologiya”, “Innovatsion pedagogika”, “Pedagogik innovatika”, “Pedagogik konfliktologiya”, “Pedagogik diagnostika va korreksiya” kabi mustaqil fanlar hisobiga oshdi. Mazkur fanlarning amaliyotida o‘zining munosib o‘rniga ega va ular dolzarb pedagogik muammolarni samarali tadqiq qilishga yordam bermoqda.

Garchi diagnostika va korreksiyalash masalalari juda qadimdan o‘rganilgan bo‘lsa-da, “Pedagogik diagnostika va korreksiya” nisbatan yangi o‘quv fan sanaladi. Jahon ta‘limi amaliyotida o‘zining mustaqil o‘rniga ega bo‘lganiga hali unchalik ko‘p vaqt bo‘lmaganiga qaramay, ushbu fan ta‘lim jarayonining ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondirish borasida muayyan tajribaga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimida esa mazkur fanning o‘quv fani sifatida o‘qitilishi borasida daslabki tajribalar to‘plangan bo‘lsa-da, biroq, o‘qituvchilar “Pedagogik diagnostika va korreksiya”n o‘quv faniing barcha imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish bo‘yicha boy amaliy tajribalarga ega

emaslar. Shu bois ayni vaqtda respublika ta'lim muassasalarida fan imkoniyatlaridan samarali foydalanishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda³.

Ushbu tushuncha ilk marta tibbiyotda qadimgi Gresiyada qo'llanilgan⁴. Qadimgi yunonlar muvaffaqiyatli davolash uchun kasallik va uning sabablarini to'g'ri anglash, bemor organizmi xususiyatlari, kasallikning kechishi tavsifidan xabardor bo'lish, turli davo vositalarining ta'sirini bilish va shu sababli kasallikni davolashdan ko'ra unga to'g'ri tashxis qo'yish muhim ekanligini anglashgan. Ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar, sub'ektlarning hayot tarzidan kelib chiqqan holda "diagnostika" tushunchasi turli (texnika, iqtisodiyot, psixologiya) sohalarda ham qo'llanila boshlandi⁵.

Kishilik jamiyatining ilk bosqichida tibbiyotda oddiy va ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan kasalliklarga tashxis qo'yishda suyak sinishi, jarohat, qayt qilish, ich ketish, og'riqni his qilish, isitma kabi belgilarga tayanilgan. Qadimgi Misr va Hindistonda tana haroratining ko'tarilishi, yurak faoliyati eshitish, tanani paypaslab ko'rishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, qadimgi Xitoyda tomir orqali yurak pulsini o'lchash, Gresiyada esa tashxis qo'yish ilmiy klinik (ham tashxis qo'yish, ham davolash ishlari birga olib boriladigan) tibbiyot uchun boshlang'ich asos bo'lib xizmat qildi. Tibbiy diagnostikaning asoschisi Gippokrat hisoblanadi. Uning tashxis qo'yish uslubi bemor holatini kasallikning dastlabki va keyingi davrdagi holatini sinchiklab o'rganish, kasallikning ayrim belgilariga ta'sir ko'rsatish, ma'lum uskuna (masalan, naycha – naysimon asbob) yordamida ichki organlar holatini tekshirish, o'pkadagi xirillash, o'pka pardasidagi ishqalanishni eshitish, jigar va taloqni paypaslab ko'rishdan iborat bo'lgan.

Tibbiyot sohasida kasallikka tashxis qo'yish borasida o'sha davrlardayoq izlanishlar olib borilgan. Xalqning boy hayotiy tajribasi, o'ziga xos davolash iqtidoriga ega shaxs (tabib, kohin)larning izlanishlari natijasida turli kasalliklarga to'g'ri tashxis qo'yish amaliyoti ilmiy bilimlar bilan boyigan.

Uyg'onish davri, ayniqsa, VIII-XIX asrlarda tibbiyotda yangi, jumladan, harorat o'lchovchi asbob (termometriya), tanaga barmoq bilan urib ko'rib eshitish (perkussiya), yurak urushi va o'pkani eshitib ko'radigan asbob (stetoskop), Laennekning eshitib ko'rish metodi va boshqa tashxis metodlari yaratildi.

Shunga ko'ra dastlab "diagnostika" tushunchasi negizida kasalliklarni aniqlashda qo'llaniladigan metodlar va ular to'g'risidagi ta'limot ifodalangan. Zamonaviy sharoitda esa mazkur atama bemor shaxsi, u mansub bo'lgan ijtimoiy muhit, ruhiy holati, organizmining irsiy va fiziologik xususiyatlari, kasallikning kelib chiqish sabablari, kechishi, organizmda kechayotgan fiziologik holatlar, organizmning tashqi muhit omillari, turli davo vositalariga ta'sirchanligi, shuningdek, davo vositalarining boshqa organlar faoliyatiga ta'siridan iborat yaxlit

³Расулов И.М. Таълим жараёнида педагогик ташхис тамойилларини қўллаш // <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-zharayonida-pedagogik-tashhis-tamoyillarini-qo'llash>.

⁴ Диагностика // <http://referat-kursovaya.repetitor.info>.

⁵ Инназаров М.А. Малака ошириш тизимида педагог кадрлар касбий компетентлигини ташхислаш ва баҳолаш технологиялари: пед.фанл.бўйича PhD ...дис. – Т.: 2020. – 35-36-б.

jarayonni hamda davolovchi vrachning kasallikni aniqlash va bemor holati bo'yicha kuzatishlari, mulohazalarini ham anglatadi.

Pedagogik diagnostikaning rivoji psixologik diagnostika bilan bog'liq va bevosita uning negizida yuzaga kelgan. Psixologik diagnostikaning o'zi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida psixologiya sohasida olib borilgan qator tadqiqotlarning g'oyalariga asoslangan holda mustaqil fan sifatida shakllana boshladi.

Bu davrda Vilgelm Maksimilian Vundt (1832-1920) va Vilyam Shtern (1871-1938 yy.) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda nafaqat yuqori psixologik funksiyalarni ifodalovchi holatlarga asoslanuvchi umumiy psixologik qonuniyatlar, balki shaxsning individual xususiyatlari (idrok, xotira, diqqat, ta'sirlanish tezligi va sh.k.) keng ko'lamda o'rganildi. Biroq, bilish sohasida "psixologik diagnostika" tushunchasining qo'llanilishi German Rorshax (1884-1922 yy.) bilan bog'liq.

Psixologik tahlil (psixooanaliz) masalalari bilan qiziqqan hamda Shveysariyaning nufuzli tibbiyot vakillari orasida tobora mashhur bo'lib borayotgan psixologik tahlil metodini yoqlovchi faollardan biriga aylangan German Rorshax til iste'molida ilk marta "psixologik diagnostika" tushunchasini qo'lladi.

***German Rorshax tomonidan 1921 yilda "Psixologik diagnostika: idrokka asoslangan tashxislovchi test" nomli asarning e'lon qilinishi "Psixologik diagnostika" tarixining aynan shu nom bilan rivojlanib borishini ta'minladi*⁶.**

Bugungi kunda o'qituvchi kasbiy faoliyatining muhim tarkibiy kismiga aylanib borayotgan "Pedagogik diagnostika"ning tarixida nemis olimi Karlxayns Ingenkampning alohida o'rni bor.

***Aynan Karlxayns Ingenkamp 1968 yilda ta'lim sohasida "pedagogik diagnostika"*⁷ tushunchasini qo'llash taklifini ilgari surgan.**

Muallif tashxisga asoslanuvchi pedagogik faoliyat negizida sifatning zarur ilmiy mezonlarini saqlab qolgan holda o'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatini anketa yordamida kuzatish, nazorat va so'rovlar natijalarini qayta ishlash orqali xatti-harakatlari mohiyatidan ularni xabardor kilish, natijalar uchun negiz bo'lgan sabablarni yoritish va istiqbolni izohlash jarayonini tushungan edi.

"Diagnostika" (tashxislash) tushunchasi yunon tilidan tarjima qilinganda lug'aviy jihatdan "bilish", "aniqlash", nazariy jihatdan

⁶ Предмет педагогической диагностики и ее историческое развитие // <http://lib4all.ru/base/B2590/B2590Part2-5.php>.

⁷ Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.

esa “aniqlashga qodirlik”, “aniqlashga imkon berish” ma’nolarini anglatadi⁸.

Ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida iqtisodiy, madaniy o‘zgarishlar, sub’ektlarning hayot tarzidan kelib chiqqan holda “diagnostika” tushunchasi turli sohalarda ham qo‘llanilla boshlandi. Masalan, texnika sohasida (texnik diagnostika; mashina, mexanizm, uskuna, inshooat, qurilma, boshqa texnik ob’ektlar)ning texnik holatini baholash metodlari va vositalarini o‘rganish), iqtisodiy sohada (iqtisodiy diagnostika; iqtisodiy munosabatlar, o‘zgarishlar mohiyatini tahlil qilish asosida ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, mahsulotlarni yetkazib berish va sotish, sohalarni malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash, ularni boshqarishda ro‘y berishi kutilayotgan muammolar, ularning tavsifi, belgilarini o‘rganish), psixologiya sohasida (psixologik diagnostika; qobiliyati, qiziqishlari, mayllari, ichki imkoniyatlarini namoyon qilishi va bevosita ulardan foydalana olishni o‘rganishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga tayangan holda shaxsni tadqiq qilish).

II. “Pedagogik diagnostika” tushunchasining mohiyati. So‘nggi yillarda ta‘lim va tarbiya amaliyotida pedagogik jarayon, holat, hodisalarni tashxislashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Binobarin, tashxislash pedagogik jarayon, holat, hodisalarning mavjud holatidan kelib chiqqan holda istiqbol vazifalarni belgilash imkonini beradi.

E‘tiborli jihati so‘nggi o‘n yilliklarda “pedagogik diagnostika” tushunchasi ko‘plab tadqiqotchilarning e‘tiborini o‘ziga tortmoqda. Garchi mazkur tushuncha ular tomonidan shaklan turlicha talqin qilinayotgan bo‘lsa ham nazariy jihatdan umumiy mazmunga ega.

K.Ingenkampning nuqtai nazariga ko‘ra, pedagogik tashxislash zarur o‘lcham (ko‘rsatkich)lardan foydalanish asosida hodisalar mohiyatini anglash va ularning muayyan vaziyatlardagi holatiga baho berish jarayonidir. Muallif, pedagogik tashxislashning o‘ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda uni mohiyati, maqsad va vazifalarini belgilash orqali pedagog tomonidan tashkil etiladigan faoliyatning mustaqil turi ekanligiga ham urg‘u berdi⁹.

Yaxlit tizim sifatida pedagogik jarayonining barcha bosqichlarida uni tarkibiy elementlari holatini aniqlash orqali istiqbolni belgilash, ta‘lim strategiyalarini ishlab chiqish zamonaviy pedagogik diagnostika oldida turgan muhim vazifalar sanaladi. Mazkur tushuncha shunga ko‘ra ham nazariy jihatdan tavsiflanadi.

***Pedagogik diagnostika** – pedagogik tizimning turli elementlari holati va uni barcha bosqichlarda bashoratlash, mo‘tadil rivojlanish tendensiyalarining buzilishini bartaraf etish uchun ularni amalga oshirish sharoitlarini tavsiflovchi belgilarini aniqlanash va o‘rganish*

⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Гидрофилия – Зебра / 3-том. Таҳрир хайъати: М.Аминов ва б. – Т.: “Ўзбекистан миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – 283-б.

⁹ Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 5.

(E.A.Mixalыchev)¹⁰, ta'lim va tarbiya natijasini baholashda shaxsning ma'lum bir xususiyatlarini aniqlash uchun mo'ljallangan pedagog va pedagogik kollektivlarning o'ziga xos faoliyatining tizimi (V.S.Avanesov)¹¹.

Maqsad, vazifa, tashxis shakllari, metodlari, vosita yoki jihozlari, tashxisni amalga oshiruvchining ma'lumoti, malaka darajasi, ish tajribasi, tashxis mezonlari va ko'rsatkichlari, tashxis bosqichlari, tashxis natijalari, korresiyalovchi metodika pedagogik tashxisning muhim asoslari bo'lib, har qanday vaziyatda ham ular yaxlit holda inobatga olinishi zarur.

V.Uruskoy esa pedagogik tashxislash o'z mohiyatiga ko'ra ikki maqsadga erishishga xizmat qiladi, deb hisoblaydi. Ular: 1) o'qituvchining kasbiy darajasini o'rganuvchi metod, vositalarning tizimi sifatida kasbiy faoliyatdagi qiyinchiliklarni o'rganish, ularni barataf etishning samarali yo'llarini izlash zaruriyatini anglash; 2) pedagogik faoliyatni tashkil etishning individual uslubiga ko'ra o'qituvchining kuchli tomonlarini aniqlash, ularni mustahkamlash hamda rivojlantirishning aniq yo'llari va vositalarini aniqlash¹².

*Yanada aniqroq qilib aytganda, **pedagogik diagnostika** – aniq maqsaddan kelib chiqqan holda muayyan holat (fazilat, bilimlarni o'zlashtirish) bo'yicha o'rganiluvchi shaxs faoliyatini kuzatish, tekshirish va baholashga oid statistik ma'lumotlarni yig'ish, ularni tahlil qilish, dinamik rivojlanishni aniqlashga qaratilgan nazorat yoki monitoringning tarkibiy qismi¹³; ta'lim oluvchilar, pedagog yoki ta'lim muassasasi rahbarining faoliyati darajasida jarayon yoki hodisani bir vaqtning o'zida tezkor o'rganish, baholash, yo'naltirish va to'g'rilash¹⁴ demakdir.*

O'z mohiyatiga ko'ra ma'lum jarayon, hodisa yoki ob'ekt bo'yicha pedagogik tashxis qo'yishga qaratilgan faoliyat esa pedagogik tashxislash sanaladi. Chunki tashxislash negizida shaxs yoki avtomatik qurilma tomonidan amalga oshiriladigan real harakat yotadi.

III. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining mazmuni va asosiy tushunchalari. Har bir fan yoki o'quv fani kabi “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'z oldiga muayyan maqsadni qo'yadi, ushbu maqsadga erishish

¹⁰ Михалычев Е.А. К понятийному аппарату педагогической диагностики // Педагогическая диагностика. – 2006. – № 2 . – С. 57.

¹¹ Аванесов В.С. Определение, предмет и основные функции педагогической диагностики // <http://testolog.narod.ru/Obrasov21.html>.

¹² Шапран Ю.П. Диагностика профессиональной компетентности будущих учителей биологии // <https://sibac.info/conf/pedagog/xxii/30254>.

¹³ Инназаров М.А. Малака ошириш тизимида педагог кадрлар касбий компетентлигини ташхислаш ва баҳолаш технологиялари: пед.фанл.бўйича PhD ...дис. – Т.: 2020. – 37-б.

¹⁴ Пудочкина Т.С. Педагогическая диагностика: инструментарий, организация, проведение, обработка и использование результатов // www.openclass.ru/node/249066.


yo'lida ma'lum vazifalarni belgilaydi. Qolaversa, mazkur fan o'zining tadqiqot ob'ekti, predmeti hamda tayanch kategoriyalari (asosiy tushunchalari)ga ega.

O'quv fanining maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti va kategoriyalari uning tadqiqot yo'nalishi, fan sifatida o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra belgilanadi.

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fanining maqsadi – pedagogik ahamiyatga ega ma'lumotlarni aniqlash va ulardan foydalanish asosida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, tarbiyalash, o'quv hamda kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan samarali tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat¹⁵.

Har bir fan yoki o'quv fani oldiga muayyan vazifalar qo'yiladi. Ularning aniq belgilanishi maqsadga tezkor va samarali erishishga yordam beradi.

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fani sifatida quyidagi ikki turdagi vazifalarni hal qiladi (1-rasm):



1-rasm. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fanining asosiy vazifalari

Har bir fan yoki o'quv fani kabi “Pedagogik diagnostika va korreksiya” ham o'zining ob'ekti va predmetiga ega.

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fanining ob'ekti – pedagogik jarayon hamda uning barcha tarkibiy elementlari – pedagog, o'quvchi, pedagogik faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari, metodlari, vositalari, shart-sharoitlari, texnologiyalari hamda natijalari.

¹⁵ Гутник И.Ю. Зачем нужна педагогическая диагностика? // Учитель на все времена. Материалы XXXII Всероссийской научно-прак.конф. – М.: Педагог, 2011. – С. 183.

O'quv fanining ob'ekti o'z navbatida uning predmetini belshilashga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining predmeti uning ob'ekti asosida belgilanadi. Bunda ikkita sub'ekt: o'quvchi (bola) va pedagog, shuningdek, ta'lim va tarbiya sharoiti nazarda tutiladi (1-jadval).

1-jadval. "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining predmeti

<i>"Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining ob'ekti sifatida</i>		
<i>O'quvchi ko'zda tutilganda</i>	<i>Pedagog ko'zda tutilganda</i>	<i>Ta'lim va tarbiya sharoiti ko'zda tutilganda</i>
<i>O'quv fanining ob'ekti quyidagicha belgilanadi:</i>		
<i>O'quvchining shaxsiy va tipologik xususiyatlari; ta'lim olganlik, tarbiyalanganlik, rivojlanganlik, faoliyat ko'nikmalari, qiziqish, xohish-istaklari, xulq-atvorining namoyon bo'lish darajalari; tengdoshlari hamda kattalar bilan munosabatining o'ziga xosliklari</i>	<i>Pedagogning kasbiy kompetentligi, shaxsiy xususiyatlari, o'quvchi (bola)lar bilan munosabatining o'ziga xosliklari</i>	<i>Turli yoshdagi shaxsni o'qitish metodlari; mikro guruhdagi muhit; muayyan yosh davridagi shaxsni shaxsga beriladigan ta'lim (tarbiya) mazmuni hamda ta'lim (tarbiya) vositalari, texnologiyalari; shaxsning rivojlanishiga turli omillar, xususan, oilaning ta'siri</i>

Ma'lumki, har bir fan yoki o'quv fani kabi "Pedagogik diagnostika va korreksiya" ham o'zining tayanch tushunchalari (asosiy kategoriyalari)ga ega. Quyidagilar "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining tayanch tushunchalari (asosiy kategoriyalari) sanaladi:

Tashxis (pedagogikada) – o'zida tadqiqot (o'rganish) ob'ekti sifatida tanlangan shaxs yoki ijtimoiy guruh (masalan, o'quvchilar sinfi)ga xos muayyan xususiyatlarni, shaxslararo o'zaro ta'sirni, o'zaro munosabatlarni, o'zaro bir-birlarini tushunishni tavsiflaydigan pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi. Tashxis – tashxislashning, ya'ni, tashxislash jarayonining natijasi, shuningdek, ma'lum xususiyat, sifat, holat va shu kabilarning tasdiqlanishi sanaladi.

Tekshirish (yoki tekshiruvdan o'tkazish) – tadqiqot ob'ekti bo'lgan shaxs yoki jarayonga oid dalillarning tashxis ma'lumotlari bilan o'zaro solishtirish va ularning tasdiqlanishini ta'minlovchi jarayon.

Metod (qad. yun. "μέθοδος" – yo'l, usul; yun. "methodos" – tadqiqot yo'li, usuli) – muayyan maqsadga erishish uchun ma'lum yo'lni, tartib yoki tizimga solingan faoliyat usulini tanlash¹⁶. Mazkur tushuncha turlicha talqin qilinadi. Jumladan, 1) faoliyat usuli; 2) qandaydir faoliyat usullarining majmui; 3) harakat usuli yoki ko'rinishi; 4) harakat tizimi; 5) ta'sir ko'rsatish yo'li; 6) maqsadga erishish uchun tashkil etilayotgan harakat.

Tashxislovchi metodlar – olingan natijalar asosida psixologik hamda pedagogik jarayonning mohiyatini, muayyan shaxsga yoki shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfi)ning o'ziga xos xususiyatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'lchash, ularni o'zaro solishtirish va tasdiqlashga xizmat qiladigan metodlar. Odatda, tashxis metodlari

¹⁶ Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 130-б.

sifatida anketa, suhbat, test, intervyu, pedagogik kuzatish, ekspert baholash, natijalarni matematik qayta ishlash (matematik-statistik metod) kabilar qo'llaniladi.

Tashxislovchi metodika – ma'lum me'yorlarga tayangan holda muayyan shaxs, shaxslar guruhi (o'quvchilar sinfi) yoki o'rganilayotgan jarayonga xos qandaydir sifat, o'ziga xos xususiyatlarni o'lchash, natijalarni o'zaro solishtirish va tasdiqlashga qaratilgan chora-tadbir.

Test metodi (ingl. “test” – sinash, tekshirish) – o'rganilayotgan shaxsning aqliy rivojlanish darajasi, qobiliyati, muayyan ish-harakat, faoliyatni bajarishga doir ko'nikma, malakalari, shaxsiy va irodaviy sifatleri, ruhiy xususiyatlari, shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfi)ga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashda qo'llaniladigan qisqa standart tekshirish yoki sinov usuli¹⁷.

Tashxislovchi texnika – pedagog yoki mutaxassis tomonidan samarali o'zlashtirilib, o'rganilayotgan shaxs (o'quvchi, tarbiyalanuvchi) yoki shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfi)ga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini amalda samarali qo'llashga imkon beradigan bilim, ko'nikma, malaka va tajribalar yig'indisi.

Me'yor (tashxislovchi me'yor) – 1) tashxislash jarayonining avvali (boshi) va yakuni (oxiri) da qo'lga kiritilgan natijalarni o'zaro solishtirish uchun xizmat qiladigan standartlashtirilgan o'lchov birliklari, ko'rsatkichlar; 2) o'rganilayotgan shaxs yoki shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfi)ga xos bo'lgan xulq-atvor, ma'lum xatti-harakatni tashkil qilish, shuningdek, ma'lum jarayonga xos xususiyatlarni tadqiq qilish uchun namuna, andoza.

Standart (davlat ta'lim standarti – DTS; ingl. “standard” – meyor, namuna) – uzluksiz ta'lim bosqichlarining asosiy ta'lim dasturlari mazmunining zaruriy minimumini, o'quvchilarga yuklanadigan o'quv yuklanmalarning maksimal hajmini, ta'lim muassasasi bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini, ta'lim jarayonini ta'minlash (uning moddiy-texnik, o'quv-laboratoriya, axborot-metodik, kadrlar taminoti)ning asosiy talablarini aniqlab beradigan meyor va talablar¹⁸. Diagnostika nazariyasida “standart” tushunchasi quyidagi uch jihatga ko'ra qo'llaniladi: 1) o'lchash, o'zaro solishtirish, tahlil qilish va baholash uchun asos bo'ladigan ko'rsatkich; 2) psixologik-pedagogik ko'rsatkich (shkala)larni shakllantirish uchun asos bo'ladigan ixtiyoriy etalon (namuna); 3) muayyan jamiyat tomonidan e'tirof qilingan ijtimoiy axloq mezon.

Talab (psixologik-pedagogik talab) – turli xatti-harakatlarni bajarish, muayyan faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy –psixologik xulq-atvor me'yorlari va

¹⁷ Педагогика. Катта изоҳли луғат / М.Усмонбоева, Ф.Асқарова. – Т.: “Сано-стандарт”, 2017. – 282-б.

¹⁸ Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 130-б.

tarbiyaviy ta'sir usuli. U ma'lum harakatlarni rag'batlantirish yoki to'xtatish, shaxsni ijobiy harakatlarga undash xarakteriga ega bo'ladi. Psixologik va pedagogik diagnostikada talab (psixologik-pedagogik talab)lar to'rtta guruhga ajratiladi. Ular: 1) nazariy xarakterga ega talab (psixologik va pedagogik ko'rsatma, yo'l-yo'riq, maslahat; o'lchov birliklari); 2) amaliy xarakterga ega talab (tashxislash jarayonida ustuvor bo'lgan omillarga tayanishni taqozo qiladigan psixologik-pedagogik talab; o'lchov birliklari); 3) ob'ektiv qonuniyatlar asosida shakllantiriladigan tashxis tamoyillari; 4) tashxislash jarayonini tashkil qilish tartibi va qoidalari.

Mezon (yun. "kriteron" – muhokama (mulohaza qilish) uchun vosita) – unga asoslangan holda baholash amalga oshiriladigan belgi; nimaningdir tavsifi yoki tasnifi; baholash o'lchovi.

Ko'rsatkich (lot. "indicator" – ko'rsatkich) – aniq ob'ektda namoyon bo'ladigan qandaydir o'lchov birligi yoki o'zgarish sifati (mezoni). Mezon, uning miqdoriy va sifat tavsifi bo'yicha ob'ektning turli holatlarini muhokama qilishga imkon beradigan o'lchov, chegara. Ko'rsatkich, odatda, o'lchanadigan mezonning tashqi jihatdan juda yaxshi farqlashga imkon beradi.

Rivojlanishni bashoratlash – dinamik xarakterga ega modelning asosiy natijasi bo'lib, uning yordamida tashxislanuvchi ob'ektning sabab-oqibatli o'zaro bog'liqligi, uning mavjud bo'lishini ta'minlovchi jarayon qonuniyatlari to'g'risidagi qarashlar tartiblanadi.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika g'oyalarini amaliyotda qo'llash didaktik va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy, metodik, tashkiliy, amaliy jihatdan to'g'ri tashkillashtirilishini ta'minlaydi. O'quvchilar tomonidan BKMning samarali o'zlashtirilishi uchun sharoit yaratadi. Qolaversa, pedagogik jarayonda muayyan kamchiliklar ko'zga tashlansa, ularni tezkor bartaraf etish, istiqbol vazifalarni oqilona belgilashga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. "Pedagogik diagnostika" tushunchasi ilk marta kim tomonidan qo'llanilgan?
2. "Pedagogik diagnostika va korreksiya"ning o'quv fanining rivojlanishiga kimlar hissa qo'shgan?
3. "Diagnostika" va "pedagogik diagnostika" tushunchalari qanday ma'noni anglatadi?
4. "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fani qanday maqsadni ko'zlaydi?
5. O'quv fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fani qanday asosiy tushuncha (kategoriya)larga ega.
7. Tashxis nima?
8. "Mezon" va "ko'rsatkich" tushunchalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nimadan iborat?

Test topshiriqlari:

1. Pedagogik diagnostika ... ning asosida shakllangan.
 - a) ijtimoiy diagnostika;
 - b) psixologik diagnostika;**
 - c) iqtisodiy diagnostika;
 - d) texnik diagnostika.

2. Psixologik diagnostika ... da shakllangan.
 - a) XIX asrning oxiri va XX asrning boshi;**
 - b) XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshi;
 - c) XVII asrning oxiri va XVIII asrning boshi;
 - d) XVI asrning oxiri va XVII asrning boshi.

3. ... “pedagogik diagnostika” tushunchasini ilk bor qo‘llagan.
 - a) German Rorshax;
 - b) Vilgelm Vundt;
 - c) Vilyam Shtern;
 - d) Karlxayns Ingenkamp.**

4. Nazariy jihatdan esa “aniqlashga qodirlik”, “aniqlashga imkon berish” ma’nolari qaysi tushuncha yordamida ifodalanadi?
 - a) tashxis (diagnoz);
 - b) tashxislash (diagnostika);**
 - c) shkala;
 - d) shkalalash.

5. Ta’lim oluvchilarning faoliyati darajasida jarayon yoki hodisani bir vaqtning o‘zida tezkor o‘rganish, baholash, yo‘naltirish va to‘g‘rilash. Ushbu ta’rif qaysi tushunchaga tegishli?
 - a) ijtimoiy diagnostika;
 - b) psixologik diagnostika;
 - c) pedagogik djiagnostika;**
 - d) texnik diagnostika.

6. Pedagogik ahamiyatga ega ma’lumotlarni aniqlash va ulardan foydalanish asosida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, tarbiyalash, o‘quv hamda kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan samarali tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish – bu “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining ...
 - a) ob’ekti;
 - b) predmeti;
 - c) vazifasi;
 - d) maqsadi;**

7. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fani ... vazifalarni hal qiladi.
 - a) besh turdagi ;
 - b) to‘rt turdagi;
 - c) uch turdagi;
 - d) ikki turdagi.**

8. Pedagogik jarayon hamda uning barcha tarkibiy elementlari – pedagog, o‘quvchi, pedagogik faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari, metodlari, vositalari, shart-sharoitlari, texnologiyalari hamda natijalari – bu “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining ...

a) ob’ekti;

b) predmeti;

c) vazifasi;

d) maqsadi;

9. Ma’lum me’yorlarga tayangan holda muayyan shaxs, shaxslar guruhi (o‘quvchilar sinfi) yoki o‘rganilayotgan jarayonga xos qandaydir sifat, o‘ziga xos xususiyatlarni o‘lchash, natijalarni o‘zaro solishtirish va tasdiqlashga qaratilgan chora-tadbir – bu ...

a) tashxislovchi tekshirish;

b) tashxislovchi metod;

c) tashxislovchi metodika;

d) tashxislovchi texnika.

10. Unga asoslangan holda baholash amalga oshiriladigan belgi – bu

a) shkala;

b) daraja;

c) ko‘rsatkich;

d) mezon.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.

2. Pedagogik diagnostika / Ma’ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Raxmatova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.

3. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.

4. Yo‘ldoshev J.G‘., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O‘quv-metod.qo‘ll. – 2014. – 96 b.

2-mavzu. O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika

Reja:

1. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining funksiyalari.
2. Pedagogik diagnostikaning asosiy turlari.
3. Pedagogik diagnostikaning o‘ziga xos jihatlari.

Tayanch tushunchalar: funksiya, “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining funksiyalari, pedagogik diagnostika turlari, faoliyat, pedagogik faoliyat, tashxislash, pedagogik faoliyatni tashxislash.

I. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining funksiyalari. Pedagogning turli pedagogik vaziyatlarda mavjud muammolarni hech bir qiyinchiliksiz, oqilona hal etishi uning yuqori darajada kasbiy kompetentlika ega bo‘lishiga bog‘liq. Qolaversa, inson resurslariga bo‘lgan ehtiyoj tobora o‘sib borayotgan hamda mehnat bozorida kuchli raqobat yuzaga kelayotgan mavjud sharoitda pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishi mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik tashxislash orqali pedagog faoliyatini aniqlashtirish, uni amaliy vazifalarni hal qilishga yo‘naltirish, pedagogning kasbiy kompetentligini takomillashtirish¹⁹, o‘quvchilarning bilim hamda tarbiyalanganlik darajasini, shuningdek, o‘quvchilar jamoasining tarbiyalovchi ta‘sirini kuchaytirish mumkin. Yu.P.Shapran bo‘lajak biolog o‘qituvchilarning kasbiy kompetentlik darajasini tashxislash masalasini bir qator kompetentliklar, xususan, qadriyatli-yo‘naltiruvchi, tabaqalashtirilgan-psixologik, strategik, autopsixologik, tashkiliy, metodik, axborotli-texnologik, fan, etimologik, salomatlikni asrash, innovatsion-ijodiy, ijtimoiy-kommunikativ va shaxsiy kompetentlik asosida o‘rgangan.

O‘z mohiyatiga ko‘ra pedagogik tashxislash pedagogik jarayonni baholash va korreksiyalash uchun tashxis ob‘ekti (pedagogning ma‘lum sifati, kasbiy malakasi, kompetensiyasi, o‘zlashtirish darajasi, tajribasi)ni belgilovchi real ko‘rsatkich va o‘zgarish an‘analari to‘g‘risidagi tezkor axborotga ega bo‘lishni taqozo etadi.


Tashxislashda eng muhim omil muddatning belgilanishidir. Ya‘ni: tashxislanadigan har qanday holat ma‘lum vaqt oralig‘idagina o‘rganiladi. Zero, ana shu vaqt oralig‘i o‘rganilayotgan holat to‘g‘risida real, ob‘ektiv ma‘lumotlarni qo‘lga kiritish imkonini beradi. Tashxislashda kuzatuv muddatlar turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, 2 soat, 1 hafta, ikki hafta, 1 oy, 6 oy, 1 yil, 3 yil yoki 5 yil.

Har qanday soha, xususan, tibbiyot va psixologiyada bo‘lgani kabi pedagogikada ham pedagogik tashxis aniq holatlar, ularning darajasini belgilovchi mezon hamda ko‘rsatkichlarga muvofiq amalga oshiriladi. L.S.Выготский shaxsning rivojlanishini tashxislashni quyidagi holatlar bo‘yicha amalga oshirishni

¹⁹ Шапран Ю.П. Диагностика профессиональной компетентности будущих учителей биологии //https://sibac.info/conf/pedagog/xxii/30254.


maqsadga muvofiq deb topadi: empirik, etimologik va topologik jihatdan, tashxis, bashorat hamda korreksiyalash (to‘g‘rilash) nuqtai nazaridan²⁰.

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fani muayyan funksiyalarni bajaradi. “Funksiya” (lot. “functio” – ijro etish, bajarish) tushunchasi nazariy jihatdan “ish-harakat yoki faoliyat doirasi”²¹ mazmunini anglatadi. O‘quv fani quyidagi sohalarida diagnostika va korreksiyalash ishlari²²ning amalga oshirilishini ta’minlaydi (2-rasm):



2-rasm. Pedagogik diagnostika olib boriladigan sohalar

funksiyalari quyidagilar ekanini ko‘rsatilgan (3-rasm):



3-rasm. Pedagogik diagnostikaning asosiy funksiyalari

1. Tezkari (qaytar) aloqa yoki axborot bilan ta’minlanganlik funksiyasi.

Ushbu funksiya o‘qituvchiga o‘quv jarayonini, o‘quvchilarning harakatlarini boshqarish, turli murakkab, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri pedagogik yechimni topishga yordam beradi. Tezkari (qaytar) aloqa yoki axborot bilan ta’minlanganlik funksiyasi pedagogik diagnostikaning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, u orqali o‘quvchilarning hayotiy maqsadlari, qiziqishlar, borliqqa bo‘lgan hamda turli ijtimoiy sub’ektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari, ruhiy holatlari, ichki

²⁰ Выготский Л.С. Диагностика развития и педологическая клиника трудного детства // Собрание сочинений: в 6 т. Т. 5. - М.: Наука, 1983. – С. 257-321.

²¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тартибот – Шукр / 5 жилдли. Тўртинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир хайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 367-б.

²² Аванесов В.С. Определение, предмет и основные функции педагогической диагностики // http://www.ucheba.com/ur_rus/k_metodkopilka/avanesov.htm.

kechinmalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'linadi. O'quvchilarning turli vaziyatlar (tengdoshlari bilan o'ynash, sayr, ta'lim jarayoni hamda bo'sh vaqtlar)da o'zlarini namoyon qilishlari pedagog tomonidan o'rganilib, sodir bo'lgan holatlarga nisbatan munosabat bildiriladi.

Mazkur funktsiya o'qituvchiga har bir o'quvchi va o'quvchilar guruhining o'ziga xos xususiyatlarini, qiziqishlari, mayllari, muammolari, hayotiy intilishlari, maqsadlari va tajribalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. O'quvchilarning muammo va yutuqlari haqidagi aniq ma'lumotlar ularning har biri uchun alohida, individual pedagogik yondashuvni belgilash, o'quv materiallarini taqdim etish imkoniyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga o'qitish jarayonini o'ta murakkablashtirib borilishining oldini oladi.

2. Bashoratlash funktsiyasi tashxislanayotgan ob'ektning rivojlanish istiqbollari aniqlashni nazarda tutadi. Ushbu funktsiya o'qituvchiga ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanilayotgan vositalar, yaratilgan shart-sharoitlar, pedagogik faoliyat natijalari o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash orqali pedagogik jarayonning istiqbolli rivojlanishini belgilashga qaratilgan choralarni ishlab chiqish imkonini beradi. O'qituvchining diagnostik faoliyati nafaqat o'quvchilarning ahvolini aniqlash va baholashga, balki ularning rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, shart-sharoitlarni aniqlashga ham yo'naltirilgan. Bashoratlash funktsiyasi pedagogik tadqiqotlarda yanada samarali qo'llaniladi.

3. Nazorat va tuzatish funktsiyasi o'qituvchiga o'quvchilar ta'lim va tarbiya jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf qilish orqali pedagogik jarayonni boshqarish, shuningdek, ta'limning rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan o'qitish samaradorligini oshirishda foydalanishga yordam beradi. Mazkur funktsiya ekspert baholash asosida amalga oshiriladi hamda tashxislanayotgan ob'ektning muayyan standart, me'yor yoki modelga egaligini nazarda tutadi.

4. Baholash funktsiyasi qo'lga kiritilgan pedagogik mezon va ko'rsatkichlar bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi. Mazkur funktsiya amalga oshirish o'rganilayotgan pedagogik ob'ektning har bir aniq belgilangan vaqtdagi o'zgarishi darajasini belgilash va bu o'zgarishlarning o'qituvchining harakatlariga bog'liqligini ifodalaydi. Baholash funktsiyasi har bir o'qituvchi faoliyatini sifat va miqdor jihatdan baholanilishiga xizmat qiladi. Pedagogik diagnostikada ilmiy-pedagogik tajriba sifatida amalga oshiriladigan baholash funktsiyasi qo'lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish, xolis ravishda qiymatini belgilash imkoniyatini yaratadi²³.


II. Pedagogik diagnostikaning asosiy turlari. Har bir faoliyatning jamiyat uchun ijtimoiy, sub'ekt uchun shaxsiy ahamiyati, qiymati uning qay darajada samarali bo'lgani, muayyan natijalarni kafolatlay olgani bilan belgilanadi. Shu sababli qaysi sohada bo'lishidan qat'i nazar faoliyat samaradorligini aniqlash

²³ Полякова М.Н. Зачем нужна педагогическая диагностика? // <https://nsportal.ru/vuz/pedagogicheskie-nauki/library/2018/05/05/zachem-nuzhna-pedagogicheskaya-diagnostika>.

uchun u erishilgan natija – aniq ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilinadi. Tahlil natijasiga ko‘ra faoliyatning samarali bo‘lgani to‘g‘risidagi xulosaga kelinadi. Faoliyat samaradorligini aniqlash bir necha yo‘l, metod yoki usullar bilan aniqlanadi. Pedagogik diagnostika bu boradagi mavjud yo‘l, meod va usullarni o‘zida to‘la qamrab olgan faoliyat shakli hamda alohida mustaqil soha sanaladi.

Ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan pedagogik diagnostika yaxlit jarayon bo‘lib, u o‘z ichiga bir nechta turdagi diagnostik faoliyatni qamrab oladi.

Manbalarda pedagogik diagnostikaning bir nechta turi mavjudligi ko‘rsatiladi. Ular quyidagilardir (4-rasm):



4-rasm. Pedagogik diagnostikaning asosiy turlari

Asosiy diagnostikani o‘tkazishning asosiy usuli – bir qator boshqa usullar bilan to‘ldirilgan ishtirokchi kuzatuv usuli sanaladi. Bu turdagi tashxis yiliga ikki marta

o‘tkaziladi va sinfdagi barcha o‘quvchilarni qamrab oladi.

Mohiyatiga ko‘ra *asosiy boshlang‘ich diagnostika* o‘quvchining joriy vaqtgacha erishgan yutuqlari, shuningdek, rivojlanishdagi muammolari aniqlanadi. Mavjud muammolarni hal qilish uchun o‘quvchiga o‘qituvchi, ota-onalar yoki mutaxassisning yordami zarur. Asosiy boshlang‘ich diagnostika asosida o‘qituvchi psixolog va mutaxassis o‘qituvchilar bilan birgalikda o‘quvchining shaxs sifatida rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlaydi.

Shu bilan birga uning o‘quv faoliyatida hamda shaxs sifatida shakllanishida yutuqlarga erishishi uchun kattalarning kasbiy yordami yoki hayotiy tajribasiga asoslangan maslahatlari kerak. Asosiy boshlang‘ich diagnostika orqali pedagogik yordamga muhtoj o‘quvchilar uchun individual ish rejasi ishlab chiqiladi. Rejada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar, shuningdek, o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga imkon beradigan bir yillik ta’lim yo‘nalishi belgilanadi.


O‘quv yili oxirida o‘tkaziladigan *asosiy yakuniy diagnostikaning* natijalariga ko‘ra o‘qituvchining oldiga qo‘yilgan pedagogik vazifalarning hal qilinish darajasi tahlil qilinib, baholanadi. Qolaversa, pedagogik jarayonni

loyihalashtirishning yanada istiqboli yo‘nalishlari, jarayonga samarali ta‘sir ko‘rsatadigan juda ko‘plab omillar belgilanadi, pedagogik jamoatchilikning tarbiyaviy ta‘sir imkoniyatlari aniqlanadi.

Oraliq diagnostika sinfning barcha o‘quvchilari uchun emas, balki ular orasidan tanlab olingan – rivojlanishida jiddiy muammolari bo‘lgan o‘quvchilar bilan amalga oshiriladi. Bu jarayonda pedagogik diagnostika usullari sifatida kuzatish va bolalar uchun oddiy test topshiriqlaridan foydalanish mumkin. Oraliq pedagogik diagnostikaning maqsadi bolaga nisbatan tanlangan ta‘lim strategiyasining to‘g‘riligini baholash, rivojlanish dinamikasini aniqlashdir. Ushbu turdagi diagnostika natijalariga ko‘ra, agar zarur bo‘lsa, pedagog, psixolog va boshqa mutaxassis o‘qituvchilar pedagogik jarayon mazmuniga tuzatish, o‘zgaritirishlar kiritishlari mumkin.

Tezkor diagnostika favqulotda muammolarni hal qilish sifatini baholashga qaratilgan. U tarbiyaviy ish doirasida kerak bo‘lganda amalga oshiriladi, murakkab vositalarni talab qilmaydi va tarbiyachiga bolalar bilan muloqot qilishning to‘g‘ri taktikasini tanlashda yordam beradi. Tezkor diagnostikaning asosiy shakllari diagnostika darsi, oddiy eksperimental vaziyat, suhbat va boshqalar bo‘lishi mumkin.

III. Pedagogik diagnostika va korreksiyaning o‘ziga xos jihatlari. Har qanday jarayonda bo‘lgani kabi pedagogik diagnostikada ham o‘ziga xususiyatlar, uningaga xos bo‘lgan jihatlari ko‘zga tashlanadi. Diagnostik faoliyatda quyidagi ustuvor jihatlarni ajratish mumkin (5-rasm):



5-rasm. Pedagogik diagnostikaning ustuvor jihatlari

o‘qituvchi o‘quvchining xulq-atvorini kuzatib, uning xatti-harakatlarini avvalgi xatti-harakatlari bilan yoki hozirgi yoki avvalgi, shuningdek, boshqa o‘quvchilarning xatti-harakatlari bilan yoki bo‘lmasa, mutlaqo notanish o‘quvchining xatti-harakatlari bilan solishtiradi. Bu holat pedagogik diagnostikada individual, ijtimoiy yoki ob‘ektiv korrelyasion me‘yor deb ataladi.

2. Tahlil qilishda kuzatishning qiyosiy tasnifidan chetga chiqiladi. Bunda quyidagi savollarga javob topiladi: 1. Nima uchun o‘quvchining muayyan yosh davridagi xulq-atvori avvalgi xatti-harakatlaridan, sinfdoshlarining xatti-harakatlaridan farq qiladi? Nima sababdan ayrim o‘quvchilarning xulq-atvorida “og‘ishlar” kuzatiladi? Tahlil qilish orqali o‘quvchining tashxislanayotgan sifati, holatidagi ijobiy va salbiy ko‘rinishlarning sabablari o‘rganiladi, aniqlanadi hamda uni korreksiyalash choralari ishlab chiqiladi. O‘quvchi bilan individual ishlash ish rejasi tuziladi.

3. Izohlash (talqin qilish) tashxislash natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va ular asosida ma'lum xulosaga kelish jarayoni holatni izohlash yoki talqin qilish deyiladi. Rivojlanish prognozini tayyorlash va pedagogik qarorni qabul qilish xulosaga tayangan holda holatning izohlanishi (talqin qilinishi)ga bog'liq. Izohlash (talqin qilish) to'plangan ma'lumotlar aniq bo'lganidagina amalga oshiriladi. Tashxis jarayonida faqat bir nafar o'qituvchining shaxsiy kuzatuvlari asosida to'plangan ma'lumotlarga emas, balki boshqa fan o'qituvchilari hamda mutaxassislarning o'rganishlari orqali ega bo'lingan qo'shimcha dalillar ham tahlil qilinadi. O'qituvchi yoki o'qituvchi (mutaxassis)lar ega bo'lgan ma'lumotlar ob'ektiv va sub'ektiv yondashuv, samarali usullar yordamida har tomonlama sinchiklab o'rganiladi, tahlil qilinadi. Binobarin, shundagina, xulosaning xolis, to'g'ri bo'lishiga erishiladi.

4. Bashoratlash. Pedagogik diagnostikada o'qituvchi o'quvchining turli vaziyatlarda yoki muayyan muddat (1, 2, 3 va hokazo yil)dan keyin o'zini tutishi, muomalasi, atrofdegilar bilan munosabatiga oid ma'lumotlar doimiy ravishda ekstrapolyasiya qiladi (ob'ekt yoki jarayonining bir qismini kuzatish asosida chiqarilgan xulosani boshqa tarkibiy elementlarga teng taqsimlaydi). Tashxis natijasida olingan ma'lumotlar, ular asosida tuzilgan xulosalarga tayangan holda o'qituvchi o'quvchining har xil vaziyatlardagi harakatlarining istiqbolini belgilash (bashoratlash) imkoniyatiga ega bo'ladi. Bashoratlash o'quvchiga nima uchun va qanday pedagogik yordam zarurligini tushunishga yordam beradi.

8. Qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish. Pedagogik diagnostikaning zamonaviy muammolari juda ko'p va xilma-xildir. Bu holat turli sabablar bilan izohlanadi. Ya'ni: pedagogik diagnostikaning ilmiy-metodologik asosi nazariy jihatdan hali yetarli darajada asoslanmagan; pedagogik diagnostikani amalga oshirishga bo'lgan talabning xilma-xil mazmunga egaligi (ilmiy-pedagogik ekspertiza, tadqiqot faoliyati, o'quv amaliyoti); diagnostik masalalarni hal qilishga differensial (tabaqaviy) yondashuvning talab qilinishi (sabab – pedagogik diagnostika maqsadining turlicha ekanidir).

Zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika vositalarini o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlay oladigan darajada takomillashtirish talab qilinadi. Qolaversa, har bir o'quvchining muammo va yutuqlariga tayangan holda uni rivojlantirish traektoriyasini oqilona belgilash maqsadga muvofiqdir. Bunda, eng muhimi, pedagogik diagnostika jarayoni bosqichlari to'g'ri belgilash va ularni izchil tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Demak, zamonaviy sharoitda har bir o'qituvchi har o'qituvchi pedagogik diagnostika asoslarini puxta bilishi, bu boradagi mavjud bilimlaridan ta'lim va tarbiya jarayonida samarali foydalana olishi zarur. Zero, shunda pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlash va o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan shaxs etib tarbiyalashga erishiladi.

Nazorat savollari:

1. "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fani qanday funksiyalarni bajaradi?
2. Pedagogik diagnostikaning qanday turlari mavjud?

3. Asosiy diagnostika qachon va nima maqsadda amalga oshiriladi?
4. Tezkor diagnostika pedagogik diagnostikaning boshqa turlaridan qaysi jihatiga ko‘ra farqlanadi?
5. Pedagogik diagnostikaning o‘ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
6. Pedagogik faoliyatni tashxislash qanday ahamiyatga ega?
7. Tashkiliy-metodik tashxislash nima?
8. Attestatsion tashxislashning muhim xususiyati nimadan iborat?

Test topshiriqlari:

1. Tashxislashda kuzatuv muddati eng uzog‘i bilan ... yilgacha belgilanadi?
 - a) 3;
 - b) 5;**
 - c) 7;
 - d) 10.

2. Nazariy jihatdan “ish-harakat yoki faoliyat doirasi” mazmunini anglatadigan tushuncha – bu ...
 - a) konsepsiya;
 - b) monitoring;
 - c) funksiya;**
 - d) korreksiya.

3. Tarbiya, ta’lim va o‘qitish. Ular – pedagogik diagnostika amalga oshiriladigan asosiy ...
 - a) vazifalar;
 - b) sohalar;**
 - c) yo‘nalishlar;
 - d) faoliyat turlari.

4. Tezkari (qaytar) aloqa yoki axborot bilan ta’minlanganlik, bashoratlash, nazorat-tuzatish, baholash – bular “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining asosiy ...
 - a) funksiyalari;**
 - b) yo‘nalishlari;
 - c) turlari;
 - d) vazifalari.

5. Asosiy (asosiy boshlang‘ich va yakuniy) diagnostika; oraliq diagnostika, tezkor diagnostika – bular pedagogik diagnostikaning asosiy ...
 - a) funksiyalari;
 - b) yo‘nalishlari;
 - c) turlari;**
 - d) vazifalari.

6. Tashxislanayotgan ob’ektning haqiqiy holatini, uning o‘ziga xos xususiyatlarini va rivojlanish an’analarini aniqlash muammosini hal qiladigan diagnostika – bu ...

- a) tezkor diagnostika;
- b) oraliq diagnostika;
- c) asosiy diagnostika;**
- d) eksterimal diagnostika.

7. Favqulotda muammolarni hal qilish maqsadida tashkil etiladigan diagnostika – bu ...

- a) tezkor diagnostika;**
- b) oraliq diagnostika;
- c) asosiy diagnostika;
- d) eksterimal diagnostika.

8. Barcha o‘quvchilari uchun emas, balki ular orasidan tanlab olingan – rivojlanishida jiddiy muammolari bo‘lgan o‘quvchilar bilan amalga oshiriladigan diagnostika – bu

- a) tezkor diagnostika;
- b) oraliq diagnostika;**
- c) asosiy diagnostika;
- d) eksterimal diagnostika.

9. Taqqoslash, tahlil qilish, izohlash (talqin qilish), baholash hamda qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish – bu pedagogik diagnostikaning ...

- a) muhim omillari;
- b) o‘ziga xos jihatlari;**
- c) asosiy vazifalari;
- d) zarur talablari.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.

2. Pedagogik diagnostika / Ma’ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Rahmatova. –

Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.

3. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.

4. Yo‘ldoshev J.G‘., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O‘quv-metod.qo‘ll. – 2014. – 96 b.

3-mavzu. Pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq qilish tamoyillari va darajalari

Reja:

1. Pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq qilish tamoyillari.
2. Pedagogik diagnostika darajalari va bosqichlari.
3. Pedagogik faoliyatni tashxislash.
4. Pedagogik faoliyatni tashxislashning metodik jihatlari.

Tayanch tushunchalar: tamoyil, daraja, bosqich, pedagogik diagnostika tamoyillari, pedagogik diagnostika darajalari, pedagogik diagnostika bosqichlari, pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyatni tashxislash.

Ma'lumki, u qanday tur yoki shaklda bo'lishidan qat'i nazar faoliyatning samarali kechishida uning muayyan tamoyillarga muvofiq amalga oshirilishi ahamiyatli sanaladi. Shu sababli malaka oshirish kurslarida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini tashxislash va baholashga qaratilgan faoliyatni tashkil etishda ham ustuvor tamoyillarni belgilashga e'tibor qaratildi.

“Tamoyil” (lot. “principium” – boshlang‘ich) tushunchasi nazariy jihatdan muayyan ta’limot, nazariya, fan yoki qarashlarning asosiy, boshlang‘ich holati degan ma’noni anglatadi.

Berilgan ta’rifga tayangan holda “pedagogik diagnostika tamoyillari” tushunchasining mazmunini izohlash mumkin.


***Pedagogik diagnostika tamoyillari** – pedagogik diagnostikaning mazmuni, maqsadi, ijtimoiy-didaktik, tarbiyaviy ahamiyati, qonuniyatlari, o‘ziga xos xususiyatlari, uni qo‘llash shartlarining mohiyatini yorituvchi yetakchi, asosiy g‘oyalar.*

Quyidagi tamoyillar “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining ustuvor tamoyillari²⁴ sanaladi (6-rasm).

1. Maqsadning aniqligi. Tashxislash jarayonida maqsadning aniqligi o‘quvchilar duch kelayotgan qiyinchiliklarni aniqlash, muayyan sifatlarga egalik darajasini belgilash hamda kutilgan natijalarni bashoratlash imkoniyatini ta’minlaydi.

2. Tashxis jarayonining yaxlit o‘rganilishi. Ob’ekt yoki sub’ektni tashxislashga qaratilgan jarayonning yaxlit tashkil etilishi o‘qituvchi ega bo‘lgan ma’lumotlarni har tomonlama tahlil qilish, tashxis va baholashda barcha omillar, tarkibiy qismlarni, ularning o‘zaro aloqadorligini inobatga olinishini ta’minlaydi.

²⁴ Инназаров М.А. Малака ошириш тизимида педагог кадрлар касбий компетентлигини ташхислаш ва баҳолаш технологиялари: пед.фанл.бўйича PhD ...дис. – Т.: 2020. – 50-52-б.



6-rasm. Pedagogik diagnostikaning ustuvor tamoyillari

3. Tashxis muddatining aniq belgilanishi. Pedagogik jarayonda tashxis muddatlarini to'g'ri, oqilona belgilash va ularning aniqligiga erishish olingan natijalarning ishonchli, haqqoniy bo'lishiga yordam beradi. Qolaversa, o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishgan yoki erishmaganligini aniq belgilanishini ta'minlaydi. Tashxis muddatining aniqligi natijalarni haqqoniy va ishonch bo'lishiga yordam beradi.

4. Tashxis jarayonining izchilligi va davomiyligi. Pedagogik jarayonining izchil, davomiy bo'lishi bilim, ko'nikma, malaka va kompetentlik sifatlarini o'zlashtirishda o'quvchilar duch kelayotgan to'siq va muammolarni aniqlash, ularni bosqichma-bosqich bartaraf etib borish imkonini beradi.

5. Shaxsiy xususiyatlarni inobatga olish va ko'p omillik. Pedagogik tashxislashda o'rganilayotgan sub'ekt (o'quvchi, o'quvchilar sinfi) yoki ob'ektga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarga tayanib ish ko'rish, ularni sinchiklab, puxta o'rganish, tahlil qilish zarurligini anglatadi. Ko'p omillik esa tashxislanayotgan o'quvchini shaxs sifatida rivojlantirish yoki jarayon (ta'lim, tarbiya jarayoni)ning sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash, tizimlashtirish, o'quvchilarning mavjud bilim, ko'nikma va malakalari darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarning asosli, to'g'ri bo'lishiga yordam beradi.

6. Tashxis metodikasining amaliyotga mosligi. Pedagogik, psixologik jarayonlarda metodikaning shakllantirilishi va uning amaliy qiymatga ega bo'lishi tashxislashning samarali bo'lganligidan dalolat beradi. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashxis metodikasining amaliyotga mos kelishiga e'tibor qaratish to'g'ridir.

7. Tashxis shakli, metodi, vosita va texnologiyalarning o'zaro birligi.


Ma'lumki, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarda faoliyat muayyan shakl, metod, vosita va texnologiyalar yordamida tashkil etiladi. Kutilgan natijani qo'lga kiritishda ularning to'g'ri tanlanganligi muhim bo'lsa, ular o'rtasida o'zaro birlikni qaror toptirish ham shunchalik muhimdir.

8. Tashxis texnologiyasining maqsadga muvofiqligi. Texnologik yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra faoliyatni muayyan izchillikda, tizimli, uzluksiz amalga oshirilishini tavsiflaydi. Pedagogik tashxis jarayonining texnologiyalashtirilishi bosqichli harakatlarning og'ishmay, bir maromda tashkil etilishiga olib keladi.

9. Tashxis natijalarining ishonchliligi va ularning xolis baholanishi. O'quvchilarning mavjud bilim, ko'nikma va malakalari darajasini ko'rsatuvchi natijalarning haqqoniy va ishonchli bo'lishi uchun tashxislanuvchilarning tajriba hamda nazorat guruhlariga ajratilishi, barcha tashxislanuvchilarning anketa, test topshiriqlariga bevosita va xolis javob berishlari, amaliy, ijodiy topshiriqni bajarishda belgilangan vaqt reglamentiga rioya qilishlari maqsadga muvofiqdir. Binobarin, tashxis natijalarining haqqoniy va ishonchli bo'lishi istiqbol vazifalarini belgilashga, korreksion ishlarni tashkil etishga imkon beradi.

10. Natijalarning maqsadga muvofiqligi. Tashxislash natijalari qo'yilgan maqsadning xarakteriga mos bo'lishi, o'rganilayotgan holatni ifodalay olishi zarur. Bordi-yu, olingan natijalar maqsad negizida ko'zda tutilgan holatlarni yoritma olmasa, u holda tashxislash jarayonini noto'g'ri tashkil etilgan, degan xulosaga kelinadi.

2. Pedagogik diagnostika darajalari va bosqichlari. Qaysi sohada bo'lishidan qat'i nazar diagnostika natijalari turli darajalarda namoyon bo'ladi. Pedagogik diagnostikaning asosiy darajalari quyidagilardir (7-rasm):



7-pacm. Pedagogik diagnostikaning asosiy darajalari

Birinchi daraja. Komponentlar holatini o'rganuvchi diagnostika. Ob'ektdagi alohida komponentlarni ajratish va ularning ayrimlariga xos xususiyatlarni olish uchun komponentlar diagnostikasi o'tkaziladi. Bu diagnostikaning boshlang'ich darajasi hisoblanadi. Natijalar istiqbolni belgilashda u qadar samarali bo'lmaydi va ishonchlilik darajasi nisbatan past.


Ikkinchi daraja. Tuzilma holatini o'rganuvchi diagnostika. Tashxisning bu darajasida jarayonning tuzilishi aniqlanadi. Shuningdek, komponentalar orasida muayyan aloqalar o'rnatiladi. Tizimli diagnostika vositasida pedagogik

jarayonning individual komponentlari orasidagi turli darajadagi qaramlik aniqlanadi. Bu turdagi diagnostika natijalariga tayangan holda ta'lim jarayonining individual komponentlari o'rtasida mavjud bo'lgan turli darajadagi bog'liqlik ochib beriladi. Tizimli diagnostika natijalari amaliyotdagi holatni bir qadar ishonchli ifodalaydi.

Uchinchi daraja. Tizim holatini o'rganadigan diagnostika. Bu darajadagi diagnostika pedagogik jarayonning yaxlit tizimli hodisa sifatida individual jihatlarining vazifalarini, shuningdek, bu jarayonning rivojlanishini aniqlash imkonini beradi. Ushbu diagnostika darajasi eng to'liq hisoblanadi. Tizim holatini o'rganuvchi diagnostika yordamida alohida komponentlar orasidagi o'zaro aloqalarning to'liq tavsiri o'rganiladi. Tizim tarkibiy elementlarining muayyan vazifani bajarishdagi ishtiroki, ularning o'zaro munosabatlari tahlil qilinadi. Mazkur diagnostika maqsadni qabul qilishdan toki yakuniy natijaga erishishgacha bo'lgan pedagogik vaziyatlar zanjirining rivojlanish tarixini ob'ektiv o'rganishga imkon beradi.

Pedagogik faoliyatda rejalashtirish, tashkil etish, nazorat, tahlil hamda korreksiyalash g'oyalarining yetakchiligiga asoslangan holda o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari darajasini kutilgan natijani qo'lga kiritishga yordam beradi. Bunda tashxislashning muhim bosqichlarini inobatga olish lozim

N.V.Kuzmina²⁵ o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi misolida pedagogik tashxisni quyidagi izchillikka muvofiq – bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi (8-rasm):



8-rasm. Pedagogik diagnostikaning asosiy bosqichlari

Tashxislash jarayonida pedagogik diagnostikaning asosiy bosqichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikning ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega. Bosqichlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikning ta'minlanishi tashlovchi pedagogik faoliyatni metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yish hamda ishonchli natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi.

IV. Pedagogik faoliyatni tashxislash²⁶. L.V.Grebennikova²⁷ ning qayd etishicha, o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish orqali tashxislash u tomonidan tashkil etilayotgan kasbiy mehnat bilan uning natijasi o'rtasidagi farq (ta'lim oluvchilarning aqliy, madaniy rivojlanishi, zakovati, nazariyaning amaliyot bilan bog'lay olish ko'nikma, malakalariga egaliklari)ni ko'rish, o'qituvchi mehnatida zamonaviy hamda ana'aviy yondashuvlarni ongli ravishda o'zaro uyg'unlashganligini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Qaysi soha bo'lishidan qat'i nazar tashxislash murakkab jarayon sanaladi. Binobarin, bu jarayonda barcha omillarni inobatga olish, qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni har tomonlama tahlil qilish, natijalarni xolis baholash tlab etiladi. Bordi-yu, tashxis jarayonida bu talablardan biri inobatga olinmasa, u holda pedagogning faoliyati, qolaversa, unga bog'liq ravishda o'quv-tarbiya ishlarining samaradorligi ham real baholanmaydi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni mustaqil ravishda tahlil qilib, baholab borish malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlashga erishish zarur. Pedagoglarning kasbiy kompetentlikka egalikni mustaqil tahlil va baholash ko'nikmalariga egaliklari o'z ustida ishlashlari, kamchiliklarni izchil bartaraf etish, yutuqlarni muntazam ravishda boyitib borishga odatlanishlariga yordam beradi.

Pedagogik mehnatni tashxislashda quyidagi talabalarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega: an'anaviy metodlarni qo'llagan holda mavjud kasbiy tajribadan oqilona foydalanish; o'quv faoliyatining ilg'or metod va usullarni o'zlashtirish; ularni o'z vaqtida o'quv materialining mazmuni bilan bog'lay olish; o'z-o'zini tahlil va baholash orqali tegishli o'quv fanini samarali o'qitishda qayta aloqani ta'minlash²⁸.

M.E.Inkov²⁹ning qayd etishicha, pedagoglarning kasbiy kompetentligini tashxislashda quyidagi pedagogik tamoyillar inobatga olinganda samarali kechadi: konseptuallik, metodologik, tashxislash, tashkiliy-boshqaruv.

²⁶ Ушбу параграф М.А.Инназаровнинг тадқиқоти асосида тайёрланди.

²⁷ Гребенникова Л.В. Диагностика профессиональной компетентности учителя // <https://kopilkaurokov.ru/zavuchu/planirovanie/diagnostika-professional-noi-kompietientnosti-uchitielia>.

²⁸ Гребенникова Л.В. Диагностика профессиональной компетентности учителя // <https://kopilkaurokov.ru/zavuchu/planirovanie/diagnostika-professional-noi-kompietientnosti-uchitielia>.

²⁹ Иньков М.Е. Диагностика профессиональной компетентности учителя в условиях повышения квалификации: Автореф....канд.пед.наук. – Ростов-на-Дону: 2009. – 25-с.

Kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni attestatsiya shaklidagi tashxislash o'quv-tarbiya jarayonining sifatini aniqlovchi pedagogik monitoring tizimining tarkibiy bo'g'ini bo'lib, mustaqil, avtonom xarakterga ega³⁰.

M.E.Inkov muammoni tizimli ravishda o'rganar ekan, dastlab e'tiborni kasbiy kompetensiyalarni tashxislash mazmunini yoritishda ustuvor xarakter kasb etuvchi tayanch tushunchalarni sharhlashga qaratadi. Muallif kasbiy kompetensiyalarni tashxislash quyidagi tayanch tushunchalar orqali ifodalanadi: boshqaruv-pedagogik tashxislash; tashkiliy-metodik tashxislash, tezkor tashxislash. M.E.Inkovning ishida mazmunan mazkur tushunchalar quyidagicha yoritilgan:

***Boshqaruv xarakteridagi pedagogik tashxislash** – o'quv-tarbiya jarayonining didaktik va metodik imkoniyatini, pedagoglar va o'quv muassasalari rahbarlarining kasbiy malakasini pedagogik tashxislashning funksional hamda tuzilmaviy jihatdan o'zaro bog'langan tarkibiy qismlarining mazmuni.*

***Tashkiliy-metodik tashxislash** – o'qituvchilarning metodik kompetentligi va kasbiy tayyorgarligini, pedagogik jarayonni tashkil etishning o'ziga xosligini pedagogik tashxislashning funksional va tuzilmaviy jihatdan o'zaro bog'langan tarkibiy qismlarining mazmuni.*

***Attestatsion tashxislash** – ta'lim sifatini boshqarishga qaratilgan umumiy tizimda o'qituvchilar faoliyatini kompleks ekspert baholash xususiy hodisa bo'lib, o'qitishning tegishli sohasida pedagogik faoliyatni tegishli muassasa ustavi, davlat ta'lim standartlari, mahalliy va xalqaro tajribalarga muvofiq kelishini anglatuvchi qobiliyati sifatida e'tirof etilishini ta'minlaydi.*

***Tezkor tashxislash** – o'qituvchi faoliyatini mezonlarning eng quyi darajasini ifodalovchi tizimda pedagogik tizimni boshqarishni takomillashtirish uchun qarama-qarshiliklar, muammoli muhit va tayanch, dastlabki muammolarni aniqlovchi tezkor tashxisli tahlil³¹.*

Pedagogik tashxislashning umumiy belgilari quyidagilar sanaladi³²:

tashxis ob'ektining pedagogik tizimga uning tarkibiy elementi yoki bevosita ta'sir etuvchi omil (faol va bevosita ta'sir etuvchi bir qadar yuqori darajadagi tizim elementi) sifatida kiritilganligi;

tezkor boshqaruv jarayonida uni rivojlantirish va to'g'rilash imkonini ta'minlovchi taxshislanuvchi ob'ekt, pedagogik bashoratlash (yoyilgan yoki yig'ilgan) holatini pedagogik baholash maqsadining mavjudligi;

tashxislashning tizimligi va takroriyligi kasbiy-pedagogik faoliyat sifatida ta'lim-tarbiya jarayonining muayyan bosqichlaridagi tipik vaziyatlar (masalan, mavzuni, kursni o'rganishning boshi yoki oxirida, keyingi sinf (bosqich)ga o'tishda; og'ish belgi (simptom)lari ko'zga tashlanganda; belgilangan rejaga muvofiq kelishida va boshqalar)da amalga oshirilishi;

³⁰ Тот источник. – С. 10.

³¹ Тот источник. – С. 10-11.

³² Пермяков О.Е., Менькова С.В. Диагностика формирования профессиональных компетенций. – М.: ФИРО, 2010. – С. 33.

metodik, maxsus ishlab chiqilgan yoki aniq vaziyatlar, sharoitlardagi (jumladan, etnomadniy, mahalliy) ma'lumotlarga moslashligi;

ularni tashkil etishda bajariladigan ish tartibining oddiy o'qituvchi, amaliyotchi yoki ta'lim muassasasining rahbari uchun mos kelishi³³.

Tashxislash quyidagi vosita va jihozlar yordamida amalga oshiriladi:

pedagogik kompetentlikka xos rivojlanish belgilarning namoyon bo'lishini

aniqlash maqsadida tashkil etiladigan belgilangan, tayanch (belgilarni qayd etuvchi)

tashxislash metodikasi;

o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi hamda u ega bo'lgan tayanch kompetensiyalarga oid bir-biriga zid ma'lumotlar mavjud bo'lganda tashkil etiladigan chuqurlashgan (etimologik) tashxislash;

kasbiy kompetensiyalarning rivojlanish imkoniyatlarini bashoratlash hamda tuzatuvchi (korreksion) chora-tadbirlarni aniqlash uchun kompleks darajaviy (tipologik) baholashda foydalaniladigan metodikalar³⁴.

M.E.Inkov kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni tashxislashning tizimli modelini taklif etgan. Uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

a) tegishli fan sohasi bo'yicha ega bo'lingan maxsus va kasbiy kompetentlik;

b) o'quvchilarda bilim, ko'nikmalarni shakllantirish usullarini o'zlashtirishga oid metodik kompetentlik;

v) o'zaro muloqot jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-psixologik kompetentlik;

g) o'quvchilarning o'quv-bilish motivlari, qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan tabaqalashtirilgan-psixologik kompetentlik;

d) shaxsning individual faoliyatidagi yutuqlar va kamchiliklarni baholashga doir autopsixologik kompetentlik³⁵.

Mazkur tarkibiy tuzilmalar kasbiy-pedagogik faoliyatning quyidagi jihatlarini tizimlashtirishga imkon beradi: axborotli-nazariy; tezkor-amaliy; tashxisli-vaziyatli; tahliliy-yakuniy.

O'qituvchi faoliyatini tashxislash muayyan bosqichlarda kechadi. Har bir bosqichda aniq vazifalar bajarilishi, ularning bajarilish holati yuzasidan hisobot tayyorlanadi. Tashxislash vositasi xarita, sxema, shkala va hokazolar bo'lishi mumkin.

L.V.Grebennikovaning ishlarida o'qituvchilar faoliyatini baholash mezonlari sifatida quyidagilar e'tirof etilgan:

tegishli o'quv fani bo'yicha chuqur bilimga egalik;

pedagogika, psixologiya, bolalar va yosh fiziologiyasi asoslarini bilish;

o'qitish metodikasini o'zlashtirganlik darajasi;

kasbiy va ilg'or tajribalar, metodik navatorlik, shaxsiy innovatsion ishlanmalardan foydalanish malakasiga egalik;

³³ Тот источник. – С. 33.

³⁴ Иньков М.Е. Диагностика профессиональной компетентности учителя в условиях повышения квалификации: Автореф....канд.пед.наук. – Ростов-на-Дону: 2009. – С. 11.

³⁵ Тот источник. – С. 11.12.

shaxsiy kasbiy sifatlar (ijodkorlik, improvizatsiya qila olish, individual ijodiy izlanish, favqulodda topqirlik, kommunikativlik, insoniylik, demokratizm, tashkilotchilik kabi qobiliyatlarga egalik);

ta'limning natijasi uchun mas'ullik;

hamkasblarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish³⁶.

IV. Pedagogik faoliyatni tashxislashning metodik jihatlari. Bugungi kunda

ta'lim muassasalarida o'qituvchining kasbiy faoliyatini tashxislashda quyidagi metod, vosita va jihozlaridan foydalanilmoqda: darsni kuzatish; portfolio; ta'lim oluvchilarning yutuqlari; testlar; anketalar.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tashxislash quyidagilar asosida amalga oshiriladi: pedagogning kasbiy faoliyatda erishgan yutuqlari to'g'risida ma'lumot beruvchi portfolio (malaka oshirish kurslarida tahsil olganlik, turli ko'rik va tanlovlarda ishtirok etganlikka oid ma'lumotlar asosida); o'quvchilarning tegishli fan bo'yicha erishgan natijaviy (fan olimpiadalari, o'zlashtirish) ko'rsatkichlari; attestatsion diagnostika natijalari (bosma hamda elektron shakllarda o'quv materiallarini tayyorlash, o'quvchilarni fan olimpiadalari, turli tanlovlarga tayyorlash, OAVda ish tajribasini ommalashtirish va boshqalar asosida).

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy kompetentligini tashxislash texnologiyalarini takomillashtirish muammosi doirasida tashkil etilgan oid ta'limiy tajribaning "yadrosi"ni maxsus metodikaning mazmunini yorituvchi axborotli-didaktik ta'minot tashkil etdi.

J.E.Sarsekeeva³⁷ o'quv fani misolida "axborotli-didaktik ta'minot" tushunchasini shunday ta'riflaydi: o'quv fanining axborotli-didaktik ta'minoti – muayyan o'quv fani yoki o'quv fanlari u o'quv-metodik majmua bo'lib, u tamoyillar tizimi asosida shakllantiriladi. Mazkur majmua o'zida didaktik maqsadlar va tarbiya, ta'lim va rivojlanish vazifalarini, pedagogika, psixologiya, ergonomika, informatika va boshqa fanlarning talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqilib, o'qitish jarayonini tashkil etish va nazorat qilish uchun foydalaniladigan qog'oz va magnitli tashuvchi ko'rinishdagi turli foydali, mazmunli pedagogik axborotlarni aks ettiradi.

Pedagogik tashxislash jarayonida foydalaniladigan axborotli-didaktik ta'minot tashkiliy, tahliliy, nazorat qiluvchi, korreksion, kommunikativ, refleksiv va bashoratlovchi vazifalarni bajaradi.

Tashxislash jarayonida foydalaniladigan axborotli-didaktik ta'minot sirasiga:

o'quv-metodik materiallar (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ta'limiy dasturlar, masalalar to'plami, ma'lumotnoma xarakteridagi adabiyotlar, turli lug'atlar, audio va video materiallar va boshqalar);

³⁶ Гребенникова Л.В. Диагностика профессиональной компетентности учителя // <https://kopilkaurokov.ru/zavuchu/planirovanie/diagnostika-professional-noi-kompietientnosti-uchitielia>.

³⁷ Сарсекеева Ж.Е. Информационно-дидактическое обеспечение учебных дисциплин в вузе // http://www.rusnauka.com/25_NPM_2009/Pedagogica/51119.doc.htm.


kompyuter ishlanmalari (alohida kompyuter dasturlari, ma'lumotlar bazasi, elektron darsliklar, yaxlit kompyuter kurslari, dasturiy-metodik majmualar va hokazolar)

tashxislovchi metod va vositalar;

didaktik ta'minotni amaliyotga tatbiq etish imkonini beruvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar kiradi³⁸.

Pedagogik tashxislashda baholovchi vositalarni aniqlab olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular metodik vositalar jamlanmasi sifatida e'tirof etilib, attestatsion sinov davrida mutaxassisning tayyorgarlik darajasini belgilangan standartlarga muvofiqligi darajasini belgilashga xizmat qiladi. Tashxislovchi vositalar

jamlanmasini quyidagilar tashkil qiladi (9-rasm):



Rasm. Tashxislovchi vositalarning turlari

Tashxis materiallari quyidagilarga ajratiladi:

- 1) yechimini bir yoki ikki harakat (urinish) bilan topish mumkin bo'lgan oddiy nazorat topshiriqlari (shu jumladan murakkab bo'lmagan testlar);
- 2) doimiy, shuningdek, nostandart vaziyatlarda ko'p martalik harakat (urinish)ni talab etuvchi majmuaviy nazorat topshiriqlari.

Oddiy nazorat topshiriqlariga quyidagilarni kiritish mumkin: yopiq shakldagi javoblarni tanlashga asoslangan oddiy test topshiriqlari; qisqa javoblar yoki oddiy harakat (urinish)lar bilan hal qilinadigan oddiy vaziyatli topshiriqlar; matnni, yechimni yoki qo'l harakatlarini yodga olish asosida bajariladigan murakkab bo'lmagan topshiriqlar.

Oddiy nazorat topshiriqlari sodda bilim va ko'nikmalarga egalikni tekshirish uchun mo'ljallanadi. Bu kabi topshiriqlardan tashqari majmuaviy nazorat topshiriqlari ham mavjud bo'lib, ularning sirasiga ochiq shakldagi; yechimni bosqichma-bosqich topish mumkin bo'lgan hamda javobi batafsil bayon etiladigan testlar, individual yoki jamoa bo'lib bajariladigan loyihalar, laboratoriya ishi yoki trenajyor, stanok, maneken va boshqalarda amaliy harakatlarni bajarishga oid topshiriqlarni kiritish mumkin. Majmuaviy nazorat topshiriqlari muayyan soha

³⁸ Сарсекеева Ж.Е. Информационно-дидактическое обеспечение учебных дисциплин в вузе // http://www.rusnauka.com/25_NPM_2009/Pedagogica/51119.doc.htm.

bo'yicha bajariladigan zarur ko'nikma, malaka va qobiliyatlarning yaxlit tarzda tekshirilishi uchun xizmat qiladi.

Muayyan shartlarni inobatga olinishi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tashxislash, baholashga qaratilgan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ular:

tashkiliy-tayyorgarlik ishlarini oqilona tashkil etish;

o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tashxislash va baholashning metodik ta'minotini yaratish;

yaratilgan metodik ta'minot asosida o'quvchilarning tegishli bilim, ko'nikma, malaka va ma'naviy-axloqiy sifatlariga egaligini tashxislash va baholash;

olingan natijalarga ko'ra metodik ta'minotning amaliyotga mosligini tahliliy o'rganish;

pedagogik amaliyotning mavjud holatidan kelib chiqqan holda metodik ta'minotni innovatsion xarakterdagi nazariy material, vosita va texnologiyalar bilan boyitish.

Shunday qilib, o'qituvchining pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq qilishda ustuvor tamoyillari, pedagogik tashxislash darajalari hamda bosqichlaridan yetarlicha xabardor bo'lishi tegishli jarayonni samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyatni tashxislash afaqat o'qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlariga egaligi, shu bilan birga uning pedagogik faoliyatni tashxislashning metodik jihatlaridan xabardorli hamda pedagogik diagnostikani metodik jihatdan to'g'ri, oqilona tashkil etishga tayyorligi to'g'risi bir to'xtamga kelishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq qilishda qanday tamoyillari ustuvorlik kasb etadi?
2. Pedagogik diagnostika qanday darajalari mavjud?
3. Pedagogik diagnostika nechta bosqichda amalga oshiriladi?
4. Pedagogik faoliyatni tashxislash deganda nimani tushunasiz?
5. Pedagogik faoliyatni tashxislashda qanday metodik jihatlar ko'zga tashlanadi?
6. Tashxislovchi vositalar nima?

Test topshiriqlari:

1. "Muayyan ta'limot, nazariya, fan yoki qarashlarning asosiy, boshlang'ich holati" ta'rifi ... tushunchasiga taalluqli.
 - a) qonuniyat;
 - b) tamoyil;**
 - c) konsepsiya;
 - d) qarash.
2. Pedagogik diagnostikaning mazmuni, maqsadi, ijtimoiy-didaktik, tarbiyaviy ahamiyati, qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari, uni qo'llash shartlarining mohiyatini yorituvchi yetakchi, asosiy g'oyalar. Ular ...

- a) pedagogik diagnostikaning nazariy asosi;
- b) pedagogik diagnostika metodikasi;
- c) pedagogik diagnostika qonuniyatlari;
- d) pedagogik diagnostika tamoyillari.**

3. Maqsadning aniqligi; tashxis jarayonining yaxlit o'rganilishi; tashxis muddatining aniq belgilanishi; tashxis jarayonining izchilligi va davomiyligi; shaxsiy xususiyatlarni inobatga olish va ko'p omillik; tashxis metodikasining amaliyotga mosligi hokazolar. Ular pedagogik diagnostikaning ...

- a) ustuvor tamoyillari;**
- b) nazariy asosi;
- c) muhim qonuniyatlari;
- d) samarali metodikasi.

4. Komponentlar, tuzilma hamda tizim holatini o'rganuvchi diagnostika. Bular pedagogik diagnostikaning ...

- a) asosiy darajalari;**
- b) muhim mezonlar;
- c) ahamiyatli ko'rsatkichlari;
- d) alohida turlari.

5. Tashxisning bu darajasida jarayonning tuzilishi aniqlanadi. Bu vazifa ... diagnostika tomonidan amalga oshiriladi.

- a) komponentlar holatini o'rganuvchi diagnostika;
- b) tuzilma holatini o'rganuvchi diagnostika;**
- c) tizim holatini o'rganuvchi diagnostika;
- d) holatini o'rganuvchi diagnostika.

6. Alohida komponentlar orasidagi o'zaro aloqalarning to'liq tavsiri o'rganiladi. Bu vazifa ... diagnostika tomonidan amalga oshiriladi.

- a) komponentlar holatini o'rganuvchi diagnostika;
- b) tuzilma holatini o'rganuvchi diagnostika;
- c) tizim holatini o'rganuvchi diagnostika;**
- d) holatini o'rganuvchi diagnostika.

7. N.V.Kuzminaning fikriga ko'ra, pedagogik faoliyatni tashxislash bosqichda amalga oshiriladi.

- a) 3 ta;
- b) 5 ta;
- c) 7 ta;
- d) 9 ta.**

8. Pedagoglarning kasbiy kompetentligini tashxislashda konseptuallik, metodologik, tashxislash, tashkiliy-boshqaruv kabi pedagogik tamoyillar inobatga olinadi. Bu fikr ... ga tegishli.

- a) O.I.Mezenzeva;
- b) M.E.Inkov;**
- c) L.V.Grebennikova;

d) M.A.Innazarov.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.
2. Pedagogik diagnostika /Ma’ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Rahmatova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.
3. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.
4. Yo’ldoshev J.G‘., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O‘quv-metod.qo‘ll. – 2014. – 96 b.

4-mavzu. Pedagogik diagnostikaning umumiy metodlari

Reja:

1. Pedagogik diagnostikada qo'llaniladigan metodlar.
2. Pedagogik kuzatish.
3. Psixologik-pedagogik tajriba.
4. Suhbat.
5. Intervyu.
6. Anketa.
7. Test.
8. Hujjatlarni tahlil qilish.
9. Kontent-tahlil.
10. Ekspert baholash.

Tayanch tushunchalar: metod, tashxis metodi, pedagogik kuzatish, psixologik-pedagogik tajriba, suhbat, intervyu, anketa, test, hujjatlarni tahlil qilish, kontent-tahlil, ekspert baholash.

I. Pedagogik diagnostikada qo'llaniladigan metodlar. O'quvchilar tomonidan o'quv materiallarining puxta o'zlashtirilishi ularning kognitiv va shaxsiy rivojlanish tajribasiga bog'liq. Shu sababli ularning o'quv-bilish faolligining muayyan darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarining ko'lami ma'lum o'lchovlar asosida belgilanadi. shakllantirish

XIX asrning o'rtalariga qadar tashxislash sub'ektiv xarakterga ega bo'lib, ana shu maqsadga qaratilgan faoliyat tizimsiz amalga oshirilardi. Undan keyingi davrdan boshlab pedagogik diagnostikaning rivojlanish bosqichi ilmiy xarakter kasb eta boshlagan. Natijada o'quvchilarning bilimlarini og'zaki hamda yozma shaklda tekshirishga asoslangan pedagogik baholash metodlari asoslandi.


Ta'lim natijasini aniqlashga yo'naltirilgan an'anaviy metodlar quyidagilardan iborat bo'ldi: so'rovlar; nazorat ishlari; imtihonlar.

Ta'lim jarayonida qo'llanilgan an'anaviy metodlar o'quvchilardan avval o'zlashtirilgan bilimlarni qayta namoyish qilishni yoki taklif qilingan namuna asosida ayrim muammolarni hal qilishni talab qilardi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimida pedagogik tashxislash maqsadida qo'llanilayotgan metodlarning eng ommalashgani – testlar va nazorat topshiriqlaridir. Ular bevosita o'quvchilar tomonidan o'quv materialining o'zlashtirish darajasini baholash maqsadida qo'llaniladi.

Standartlashtirilgan baholash o'lchovi bo'lgan testlar muayyan shartlar asosida ishlab chiqiladi. Nazorat topshiriqlari esa fan o'qituvchilari tomonidan mustaqil ravishda o'quv maqsadidan kelib chiqqan holda muayyan mezonlar asosida shakllantiriladi. Shu sababli nazorat topshiriqlari sub'ektiv xarakterga ega bo'lib, o'qituvchining kasbiy kompetentligi, ish tajribasi, o'qitish jarayonining mohiyatini anglashidan kelib chiqqan holda ishlanadi.

Zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostikada umumiy nom bilan tashxis metodlari deb nomlanuvchi metodlar qo'llaniladi. Tashxis metodlari sifatida quyidagilar ommalashgan (10-rasm):



10-rasm. Pedagogik diagnostikada samarali qo'llaniladigan metodlar

Pedagogik diagnostikada samarali qo'llaniladigan metodlarning har biri o'ziga xos afzalliklar, shuningdek muayyan kamchiliklarga ega.

II. Pedagogik kuzatish metodi. Ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan tashxislovchi metodlar sirasida *pedagogik kuzatish* muhim o'rin tutadi.

Pedagogik kuzatish metodi – ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilishi zarur bo'lgan pedagogik muammoni aniqlash, uning yechimini topish maqsadida qo'llaniladigan usul.

Metodni qo'llashda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq tahlil qilinadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Kuzatish natijalariga ko'ra tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq tahlil qilinadi. Pedagogik kuzatishning samarasi quyidagi shartlarga muvofiq ta'minlanadi:

- kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- xulosa chiqarishga shoshilmaslik³⁹.


³⁹ Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 192-б.

III. Psixologik-pedagogik tajriba metodi. Pedagogik diagnostikada qo‘llaniladigan yana bir samarali metod – *psixologik-pedagogik tajriba metodi* sanaladi.

Pedagogik tajriba metodi (lot. “*experimentum*” – sinov, sinash, tajriba qilib ko‘rish) – mavjud pedagogik muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in‘ikosiga ega bo‘lishi, ularning samaradorligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladigan usul.

Metodning ilmiy-amaliy ahamiyati muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishni kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in‘ikosiga ega bo‘la olishi va ularning samaradorligini aniqlash uchun keng imkoniyatlarni yaratishda aks etadi.

Pedagogik tajriba bir necha turga bo‘linadi. Ular (11-rasm):



11-rasm. Pedagogik tajriba turlari

Pedagogik tajribaning samaradorligi quyidagi shartlarga rioya etish asosida ta‘minlanadi:

- tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;
- tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;
- tadqiqot ob‘ektlari va usullarining to‘g‘ri tanlanishi;
- tajriba o‘tkazilish vaqti, davomiyligining aniqlanishi;
- zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;

tajriba ma‘lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish, natijalarni qayta ishlashning to‘g‘ri amalga oshirilishi.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi⁴⁰.

IV. Suhbat metodi. Pedagogik diagnostikada *suhbat metodidan* ham maqsadli, samarali foydalaniladi.

Suhbat metodi – savol va javob shaklidagi dialogik xarakterga ega ta‘lim metodi.

Mazkur metod pedagogik kuzatish chog‘ida qo‘lga kiritilgan ma‘lumotlarni

⁴⁰ Педагогика. Катта изоҳли луғат / М.Усмонбоева, Ф.Асқарова. – Т.: “Сано-стандарт”, 2017. – 199-200-б.

boyitish, vaziyatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beradigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlarining imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga xizmat qiladi.

Suhbat individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Odatda suhbat jarayonida o'quvchilarning imkoniyatlari to'la namoyon bilishga erishish muhim. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va manaviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli nutqi, o'quvchi bilan o'zaro munosabati tasirchan usullardan hisoblanadi. Suhbat jarayonida o'quvchi shaxsini yaqindan anglash mumkin, u haqidagi tasavvurlar yanada boyiydi.

O'quvchi bilan suhbatlashish jarayonida uning shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradigan ma'lumotlar beriladi, ijtimoiy va tabiiy borliqqa nisbatan munosabat baholanadi, ijobiy sifatlar rag'batlantirilib, salbiy holatlar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'l-yo'riqlari ko'rsatiladi.

Quyidagi shartlarga amal qilish suhbat metodining samaradorligini taminlaydi:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash, savollar o'rtasidagi mantiqiylik, izchillikni taminlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining sonini aniqlashtirish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan munosabatning samimiy bo'lishiga erishish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin, batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa, ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

O'quvining ijtimoiy ongini shakllantirish uchun tashkil etiladigan suhbatlar uchun quyidagi mavzular yo'nalish sifatida tanlanadi:

- 1) etik mavzular (ijtimoiy manaviy-axloqiy meyorlar, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va b.);
- 2) estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi);
- 3) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar va h.k.);
- 4) ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va b.).

Suhbatlarning mehnat, huquqiy, ekologik, iqtisodiy va gigienik mavzularda tashkil etilishi ham ijobiy natijalarini beradi. O'quvchilar bilan suhbat davomida o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari, mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat qilish foydali. Bu borada bahs-munozaralarning ahamiyati katta.

Pedagogik jarayonda suhbatning quyidagi turlari qo'llaniladi:

- 1) kirish suhbat (o'quv ishlarining boshida tashkil etiladi; uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad hal etilishi zarur bo'lgan ishlar mohiyatining o'quvchilar tomonidan anglab yetilganligini tekshirib ko'rishdan iborat);
- 2) yakuniy suhbat (o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni

umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi);

3) Katexisizm (qisqa bayonli suhbat; lot. “catec’ēsis”, qad. yun. “κατηχισμός” – o‘git, nasihat; o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasi, ularning yangi mavzuni o‘zlashtirishga tayyorgarliklarini aniqlash uchun dars avvalida yoki so‘nggida qo‘llaniladi);

4) evristik suhbat (yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo‘naltiriladi; unga ko‘ra savollar ketma-ketlikda beriladi, buning natijasida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, bilish faolligi, tahlil qilish, dalillarni bayon etish laqyoati yuzaga keladi);

5) tushuntirish (o‘quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish bo‘lib, u hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi; tushuntirish chog‘ida o‘quv materialining qiyin o‘rinlariga urg‘u berilib, mazmun ochiladi; tushuntirish samarasi o‘qituvchining ko‘rgazmali vositalardan foydalanishiga ko‘p jihatdan bog‘liq)⁴¹.

V. Intervyu metodi. Pedagogik diagnostikada qo‘llaniladigan tashxislovchi metodlar orasida *intervyu metodi* ham muhim ahamiyatga ega.

Intervyu metodi – respondent e‘tiboriga turkum savollarni havola etish orqali uning tadqiq etilayotgan muammo, yoki umumiy muammoning biror jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabatini o‘rganish metodi.

Ushbu metod respondent e‘tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o‘tkaziladi. Metodning samarali qo‘llash uchun o‘qituvchi yoki mutaxassis quyidagi shartlarga rioya qilishi zarur:

intervyu olinadigan o‘quvchiga beriladigan savol maqsaddan kelib chiqqan holda puxta shakllantirishi lozim;

intervyu jarayonida o‘quvchining savol yuzasidan erkin fikr bildirishiga imkon berishi zarur;

o‘quvchining fikrlari muhokama qilinmaydi yoki intervyu jarayonida unga nasihat qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi⁴².

VI. Anketa metodi. Tashxislovchi yozma metodlar sirasiga *anketa metodi* kiritilgan.

Anketa metodi (fr. “enquete” – surishtirish, ma‘lumot olish, tekshirish) – pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida dalillar to‘plash maqsadida qo‘llanilib, tizimli savollar yordamida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadigan metod.

⁴¹ Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эхсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 172-173-б.

⁴² Педагогика. Катта изоҳли луғат / М.Усмонбоева, Ф.Асқарова. – Т.: “Сано-стандарт”, 2017. – 103-б.

Pedagogik diagnostikada tashxislovchi vosita sifatida anketadan foydalaniladi.

Anketa – og‘zaki yoki yozma ravishda dastlabki ijtimoiy va ijtimoiy-pedagogik ma’lumotlarni olishda qo‘llaniladigan metodik vosita, so‘rov vositasi.

Mazkur metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi. Muloqot tizimli savollar asosida tashkil etiladi. Savollarga javoblar, odatda, yozma ravishda olinadi. O‘rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketalar quyidagicha bo‘ladi:

1) ochiq savollar (erkin, batafsil javob berish uchun imkon yaratadigan savollar)ga ega anketa;

2) yopiq savollar (“ha”, “yo‘q”, “ijobiy”, “salbiy” va hokazo javob variantlarini tanlashga imkon beradigan savollar)ga ega anketa.

Anketa metodi quyidagi shartlar asosida qo‘llaniladi:

savollar muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

savollar yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;

savollar o‘quvchilarning dunyoqarashi, yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

javoblar to‘liq bo‘lishi uchun yetarlicha vaqt ajratilishi kerak;

anketa o‘quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylanmasligi zarur;

javoblar muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart⁴³.

VII. Test metodi. Zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostikada *test metodi* ham faol qo‘llanilmoqda. Maxsus testlar o‘quvchi duch kelayotgan muammolarni aniqlash yoki unda muayyan sifat (masalan, kreativlik sifatlari)ni shakllantirishga yordam beradi (bu kabi maxsus testlar sirasida E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testini kiritish mumkin).

Test metodi (ingl. “test” – sinash, tekshirish, o‘rganish) – o‘rganilayotgan o‘quvchining aqliy rivojlanish darajasi, qobiliyati, muayyan ish-harakat, faoliyatni bajarishga doir ko‘nikma, malakalari, shaxsiy va irodaviy sifatlari, ruhiy xususiyatlarini aniqlash va baholashda qo‘llaniladigan qisqa standart tekshirish yoki sinov usuli.

Uning ahamiyati respondentning muayyan soha bo‘yicha nazariy bilimlarini, qobiliyati, psixologik-fiziologik, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanganligi, ma’lum faoliyat ko‘nikma, malakalarning shakllanganlik darajasini aniqlashga xizmat qilishida ko‘zga tashlanadi.

Test o‘z mohiyatiga ko‘ra quyidagi savollardan iborat bo‘ladi:

1) ochiq turdagi savollar (batafsil javob berish imkonini beradigan savollar);

2) yopiq turdagi savollar (“ha” yoki “yo‘q”, “ijobiy” yoki “salbiy” tarzidagi

⁴³ Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 14-б.

javoblarga asoslanadigan savollar);

3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (to'g'ri deb topilgan javob varianti belgilanadi).

Mazkur usul quyidagi afzalliklarga ega:

- 1) nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;
- 2) bilim darajasini xolis baholash imkonining mavjudligi;
- 3) bir vaqtda ko'p sonli o'quvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;
- 4) natijalarning o'qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;
- 5) barcha o'quvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi⁴⁴.

VIII. Hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik diagnostikani samarali amalga oshirishda *hujjatlarni tahlil qilish metodi* ham ahamiyatlidir.

Hujjatlarni tahlil qilish (ta'lim muassasasi hujjatlarini o'rganish) metodi – pedagogik hodisa va dalillarni har tomonlama tekshirish, ta'lim muassasasi tomonidan meyoriy talablarning bajarilishi holatini o'rganish, erishilgan yutuq, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or ilmiy-pedagogik hamda ta'lim muassasasi tomonidan to'plangan amaliy-pedagogik tajribalarni ommalashtirish maqsadida qo'llaniladigan usul.

Ta'lim muassasalarida uzluksiz ta'limni tashkil etishga oid hujjatlar talablarining bajarilish holatini o'rganish, erishilgan yutuq, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi. Bu kabi hujjatlar sirasiga quyidagilar kiradi:

o'quv mashg'ulotlarining jadvali;

o'quv dasturi;

guruh jurnallari;

o'quvchilarning shaxsiy varaqalari;

buyruqlar;

Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalari va qarorlari;

ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti;

tarbiyaviy ishlar rejasi;

o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishga oid hisobotlar;

ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol-stullar va h.k.) qayd etilgan daftar va boshqalar⁴⁵.

IX. Kontent-tahlil metodi. Zamonaviy pedagogik diagnostikada yana bir nisbatan yangi metod – *kontent-tahlil metodidan* ham foydalaniladi.

⁴⁴ Педагогика. Катта изоҳли луғат / М.Усмонбоева, Ф.Асқарова. – Т.: “Сано-стандарт”, 2017. – 282-б.

⁴⁵ Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 72-б.

Kontent-tahlil metodi (inglizcha “*contens*”–mazmun) – hujjatlarda aks ettirilgan turli dalillar va an’analarlarni aniqlash yoki o’lchash maqsadida ularning mazmunini sifat hamda miqdor ko’rsatkichlari asosida tahlil qilish usuli.

Ushbu metodning o’ziga xos xususiyati shundaki, u hujjatlarni ijtimoiy ahamiyatlilik nuqtai nazaridan o’rganishga xizmat qiladi. Pedagogik tadqiqotlarda kontent-tahlil metodi asosiy metod sifatida turli, masalan, gazetaning siyosiy yo’nalishini, muayyan ijtimoiy guruhning jamiyatdagi mavqeini o’rganish uchun matnning mazmunini tahlil qilish maqsadida qo’llanilishi mumkin. Shuningdek, ushbu metod pedagogik tadqiqotlarda qo’shimcha metod sifatida ham foydalaniladi.

Hamma hujjatlar ham mazmun nuqtai nazaridan tahlil qilinmaydi. Metodni qo’llash uchun kontent-tahlilning aniq maqsadi belgilanishi lozim. Bunda tadqiq qilinayotgan mazmun zarur tavsiflarni ishonchli qayd qilish (rasmiylashtirish tamoyiliga muvofiq), tadqiqotchini qiziqtirayotgan mazmunning tarkibiy elementlarini muayyan izchilikda qo’lga kiritish olish (statistik ahamiyatlilik tamoyili asosida) imkoniyatiga ega bo’lishi zarur.

Aksariyat holatlarda kontent-tahlilning ob’ektlari sifatida radio, televidenie hamda matbuot xabarlari, uchrashuvlarga oid bayonnomalar, rasmiy va norasmiy xatlar, mas’ul tashkilotlar tomonidan chiqarilgan buyruqlar, ko’rsatmalar, yo’riqnomalar, shuningdek, intervyu hamda ochiq anketalarning ma’lumotlaridan foydalaniladi⁴⁶.

Kontent-tahlil, asosan, uchta yo’nalishga ega. Ular:

1) matn bilan tanishgunga qadar nima sodir bo’lganligi hamda u yoki bu holatning nima uchun ushbu matnda aks etganligini aniqlash (bu yerda matn o’rganilayotgan ob’ektning ma’lum jihati: borliq, muallif yoki matn yo’naltirilgan shaxsning holatini yoritadigan indikator sifatida namoyon bo’ladi);

2) matnni faqat undagina mavjud bo’lgan muayyan belgilar (til xususiyati, tarkibiy tuzilmasi, xabarning janri, nutqning sur’ati (ritmi) yoki ohangi kabilar) asosida o’rganish;

3) matn e’lon qilinganidan keyin, aniqrog’i, matn u tegishli bo’lgan shaxs (adresant)ga yetib borganidan keyin sodir bo’ladigan holatni aniqlash (turli ta’sirlarning samarasini baholash)⁴⁷.

X. Ekspert baholash metodi. Pedagogik diagnostikad faol. Samarali qo’llaniladigan metodlardan yana biri – **ekspert baholash metodi** sanaladi.

ekspert baholash metodi – malakali mutaxassislar tomonidan o’rtacha arifmetik qiymatni topish yo’li bilan shaxs faoliyati, ma’lum jarayon, tizimning sifat ko’rsatkichlarini baholashga xizmat qiladigan usul.

Metodning mohiyati muammo yuzasidan ekspert tahlilini sifat va miqdor

⁴⁶ Контент-анализ — описание метода // <https://psyfactor.org/lib/kontent.htm>.

⁴⁷ Манаев О.Т. Контент-анализ как метод исследования // <https://psyfactor.org/lib/content-analysis3.htm>.

jihatdan baholashni muhokama qilish yoki individual fikr natijalarini rasman qayta ishlashda namoyon bo‘ladi. Ekspert baholash yordamida asosan sifat belgilarini tavsiflovchi murakkab pedagogik jarayonlar, hodisalar tahlil qilinadi, sohani rivojlantirish bashoratlanadi, ta‘lim va tarbiya jarayoniga eng ko‘p ta‘sir ko‘rsatadigan omillar aniqlanadi.

Mazkur metodni amalda qo‘llashning asosiy bosqichlari quyidagilar sanaladi: ekspertizani tashkil qilish; muammo hamda tajriba maqsadini aniqlashtirish, ishchi guruhning majburiyati va huquqlarini belgilash, ekspertizani amalga oshirish uchun ekspertlarni tanlash, ekspertlar o‘rtasida so‘rov o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish va saralash.

Ekspertlar o‘rtasidagi so‘rov individual yoki guruhli, bevosita yoki bilvosita, og‘zaki yoki yozma shakllarda o‘tkaziladi. Shuningdek, ekspert baholashni qo‘llashda ekspertlar jamoa bo‘lib ham ishlashlari mumkin. Bunda ular yig‘ilish, bahs-munozara va b. metodlardan foydalanadi. Individual ekspert baholash anketa, erkin suhbat, intervyu tashkil etishga asoslanadi.

Metodni qo‘llash jarayonida ekspertiza guruhiga jalb qilingan mutaxassislar o‘z sohalarining bilimdonlari, keng dunyoqarash, ijodiy tafakkurga ega bo‘lishi lozim. Ular o‘rganilayotgan muammo yuzasidan qarorlar qabul qilishda murosali bo‘lish bilan birga o‘z fikrlariga tayana olishi kerak. Ekspert baholash metodini qo‘llashda ekspertlar fikrlarining bir xil bo‘lishiga erishishda ekspertlarning pedagogik konsiliumi (kengashi) muhim ahamiyat kasb etadi⁴⁸.

Demak, zamonaviy sharoitda ta‘lim samaradorligini oshirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Pedagogik tadqiqotlar ta‘lim samaradorligini oshirish ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarga bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi. So‘nggi yarim asrlik vaqt oralig‘ida ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarni inobatga olgan holda ta‘lim samaradorligini oshirishga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda bu borada bir qator yondashuvlar (m: texnologik, innovatsion, majmuaviy yondashuv)ning ta‘lim samaradorligini ta‘minlashdagi ahamiyati katta ekanligi aytilmoqda. Ana shunday yondashuvlardan yana biri tashxisli yondashuvdir.

Nazorat savollari:

1. Qanday metodlar tashxis metodlar deb nomlanadi?
2. Tashxis metodlari sirasiga qanday metodlar kiradi?
3. Pedagogik kuzatish metodining maqsadi nimadan iborat?
4. Pedagogik tajribaning qanday turlari mavjud?
5. Pedagogik diagnostikada suhbat qanday shakllarda qo‘llaniladi?
6. Intervyu metodi qanday metod?
7. Anketaning qanday turlari mavjud?
8. “Test” tushunchasi qanday ma‘noni anglatadi?
9. Qanday hujjatlar ta‘lim muassasasining hujjatlari sirasiga kiradi?
10. Kontent-tahlil metodi qanday metod?
11. Ekspert baholash kimlar tomonidan o‘tkaziladi?

Test topshiriqlari:

⁴⁸ Педагогика. Катта изоҳли луғат / М.Усмонбоева, Ф.Асқарова. – Т.: “Сано-стандарт”, 2017. – 315-316-б.

1. ... – ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilishi zarur bo'lgan pedagogik muammoni aniqlash, uning yechimini topish maqsadida qo'llaniladigan usul.

- a) pedagogik tajriba;
- b) pedagogik kuzatish;**
- c) hujjatlarni tahlil qilish;
- d) kontent-tahlil.

2. Tabiiy tajriba; laboratoriya tajribasi; tajriba ishi – bular

- a) pedagogik tajribaning metodlari;
- b) pedagogik tajribaning shakllari;
- c) pedagogik tajribaning turlari;**
- d) pedagogik tajribaning texnologiyalari.

3. Individual, guruhli hamda ommaviy suhbat – bular ...

- a) suhbat shakllari;**
- b) suhbat turlari;
- c) suhbat metodlari;
- d) suhbat texnologiyalari.

4. Respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish orqali uning tadqiq etilayotgan muammo, yoki umumiy muammoning biror jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabatini o'rganish metodi – bu ...

- a) blis-so'rov;
- b) savol-javob;
- c) suhbat;
- d) intervyu.**

5. Ochiq va yopiq savollarga asoslanadigan yozma so'rov metodi – bu ...

- a) yozma ish;
- b) anketa;**
- c) test;
- d) kontent-tahlil.

6. ... – bir nechta javob variantlariga asoslangan savollardan tashkil topadigan metod.

- a) yozma ish;
- b) anketa;
- c) test;**
- d) kontent-tahlil.

7. O'quv mashg'ulotlarining jadvali; o'quv dasturi; guruh jurnallari; o'quvchilarning shaxsiy varaqalari; buyruqlar; Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalari va qarorlari; tarbiyaviy ishlar rejasi va boshqalar. Ular - ...

- a) ta'lim muassasasiga tegishli hujjatlar;**
- b) o'quvchiga tegishli hujjatlar;
- c) o'qituvchiga tegishli hujjatlar;

d) pedagogik jamoaga tegishli hujjatlar.

8. ... – *hujjatlarda aks ettirilgan turli dalillar va an'analarni aniqlash yoki o'lchash maqsadida ularning mazmunini sifat hamda miqdor ko'rsatkichlari asosida tahlil qilish usuli.*

a) hujjatlarni tahlil qilish metodi;

b) anketa metodi;

c) test metodi;

d) kontent-tahlil metodi.

9. Radio, televidenie va matbuot xabarlari, uchrashuvlarga oid bayonnomalar, rasmiy hamda norasmiy xatlar, tashkilotlarning buyruqlari, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar, intervyu va ochiq anketalarning ma'lumotlari. Ular ... ning ob'ektlari sanaladi.

a) hujjatlarni tahlil qilish metodi;

b) anketa metodi;

c) test metodi;

d) kontent-tahlil metodi.

10. Shaxs faoliyati, ma'lum jarayon, tizimning sifat ko'rsatkichlarining malakali mutaxassislar tomonidan baholanishini ifodalovchi metod – bu ..

a) diagnostik baholash;

b) ekspert baholash;

c) miqdoriy baholash;

d) texnik baholash.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Дудина М.М., Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во Рос.гос.проф.-пед. унив-та. 2016. – 190 с.

2. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.

3. Pedagogik diagnostika /Ma'ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Raxmatova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.

4. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.

5. Yo'ldoshev J.G'., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O'quv-metod.qo'll. – 2014. – 96 b.

5-mavzu. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'lchash va shkalalashning asosiy yo'nalishlari

Reja:

1. Pedagogik diagnostikada o'lchash va shkalalashning maqsadi.
2. Ma'lumotlarni tahlil qilish
3. Ma'lumotlarni vizual ko'rinishda taqdim qilish.
4. Pedagogik o'lchovlar.
5. Sifat va miqdor ko'rsatkichlar.
6. Shkalalash.

Tayanch tushunchalar: ma'lumot, ma'lumotlarni to'plash, ma'lumotlarni tahlil qilish, o'lchash, shkala, shkalalash, ma'lumotlarni qayta tahlil qilish, matematik statistika.

I. Pedagogik diagnostikada o'lchash va shkalalashning maqsadi. Barcha pedagogik jarayonlarda bo'lgani kabi pedagogik diagnostikada ham qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlash va baholash muhim ahamiyatga ega. Shu bois tashxislash, shuningdek, ilmiy-pedagogik izlanishni olib borishda mavjud dalillar, ma'lumotlarni qayta ishlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'qituvchi, tadqiqotchi yoki psixolog qanchalik mahoratli bo'lmasin, dalillarning yetarli, to'liq va ishonchli ekani hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bordi-yu, pedagogik diagnostika natijalari, tadqiqotga oid ma'lumotlarni o'qituvchi, tadqiqotchi yoki psixolog qayta ishlay olmasa, ular qanchalik ko'p, xilma-xil bo'lmasin ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish yoki o'quvchi shaxsini har tomonlama tarbiyalashda uchun foydasi bo'lmaydi. Shu sababli pedagogik diagnostikada eng muhim jarayon – olingan ma'lumotlarni qayta ishlash sanaladi. Tadqiqot yoki tashxislashga oid ma'lumotlarni qayta ishlashda ma'lumotlarni statistik qayta ishlash – statistik metoddan foydalaniladi.

II. Ma'lumotlarni tahlil qilish. Tadqiqot yoki tashxislashga oid ma'lumotlarni qayta ishlash bir qadar qiyin, murakkab jarayon sanaladi. Bu jarayon bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1-bosqich: tahlil uchun birlamchi ma'lumotlarni yig'ish. Bu bosqichda tashxislanayotgan yoki o'rganilayotgan ob'ektni kuzatish, uning xususiyatlarini o'rganish, ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida o'qituvchi yoki tadqiqotchi birlamchi statistik ma'lumotlarni to'playdi.

2-bosqich: tadqiqot mavzusi va maqsadiga asoslangan holda ilmiy farazni ilgari surish.

*Ilmiy faraz – dalil, hodisa yoki jarayonning ishonchli va haqqoniy ekanini tasdiqlash, ikki yoki bir necha hodisa o'rtasidagi aloqalarni taxmin qilish maqsadida ilgari suriladigan ilmiy bashorat*⁴⁹.

⁴⁹ Выдвижение и обоснование научной гипотезы // <https://www.internauka.org/blog/vydvizhenie-i-obosnovanie-nauchnoy-gipotezy>.

3-bosqich: kompyuterga ma'lumotlarni kiritish. Zamonaviy sharoitda tashxislash va tadqiqot ma'lumotlarini muayyan muddatda saqlashning eng samarali yo'li – ularni kompyuterga kiritish hisoblanadi. Kompyuterga kiritilgan ma'lumotlar, odatda, elektron jadval yoki ma'lumotlar matrisasi ko'rinishida ifodalanadi.

4-bosqich: ma'lumotlarni turkumlashtirish. O'qituvchi yoki tadqiqotchi o'zini qiziqtirgan holatlar bo'yicha ma'lumotlarni ma'lum guruhlariga ajratadi. Har bir guruhdagi ma'lumotlarning muayyan tartibda bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Odatda, ma'lumotlar aniq belgilangan mezon yoki shartlarga muvofiq saralanadi, tasniflanadi. Ishonchsiz dalillar olib tashlanadi, yetishmayotgan ma'lumotlar to'ldiriladi.

5-bosqich: ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish. Taqdim etilayotgan ma'lumotlarning tushunarli bo'lishi, oson qabul qilinishi uchun ularni vizual shaklda taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun kerakli ma'lumotlar jadval, tasvir, sxema, diagramma, gistogramma va boshqa grafikli ko'rinishlarda ifodalanadi.

6-bosqich: statistik tahlil. Tashxislash yoki tadqiqot jarayonida o'qituvchi yoki tadqiqotchi tomonidan pedagogik amaliyot tavsiya qilinayotgan metodika yoki texnologiya sinovdan o'tkaziladi. Taqdim qilinayotgan metodika yoki texnologiya tashxislanayotgan (o'rganilayotgan) holatni sifat jihatidan yuqori darajaga ko'tara olishi zarur. Metodika yoki texnologiyaning samaradorligi tajriba sinovidan avvalgi va ular qo'llanilgandan keyingi holat natijalari asosida tahlil qilinib, baholanadi. Mana shu o'rinda statistik tahlil amalga oshiriladi.

Bunda boshlang'ich (H_0 ; mavjud holatning qoniqarsiz ekani haqidagi) ilmiy faraz hamda muqobil (H_1 ; pedagogik amaliyot uchun taqdim etilayotgan metodika yoki texnologiyaning samarali ekani to'g'risidagi) ilmiy farazga ko'ra olingan natija ko'rsatkichlari statistik tahlil qilinadi.

Statistik tahlil mohiyatiga ko'ra boshlang'ich (H_0) ilmiy faraz inkor qilinib, muqobil (H_1) ilmiy faraz o'z tasdig'ini topishi zarur. Tahlil natijasida, bordi-yu, boshlang'ich (H_0) ilmiy faraz tasdiqlansa, u holda taqdim etilgan metodika yoki texnologiyani pedagogik jarayonda qo'llash samarasiz ekani oydinlashadi. Agarda, muqobil (H_1) ilmiy faraz tasdiqlansa, u holda pedagogik amaliyot uchun taqdim qilingan metodika yoki texnologiya samarali deb topiladi.

7-bosqich: natijalarni talqin qilish (izohlash) va taqdim etish. Bu jarayon pedagogik tadqiqot yoki tashxislashning eng murakkab bosqichi sanaladi. Zero, ma'lumotlarga asoslangan holda tashxislash yoki tadqiqot natijalari yuzasidan muayyan xulosaga kelish o'qituvchi yoki tadqiqotchi uchun mas'uliyatli jarayondir⁵⁰.

Natijalarni talqin qilish (izohlash)ning **asosiy maqsadi** – qayta ishlangan ma'lumotlarning asosiy xususiyatlarini aniqlash va tuzatish, ularga tayangan holda holatning mohiyatini tushuntirish, shuningdek, xulosalarni shakllantirish mumkin bo'ladi.

⁵⁰ Шкалы измерений // https://studme.org/170818/pedagogika/shkaly_izmereniy.

Ma'lumotlarni statistik qayta ishlashda ularning xolis talqin qilishda o'qituvchi yoki tadqiqotchining ilmiy-tadqiqotni olib borish malakasi, bilimi, tahlil va qarorlar qabul qilish layoqatiga ega bo'lishi muhim.

III. Ma'lumotlarni vizual shaklda taqdim etish. Ma'lumotni tahlil qilishda olingan ma'lumotlarni vizual – tasvir (jadval, tasvir, rasm, sxema, diagramma, gistogramma) ko'rinishida ixcham holda taqdim etish ularning tushunarli, aniq ifodalanishini ta'minlash bilan birga boshqalar tomonidan oson, tez tushunilishiga yordam beradi. Shu sababli pedagogik tashxislashni amalga oshirayotgan o'qituvchi yoki mutaxassis, ilmiy tadqiqotni olib borayotgan magistr yoki tadqiqotchi ma'lumotlarni vizual ko'rinishda taqdim etish malakasini o'zlashtira olishi zarur. Shuningdek, ular zamonaviy AKT va ularning funksional imkoniyatlaridan yetarlicha xabardor bo'lishlari kerak. Binobarin, zamonaviy sharoitda ma'lumotlarni vizual ko'rinishda taqdim etish AKT, xususan, kompyuter texnologiyasi yordamida amalga oshirilmoqda.

1. Ma'lumotlarni jadval yordamida ifodalash usuli. Bu usul tushunarli matn bilan birga sifat va miqdor ko'rsatkichlarni taqdim etish imkonini beradi. Odatda jadvalning nomining o'ziyiq undan foydalanuvchilarga unda keltiriladigan raqamlar qatori va jadvalning ichki sarlavhalari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradigan mezon yoki ko'rsatkichlar (o'lchanayotgan holat, joy, vaqt, o'lchov birliklari va hokazolar)ga ma'lumot taqdim eta olishi kerak.

2. Ma'lumotlarni matrisa orqali ifodalash usuli. Bu usul har qanday funksional va mantiqiy aloqalarga ega bo'lgan satr va qatorlar (ustunlar) bo'lgan jadval. Natijada matrisa pedagogik jarayonning turli omillari orasidagi aloqaning bor yoki yo'qligini ochib beradi.

3. Ma'lumotlarni grafik ko'rinishida ifodalash usuli. Grafik shaklda ma'lumotlarni taqdim qilish jadvallardan ham aniqroq, eksperimental ma'lumotlarning o'zgarish jarayonini yaqqol ko'rsatib beradi. Graflar to'rtburchaklar koordinatali tizimda qurilgan bo'lib, unda "X" o'qida namunaning qiymati, "Y" o'qi bo'ylab qiymat, xususiyat tartibi va hodisaning chastotasi belgilanadi.

Grafik kompozisiya – grafikning barcha elementlaridan iborat kombinatsiya.

O'qish va tushunishni osonlashtiradigan grafik diqqatni jalb qilishi kerak. Grafik kompozisiyaning muhim jihati grafikning dizayni badiiy va estetik ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlashdir.

Odatda grafiklarni yaratishda muayyan shartlarga rioya qilinadi. Ular:

grafikda ko'rsatiladigan ma'lumotlar raqamlarda ifodalanadigan statistik ma'lumotlar orasidan sinchkovlik bilan tanlab olinishi lozim (tadqiqotga oid barcha ma'lumotlar ham grafik ko'rinishida ifodalanmasligi kerak);

olingan ma'lumotlarni o'zida o'ta aniqlik bilan aks ettiradigan grafik turini tanlash maqsadga muvofiqdir;

jadvalning nomi aniq va to'liq ifodalanishi, asosiy mazmuni o'zida aks ettirishi kerak; qolaversa, zarur bo'lganda qo'shimcha ravishda tushuntirishlar berilishi lozim;

yozuv (qayd)lar yoki izohlar, odatda, diagrammaning pastki qismida yoki o'ng tomoniga joylashtiriladi;

o'lchov raqamlari diagrammaning chap qismi va pastida yoxud o'qlar bo'ylab qo'llanilishi kerak. Diagrammaning yotiq (gorizontal) shkalasi (abssissa – bo'lingan nuqtalar bo'ylab) chapdan o'ngga, tik (vertikal) shkalasi esa (ordinata nuqtaning tekislik yoki fazodagi vaziyatini ko'rsatuvchi koordinata bo'ylab) – pastdan yuqoriga qarab qurilishi kerak;

agar raqamli ma'lumotlar diagrammalarga kiritilmagan bo'lsa, ularni jadval ko'rinishida yonma-yon ko'rsatish maqsadga muvofiqdir;

koordinata panjarasining zichligi optimal bo'lishi kerak, grafikni o'qishga to'sqinlik qilmasligi kerak;

diagrammada qo'llaniladigan ranglar turi uchtdan oshmasligi lozim;

agar grafiklar bir qator kuzatuvlarni ifodalasa, alohida kuzatishlarga mos keladigan barcha nuqtalarni aniq belgilash tavsiya etiladi⁵¹.

IV. Diagrammalarning turlari. Tadqiqotlarda diagrammaning bir nechta turi qo'llaniladi. Diagrammaning asosiy turlari quyidagilardir:

A. Chiziqli grafik – sonlarda ifodalanadigan ayrim o'lchovlarning o'zgarishlarini (masalan, o'quv yili davomida bitta sinfda o'tkazilgan testlarning o'rtacha baholaridagi o'zgarishlari)ni ifodalashga xizmat qiladi.

B. Gistogramma – “Y” o'qi bo'ylab guruhning chastota (interval) qiymatlari ifodalanishi asosida ustun (grafa)larning pog'onali ifodalanishini ta'minlovchi grafik turi.

C. Tebranishli ko'pburchak (yoki chastotali poligon) – chastotali ko'pburchak asosida shakllantirilgan gistogramma. Bu turdagi diagrammalar boshqalardan ko'pburchakda interval chastotasining markazigacha kamayadi, gistogrammada chastotalar intervalning barcha chegaralarida teng ifodalanadi.

D. Tebranishlarni jamlovchi grafik (lot. “cumulatio” – yig'ilgan, jamlangan; tebranishlar taqsimlanishini jamlovchi grafik) – alohida intervallar jamlanmasining tebranishini, ya'ni, avvalgi barcha intervallarning har bir interval tebranishiga qo'shib borishini ifodalovchi diagramma.

E. Diagramma – miqdor ko'rsatkichlarni turli shakldagi maydon (doira, to'rtburchak, sektor, silindr, pufakchalar va boshqa)lar ko'rinishida solishtiradigan grafik.

F. Grafika – natijalar ma'lumotlarini grafik ko'rsatishning maxsus turi; bu chiziq segmentlari (qirralari) bilan bog'langan nuqtalardan (tepaliklardan) iborat shakl. Grafik nuqtalari pedagogik jarayonning turli komponentlari, ko'rsatkichlari, omillari, o'ziga xos jihatlarini, shuningdek, ular orasidagi munosabat va aloqalarni ifodalashi mumkin. Grafika (u model sifatida taqdim qilinishi ham mumkin) ko'pincha tajribani bashorat qilishda qo'llaniladi, Grafika ko'rsatkichlari

⁵¹ Лекция 5. Анализ данных // https://tsput.ru/res/informat/mop/lections/lecture_5.htm.

ma'lumotlarni umumlashtirish bosqichida yakuniy natijalar bilan o'zaro solishtiriladi⁵².

V. Pedagogik o'lchovlar. Tashxislash yoki tadqiqotni amalga oshirishda pedagogik o'lchovlarga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'lchash – qandaydir belgining ahamiyati, qiymatini aniqlash jarayoni.

O'lchov (yoki o'lchov birligi) – muayyan ko'rsatkichni miqdor jihatdan baholash uchun qabul qilingan kattalik.

Ko'p holatlarda qiymat raqamdagina emas, balki tushunchalar yordamida ham

ifodalanadi. O'lchash o'lchanadigan xususiyat bevosita kuzatish metodi yoki o'lchov asboblari yordamida amalga oshiriladi.

Aniq fanlarda o'lchashda ma'lum qiymat (ko'rsatkich) boshqa bir qiymat (ko'rsatkich) bilan solishtiriladi. Bu turkumga kiruvchi fanlarda o'lchov birliklari standart, etalon sifatida qabul qilingan.

Ijtimoiy fanlar, xususan, sosiologiya, psixologik va pedagogik fanlarida standart, etalon bo'lgan o'lchovlar mavjud emas. Qolaversa, psixologik va pedagogik hodisalarning o'lchov (belgi, fazilat, xususiyat, omil)lari yashirin, maxfiy bo'ladi.

Shu sababli psixologik va pedagogik hodisalarni faqatgina bir yo'l bilan, ya'ni, ularning bevosita namoyon bo'lishiga ko'ra taxminan baholash mumkin. Qolaversa, ijtimoiy fanlarda tegishli hodisalarni o'lchash uchun ma'lum mezonlar aniqlanadi va ular amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinadi.

Pedagogik o'lchov – ma'lum qoidalarga muvofiq ob'ektlar va ularga xos xususiyatlarning raqamlardagi ifodasini anglatuvchi kattalik.

O'lchash, odatda, bevosita (muayyan standart, tayanch o'lchagich, mezonlar asosida) yoki bilvosita (boshqalarning yordamida yoki muayyan vositalar asosida) amalga oshiriladi.

Bevosita o'lchash – o'lchanadigan ob'ektni biron-bir standart, tayanch o'lchagich bilan to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash.

Bu turdagi o'lchash pedagogik tadqiqotlarda kamdan-kam uchraydi. Bevosita o'lchash ko'p holatlarda o'quvchilarning jismoniy rivojlanganlik darajasini baholashda qo'llaniladi. Pedagogik tadqiqotlarda ko'pincha bilvosita o'lchashdan foydalaniladi.

Bilvosita o'lchash – ob'ekt holatini ma'lum mezonlar (masalan, savollarga qaytarilgan javoblar mazmuni va soni, to'g'ri bajarilgan topshiriqlar soni, muammoli masalalarni hal qilish, diktant, yozma ish, inshodagi xatolar, xulq-atvordagi og'ishlar va boshqalar) yordamida

⁵² Лекция 7. Педагогические измерения. // http://koi.tspu.ru/koi_books/samolyuk/lek7.htm.

*ma'lum vositalar (nazorat ishlari, test topshiriqlari, loyihalar, imtihon va sinov savollari) yordamida baholash*⁵³.

Shuni alohida qayd etib o'tish joizki, bugungi kunda ham pedagogik hodisalarning turli jihatlarini o'lchash vazifasi hal qilinmagan. Bu "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fani oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

VI. Sifat va miqdor ko'rsatkichlari. Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda ma'lumot to'plashning asosiy muammosi o'rganilayotgan ob'ektlar va jarayonlarning sifatiga miqdoriy baho berishdir.

Hanuzgacha tavsiflovchi va empirik fanlar bo'lib qolayotgan pedagogika hamda psixologiya sohalarida amalga oshirilayotgan tajribalarda qo'lga kiritilayotgan ma'lumotlarning asosiy turi sifat, mazmun xarakteriga ega.

Qandaydir ob'ekt (jarayon)ning sifati uning mavjudligini ta'minlovchi muhim, barqaror xususiyatlari sanaladi. Shu sababli ob'ekt (jarayon)ning sifati to'g'risidagi ma'lumot uning mohiyati va mazmunida aks etadi hamda uni tavsiflash uchun zarur sanaladi.

Pedagogikada sifat tavsif (o'lcham)lari ta'lim-tarbiyaning barcha jarayonlari, natijalari, faoliyat turlari, pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, shaxs hamda jamoaning rivojlanishda erishgan jamiki yutuqlarini yoritishga xizmat qiladi. Ta'lim va tarbiyaning asosiy qonuniyatlari va tamoyillari sifat xarakteriga ega bo'ladi.

Atrof-muhitning miqdor tavsifi uni anglashda nisbatan yuqori darajani qayd etadi.

Miqdor – bilish ob'ektining real mavjudligi ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, uni o'xshash qismlarga ajratish imkonini beradi.

Ob'ektning miqdoriy tavsifi jarayonlarni nazariy-mantiqiy tahlil qilishdan ko'ra ko'proq bir necha marta chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Binobarin, aynan ushbu tavsif uning mavjudligini ko'rsatadi va turli sifatlar o'rtasidagi kattaliklarni baholaydi, qonuniyatlarni namoyon qiladi.

Miqdor hamda sifat tavsiflar bir-biri bilan chambarchas bog'liq: ular bir-birini dialektik nuqtai nazardan to'ldiradi va miqdorning sifatga o'zgarishi qonuniga ko'ra bir-biri bilan o'zaro almashinadi. Har qanday sifatni ifodalovchi ma'lumot (axborot) doimo miqdorga ega bo'ladi va boshqacha darajani o'zida namoyon qiladi.

Afsuski, pedagogik va psixologik fanlar, ularning amaliyotida miqdor ko'rsatkichlarni aniqlovchi metodlar deyarli mavjud emas. Bu holat quyidagilar bilan izohlanadi: psixologik-pedagogik o'lchovlarni miqdoriy baholashning muhim metod va vositalarning ishlab chiqilmaganligi yoki mavjudlarining takomillashtirilmagani; pedagogik jarayonlarni baholashning o'ta murakkabligi.

⁵³ Лекция 5. Анализ данных // https://tsput.ru/res/informat/mop/lections/lecture_5.htm.

VII. Shkalalash. Pedagogik diagnostikada o‘lchashning shkalalash turidan ham samarali foydalaniladi.

Shkala – muayyan raqamli tizimga ularni joylashtirish yo‘li bilan ob‘ektlar xususiyatlarini o‘lchash natijalarini qayd qilish vositasi bo‘lib, bunda alohida natijalar o‘rtasidagi munosabat tegishli raqamlarda ifodalanadi⁵⁴.

Tartiblash jarayonida kuzatilgan natijaning shkaladagi mavjud holatiga ko‘ra har bir tanlangan elementiga muvofiqlik asosida ball (shkalali indeks) beriladi.

Shkalalash – boshlang‘ich amaliy natijalarni shkalali baholashga o‘tkazish yo‘li bilan tartiblashga qaratilgan harakat.


O‘z mohiyatiga ko‘ra shkala kuzatilayotgan hodisani tartibga tushirish imkonini beradiki, bunda ularning har biri miqdoriy baho (ko‘rsatkich)larga ega bo‘ladi. Shkalalash tadqiq etilayotgan hodisaning quyi va yuqori pog‘onalarini aniqlashga imkon beradi.

Masalan, o‘quvchilarning o‘quv fanlariga bo‘lgan qiziqishlarini tadqiq qilishning muayyan chegaralari “qiziqishi juda kuchli” hamda “qiziqishi juda past” oralig‘ida belgilanadi. Ushbu chegaralar orasida bir qator pog‘onalar belgilanadi. Natijada o‘quvchilarning o‘quv fanlariga bo‘lgan qiziqishlari quyidagi tarzda pog‘onalanadi:

- qiziqishi juda kuchli (1);
- qiziqishi kuchli (2);
- qiziqishi o‘rtacha (3);
- qiziqishi past (4);
- qiziqishi juda past (5).

Shkalaning chetki hududlari (chegaralari)ni favqulotda belgilay olish ham tavsiya qilinadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda S.Stivenson tomonidan taklif qilingan shkalalar tasnifidan foydalaniladi. Ushbu tasnif turli tartibga ko‘ra bog‘langan to‘rtta asosiy o‘lchash usuli: yaxlit (nominal), tartibli, intervalli va munosabatlar shkalasiga tayanadi. Mazkur usullar umumiy holda *o‘lchov shkalalari* deb nomlanadi (12-rasm):



12-rasm. Pedagogikada qo‘llaniladigan o‘lchash turlari (S.Stivenson)


1. Nomlarni ifodalovchi (yaxlit) shkala. Mazkur shkalani o‘lchashdan ham ko‘proq tasniflash deb hisoblash to‘g‘ri bo‘ladi. Unga ko‘ra barcha ob‘ektlar qandaydir belgisi (farqlari)ga ko‘ra guruhlariga ajratiladi. Bu belgilar tajriba natijalarini qayta ishlashda qulaylik yaratish maqsadida ma‘lum son (kod) bilan ifodalanadi. Nomlarni ifodalovchi (yaxlit) shkalada ob‘ektlar o‘rtasida hech qanday munosabat yuzaga kelmaydi.

Masalan: o‘quvchilar ikki toifaga ajratiladi va quyidagicha ifodalanadi: qizlar – 01; o‘g‘il bolalar – 02.

Ijtimoiy tartibning buzilish holatlari: dars jarayonida – 1; ko‘chada – 2; uyda – 3.

2. Tartibni ifodalovchi (darajali) shkala. Bu shkala turli ob‘ektlarni ularning qandaydir belgisi yoki xususiyatlariga ko‘ra farqlash uchun xizmat qiladi. Tartibni ifodalovchi (darajali) shkalaga o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini belgilashga yordam beradigan 5 balli (baholi) tizim misol bo‘la oladi. Bu turdagi shkala o‘qitish jarayonidagina samarali qo‘llansa-da, uni shaxsning boshqa sifatlarini miqdoriy baholashda, ya‘ni, tarbiya jarayonida qo‘llashda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Muayyan tartibga asoslanadigan shkalalashning turli shakllari mavjud (13-rasm):



13-rasm. Tartibni ifodalovchi (darajali) shkalalarning turlari

2.1. Darajali shkala (qatorlar bo‘yicha ajratuvchi shkala). Bunda o‘rganilayotgan ob‘ektlar qatorlarga (tartibli holda) qandaydir sifatning aks etish darajasi (holati)ga ko‘ra joylashtiriladi. Odatda, 1-qatorga nisbatan yuqori darajada namoyon bo‘lgan sifat joylashtiriladi va unga yuqori ball beriladi (son qiymati ixtiyoriy tanlanadi). So‘ngra egallagan o‘rniga ko‘ra nisbatan past baholangan ob‘ektlar joylashtiriladi.

2.2. Guruhlashli shkala (muayyan guruhlar bo‘yicha darajalarga ajratuvchi shkala). O‘lchanayotgan belgi darajasiga ko‘ra bir-biridan farqlanadigan bir nechta holatlar kuzatiladi. Barcha ob‘ektlarning jamlanmasini guruhlashtirishda ana shu holatlar inobatga olinadi. Masalan: sinf o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini 5 balli tizim (baholi tizim)da baholashda ular “a‘lochi o‘quvchilar”, “yaxshi o‘qiydigan o‘quvchilar”, “yomon o‘qiydigan o‘quvchilar” kabi guruhlanadi.

2.3. Juftlikni taqqoslovchi shkala. Bunda ikki nafar o'quvchi qandaydir sifat bo'yicha bir-biri bilan taqqoslanadi. Agarda ularning muayyan sifati bir xil bo'lsa, u holda har bir o'quvchiga 1 balldan beriladi. Bordi-yu, o'quvchilarning birida o'rganilayotgan sifat yuqori bo'lsa, u holda u 2 ball oladi, sheringiga ball berilmaydi. Har bir o'quvchi tomonidan to'plagan ballarni jamlash orqali ularda muayyan sifatning rivojlanganlik darajasi miqdor ko'rsatkichlarda ifodalanadi.

2.4. Reytingga asoslanuvchi shkala. Zamonaviy ta'limda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda nisbatan yangi tizim – reyting tizimi keng ommalashdi.

Reyting (ingl. “baholash”, “tartibga keltirish”) – muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash.

Mazkur tizimi o'quvchilarning bilim sifatini nazorat qilish turi, metodi va shakli hisoblanadi. Reyting nazoratda test usulidan ham samarali foydalanilmoqda. Test so'rovidan nafaqat o'quvchilarning BKMni aniqlash, balki 1993 yildan boshlab O'zRda abituriyentlarni oliy o'quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilish jarayonida ham samarali foydalanib kelinmoqda.

Reyting tizimi ham muayyan afzalliklarga ega. Ular:

baholash imkoniyatlarini kengaytirish;
o'quvchilar bilimini ob'ektiv aniqlash;
ta'limni standartlashtirishni ta'minlash;

DTSda ko'zda tutilib, o'quv dasturiga kirgan majburiy ixtiyoriy BKMni to'la o'zlashtirilishini ta'minlash;

o'quvchilarda mustaqil bilim olish, erkin fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;

bilimlarni ixtiyoriy o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish, kamchiliklarni bartaraf etish⁵⁵.

O'quvchilarning BKM darajasi quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

“5” baho (85-100 ball) qo'yiladi, agar: a) materialni to'liq o'zlashtirilsa; b) mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlar mohiyati ochib berilsa; v) egallangan bilimlar amalda qo'llansa; g) mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga qo'l qo'ymasdan, ma'lumotlar tushuntirib berilsa.

“4” baho (71-84 ball) qo'yiladi, agar: a) mavzu mohiyati yoritilsa; b) savollarga qiynalmasdan javob qaytarilsa; v) egallangan bilimlar amaliyotda qo'llanilsa; g) og'zaki javob berishda xatolarga yo'l qo'yilmay, qo'shimcha savollar bilan xatolar to'g'rilansa, yozma ishda biroz xatoga yo'l qo'yilsa;

“3” baho (55-70 ball) qo'yiladi, agar: a) mavzu o'zlashtirilgan, lekin mustaqil tushuntirish berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezilsa; b) savollarning mantiqiy tuzilishi o'zgartirilib berilganda, javob berishga qiynalilsa; v) yozma ishda xatolari bor bo'lsa.

“2” baho (0-54 ball) qo'yiladi, agar: mavzu haqida tushunchaga ega bo'lgani holda uni o'zlashtirmasa, yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ysa.

⁵⁵ Педагогика / Нопедагогик ОТМ учун мўлжалланган дарслик. У.И.Иноятлов, Н.А.Муслимов, Д.И.Рўзиева, М.Х.Усмонбоева. – Т.: “Фан” нашриёти, 2012. – 133-б.

2.5. Qutbli shkala (qarama-qarshi tomonli, ya'ni, musbat (+) va manfiy (-)ga ajratuvchi shkala). Ahamiyatli qarama-qarshi belgilar (masalan, mehribon – qahri qattiq, issiq – sovuq, yaxshi – yomon va shu kabilar) chekka nuqtalari bo'lgan ushbu usul shartli shkalani baholash uchun tavsiya qilinadi.

Qutblar orasi ixtiyoriy miqdordagi qism (ball)larga ajratiladi.

Masalan, o'quvchining matematika faniga bo'lgan ishonch darajasi qutblar oralig'idagi quyidagi shkalalardan birini ko'rsatishi lozim (qutblar o'qituvchi yoki mutaxassis tomonidan mustaqil tanlanadi):

(Juda qiziqadi) 10 – 9 – 8 – 7 – 6 – 5 – 4 – 3 – 2 – 1 (Mutlaqo qiziqmaydi).

3. Intervalli shkala (intervalli o'lchash). Bu turdagi shkala ham pedagogik diagnostika va tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega.

Intervalli shkala (intervalli o'lchash) – ob'ektlar orasidagi masofa aniqlanganda hamda barcha ob'ektlar uchun umumiy turg'un o'lchov birligi belgilanganda ob'ektlar soniga beriladigan tartib, maqomni ifodalovchi shkala.

Boshqacha aytganda, intervalli shkalada o'lchashning birligi va mashstablari ifodalanadi. Shkalaning boshlang'ich (nol) nuqtasi ixtiyoriy tanlanadi. Masalan, test sinovi shkalasi, o'quvchi tomonidan muayyan fanni o'zlashtirish dinamikasini qayd etuvchi shkala.

Intervalli shkala – miqdoriy ko'rsatkich bo'lib, unga misol qilib sonlarda, bo'lish amalidan tashqari, ifodalanadigan barcha arifmetik amallarni ko'rsatish mumkin. Ammo, intervalli shkala test nazoratida bir ob'ektning ustunligini uning javoblari (10 ta to'g'ri javob)ini boshqa ob'ektning kam nisbatan javoblari (5 ta to'g'ri javob)i asosida belgilashga xizmat qilmaydi.

4. Munosabatlar shkalasi. Bu shkala intervalli shkaladan shunisi bilan farq qiladiki, uning boshlang'ich (nol) nuqtasi ixtiyoriy tanlanmaydi, balki to'la holda o'lchanadigan xususiyatlarning mavjud bo'lmasligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Bunga qandaydir ko'plikka asoslangan ob'ektlarni qaytadan sanash asosida olingan barcha miqdoriy ko'rsatkichlar (o'quvchilar, darslar, sinovlar va imtihonlar soni kabilar) kiritiladi⁵⁶.

Pedagogik diagnostika va tadqiqotlarda barcha sohalardagi ilmiy izlanishlarda bo'lgani kabi olingan natijalarning ishonchliligi, asoslanganligi hamda amaliy qiymatga ega bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Natijalarning ishonchliligi, asoslanganligi hamda amaliy qiymatga egaligi pedagogik o'lchash sifatining turli jihatlarini anglatuvchi o'zaro bog'langan muhim xususiyatlari sanaladi.

O'lchash natijalarining ishonchliligi (ing. "reliability") – olingan natijalarning aniqligi va ularning tasodifiy omillarga ta'siriga barqarorligini ifodalovchi tavsif.

Natijalarning ishonchliligi o'lchash ishlarining haqiqatda, tashxislash yoki tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda belgilangan talab, aniqlangan

⁵⁶ Шкалы измерений // https://studme.org/170818/pedagogika/shkaly_izmereniy.

mezonlarga muvofiq amalga oshirilganligini anglatadi⁵⁷.

O'lchash natijalarining asoslanganligi (ingl. "validity" – yaroqlilik (haqqoniylik, qonuniylik) – qo'llanilgan metodika hamda muayyan sharoitlarda amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining haqqoniyligi va yaroqliligi.

Boshqacha aytganda, natijalarning asoslanganligi (validligi) qo'llanilgan metodika hamda tadqiqot natijalarining qo'yilgan vazifalarga muvofiq ta'minlovchi o'lchov sanaladi⁵⁸.

Xulosa qilib shuni aytganda, pedagogik diagnostika va tadqiqotni tashkil etishda o'lchash muhim ahamiyatga ega. Zero, o'lchash ishini metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish tashxislash va tadqiqotning samarali borishini ta'minlaydi. Pedagogik jarayonlarda o'lchashning bir necha turidan foydalaniladi. Ular orasida shkalalash alohida o'rin tutadi. Shkalalashda boshlang'ich amaliy natijalar shkalalarga asoslanuvchi baholashga o'tkaziladi. Muayyan turdagi shkalalash belgilangan tartibda o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari, shuningdek, ularda ma'lum sifatning tarbiyalanganlik darajasini o'lchash va baholashga imkon beradi. Shu sababli o'qituvchi va tadqiqotchilar pedagogik o'lchash ishlarini amalga oshirishga oid bilimlardan xabardor bo'lishi orqali tashxislash hamda tadqiqot jarayonini samarali tashkil etish malakalarini o'zlashtira olishlari zarur.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik jarayonda o'lchash va shkalalash qanday maqsadda amalga oshiriladi?
2. Ma'lumotlarni tahlil qilish deganda nimalarni tushunasiz?
3. Ma'lumotlarni tahlil qilish nechta bosqichda amalga oshiriladi?
4. Ma'lumotlarni vizual ko'rinishda taqdim qilish nima?
5. Qanday o'lchovlar pedagogik o'lchovlar sanaladi?
6. Sifat ko'rsatkichlari qanday holatni ifodalaydi?
7. Miqdor ko'rsatkichlar asosida nimalar yoritiladi?.
8. Shkala nima?
9. Shkalalashning qanday turlari mavjud?
10. Tashxislash natijalarining ishonchli bo'lishi nima uchun muhim?
11. Tashxis natijalarining asoslanganligi qanday belgilanadi?

Test topshiriqlari:

1. Pedagogik diagnostika va tadqiqotda ma'lumotlarni tahlil qilish ... bosqichda amalga oshiriladi.
 - a) 9;
 - b) 8;
 - c) 7;
 - d) 6.

⁵⁷ Лекция 7. Педагогические измерения. // http://koi.tspu.ru/koi_books/samolyuk/lek7.htm.

⁵⁸ Валидность // <https://ru.wikipedia.org/wiki/Валидность>.

2. Dalil, hodisa yoki jarayonning ishonchli va haqqoniy ekanini tasdiqlash, ikki yoki bir necha hodisa o'rtasidagi aloqalarni taxmin qilish maqsadida ilgari suriladigan ilmiy bashorat – bu ...

- a) ilmiy xulosa;
- b) ilmiy qarash;
- c) *ilmiy faraz*;**
- d) ilmiy dalil.

3. Ma'lumotlarning jadval, tasvir, rasm, sxema, diagramma, gistogramma ko'rinishida ifodalanishi – bu ...

- a) obrazlilik;
- b) syujet;
- c) *vizuallik*;**
- d) kompozisiya.

4. Chiziqli grafik, gistogramma, tebranishli ko'pburchak, tebranishlarni jamlovchi grafik, diagramma, grafika. Ular – ...

- a) diagrammaning shakllari;
- b) diagrammaning vositalari;
- c) diagrammaning tasnifi;
- d) *diagrammaning turlari*.**

5. ... – qandaydir belgining ahamiyati, qiymatini aniqlash jarayoni.

- a) baholash;
- b) *o'lchash*;**
- c) tasniflash;
- d) sintezlash.

6. O'lchanadigan ob'ektni biron-bir standart, tayanch o'lchagich bilan to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash – bu ...

- a) doimiy o'lchash;
- b) oraliq o'lchash;
- c) bilvosita o'lchash;
- d) *bevosita o'lchash*.**

7. ... – boshlang'ich amaliy natijalarni shkalali baholashga o'tkazish yo'li bilan tartiblashga qaratilgan harakat.

- a) *shkalalash*;**
- b) tartiblash;
- c) kodlashtirish;
- d) raqamlashtirish.

8. Yaxlit (nominal), tartibli, intervalli va munosabatlar shkalasining umumiy nomi – bu

- a) o'lchov ko'rsatkichlari;
- b) *o'lchov shkalalari*;**
- c) o'lchov birliklari;

d) o'lov kattaligi.

9. (Juda qiziqadi) 10 – 9 – 8 – 7 – 6 – 5 – 4 – 3 – 2 – 1 (Mutlaqo qiziqmaydi). Ushbu holat shkalalashning ... turini anglatadi.

- a) **qutbli shkala;**
- b) intervalli shkala;
- c) darajali shkala;
- d) guruhli shkala.

10. Ob'ektlar orasidagi masofa aniqlanganda hamda barcha ob'ektlar uchun umumiy turg'un o'lov birligi belgilanganda ob'ektlar soniga beriladigan tartib, maqomni ifodalovchi shkala – bu ...

- a) qutbli shkala;
- b) **intervalli shkala;**
- c) darajali shkala;
- d) guruhli shkala.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Дудина М.М., Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во Рос.гос.проф.-пед. унив-та. 2016. – 190 с.

2. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.

3. Pedagogik diagnostika / Ma'ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Raxmatova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.

4. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.

5. Yo'ldoshev J.G'., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O'quv-metod.qo'll. – 2014. – 96 b.

6-mavzu. Uzluksiz ta'limda pedagogik nazoratni tashkil qilishning ilmiy asoslari

Reja:

1. Pedagogik nazorat, uning tuzilishi va mazmuni.
2. Pedagogik nazorat turlari.
3. Pedagogik nazorat funksiyalari.
4. Pedagogik nazorat tamoyillari.
5. Pedagogik nazoratning psixologik va pedagogik jihatlari.

Tayanch tushunchalar: nazorat, pedagogik nazorat, pedagogik nazoratning tuzilishi, pedagogik nazorat turlari, pedagogik nazorat funksiyalari, pedagogik nazorat tamoyillari.

I. Pedagogik nazorat, uning tuzilishi va mazmuni. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda pedagogik nazorat olib borish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, *nazorat* pedagogik jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Nazorat jarayoni o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab berishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayoni.

Pedagogik nazorat – uning yetakchiligi va tashkilotchiligi asosida o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini o'zaro birlashtirgan holda o'quv hamda tarbiya jarayonlarining natijalarini baholashga qaratilgan tekshirish xarakteriga ega yagona didaktik va metodik tizim.

Nazorat yordamida ta'lim muassasasining rahbariga o'quvchilarning yutuqlarini baholash, bilimlarni o'zlashtirishdagi muammolarni aniqlash, rejalashtirilgan, amalga oshirilgan va erishilgan ta'lim darajalari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, innovatsion xarakterdagi o'qitish metodlarining afzalliklari va kamchiliklarini anglash, o'qituvchilarning mehnatini tenglashtirish, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda boshqa yana bir qagcha vazifalarni hal qilish uchun ob'ektiv ma'lumotlar taqdim qilinadi.

Nazorat qilishda fan mazmunini o'zlashtirish talablarini standartlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Alohida fanlar bo'yicha o'quv jarayoni natijalarini nazorat qilish mazmuni davlat ta'lim standartlari (DTS)da bo'lib, unda majburiy minimal mazmun va bitiruvchilarning rivojlanish darajasiga qo'yiladigan talablar bilan belgilanadi.

Ta'lim natijalarini baholovchi nazorat mazmuni o'quvchilarning intellektual xususiyatlarini umumiy nuqtai nazaridan o'rganishni taqozo qiladi. O'quvchilarning bilim darajasini baholashda o'qituvchilar tomonidan ta'lim mazmuni va o'qitish metodlarining puxta o'zlashtirilganligi ahamiyatidir.

Nazoratning mazmuni nafaqat o'qitiladigan va ular o'qishning natijasi sifatida ko'rishni xohlagan narsani aks ettiradi, balki o'rganishning ma'lum

ustuvorliklarini belgilaydi. Nazorat jarayonida, ayniqsa nazorat tashqi ko‘rinishda bo‘lsa va baholar ta‘limda ma‘muriy qarorlar qabul qilish uchun ishlatilsa ta‘lim yutuqlariga qo‘yiladigan talablar muqarrar ravishda o‘qituvchining kundalik ishida ko‘rsatma bo‘lib qoladi.

Nazorat va baholovchi faoliyat muayyan tarkibiy asoslarga ega. Ular: mavzular, bo‘limlar va boshqalarni ajratib ko‘rsatish orqali tushunchali ko‘rsatkichlarni ajratish; empirik ko‘rsatkichlarni shakllantirish (savol, topshiriq va boshqalar); kutilayotgan natijalarni qo‘lga kiritish jarayonini nazorat qiluvchi modelni yaratish; nazorat tadbirlarini o‘tkazish; model va o‘quvchilarning haqqoniy javoblarini solishtirish; baholovchi g‘oyalarni shakllantirish va ular yordamida nazorat yoki baholar qo‘yishni davom ettirish yuzasidan qarorlar qabul qilish.

Qayd etilgan tarkibiy asoslar o‘qituvchining nazorat-baholovchi faoliyatining tuzilmasida mavjud bo‘ladi. Pedagogik nazorat an‘anaviy vositalar yoki testlardan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Nazoratning asosiy mohiyati o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilayotgan nazariy bilimlarni amaliyotga izchil tatbiq etilishini o‘rganishdir.

O‘qituvchining nazorat va baholash faoliyati tuzilmasining tarkibiy qismlari orasida nazorat mazmunini hamda baholashning asosiy ko‘rsatkichlarini ajratib olish muhim hisoblanadi.


Kundalik o‘quv jarayonida o‘quvchilar tomonidan yangi bilimlarning o‘zlashtirish natijalarini aniqlash, baholash, tahlil qilish pedagogik nazorat orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik jarayon natijalarini aniqlash va o‘lchash jarayoni tekshirish deb ham ataladi.

***Tekshirish** – nazoratning tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy didaktik vazifasi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida teskari aloqani ta‘minlash, pedagog tomonidan o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishi haqida ob‘ektiv axborot olinishi, bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlashni ta‘minlashdir.*

Tekshirishning maqsadi nafaqat o‘quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o‘quv faoliyati hajmini ham aniqlashdan iborat. Tekshirish tizimidagi birinchi bo‘g‘ini ta‘lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan **aniqlash** hisoblanadi. Odatda, u o‘quv yili boshida o‘quvchilar tomonidan avvalgi o‘quv yilida o‘zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o‘quv yilining o‘rtasida yangi bo‘lim (kurs)ni o‘rganishga kirishilganda ham o‘tkazilishi mumkin va o‘rinli.

II. Pedagogik nazorat turlari. Tashxislashda pedagogik nazoratning turlaridan foydalaniladi. Ularning sirasiga o‘z-o‘zini nazorat qilish (o‘z-o‘zini baholash) kiritilmaydi. Pedagogik jarayonda nazoratning quyidagi turlaridan foydalaniladi (14-rasm):



14-rasm. Pedagogik nazorat turlari

1. Boshlang'ich nazorat. Bu nazorat turi umumiy o'rta ta'lim maktablarida tizimli tarzda amalga oshirilmaydi. U o'quvchilarni tanlov asosida ixtisoslashgan, muayyan kasbga yo'naltirilgan sinflarga tanlab olish davrida o'qituvchining tashabbusi bilan tashkil etiladi va asosiy e'tibor ta'lim jarayonini individuallashtirishga qaratiladi. Shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi ta'limni maktab amaliyotiga tatbiq qilishda boshlang'ich nazorat "o'rtamiyona shaxsni shakllantirishga qaratilgan" an'anaviy o'qitishdan voz kechgan holda yangi o'quv materialining bir qadar kuchli yoki kuchsiz o'quvchilar tomonidan individual o'zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratishni ta'minlaydi. Ekspress- nazorat (tezkor nazorat) xarakteriga ega bo'lgan pedagogik testlar boshlang'ich nazoratning samarali bo'lishini xizmat qiladigan vositadir.

2. Joriy nazorat. Bu turdagi nazoratning maqsadi – ta'lim jarayonining borishini kuzatishdan iborat. Uni amalga oshirish o'qituvchiga o'quv jarayonida ko'zga tashlanayotgan kamchilik va muammolarni o'z vaqtida bartaraf qilish hamda zarur yo'nalishda qayta qurish uchun ular to'g'risidagi tezkor axborot (ma'lumot)larni qo'lga kiritish imkonini beradi. Joriy nazorat to'lig'icha dianostik xarakter kasb etadi.

3. Yakuniy nazorat. Odatda bu turdagi nazorat – bosqichli, chegaraviy hamda yakuniy kabi uch turga ajratiladi. Yakuniy nazorat o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash maqsadida tashkil etilgan muayyan bosqich, ma'lum bo'lim yoki o'quv yilining oxirida tashkil etiladi. O'quvchi tomonidan og'zaki yoki yozma shaklda tashkil qilingan imtihon yoki sinovlar hamda test natijalarini qayd etish yakuniy nazoratning shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Yakuniy nazorat natijalarini taqqoslash va taxmin qilish (bashoratlash) o'qituvchiga kelgusida sho'ishini yaxshilash, samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni beradi. Bordi-yu, yakuniy nazoratda qo'lga kiritilgan axborotlar ko'zlangan maqsadga muvofiq kelmasa, u holda tahlil ma'lumotlari o'quvchilarni kasbga, mutaqil hayotga tayyorlashdagi muammolarni aniqlash, shuningdek, o'quv jarayonini korreksiyalash bo'yicha boshqaruv harakatlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Xarakterli jihatlariga ko'ra yakuniy nazorat ichki va tashqi nazorat kabi guruhlarga ajratiladi. Ichki yakuniy nazorat umumiy o'rta ta'lim maktabi boshqaruvi, masalan, Davlat attestatsiyasi yoki imtihon, davlat imtihonidan tashqari vaqtlarda o'tkaziladi.

Attestatsiya (yoki davlat attestatsiyasi) – bitiruvchilarni tayyorlash darajasi va sifatining rasman belgilangan ta'lim darajasi hamda sifatiga qo'yiladigan talablar tizimi (DTS)ga mosligini aniqlashga qaratilgan chora-tadbir.

Bu jarayonni tashkil etishda DST yoki standartlar mavjud bo'lmagan sharoitda amal qiladigan me'yoriy hujjatlarga tayanib ish ko'riladi. Attestatsiya baholarining asosli bo'lishini ta'minlash maqsadida aksariyat mamlakatlarda test nazorati qo'llaniladi.


Ichki yakuniy nazorat fan o'qituvchisining o'zi tomonidan, masalan, o'quvchini sinfdan sinfga ko'chirish imkonini beradigan maktab imtihonlari vaqtida o'tkaziladi. Imtihonda foydalaniladigan nazorat topshiriqlari – testlar, yozma ishlar, loyihalar fan o'qituvchisining o'zi tomonidan mustaqil tayyorlanadi.

Tashqi yakuniy nazorat esa Davlat imtihonlari yoki hozirda O'zbekistonda keng ommalashayotgan PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash, TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash, PISA (The Programme for International Student Assessment) – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash dasturlari bo'yicha tashkil etadigan sinovlar shaklida tashkil etiladi.

Respublikada so'nggi ikki yilda o'quvchilarning xorijiy til (ingliz, nemis, fransuz, rus tillari)ni bilish darajasini aniqlashga oid milliy baholash tizimi ishlab chiqildi va tizim asosida tashqi yakuniy nazorat yo'lga qo'yilmoqda.

Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish joizki, O'zbekistonda rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun xalqaro baholash tizimi TALIS (The Teaching and Learning International Survey) joriy qilinmoqda.

III. Pedagogik nazorat funksiyalari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik nazoratni tashkil qilishda muayyan vazifalar hal qilinadi. Sohaga oid adabiyotlarda pedagogik nazoratning asosiy funksiyalari quyidagilar ekani ko'rsatilgan (15-rasm):



15-rasm. Pedagogik nazoratning asosiy funksiyalari

1. Tekshirish funksiyasi. Bu funksiyasi yakuniy nazoratni tashkil qilnadigan asosiy vazifa hisoblanadi. Ta'limni turli darajada boshqarishda uning tarkibiy qismlari aniq belgilanadi. Shu sababli ta'lim natijalarini tizimli tekshirishni amalga oshirish o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalarning holatini aniqlashga imkon beradi, shuningdek, ularning ta'lim olishda erishgan yutuqlarini baholashda aks etadi. Natijalarni qo'llash nuqtai nazaridan tekshirish funksiyasi ta'lim sifatini boshqarishning boshqa darajalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2. Tashxislash funksiyasi. Ushbu funksiya joriy nazoratda to'liq amalga oshiriladi. Tashxislash funksiyasini kuchaytirish, uning ahamiyatini oshirish ta'lim sifatini yaxshilashning muhim shartlaridan biridir. Ta'lim olishda o'quvchilar duch kelayotgan qiyinchiliklarining sabablari, bu jarayonga ta'sir qilayotgan omillarni tahlil qilish orqali o'qitishning individual xarakter kasb etishiga erishiladi. Zero, har bir o'quvchi yangi materialni, muayyan bo'limni o'rganishda muvaffaqiyatga qachonki tegishli bilimlarni o'zlashtirishga to'sqinlik qiladigan kamchiliklar bartaraf etgandan keyingina erisha oladi.

3. Ta'lim berish funksiyasi. O'qituvchi tomonidan berilgan savollariga javob qaytarish, test topshirig'i va nazorat ishiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'quvchilar o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi baholash imkkoniyatiga ega bo'ladi. Shu jarayonda innovatsion xarakterdagi tashxis vositalari va usullar yordamida nazoratning tashkil qilinishi esa o'quvchilar tomonidan bilimlarning mustaqil o'zlashtirilishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Pedagogik testlar bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

4. Tarbiyalash funksiyasi. Ta'lim muassasalarida pedagogik nazoratning tashkil qilinishi o'quvchilarning u yoki bu turdagi sifat, fazilatlariga egaligini o'rganish va baholashga imkon beradi. Shu bilan birga pedagogik nazorat orqali o'quvchilarning muayyan sifat, fazilatlarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarini aniqlash, bu jarayonga ta'sir qilayotgan omillarni belgilash hamda ularni bartaraf qilish imkoniyatlarini izlash uchun sharoit yaratadi. Yaratilgan sharoit o'quvchining bilimga qiziqish, tizimli ishlash qobiliyati, o'zini tuta bilish va o'zini o'zi qadrlash kabi ijobiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi o'quvchilarning ta'lim faoliyatining motivatsion asoslarini shakllantirishda yetakchi o'rin tutishini ta'minlashga yordam beradi.

O'qituvchi pedagogik nazoratni tashkil qilish asosida sinf jamoasining o'quvchiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirini, bu boradagi imkoniyatlarini aniqlaydi, tahlil qiladi va baholaydi. Pedagogik nazoratning tarbiyalash funksiyasi pedagogik jamoa, shuningdek, o'quvchilar jamoasining o'quvchiga nisbatan ijobiy ta'siridan samarali foydalanish uchun qulay muhitni hosil qiladi.

5. Rag'batlantirish va rivojlantirish funksiyasi. Ta'lim olishda o'quvchining motivatsiyaga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Agar nazorat ob'ektiv tashkil etilgan, o'qituvchi tomonidan o'quvchining o'quv-bilish va xulq-atvoriga qo'yilgan baholar xolis, adolatli bo'lgan bo'lsa, u holda ta'lim oluvchilarda yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun qo'shimcha rag'batlar paydo bo'ladi. Bordi-yu, o'qituvchining pedagogik nazoratda o'quvchiga nisbatan sub'ektiv munosabatda bo'lsa, u holda bilimlarni tizimli tekshirishga qaratilgan pedagogik nazorat salbiy

natijalarga olib keladi. Natijada o'quvchilarda o'qituvchiga, shu bilan birga o'quv faniga bo'lgan salbiy munosabat shakllanadi. O'quvchi ta'lim olishda va shaxs sifatida rivojlanishini kafolatlovchi o'z ustida ishlashdan soviydi.

Qo'shimcha testlarning tashkil qilinishi, nazorat topshiriqlarining berilishi o'quvchilarda ta'limiy motivatsiyaning kuchayishiga yordam beradi.

Pedagogik nazoratni tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi, o'quvchilar faoliyatini samarali uyushtirilishi, o'quvchilarning o'rganilayotgan bilim, ko'nikma, malaka hamda ma'naviy-axloqiy sifatlarga egaligining xolis baholanishi ta'lim oluvchilarni har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi. Xolis tashkil qilingan nazorat o'quvchilarni fikrlashga o'rgatadi, ularning xotirasini kuchaytiradi, mavjud bilimlarni amalda qo'llash ko'nikma va malakalariga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Test va nazorat topshiriqlarining mohiyati, mazmuni, ularni bajarish uchun yaratilgan sharoit, o'quvchilarning o'quv-bilish faolligi pedagogik nazoratning rivojlantiruvchanlik xarakterini oshiradi.


6. Axborot berish funksiyasi. Raqamli texnologiyalar tezkor rivojlanayotgan mavjud sharoitda axborot barcha sohalarda yetakchi omil sifatida ko'zga tashlanmoqda. Ta'limda ham nafaqat bugungi kunda, balki barcha davrlarda ham axborotga egalik muhim ahamiyatga ega. Binobarin, axborotlar ta'limning mavjud holatini baholash, istiqbolini bashoratlash, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvlarni qaror toptirish imkoniyatini ta'minlaydi. Bunda, eng muhimi, axborotlarning xolis bo'lishi, ularni zarur vaziyatlarga tezkor qo'lga kiritish imkoniyatining mavjudligidir. Pedagogik nazorat jarayonida qo'lga kiritilgan har bir axborot (ma'lumot) u xoh ijobiy, xoh salbiy bo'lsin muhim ahamiyatga ega. Chunki ular asl vaziyatni to'g'ri talqin qilish va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini oqilona belgilashga xizmat qiladi.

7. Qiyoslash funksiyasi. Pedagogik nazoratda boshlang'ich, oraliq va yakuniy nazorat natijalarini o'zaro qiyosiy o'rganish, tahlil qilish ahamiyatli hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich va yakuniy nazorat natijalarini o'zaro qiyosiy o'rganish o'qituvchi faoliyati samaradorligini belgilashga yordam beradi. Zero, boshlang'ich nazoratda qo'lga kiritilgan ma'lumotlar asosida pedagogik faoliyatning zarur yo'nalishlarini belgilash, mavjud muammolarni bartaraf qilish hamda ijobiy omillar ta'siri kuchaytirishga harakatilgan amaliy harakatning samarasi yakuniy nazorat natijalarida o'z aksini topadi.

8. Bashoratlash funksiyasi. Nafaqat pedagogik nazoratda, balki yaxlit ta'lim jarayoni va tizimida ham bashoratlash o'ziga xos o'rin tutadi. Mavjud vaziyat, uni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda o'qitish hamda tarbiya jarayonida istiqbolni belgilash o'quvchilarga sifatli ta'lim berish, ularni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat pedagogik vazifaning to'laqonli bajarilishini ta'minlaydi.

IV. Pedagogik nazorat tamoyillari. Boshqaruv jarayonining yo'naltiruvchanlik va tartibga solish roli o'qituvchilarning pedagogik jarayonni nazorat qilish va baholashga qaratilgan faoliyatiga rahbarlik qiluvchi tamoyillarni belgilab beradi.

Pedagogik nazorat quyidagi ustuvor tamoyillarga muvofiq tashkil qilinadi (17-rasm):



17-rasm. Pedagogik nazoratning ustuvor tamoyillari

1. Ilmiylik va samaradorlik tamoyili. Pedagogik nazorat ilmiy asosga ega g'oyalari (tamoyillar, metodlar, vositalar, texnologiyalar) yordamida tashkil etilishiga uning samaradorligini tasdiqlovchi natijalar haqqoniy sanaladi. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonida nazorat ishlarini tashkil etishning konseptual (konsepsiya, rahbariy g'oyalarning mavjudligi) asoslari (etakchi g'oyalari, tamoyillari, mexanizmi, mazmuni, metodikasi, texnologiyasi va mezonlari) ishlab chiqilgan. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari darajasini o'rganish, tahlil qilish va baholash ham o'zining sifat mezonlariga ega.

Pedagogik nazoratni tashkil etishda ilmiylik tashxislash yoki tadqiqot ma'lumotlarining ishonchlik mezoniga ko'ra tasdiqlangan to'g'riligi, asoslanganligi, shuningdek, haqqoniylik mezonini bo'yicha tahlil qilingan belgilangan o'lchov birliklariga mosligi inobatga olinadi.

2. Iyerarxik tuzilmagan egalik tamoyili. Mazkur tamoyil pedagogik nazorat shakllarini tanlashda bilim, ko'nikma va malakalarning ierarxiyasini shakllantirish zaruriyatini tasdiqlaydi. Ma'lumki, o'qituvchining bir o'zi o'quvchilar tomonidan tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining barcha qirralarini birdek qamrab olgan holda tekshirish va nazorat qilish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuqori rahbarlik organlari tomonidan tasdiqlangan hamda ierarxiyaga asoslangan nazorat jarayoni tashkil etiladi. Pedagogik nazorat ierarxiyasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini tekshirish va baholash jarayonida bir qancha sub'ektlarning ishtirok etishini anglatadi.

3. Tizimlilik tamoyili. Pedagogik nazorat jarayonida tekshirishlarning muayyan vaqt oralig'ida tashkil etilishi natijalarni har tomonlama tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Qolaversa, o'quvchilarda ruhiy zo'riqishlar kelib chiqishining oldini oladi. Tizimlilik tamoyili pedagogik nazoratlarning izchil, uzluksiz bo'lishini ta'minlaydi. Tekshirish uzoq vaqt oralig'ida bo'lsa, pedagogik jarayonning mavjud holatini xolis baholash imkoniyati kamayadi. Maktab amaliyotining ko'rsatishicha, pedagogik nazoratni inkor qilish, nazorat shakllari hamda metodlarini takomillashtirishga bee'tibor bo'lish ta'lim sifatining yomonlashuviga olib keladi.

4. Adolatli yondashuv va xolislik (ob'ektivlik). Mohiyatiga ko'ra adolatli yondashuv va xolislik bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan tushunchalardir. Zero, adolat mezonini asosida qaror qabul qilish har doim xolislikni taqozo etadi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini tekshirish va

baholashga adolatli yondashish bir o'quvchiga boshqalardan ko'ra ortiq ko'proq yon bosmaslik, uning imkoniyati aslida yuqori darajada bo'lmasa-da, unga "a'lo" baho qo'yimaslik, aksincha, o'quvchining javoblarini haqqoniy baholash, kamchilik va yutuqlarini to'g'ri qayd etilishini ta'minlaydi. Pedagogik nazoratda ob'ektiv baholash o'quvchining tayyorgarlik darajasini haqqoniy tavsiflay olish demakdir. O'qituvchining baholashdagi xolisligi, adolatli yondashuvi uning baho mezonlari va ko'rsatkichlaridan yetarli darajada xabardorligini va ularga qat'iy rioya qilishi, shuningdek, o'lchovlarning haqqoniyligini anglatadi.

Baholashda xolislikka erishish o'qituvchi tomonidan natijalarning chuqur tahlil qilinganligidan dalolat beradi. O'quvchining bilim, ko'nikma, malakalariga bahoni qo'yishdagi xolislik imtihon hay'ati a'zolarining kasbiy kompetentligi, ish tajribasi jarayonni tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilishga yordam beradi, oqilona rahbarlikdan dalolat beradi.

Ta'lim sifatini baholashdagi xolislikni ta'minlovchi eng muhim mezon – ta'lim standartlarining ishlab chiqilganligi hamda o'quvchining tayyorlik darajasi unga qanchalik mos kelishi hisoblanadi. Qolaversa, nazorat topshiriqlarining o'quvchilarni yosh xususiyatlari hamda fiziologik, aqliy imkoniyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilganligi, sinov (test)larning ishonchliligi, sinov shartlarining standartga mosligi, baholash texnologiyasining samaradorligi, tashqi va ichki omillarni ijobiy xususiyatga egaligi, o'lchashda xatolarga yo'l qo'yilmaganligi kabi holatlar ham ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

5. Keng qamrovlilik va to'liqlik tamoyili. Mohiyatiga ko'ra keng qamrovlilik nazorat tizimining to'la qamrab olinganligini anglatasa, to'liqlik nazorat mazmunining puxta asoslanganligi, tekshirish metodikasining samarali ekani hamda natijalarining yetarli bo'lishini bildiradi. Pedagogik nazorat jarayonida bajariladigan vazifalar bir-birini takrorlamasligi, aksincha, bir-birini to'ldirishi zarur. Zero, shundagina nazorat chog'ida vazifalarning keng doirasi to'liq qamrab olinadi.

V. Pedagogik nazoratning psixologik va pedagogik jihatlari. Nazoratning psixologik va pedagogik jihatlari o'quvchilarda o'quv faoliyati sifatining muhim ko'rsatkichi bo'lgan o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish va o'zini o'zi baholash ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini tahlil qilish bilan bog'liq.

***O'zini o'zi nazorat qilish** – shaxsning zarur irodaviy sifatlarini namoyon etgan holda turli vazifalarda o'z qarashlari, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari, xulq-atvorini nazorat ostiga olish malakasiga egalik⁵⁹.*

***O'zini o'zi boshqarish** – shaxsning muloqot, xulq-atvor hamda faoliyatda o'z faolligini boshqarish asosida maqsadga muvofiq holda o'zgarishi. Ijodiy jarayon bo'lgan o'zini o'zi boshqarish shaxsning muhim vaziyatlarda o'zini anglashi, yangi maqsadlarni o'z oldiga*

⁵⁹ Что такое самоконтроль? // <https://wikigrowth.ru/razvitie/samokontrol>.

*qo'yishi, ularga erishish yo'lida to'g'ri qarorga kelish vositalarini izlashini ifodalovchi ijodiy jarayon sanaladi*⁶⁰.

O'zini o'zi baholash – shaxsning o'z imkoniyatlari, sifatlari, yutuqlari, kamchiliklari hamda boshqa kishilar orasidagi o'rnini mustaqil baholay olishi⁶¹; shaxs tomonidan o'z xatti-harakatlari, ma'naviy fazilatlari, qarashlari, motivlarining axloqiy baholanishi⁶².

O'quvchining o'zini o'zi nazorat qilish, boshqarish va baholash malakasiga ega bo'lishi dinamik xarakter kasb etadi. Bu boradagi malakalarni o'zlashtirishda o'qituvchi, ota-onalar va mutaxassislarning metodik yordam va maslahatlari zarur. Qolaversa, ularning amaliy jihatdan namuna ko'rsata olishi o'quvchilar tomonidan o'zini o'zi nazorat qilish, boshqarish va baholash malakalarining samarali o'zlashtirilishiga yordam beradi.

O'z-o'zini nazorat qilish malakalarining mustahkamlanishi o'quvchida o'z-o'zini hurmat qilish hissining rivojlanishiga olib keladi. Pedagogik nazoratni tashkil etish jarayonida o'quvchilarning ushbu xislatlarga egaligini hisobga olgan o'qituvchi kutilgan natijani qo'lga kiritadi.

O'qituvchi, ota-onalar va boshqa mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan tashqi nazorat hamda baholash jarayonida ular emas o'quvchilar faolligining ortishi ijobiy hodisa sanaladi. P.P.Blonskiyning fikriga ko'ra, bu jarayon to'rt bosqichdan iborat bo'ladi. Ya'ni:

1-bosqich: o'quvchi tomonidan o'quv materialini yetarlicha puxta o'zlashtirilmasligi favqulotda hodisa sanalmaydi;

2-bosqich: o'quvchida o'zini o'zi nazorat qilish, boshqarish va baholash malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga e'tibor qaratiladi; bu bosqichda o'quv o'quv materialini puxta o'zlashtirish uchun uni ko'p marta takrorliq o'rganishga, o'zlashtirgan bilimlari darajasini baholashga harakat qiladi;

3-bosqich: o'quvchining bilimlari darajasi ortadi, natijada o'z-o'zini nazorat qilish odatga aylanadi hamda asta-sekin o'qituvchining u tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi ishtiroki kamayadi;

4-bosqich: o'zini o'zi nazorat qilish o'quvchining yetakchi psixologik xususiyatiga aylanadi.

Nazoratni tashkil qilishda pedagogik hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, o'quvchi tomonidan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirilishi ta'lim muassasasi sharoitidagina kechmaydi, balki oilada, qo'shimcha ta'lim muassasalarida davom ettiriladi. Shu sababli o'qituvchining ota-onalar va mutaxassislar bilan o'zaro hamkorligi ta'lim sifatini yaxshilash bilan birga o'quvchilarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda mavjud tarbiyaviy

⁶⁰ Самоуправление личности в ситуации выбора профессии //

<https://www.mgpu.ru/event/samoupravlenie-lichnosti-v-situatsii-vybora-professii>.

⁶¹ Демьянович О.В. Самооценка как социально-психологический феномен // <http://www.sch612.edusite.ru/samoocenka.pdf>.

⁶² Польшина М.А. Самооценка как фактор психологической защищенности личности подростков с отклонениями в развитии // Научно-методический электронный журнал "Концепт". – Киров: 2018. – Т. 20. – С. 71.

imkoniyatlarni muayyan nuqtaga to'plashga yordam beradi. Bu esa pedagogik tashxislashda muvaffaqiyatga erishishning muhim shartlaridan biri.

Shunday qilib, uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarning o'zlashtirilganligi pedagogik nazorat yordamida aniqlanadi va baholanadi. Pedagogik nazoratni tashkil etishda o'qituvchining uning asoslari, xususan, turlari, funksiyalari, tamoyillari, mazmuni hamda imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi maqsadni to'g'ri shakllantirish, jarayonni tashkiliy-metodik jihatdan oqilona tashkil etishiga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik nazorat qanday maqsadda tashkil etiladi?
2. Pedagogik nazoratning qanday turlari mavjud?
3. Boshlang'ich pedagogik nazorat qachon tashkil etiladi?
4. Attestatsiya deganda nimani tushunasiz?
5. Pedagogik nazoratni tashkil etishda qanday funksiyalar bajariladi?
6. Pedagogik nazoratning axborot berish tamoyili qanday g'oyani ifodalaydi?
7. Pedagogik nazorat ustuvor tamoyillari qaysilar?
8. Pedagogik nazorat o'quvchi uchun qanday ahamiyatga ega?

Test topshiriqlari:

1. O'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini o'zaro birlashtirgan holda o'quv hamda tarbiya jarayonlarining natijalarini baholashga qaratilgan tekshirish xarakteriga ega yagona didaktik va metodik tizim – bu ...

- a) pedagogik kuzatish;
- b) pedagogik o'rganish;
- c) pedagogik nazorat;**
- d) pedagogik baholash;

2. Nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv faoliyati hajmini ham aniqlash tekshirishning ... sanaladi.

- a) yo'nalishi;
- b) maqsadi;
- c) shakli;
- d) vositasi.

3. Boshlang'ich, joriy va yakuniy nazorat. Ular pedagogik nazoratning ...

- a) ko'rinishlari;
- b) bosqichlari;
- c) shakllari;
- d) turlari.**

4. Joriy nazoratning maqsadi ...

- a) ta'lim jarayonining mohiyatini o'rganish;
- b) ta'lim jarayonining borishini kuzatish;**
- c) ta'lim jarayonining natijalarini tahlil qilish;
- d) ta'lim jarayonining natijalarini baholash.

5. Bosqichli, chegaraviy va yakuniy nazorat. Ular ... nazoratning turlari.

a) boshlang'ich;

b) joriy;

c) yakuniy;

d) asosiy.

6. PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study), TIMSS

(Trends in International Mathematics and Science Study), PISA (The Programme for International Student Assessment), TALIS (The Teaching and Learning International Survey). Ular – ...

a) milliy baholash dasturlari;

b) mintaqaviy baholash dasturlari;

c) xalqaro baholash dasturlari;

d) mahalliy baholash dasturlari.

7. Tekshirish, tashxislash, ta'lim berish, tarbiyalash, rahbatlantirish va rivojlantirish, axborot berish, qiyoslash hamda baholash. Ular pedagogik nazoratning asosiy ...

a) turlari;

b) tamoyillari;

c) shakllari;

d) funksiyalari.

8. Ilmiylik va samaradorlik, ierarxik tuzilmaga egalik, tizimlilik, adolatli yondashuv va xolislik, keng qamrovlilik va to'liqlik. Ular pedagogik nazoratning

a) turlari;

b) tamoyillari;

c) shakllari;

d) funksiyalari.

9. Shaxsning zarur irodaviy sifatlarini namoyon etgan holda turli vazifalarda o'z qarashlari, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari, xulq-atvorini nazorat ostiga olish malakasiga egaligi – bu ...

a) o'zini o'zi nazorat qilish;

b) o'zini o'zi boshqarish;

c) o'zini o'zi baholash;

d) o'zini o'zi yo'naltirishi.

10. ... – shaxsning muloqot, xulq-atvor hamda faoliyatda o'z faolligini boshqarish asosida maqsadga muvofiq holda o'zgarishi.

a) o'zini o'zi nazorat qilish;

b) o'zini o'zi boshqarish;

c) o'zini o'zi baholash;

d) o'zini o'zi yo'naltirishi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Дудина М.М., Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во Рос.гос.проф.-пед. унив-та. 2016. – 190 с.
2. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.
3. Pedagogik diagnostika / Ma'ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Rahmatova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.
4. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.
5. Yo'ldoshev J.G'., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O'quv-metod.qo'll. – 2014. – 96 b.

II. BOB. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING AMALIY ASOSLARI

7-mavzu. O‘quv jarayonini tashkil etishning umumiy diagnostikasi

Reja:

1. Psixologik-pedagogik metodikalar va ularning ta’lim jarayonini tashxislashdagi o‘rni.
2. P.I.Tretyakovning “Ta’lim olganlik darajasini tashxislash” metodikasi.
3. G.A.Ruskiy tomonidan asoslangan “O‘quvchilarning o‘quv materiallari matni bilan mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tashxislash” kabi metodikasi.

Tayanch tushunchalar: metod, tashxis metodi, metodika, tashxislovchi metodika.

I. Psixologik-pedagogik metodikalar va ularning ta’lim jarayonini tashxislashdagi o‘rni. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida pedagogik diagnostikani tashkil qilishda tashxislovchi metodlar bilan birga psixologik-pedagogik xarakterga ega mualliflik metodikalari ham qo‘llaniladi.

Psixologik-pedagogik diagnostika metodikalari shaxsning individual psixologik o‘ziga xosliklari hamda axloqiy fazilatlariga egalik darajasini o‘lchash hamda baholashga qaratilgan faoliyatning shakl, metod va vositalari yig‘indisi.

Psixologik hamda pedagogik adabiyotlarning aksariyatida tashxislash maqsadida qo‘llaniladigan barcha psixologik-pedagogik metodikalar bir nom bilan “psixologik testlar” deb nomlanadi⁶³. Metodikalarning bunday nomlanishi xato. Zero, metodikalar sifatida birgina testlardan foydalanilmaydi. Qolaversa, “metodika” tushunchasi negizida faqatgina metodlar ifodalanmaydi. Shu sababli ayni o‘rinda “metodika” tushunchasining mohiyatini tushunib olish talab qilinadi.

Metod (yun. “methodos” — put issledovaniya ili poznaniya) – ta’lim (tarbiya) maqsadiga erishishning yo‘li, usuli; “doimiy ravishda rivojlanib va shaklan o‘zgarib boradigan usul yoki uslublar, usullar va qadamlar, harakatlar”⁶⁴.

Etimologik nuqtai nazardan “metodika” tushunchasi “metod” + “ika” qo‘shimchasi yordamida hosil qilingan. Rus tilida “ika” (eka, teka, dika) qo‘shimchasi “saqlanadigan joy”, “jamlanma” ma’nolarini bildiradi. Masalan, **Biblioteka** – Bibliyalar saqlanadigan joy; **kartoteka** – yig‘ilib, tartiblangan, mazmun bo‘yicha ajratilgan ma’lumotlar qayd qilingan bir xil hajmdagi kartochka yoki varaqalar jamlangan joy; **metodika** – metodlar jamlanmasi.

Biroq, ayni o‘rinda shuni ham aytib o‘tish joizki, metodika faqatgina metodlar yig‘indisidan tashkil topmaydi. Nazariy jihatdan metodika muayyan maqsadga

⁶³ Педагогическая диагностика // https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Pedagog/konspekt/66.php.

⁶⁴ Метод, методология, методика, инструмент // https://studme.org/144026/psihologiya/metod_metodologiya_metodika_instrument.

erishish yoʻlida oʻqituvchi tomonidan tanlangan pedagogik faoliyat shakllari, metodlari va vositalarining yigʻindisidan tarkib topadi.

***Metodika** – aniq belgilangan maqsadga erishish yoʻlida, maʼlum vazifalarni bajarishda foydalaniladigan pedagogik faoliyatning tashkiliy shakllari, metodlari va vositalari jamlanmasi hisoblanadi.*

Agarda metod umumiy xarakterga ega boʻlsa, undan farqli ravishda metodika xususiy xarakter kasb etadi. Yaʼni, har bir metodika muayyan shaxsning muallifligida asoslanadi. Pedagogik va psixologik jarayonlarda ikki turdagi metodikalardan foydalaniladi. Yaʼni:

1) boshqalar tomonidan ilmiy-metodik jihatdan asoslangan va pedagogik, psixologik tashxislash jarayonlarida muvaffaqiyatli sinovdan oʻtgan mualliflik metodikalari;

2) oʻrganilayotgan mavzuning gʻoyasi, uning negizida aks etgan yoʻnalish mohiyati, oʻquvchilarga taqdim etiladigan oʻquv materialning mazmuni, tashxislanishi kutilayotgan holat (oʻquvchilarning bilim, koʻnikma, malakalari yoki axloqiy tarbiyalanganligi)ning oʻziga xos jihatlari inobatga olgan holda har bir oʻqituvchi tomonidan majmuaviy, tizimli ravishda qoʻllaniladigan metodikalar.

Psixolog S.L.Rubinshteyn metodikani xususiy, yordamchi hamda muayyan vaqt oraliqlarida qoʻllaniladigan ilmiy-tadqiqot xarakteridagi metod deb hisoblaydi⁶⁵.

Tashxislash maqsadida qoʻllaniladigan metodikalarni ishlab chiqish murakkab jarayondir. Turli psixologik hamda pedagogik muammolarni samarali tadqiq qilishga boʻlgan ehtiyoj pedagog hamda psixologlarni mualliflik metodikalarini shakllantirishga ragʻbatlantirdi. Soʻnggi oʻn yillikda esa ham pedagogika ham psixologiya sohasida tashxislovchi xarakterga ega mualliflik metodikalarini ishlab chiqishda oʻziga xos tajriba toʻplandi. Buning natijasida tashxislashda qoʻllaniladigan metodikalarni guruhlariga ajratib oʻrganish imkoniyati yuzaga keldi. Ayni vaqtda ular quyidagicha guruhlanmoqda:

1. Rasman eʼtirof qilingan metodikalar. Bu guruhga testlar, anketalar, loyihaviy texnika metodikasi (loyihalar yoki modellar), psixologik-fiziologik metodikalarni kiritish mumkin. Bu guruhga kiritilgan metodikalar uchun quyidagi xususiyatlar xos:

vaqtning aniq belgilanganligi;

tekshirish yoki sinovning moddiylashganligi (koʻrsatmagan qatʼi amal

qilinishi; taqdim etilgan materialga nisbatan rugʻbatni yuzaga keltirish usullarining qatʼi belgilanganligi;

tashxis jarayoniga subʼektlar taʼsirining boʻlmasligi va boshqalar);

standartlashganlik (yaʼni, tashxislovchi tadqiqot natijalarini qayta ishlash hamda taqdim qilishning belgilangan yagona talabga muvofiq amalga oshirilganligi);

⁶⁵ Метод, методология, методика, инструмент // https://studme.org/144026/psihologiya/metod_metodologiya_metodika_instrument.

ishonchlilik;
haqqoniylik.

2. Kam darajada rasman e'tirof qilingan metodikalar. Ularga quyidagilar kiradi: pedagogik-psixologik kuzatish; suhbatlar; faoliyat natijasida yaratilgan mahsulotlarni tahlil qilish. Pedagogik jarayonda bu turdagi metodikalardan foydalanish bir muncha qiyin kechadi. Masalan, psixologik-pedagogik kuzatish ba'zan bbir necha oy davomida olib boriladi. Kam darajada rasman e'tirof qilingan metodikalarni rasman e'tirof qilingan metodikalarga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Zero, ular bir-birini to'ldiradi. Tashxislashni to'laqonli amalga oshirish uchun har ikki guruhga kiruvchi metodikalarni birgalikda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Misol uchun test natijalarini tahlil qilishda qo'shimcha ravishda intervyu, suhbat va psixologik-pedagogik kuzatishdan iborat metodikadan foydalanish yanada samarali hisoblanadi.

Ta'lim jarayonini samarali tashxislovchi metodikalar orasida bugungi kunda P.I.Tretyakov⁶⁶ tomonidan asoslangan "Ta'lim olganlik darajasini tashxislash" va G.A.Russkiy⁶⁷ tomonidan ishlab chiqilgan "O'quvchilarning o'quv materiallari bilan mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tashxislash" kabi metodikalar alohida o'rin tutadi.

II. P.I.Tretyakov⁶⁸ning "Ta'lim olganlik darajasini tashxislash" nomli metodikasi o'quvchilar uchun turli murakkablik darajasidagi mustaqil ishlarni bajarish ko'nikmasini egallaganlikni namoyish qilish, bilish faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatishga doir dasturlarni loyihalash imkoniyatini yaratish maqsadini nazarda tutadi.

Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining o'zi o'zlashtirgan ilmiy bilimlar tizimi asosida ma'lumotlarni:

- 1) farqlash;
- 2) yodda saqlash;
- 3) qayta yodga olish;
- 4) amalda qo'llash;
- 5) ijodiy ishni namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Metodika o'z mohiyatiga ko'ra o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari

(BKM)ni baholash maqsadida ularning e'tiboriga quyidagi mazmunga ega mustaqil ishlarini tavsiya etishi maqsadga muvofiq ekanligini nazarda tutadi:

⁶⁶ Пудочкина Т.С. Педагогическая диагностика: инструментарий, организация, проведение, обработка и использование результатов // www/openclass.ru/node/249066.

⁶⁷ Криллова А.В. Повышение эффективности и качества урока на этапе закрепления материала / <http://kirillova.nsknet.ru/metodika-prepodavaniya-anglijskogo-jazyka-v-povyshenie-effektivnosti-i-kachestva-uroka..>

⁶⁸ Пудочкина Т.С. Педагогическая диагностика: инструментарий, организация, проведение, обработка и использование результатов // www/openclass.ru/node/249066.

№	Topshiriqlar mazmuni	BKMni o'zlashtirish darajasi
1	2	3
1.	Taqqoslang, tanlang, qiyoslang, ortiqcha ... ni toping	1-daraja: farqlash
2.	Qayta tasvirlang, chizing, yozing, o'rtog'ingizga qayta hikoya qilib bering	2-daraja: yodda saqlash
1	2	3
3.	Nega, nima uchun, nima bilan bog'liq, sabab-oqibat aloqasini toping, nima umumiy bo'lishi mumkin, yagona birlikni toping, umumlashtiring	3-daraja: qayta yodga olish
4.	Namuna bo'yicha, qoidaga muvofiq, formula asosida bajaring, aytib bering, nimadir nima bilan qiyoslang, qandaydir xossasini aniqlang	4-daraja: amalda qo'llash
5.	Ijod qiling, o'ylab toping, loyihalashtiring, modellashtiring, isbotlang, yechimini toping	5-daraja: ijodiy ishni namoyish qilish

O'qituvchi o'quvchilarning faoliyati, ijodiy ishlarini baholash uchun metodikani qo'llash avvalida ularning e'tiborlariga o'zlashtirganlik darajasi va ularga qo'yiladigan baho ko'rsatkichlarini ifodalovchi quyidagi mezonlarni havola etishi lozim:

O'zlashtirganlik darajasi	Baho
Variant I: 1, 2	"3"
Variant II: 2, 3, 4	"4"
Variant III: 4, 5	"5"

Metodikaning afzalligi shundaki, unga ko'ra o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalar (BKM)ning o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi variantlar va baholar ko'rsatkichlarini o'zlari tanlashi mumkin. Bu degani, ularning o'zlari o'qituvchi tomonidan taklif etilayotgan topshiriqlarni ham mustaqil tanlaydi.

O'qituvchi o'quvchilarning mustaqil tanloviga ko'ra bajargan ishlarini baholab boradi. Uning bu boradagi harakati natijasi quyidagi jadvalda o'z aksini topadi:

O'quvchilarning ismi, familiyasi	Topshiriqlarning to'liq va to'g'ri bajarilganligi					Xulosa
	O'zlashtirganlik darajasi					
	Farqlash	Yodda saqlash	Qayta yodga olish	Amalda qo'llash	Ijodiy mahsulotni namoyish qilishi	
...						

III. G.A.Russkiy⁶⁹ning “O‘quvchilarning o‘quv materillari bilan mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tashxislash” metodikasi o‘zida o‘quvchilar tomonidan mavzu bo‘yicha bilimlar tizimini o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash va ularning bilish faoliyatini takomillashtirish, to‘g‘rilashga imkon beruvchi individual dasturlar loyihasini tuzishdan iborat maqsadni ifodalaydi.

Bilim – ta‘lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, usiz maqsadga muvofiq harakatlarni tashkil etish mumkin emas. Bilimlar tizimining asosiy vazifasi – borliqning umumiy manzarasini hosil qilish, bilish, amaliy va ijtimoiy faoliyat vositasi bo‘lishdan iborat. Didaktikada bilimlar tizimi ikki katta guruhga ajratiladi. Ular:

1) amaliy bilimlar (tushunchalar, raqamlar, dalillar, tasavvurlar);

2) nazariy bilimlar (atamalar, sabab-oqibat aloqalari, qonuniyatlar, qonunlar, tamoyillar, nazariyalar).

Murakkablik vektori atamalardan qonunlar va nazariyaga tomon boradi.

Metodikani qo‘llashda o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bilimlar tizimi tuzilishiing mantig‘ini ifodalovchi savollarni taklif qiladi. Ya‘ni:

I. Amaliy bilimlarni o‘zlashtirishga doir:

1. Terminologiyani o‘zlashtirish: nomlash, sanash, to‘g‘ri javobni belgilash, ortiqcha ...ni topish.

2. Raqamli materialni o‘zlashtirish: qancha, qachon, raqamlarni sanash, ... tasdiqlovchi raqamli dalillarni belgilash.

3. Dalillarni o‘zlashtirish: qanday dalillar ...ni tasdiqlaydi, ... qaerda joylashgan, bu qanday yuz berdi, ... ning asosiy belgilari nimalardan iborat.

4. Tasavvurni o‘zlashtirish: ... to‘g‘risida hikoya qilish, ... ning tashqi belgilarini tasvirlash, ... ga ta‘rif berish.

II. Nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga doir:

1. Tushunchani o‘zlashtirish: tushunchaning mohiyatini yoritish, bu nima?, ... uchun xarakterli belgilar qaysilar?, Tushunchaning ahamiyatli belgilarini sanash.

2. Sabab-oqibat aloqalari (to‘g‘ri aloqalari)ni bilish: nima sodir bo‘ladi, agarda ...?, ... ning qanday oqibatlari mavjud?

3. Sabab-oqibat aloqalari (teskari aloqalari)ni bilish: Nima uchun?, Qanday sababga ko‘ra?

4. Qonuniyatlarni bilish: Qanday o‘zaro bog‘liklarga ega?, Bog‘liqlik nimadan iborat?, Qanday bog‘lanadi?

5. Qonunlarni bilish: qonunlarni o‘qing, ... ni isbotlab bering, ... ning harakatlarini ... qonuniga muvofiq asoslash.

6. Nazariyani o‘zlashtirish: nazariyani hikoya qiling, ... nazariyasi nuqtai nazaridan tushuntirish.

O‘quvchilar faoliyati natijalarini tekshirishda o‘qituvchi quyidagi jadvalni to‘ldiradi:

⁶⁹ Криллова А.В. Повышение эффективности и качества урока на этапе закрепления материала / <http://kirillova.nsknet.ru/metodika-prepodavanija-anglijskogo-jazyka-v-povyshenie-effektivnosti-i-kachestva-uroka>.

O'quvchilarning ismi, familiyasi	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	Ballar soni	%	Xulosa
...													

Eslatma: garada o'quvchi to'g'ri javob qaytarsa, u holda 1 ball, bordi-yu, xatoga yo'l qo'ysa, unda 0 ball qo'yiladi. To'plangan ballarning yig'indisiga muvofiq o'quvchilar tomondan bilimlar tizimini o'zlashtirish darajasi aniqlanadi.

Ballarning umumiy soni asosida besh balli tizim ko'rsatkichlari (baholari) belgilanadi. Ya'ni:

- 1) 0-8 ball – eng yuqori daraja: “5”;
- 2) 7-6 ball – o'rta daraja: “4”;
- 3) 5-4 ball – past daraja: “3”.

Demak, zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Pedagogik tadqiqotlar ta'lim samaradorligini oshirish ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. So'nggi yarim asrlik vaqt oralig'ida ob'ektiv va sub'ektiv omillarni inobatga olgan holda ta'lim samaradorligini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda bu borada bir qator yondashuvlar (m: texnologik, innovatsion, majmuaviy yondashuv)ning ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati katta ekanligi aytilmoqda. Ana shunday yondashuvlardan yana biri tashxisli yondashuvdir. Pedagogik amaliyot tashxisli yondashuv, shu jumladan, P.I.Tretyakov tomonidan asoslangan “Ta'lim olganlik darajasini tashxislash” va G.A.Ruskiy tomonidan ishlab chiqilgan “O'quvchilarning o'quv materaillari matni bilan mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tashxislash” kabi metodikalarning ta'lim, tarbiya jarayonini tashkil etishda alohida amaliy qiymatga egaligini tasdiqlaydi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik-psixologik diagnostika metodlari deganda nimani tushunasiz?
2. Metod va metodika tushunchalari o'rtasida qanday farq mavjud?
3. Psixolog S.L.Rubinshteyn “metodika” tushunchasiga qanday ta'rif bergan?
4. Qanday metodikalar rasman e'tirof qilingan metodikalar sirasiga kiradi?
5. Qanday metodikalarni kam darajada rasman e'tirof qilingan metodikalar sirasiga kiritish mumkin?
6. P.I.Tretyakovning “Ta'lim olganlik darajasini tashxislash” metodikasi mohiyatini qisqacha tavsiflang.
7. G.A.Ruskiyning “O'quvchilarning o'quv materaillari bilan mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tashxislash” metodikasi qanday maqsadni ko'zlaydi?

Test topshiriqlari:

1. Shaxsning individual psixologik o'ziga xosliklari hamda axloqiy fazilatlarga egalik darajasini o'lchash va baholashga qaratilgan faoliyatning shakl, metod va vositalari yig'indisi. Ular psixologik-pedagogik diagnostika

- a) metodologiyasi;
- b) metodlari;
- c) metodikasi;**
- d) vositalari.

2. ... – ta'lim (tarbiya) maqsadiga erishishning yo'li, usuli.

- a) harakat;
- b) texnologiya;
- c) vosita;
- d) metod.

3. Aniq belgilangan maqsadga erishish yo'lida, ma'lum vazifalarni bajarishda foydalaniladigan pedagogik faoliyatning tashkiliy shakllari, metodlari va vositalari jamlanmasi – bu ...

- a) metodika;**
- b) metod;
- c) metodologiya;
- d) vosita.

4. Metodika ... xarakter kasb etadi.

- a) individual;
- b) ommaviy;
- c) umumiy;
- d) xususiy.

5. Psixolog S.L.Rubinshteynning fikriga ko'ra metodika – bu ...

- a) ikkilamchi metodlar;
- b) yordamchi metodlar;**
- c) og'zaki metodlar;
- d) yozma metodlar.

6. Rasman hamda kam darajada rasman e'tirof qilingan metodikalar. Ular tashxislashda qo'llaniladigan metodikalarning

- a) turlari;
- b) guruhlari;**
- c) shakllari;
- d) vositalari.

7. P.I.Tretyakovning "Ta'lim olganlik darajasini tashxislash" nomli metodikasi uchun vosita – bu

- a) murakkab bo'lmagan ommaviy topshiriqlar;
- b) guruhlarda bajariladigan nazorat ishlari;
- c) turli murakkablikdagi mustaqil ishlar;**

d) individual test topshiriqlari.

8. G.A.Ruskiyning “O‘quvchilarning o‘quv materaillari bilan mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tashxislash” metodikasi ... ni o‘zlashtirishga oid savollardan tashkil topadi.

- a) ratsional va produktiv bilimlar;
- b) ijtimoiy va iqtisodiy bilimlar;
- c) **amaliy va nazariy bilimlar;**
- d) texnik va texnologik bilimlar.

Amaliy topshiriq:

1-topshiriq: P.I.Tretyakovning “Ta’lim olganlik darajasini tashxislash” nomli metodikasi yordamida o‘quvchilarning turli murakkablik darajasidagi mustaqil ishlarni bajarish ko‘nikma, malakalariga egallaganlikni aniqlang.

Ko‘rsatma: o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini nazorat qilish va ular tomonidan turli murakkablikdagi mustaqil ishlarning bajarilish darajasini baholashda quyidagi jadvaldan foydalaning:

O‘quvchilarning ismi, familiyasi	Topshiriqlarning to‘liq va to‘g‘ri bajarilganligi					Xulosa
	O‘zlashtirganlik darajasi					
	Farqlash	Yodda Saqlash	Qayta yodga olish	Amalda qo‘llash	Ijodiy mahsulotni namoyish qilishi	
...						


Baholash tartibi:

O‘zlashtirganlik darajasi	Baho
Variant I: 1, 2	“3”
Variant II: 2, 3, 4	“4”
Variant III: 4, 5	“5”

O‘quvchilarga taqdim qilinadigan topshiriqlar (“Iqtisodiy bilim asoslari” fani bo‘yicha)⁷⁰:

1.1. “Iste‘mol savatchasi”ni zarur mahsulot (tushuncha)lar bilan to‘ldiring. Bu harakatni quyidagicha amalga oshiring: 1) quyida berilgan zarur mahsulot (tushuncha)lar orasidan “Iste‘mol savatchasi”da bo‘lishi zarur bo‘lgan atamalarni tanlab oling; 2) tanlab olingan zarur mahsulot (tushuncha)larni savatcha yonidagi bo‘sh katakka joylashtiring.

⁷⁰ Набиев Ф.А. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг иқтисодий муносабатларга киришиш кўникмаларини ривожлантириш технологиялари (“Иқтисодий bilim asoslari” fani misolida): пед.фанл.бўйича фалс.фанл. (PhD) ... дис. – Наманган: 2021. – 85-87-б.

<i>Iste'mol savatchasi</i>		<i>Zarur mahsulot (tushunchalar)</i>
1. Oziq-ovqat mahsulotlari. 2. Kiyim-kechak. 3. Transport xarajatlari. 4. Uy-joy uchun to'lov. 5. Maishiy xizmat uchun to'lov	6. Uy-ro'zg'or mollari. 7. Madaniy hordiq. 8. Soliqlar. 9. Ta'lim olish va kasb-hunar egallash uchun to'lov. 10. Avtomobil, qimmatbaho jihozlar, buyumlar, qimmatbaho qog'ozlar sotib olish	11. To'y va boshqa marosimlar uchun xarajatlar. 12. Olingan kredit yoki qarzlarni qaytarish. 13. Shaxsiy ehtiyojlar uchun to'lovlar. 14. Sog'liqni saqlash va davolanish xarajatlari

1.2. "Tejamkorlik" tushunchasini uning mohiyatini yorituvchi holatlar bilan juftlang.

Tejamkorlik	Shaxsning tejam bilan ish tutishini anglatuvchi fazilat
	Birovga narsa bermaslikni ifodalovchi xislat
	Birovga pul bermaslikni ifodalovchi xislat
	Tejam asosida iqtisodiy tartibga erishishni anglatuvchi fazilat

1.3. "Domino" o'yini asosida tovarlarning quyidagi shtrix kodlari qaysi davlatga tegishli ekanligini aniqlang. Harakatni quyidagi tartibda amalga oshiring: berilgan shtrix kod qaysi davlatga tegishli ekanligini toping; qaroringiz to'g'ri ekanligi yuzasidan biroz mushohada yuriting; qaroringiz to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilganingizdan keyin tegishli shtrix kodning yonidagi bo'sh katakka u tegishli davlat nomini qo'ying.

Iqtisodiy domino					
Kodlar	Davlatlar	Kodlar	Davlatlar	Kodlar	Davlatlar
00 – 09		73		460	
30 – 37		76		520	
46 – 47		80 – 83		539	
49		84		560	
50		87		729	
57		90 – 91		859	
64		400 – 440		869	
70					
Davlatlar					
Yaponiya		Portugaliya		Rossiya	
Buyuk Britaniya		Isroil		Gretsiya	
Shvetsiya		Chexiya		Irlandiya	
Italiya		Turkiya		Finlandiya	
Ispaniya		Daniya		Germaniya	
Niderlandiya		Avstriya		AQSH, Kanada	
O'zbekiston		Fransiya			
Shveysariya		Norvegiya			

Topshiriqlarning javoblari:

1.1-topshiriq bo'yicha:

<i>Iste'mol savatchasi</i>		Zarur mahsulot (tushunchalar) 1. Oziq-ovqat mahsulotlari. 2. Kiyim-kechak. 3. Transport xarajatlari. 4. Uy-joy uchun to'lov. 5. Maishiy xizmat uchun to'lov. 6. Soliqlar. 7. Sog'liqni saqlash va davolanish xarajatlari
1. Uy-ro'zg'or mollari. 2. Madaniy hordiq. 3. Ta'lim olish va kasb-hunar egallash uchun to'lov	4. Avtomobil, qimmatbaho jihozlar, buyumlar, qimmatbaho qog'ozlar sotib olish 5. To'y va boshqa marosimlar uchun xarajatlar	6. Olingan kredit yoki qarzlarni qaytarish. 7. Shaxsiy ehtiyojlar uchun to'lovlar

1.2-topshiriq bo'yicha:

“Tejamkorlik”: 1) shaxsning tejam bilan ish tutishini anglatuvchi fazilat; 2) tejam asosida iqtisodiy tartibga erishishini anglatuvchi axloqiy fazilat.

1.3-topshiriq bo'yicha:

Iqtisodiy domino					
Kodlar	Davlatlar	Kodlar	Davlatlar	Kodlar	Davlatlar
00 – 09	AQSH, Kanada	73	Shveysariya	460	Rossiya
30 – 37	Fransiya	76	Shvetsiya	520	Gretsiya
46 – 47	O'zbekiston	80 – 83	Italiya	539	Irlandiya
49	Yaponiya	84	Ispaniya	560	Portugaliya
50	Buyuk Britaniya	87	Niderlandiya	729	Isroil
57	Daniya	90 – 91	Avstriya	859	Chexiya
64	Finlyandiya	400 – 440	Germaniya	869	Turkiya
70	Norvegiya				

2-topshiriq. G.A.Ruskiyning “O'quvchilarning o'quv materillari bilan mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tashxislash” metodikasi yordamida ixtiyoriy tanlangan 2-3 nafar o'quvchi tomonidan muayyan mavzu bo'yicha bilimlar tizimini o'zlashtirganlik darajasini aniqlang.

Ko'rsatma: 1. O'quvchining o'quv faoliyatini baholashda quyidagi jadvaldan foydalaning:

O'quvchilarning ismi, familiyasi	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	Ballar soni	%	Xulosa
...													

2. Tashxislash jarayonida o‘quvchi tomonidan quyidagi harakatlarning bajarilganiga e‘tibor qarating:

I. Amaliy bilimlarni o‘zlashtirishga doir:

1. Terminologiyani o‘zlashtirish: nomlash, sanash, to‘g‘ri javobni

2. belgilash, ortiqcha ...ni topish.

3. Raqamli materialni o‘zlashtirish: qancha, qachon, raqamlarni sanash, ... tasdiqlovchi raqamli dalillarni belgilash.

4. Dalillarni o‘zlashtirish: qanday dalillar ...ni tasdiqlaydi, ... qaerda joylashgan, bu qanday yuz berdi, ... ning asosiy belgilari nimalardan iborat.

5. Tasavvurni o‘zlashtirish: ... to‘g‘risida hikoya qilish, ... ning tashqi belgilarini tasvirlash, ... ga ta‘rif berish.

II. Nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga doir:

1. Tushunchani o‘zlashtirish: tushunchaning mohiyatini yoritish, bu nima?, ... uchun xarakterli belgilar qaysilar?, Tushunchaning ahamiyatli belgilarni sanash.

2. Sabab-oqibat aloqalari (to‘g‘ri aloqalari)ni bilish: nima sodir bo‘ladi, agarda ...?, ... ning qanday oqibatlari mavjud?

3. Sabab-oqibat aloqalari (teskari aloqalari)ni bilish: Nima uchun?, Qanday sababga ko‘ra?

4. Qonuniyatlarni bilish: Qanday o‘zaro bog‘liklarga ega?, Bog‘liqlik nimadan iborat?, Qanday bog‘lanadi?

5. Qonunlarni bilish: qonunlarni o‘qing, ... ni isbotlab bering, ... ning harakatlarini ... qonuniga muvofiq asoslash.

6. Nazariyani o‘zlashtirish: nazariyani hikoya qiling, ... nazariyasi nuqtai nazaridan tushuntirish.

O‘quvchilarga 9-sinf uchun mo‘ljallangan “Biologiya (Sitologiya va genetika asoslari)” fanidan quyidagi o‘quv materialini taqdim qilinadi:

2-§. Tiriklikning tuzilish darajalari

Tirik organizmlar yoki biologik tizimlar quyidagi darajalarda bo‘ladi: molekula, hujayra, to‘qima, organ, organizm, populatsiya, biogeotsenoz (ekotizim) va biosfera. Har bir tuzilish darajasida atrof-muhit bilan ya‘ni moddalar, energiya va axborot almashinuvlar natijasida o‘ziga xos muayyan tizimlar kelib chiqadi. Tizim deganda bir butunlikni tashkil etuvchi komponentlarning ma‘lum izchillikdagi o‘zaro bog‘lanishlari va ta‘sirlari tushuniladi. Shunday qilib, tizimning asosiy tarkibiy qismlari komponentlar, bog‘lanishlar va chegaralardir. Barcha tirik organizmlar ochiq tizim hisoblanib, ular tashqi muhit bilan moddalar, energiya va axborot almashinuviga ega.

Molekula. Ushbu bosqichda tirik tizim biologik faol yirik molekulalar, ya‘ni: oqsillar, nuklein kislota va uglevodlarning faoliyat ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Molekula bosqichda aynan tirik materiya uchun xos bo‘lgan quyosh nuri energiyasining organik moddalarda bog‘lanishi kimyoviy energiyaga aylanishi, ya‘ni, moddalar almashinuvi, irsiy belgilarni o‘tkazish hamda tuzilm alarning avlodlardagi barqarorligi singari jihatlar kuzatiladi.

Hujayra. Hujayra tirik organizmlarning tuzilish, rivojlanish va funksional birligidir. Hayotning hujayrasiz shakllari ham mavjud. Buning dalili sifatida viruslarni ko'rsatish mumkin. Ularga xos bo'lgan ayrim tiriklik xususiyatlari faqat hujayrada namoyon bo'ladi.

Biologik m oddalar ushbu bosqichda bir butun tizim sifatida birlashadi. Hujayra tuzilish darajasiga ko'ra barcha tirik organizmlar bir va ko'p hujayralilarga ajraladi.

To'qima. To'qima – kelib chiqishi, tuzilishi va bajaradigan vazifasi o'xshash bo'lgan hujayralar yig'indisidan iborat.

Organ. Organ ko'pchilik hayvonlarda bir necha turdagi to'qimalarning tuzilish va funksional yig'indisi hisoblanadi. Masalan, odamning terisi epiteliy va biriktiruvchi to'qimalardan iborat, ular bir necha vazifalarni bajaradi.

Organizm. Organizm mustaqil hayot kechiruvchi yaxlit yoki bir va ko'p hujayrali tirik tizimdan iborat. Ko'p hujayrali organizm har xil vazifalarni bajarishga moslashgan to'qima va organlardan tashkil topadi.

Populatsiya – tur. Populatsiya kelib chiqishi, yashash sharoiti va hayot tarzlari bir xil (o'xshash) organizmlarning yig'indisidan iborat. Ushbu bosqichda dastlabki evolutsion o'zgarishlar kuzatiladi.

Biogeotsenoz. Bir-biri va atrof- muhit bilan o'zaro munosabatda bo'ladigan organizmlarning populatsiyalari biogeotsenozlar deb ataladi. Biogeotsenozdagi hayot jarayonlarini tashqaridan keladigan energiya ta'minlagani uchun uni ochiq, o'zini o'zi boshqaradigan sistema deyiladi.

Biogeotsenozning asosiy vazifasi energiyani to'plash va taqsimlashdir. Biosfera. Sayyoramizdagi hayotning barcha ko'rinishlarini qamrab olgan, ancha yuqori darajadagi tabiiy tizimdir. Biosfera yerdagi turli-tuman hayot ko'rinishlarini qamrab oladi. Biosfera bosqichida sayyoramizdagi tirik organizmlarning hayot faoliyati bilan bog'liq ravishda barcha moddalar va energiyaning davriy aylanishi kuzatiladi.

ESlatma: agarda o'quvchi to'g'ri javob qaytarsa, u holda 1 ball, bordi-yu, xatoga yo'l qo'ysa, unda 0 ball qo'yiladi. To'plangan ballarning yig'indisiga muvofiq o'quvchilar tomondan bilimlar tizimini o'zlashtirish darajasi aniqlanadi.

Ballarning umumiy soni asosida besh balli tizim ko'rsatkichlari (baholari) belgilanadi. Ya'ni:

- 1) 0-8 ball – eng yuqori daraja: “5”;
- 2) 7-6 ball – o'rta daraja: “4”;
- 3) 5-4 ball – past daraja: “3”.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Дудина М.М., Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во Рос.гос.проф.-пед. унив-та. 2016. – 190 с.
2. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.

3. Pedagogik diagnostika / Ma'ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Raxmatova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.
4. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.
5. Yo'ldoshev J.G', Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O'quv-metod.qo'll. – 2014. – 96 b.

8-mavzu. O‘quvchilarning aqliy rivojlanish diagnostikasi

Reja:

1. O‘quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini tashxislash.
2. P.I.Tretyakovning “Yaqin va bevosita rivojlantiruvchi hududni tashxislash” metodikasi.
3. G.A.Ruskiyning “Bilimlar tizimini o‘zlashtirganlik darajasini tashxislash” metodikasi.
4. O‘quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi metodlar.

Tayanch tushunchalar: aqliy rivojlanish, tashxislash, aqliy rivojlanish darajasi, aqliy rivojlanish darajasini tashxislash, o‘quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini tashxislovchi metodikalar, kreativ fikrlash, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi metodlar.

I. O‘quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini tashxislash.

Globalashuv sharoitida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni ifodalovchi ijtimoiy-pedagogik talab yangi tamoyillar bilan boyitilgan holda takomillashuvga erishib bormoqda. Agarda mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish talabi pedagogik fikrlar va maktablar taraqqiyoti tarixining dastlabki bosqichlarida ijtimoiy sub’ektning estetik hissiyotlarga boy bo‘lishiga erishish negizida qondirilgan. Kishilik munosabatlari tarixining keyingi davrlarida shaxs faoliyatining o‘ziga xos original, juz’iy g‘oyalarga ega bo‘lishiga erishish bilan tavsiflangan.

Shaxsning aqliy rivojlanishi uning ongi, tafakkurini rivojlanganidan dalolat beradi.

*Aqliy rivojlanish – shaxs fikrlash qobiliyati, tafakkurining rivojlanishi, intellektual salohiyati darajasining oshishi*⁷¹.

Umumiy holda fiziologik va intellektual jihatdan turli yosh davrlari shaxsning muayyan darajada fikrlash qobiliyati, tafakkur darajasini ega bo‘lishini namoyon qiladi. Biroq, bu degani ma’lum intellektual rivojlanish darajasi ayni bir davrdagi yosh xususiyatlariga bog‘liq, degani emas. Ba’zi 5-6 yoshli bolaning xotirasi, nutqi, fikrlash qobiliyati, mantiqiy mulohazalari 30-40, hatto 50 yoshli kishining bu turdagi rivojlanish holatidan yuqori bo‘lishi mumkin. Bu holat psixologiyada noyob qobiliyat, deb yuritiladi.

Masalan, buyuk mutafakkir, hazrati Alisher Navoiy 5 yoshida Fariduddun Attorning “mantiq ut-tayr” asarini to‘la yod olgan⁷² bo‘lsa, rus she’riyatining dahosi Aleksandr Pushkin esa o‘z xotiralarida “13 she’rlar yozishni va xuddi shu davrdan ularni chop ettirishni boshladim”⁷³, deb yozgan edi.

⁷¹ Большая психологическая энциклопедия / Самое полное современное издание. – М.: Эксмо, 2007. – С. 160.

⁷² Фаридиддин Аттор (1145-1221) // <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/fors-tojik-sheriyati/fariduddin-attor>.

⁷³ Биография Александра Сергеевича Пушкина (1799-1837) // <https://pushkinland.ru/2018/pushkin/push1.php>.

Shaxs (o'quvchi)ning aqliy rivojlanish darajasi – shaxs fikrlash qobiliyati, tafakkuri, intellektual salohiyatining muayyan pog'onasi, holati.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim sifatini tahlil qilish va baholashda ta'lim oluvchining aqliy rivojlanish darajasi tashxislanadi. Odatda ta'lim tizimida shaxsning aqliy rivojlanish darajasi o'quvchi tomonidan o'quv fanlarini o'zlashtirish, turli murakkablikdagi savollarga javob topish, topshiriqlarni bajarish, muammoli vaziyatlarning yechimini hal qilishdagi layoqati, imkoniyati bilan belgilanadi.

Shaxs (o'quvchi)ning aqliy rivojlanish darajasini tashxislash – u tomonidan o'quv fanlarini o'zlashtirish asosida uning fikrlash qobiliyati, tafakkuri, intellektual salohiyatining muayyan pog'onaga egaligini, holatini tahlil qilish hamda baholash.

Har qanday tashxislashda bo'lgani kabi o'quvchining aqliy rivojlanish darajasini tashxislash aniq maqsadga muvofiq amalga oshiriladi. O'quvchining aqliy rivojlanish darajasini tashxislash **maqsadi** – uning o'quv fani (fanlari)ni samarali o'zlashtirishda erishayotgan yutuqlari darajasini baholash hamda omillarini aniqlash yoki o'quv materialini o'zlashtirishda u duch kelayotgan qiyinchiliklarni, ularning sabablarini tahlil qilish orqali fikrlash qobiliyati, tafakkuri, intellektual salohiyatining muayyan darajasini belgilashdan iborat.

Bu jarayonda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

maqsaddan kelib chiqqan holda tashxislashning samarali bo'lishini ta'minlovchi metod, vosita hamda texnologiyalarni tanlash;

ular asosida tashxislovchi (nazorat, sinov) materiallarni tayyorlash;

tayyorlangan tashxislovchi (nazorat, sinov) materiallarni o'quvchi yoki o'quvchilar guruhiga taqdim etish;

o'quvchi yoki o'quvchilarning tashxislovchi (nazorat, sinov) materiallar bo'yicha javoblar natijalarini umumlashtirish;

umumlashtirilgan javoblar natijalarini tahlil qilish va baholash;

baholash natijalari e'lon qilish;

yakuniy natijalarga tayangan holda ta'limning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash yoki ta'lim sifatini yaxshilashga doir dasturni ishlab chiqish.

Zamonaviy sharoitda shaxsning kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi uning aqliy salohiyatga egaligini ifodalaydi. Shu sababli mavzuni o'rganishda shaxsning kreativ qobiliyatining rivojlanganlik darajasini tashxislovchi metod va metodikalar xususida so'z yuritiladi.

Kreativ tafakkurning darajasi fikriy tezlik, vaziyatni har tomonlama tahlil qilish, yechim sifatida ko'plab g'oyalarni ilgari surish, ularni sintezlash, eng maqbul variantni yechim sifatida tanlash, yechimni bayon qilish, yechim asosida amaliy qiymatga ega mahsulotni yaratishga qaratilgan fikriy + kinestetik (bevosita bajarilgan) harakatning samaradorligi bilan aniqlanadi.

II. P.I.Tretyakov⁷⁴ning “Yaqin va faol rivojlantiruvchi hududni tashxislash” nomli metodikasi o‘quvchilarga ta’lim berishning istiqbollarini aniqlash maqsadini ko‘zlaydi. Metodikani qo‘llash jarayonida o‘qituvchi quyidagi harakatlarni bajaradi:

1. 7-8 daqiqa ichida bajarish imkoniyatini ta’minlovchi unchalik katta hajmga ega bo‘lmagan o‘quv materialini tanlaydi.

2. O‘quvchilar tomonidan yangi axborot, ma’lumotlarni qabul qilishga yordam beruvchi namunani ko‘rsatadi.

3. O‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun mustaqil ravishda takror-takror mashq qilishlariga imkoniyat yaratadi.

4. O‘quvchilar tomonidan o‘z-o‘zini tekshirishga imkon beradigan mustaqil ishlarni o‘tkazadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi. Agarda o‘quvchilar bu muddatda topshiriqni bajarmasa, u holda o‘qituvchi marta yangi material mazmunini yana bir marta tushuntiradi. O‘quvchilarga bir shart bilan mustaqil ishni yakunlash uchun imkoniyat beriladi. Bu shart mazmuni shundan iboratki, o‘quvchilarga berilayotgan imkoniyat o‘z-o‘zini nazorat xarakteriga ega bo‘lishi kerak.

Topshiriqlarni hal qilish natijasi quyidagi jadvalda o‘z ifodasini topishi lozim:

O‘quvchilarning ismi, familiyasi	Nazorat vaqtida xatosiz bajarilgan	Xatosiz bajarilgan	Xatolar mavjud	FRH va YaRH bo‘yicha xulosa
...				

Eslatma: FRH – faol rivojlantirish hududi;

YaRH – yaqin rivojlantirish hududi.

Faol rivojlanish hududi (FRH) o‘quvchi tomonidan muayyan mavzu bo‘yicha zarur BKMni puxta o‘zlashtirilganligini, yaqin rivojlanish hududi (YaRH) jsa o‘quvchi tomonidan tegishli mavzu yuzasidan BKMning minimal darajasi yetarlicha o‘zlashtirilmaganligini ifodalaydi. O‘quvchi faoliyati tashxisining qanday ko‘rsatkichga egaligi unga mavzuni qayta tushuntirish zarur yoki zarur emasligidan dalolat beradi.

⁷⁴ Пудочкина Т.С. Педагогическая диагностика: инструментарий, организация, проведение, обработка и использование результатов // www.openclass.ru/node/249066.

Agarda o'quvchi topshiriqni qiyinchiliksiz bajarsa, u holda u faol rivojlanish hududi (FRH)dan, bordi-yu, topshiriqni bajarish jarayonida qiyinchiliklarni his qilsa, u holda yaqin rivojlanish hududi (YaRH)dan o'rin oladi.

Zaruriyat yuzaga kelsa, o'rganilgan mavzu bo'yicha bilim, ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qo'shimcha mashg'ulot tashkil etiladi.

III. G.A.Russkiy⁷⁵ning "Bilimlar tizimini o'zlashtirganlik darajasini tashxislash" metodikasi o'zida o'quvchilarning manbalar (o'quv materiali matni, ilmiy maqola) bilan mustaqil ishlash, har bir o'quvchining bilish faoliyatini takomillashtirish (to'g'rilash) dasturini loyihalash ko'nikmalarini o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadini ifodalaydi.

O'qituvchi o'quvchilar tomonidan yangi mavzuni o'zlashtirish jarayonida ularga quyidagi mazmundagi mustaqil ishlarni topshiradi:

1) darslikning ... sahifasidagi matnni o'qish (o'quv materiali hajmi 8-10 ta xatboshidan iborat bo'lib, ularni o'rganish uchun 3 daqiqa talab etiladi);

2) o'quv materiali bo'yicha qisqacha konspekt olish;

3) o'quv materialining murakkabligidan kelib chiqib, 3 ta savol tuzish;

4) tuzilgan savollarga javob qisqacha javob qaytarish;

5) tuzilgan savollarni kartochkada ifodalash;

6) kartochkalarni sherigi bilan almashtirish;

7) sherigining savoliga yozma ravishda qisqacha javob yozish;

8) sherigining javobini baholash.

O'quvchilar faoliyati natijalarini tahlil qilish chog'ida o'qituvchi tomonidan ularning quyidagi ko'nikmalarga egaliklari darajasi aniqlanadi:

I qism.

1. O'quv materialining asosiy mazmunini tushunib olish.

2. O'quv axborotini konspekt sifatida qayd qilish.

3. Savol tuzish uchun o'quv axborotining mohiyatini tushunish.

4. Mazmunli savollarni tuzish.

5. Tuzilgan mazmunli savollarga javob qaytarish.

II qism.

1. Muammoli savollarni tuzish.

2. O'zi yoki sherigi tomonidan tuzilgan muammoli savollarga javob qaytarish.

3. Sherigining javobini baholash.

4. Sherigining javobini to'g'rilash yoki unga qo'shimcha qilish.

5. Mustaqil ishlash jarayonida vaqtni oqilona taqsimlash.

Tahlil natijalari o'qituvchi tomonidan jadvalda ifodalanadi. Jadval asosida o'qituvchi har bir o'quvchining yutuqlari hamda mustaqil bilish darajasini aniqlaydi. Bunda u quyidagi jadval asosida ish ko'radi:

⁷⁵ Криллова А.В. Повышение эффективности и качества урока на этапе закрепления материала / <http://kirillova.nsknet.ru/metodika-prepodavanija-anglijskogo-jazyka-v-povyshenie-effektivnosti-i-kachestva-uroka>.

O'quvchilarning ismi, familiyasi	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	Ballar soni	%	Xulosa
...													

Eslatma: agar o'quvchi tegishli ko'nikmaga ega bo'lsa, u holda 3 ball; topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelsa – 2 ball; agar xatoga yo'l qo'ysa, ammo qanday harakat qilish kerakligini bilsa – 1 ball; agarda tegishli ko'nikma shakllanmagan bo'lsa u holda – 0 ballga ega bo'ladi.

Yig'ilgan ballarning umumiy soniga ko'ra o'quvchining mustaqil ishlarni bajarishga tayyor ekanlik darajasi ma'lum bo'ladi. Ballarning umumiy soni asosida besh balli tizim ko'rsatkichlari (baholari) belgilanadi. Ya'ni:

- 1) 30 ball – eng yuqori daraja: “5”;
- 2) 27-29 ball – yuqori daraja: “5”;
- 3) 25-26 ball – o'rta daraja: “4”;
- 4) 20-24 ball – past daraja: “3”.

Agar o'quvchida tashxisning 1-qismi bo'yicha ko'nikmalar shakllangan bo'lsa, bu holat uning samarali ko'nikmalarga egaligini tasdiqlaydi va u o'qituvchining yordamisiz ham mustaqil ishlarni bajara oladi.

O'quvchida tashxisning 1- va 2-qismlari bo'yicha ko'nikmalar shakllangan bo'lsa, bu holat uning ijodiy ko'nikmalarga egaligini tasdiqlaydi va u turli murakkablikdagi topshiriqlarni ham mustaqil bajara oladi.

IV. O'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi metodlar.

Shaxsda kreativlik sifatlarini shakllantirish muammosi iqtisodiy jihatdan yetakchilik qilayotgan davlatlarda o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab izchil o'rganila boshlangan. Aynan shu vaqtda kompyuter texnologiyalarining yaratilishi kishilik jamiyati tarixida yangi davrni boshlab bergan bo'lib, inson ongi, tafakkuri istiqbolni belgilovchi muhim omil sifatida e'tirof etilishi uchun asos bo'ldi. Kompyuter texnologiyasining yaratilishi birgina g'oya bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga jiddiy ta'sir ko'rsatish, oylab, yillab amalga oshiriladigan monitoring jarayonini qisqartirish, vaqtni tejash hisobiga mehnat samaradorligi va unumdorligiga erishish mumkinligini isbotladi.

Shu sababli iqtisodiy jihatdan gegemon sanaluvchi davlatlarda yangi g'oyalarni yaratish hisobiga qo'l kuchi yoki texnika vositasida amalga oshiriladigan inson mehnatini yanada optimallashtirishga asosiy e'tibor qaratildi. “Kreativlik” deya baholanuvchi orginal fikrlash jarayonini aks ettiradigan sub'ektiv hodisa bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida rivojlanishni

belgilovchi “tayanch nuqta”ga aylandi. Bu esa o‘z navbatida kreativ fikrlovchi shaxsni tarbiyalash masalasining dolzarblik kasb etishiga olib keldi⁷⁶.

“Kreativlik” (ingl. “create” – yaratish, “creative”) tushunchasi esa lug‘aviy jihatdan “yaratuvchanlik”, “ijodkorlik”⁷⁷ ma’nolarini anglatib, mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida uning muvaffaqiyatini ta’minlash yo‘lida tashqi va ichki omillar ta’sirisiz ham kutilmagan fikrlarni ilgari surish, muammoli vaziyatlarda ham o‘ziga xos original yechimlarni topish, takrorlanmas mahsulotlarni yaratish qobiliyatiga egalikni ifodalaydi. Ya’ni, kreativ mahsulotni yarata olishi uchun mutaxassisga tashqi (ob’ekt, predmet, buyum, hodisa) yoki ichki (hissiy kechinma: zavqlanish, quvonish, qayg‘urish, g‘amga botish va) omillarning ta’sir ko‘rsatishi shart emas va u bunday natijaga yuqori darajada kompetentlik sifatlariga egaligi tufayligina muvaffaq bo‘la oladi. Boshqacha aytganda, kreativlik ijodkorlik negizida rivojlanib, uning yuqori darajasi sanaladi. Agarda ijod mahsulotlari ijtimoiy sub’ektlarga hissiy, estetik ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lsa, kreativ mahsulotlar o‘zida ikki jihatni namoyon qiladi: birinchidan, shaxsga hissiy, estetik ta’sir ko‘rsatadi, ikkinchidan, amaliy qiymatga ega bo‘lib, undan turli ehtiyojlarni qondirish (masalan, ozuqa sifatida iste’mol qilish, maishiy buyum sifatida foydalanish va h.k.) uchun xizmat qiladi.

1922 yilda Ray M.Simpson tomonidan chop etilgan “Creative Imagination” (“Kreativ tasavvur”) nomli asarda “kreativlik” tushunchasi ilk marta qo‘llanilgan bo‘lib, u yuqori darajadagi fikriy jarayon sifatida ifodalangan⁷⁸.

Bugungi kunda shaxs, jumladan, o‘quvchilarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish maqsadida quyidagi metodlardan samarali foydalanilmoqda:

1. **“Aqliy hujum” metodi.** Mazkur metod Aleks Osborn tomonidan asoslangan bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi shaxsda yangi, ko‘plab g‘oyalar ishlab chiqish, ularni tanqidiy tahlil qilish malakasini shakllantirishdan iborat. O‘rganilayotgan muammo bo‘yicha har bir o‘quvchi o‘z fikrini bildiradi, yechim yuzasidan o‘z taklifini ilgari suradi. Qolganlar bildirilgan fikrni to‘ldiradi va rivojlantiradi. O‘quvchilar tomonidan bildiriladigan hech bir fikr tanqid qilinmaydi. Barcha o‘quvchilar muammoning yechimi yuzasidan o‘z taklifini bildirgandan so‘nggina ular umumiy holda tahlil qilinadi va eng to‘g‘ri, samarali yechim tanlanadi⁷⁹.

2. **“Tasodifiy assosiatsiyalar” metodi**⁸⁰. Pedagogik tashxislash jarayonida “Tasodifiy assosiatsiyalar” metodidan quyidagicha foydalaniladi:

1-bosqich. Har bir o‘quvchi o‘zi istagan kitob (u lug‘at, badiiy adabiyot, turli sohalarga oid qiziqarli jurnal)ni qo‘lga olib, uning sahifalarini tasodifiy ochadi.

⁷⁶ Алибоев Т.Ч. Инновацион таълим муҳитида ўқувчиларда креативлик сифатларини ривожлантириш технологияларини такомиллаштириш (“Технология” фани мисолида): пед.фанл. бўйича фалс.докт. (PhD)... дис. автореф. – Жиззах: 2021. – 12-13-б.

⁷⁷ Что такое креативность // <http://www.xarakter.net/virtues/science/creativity/desc.php>.

⁷⁸ Simpson Ray M. Creative Imagination // https://www.jstor.org/stable/1414133?origin=crossref&seq=2#metadata_info_tab_contents.

⁷⁹ Методики развития креативности // http://moluch.ru/rules/?utm_source=selfad&utm_medium=popup&utm_campaign=archive.

⁸⁰ 8 способов развить креативное мышление // <https://style.rbc.ru/beauty/5c34bf629a7947c6fce1afdd>.

2-bosqich. Ochilgan sahifaning raqamiga e'tibor qaratmay, ko'rsatkich barmoq ixtiyoriy so'zning ustiga qo'yiladi, aniqlangan so'z qog'ozga qayd etiladi.

3-bosqich. Bu harakat yana bir bor qayta takrorlanib, yana bir so'z aniqlanadi.

4-bosqich. Aniqlangan har ikki so'z o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik topiladi va u asosida original hikoya to'qiladi.

3. "Oltita rangli qalpoqcha" metodi. Ushbu metod Edvard de Bono tomonidan taklif etilgan. Metod xayolan turli rangdagi oltita qalpoqchani kiyish yordamida ijodiy jarayonni tartibga solishga imkon beradi. Turli rangdagi qalpoqchalar shaxs tomonidan quyidagi harakatlarning tashkil etilishini ifodalaydi:

- 1) oq qalpoqcha – raqamlar va dalillar tahlil qilinadi;
- 2) qora qalpoqcha – tegishli masala bo'yicha faqat salbiy fikrni bildirish;
- 3) sariq qalpoqcha – muammoning ijobiy tomonlarini izlash;
- 4) yashil qalpoqcha – yangi g'oyalarni ishlab chiqish, ilgari surish;
- 5) qizil qalpoqcha – muammo yuzasidan o'zining hissiy kechinmalarini bayon qilish;
- 6) yashil qalpoqcha – natijalarni umumlashtirish⁸¹.

4. "Morfologik quti" ("Morfologik tahlil") metodi. Muallifi Fris Svikki bo'lgan "Morfologik quti" ("Morfologik tahlil") metodi o'z mohiyatiga ko'ra tanlangan ob'ekt unga xos bo'lgan bir nechta belgini saralab olish orqali bir necha tarkibiy qismlarga ajratiladi. So'ngra ular mohiyatan o'zgartiriladi va qayta birlashtiriladi. Natijada yangi ob'ekt paydo bo'ladi. Mazkur metod XX asarning 30-yillarida shveyratsiyalik astrofizik Fris Svikki (Fritz Zwicky) tomonidan asoslangan. Grafik organayzer g'oyasini asoslashda Fris Svikki quyidagi misolni keltiradi: parfyumeriya kompaniyasi uchun yangi tashrif qog'ozini tayyorlash talab qilinsin. Odatdagi to'g'ri to'rtburchakli bo'ladigan tashrif qog'ozini shakli o'zgartilib, yoqimli hid tarqatuvchi uchburchak

holatda tayyorlansa, uning shaxs ongiga ta'siri boshqacha bo'ladi⁸².

Qariyb bir asrdan "Morfologik quti" metodi – ob'ektning tarkibiy tuzilmasini tahlil qilishga asoslanuvchi metod bo'lib, u qabul qilingan qarorning nazariy imkoniyatlarini ifodalovchi barcha variantlarni tizimlashtirishni taqozo etadi. Ma'lumki, odatda qutilarga narsalar muayyan tartib bilan joylashtiriladi. Agarda quti katta hajmli bo'ladigan bo'lsa, unga bir necha turdagi narsa, buyum yoki jihozlar turiga qarab, alohida-alohida joylashtirildi. Ya'ni qutida narsalarga ularning turi bo'yicha ma'lum joy ajratiladi. Muammoli vaziyatlarni tadqiq qilish va yechimlarni tanlashga xizmat qiluvchi ushbu metodning didaktik ahamiyati shundaki, u muayyan jarayon, tur, hatto sohalar bo'yicha ham tizimli fikrlash, g'oyalarni tahlil qilish, jarayon, tur, hatto sohalarning umumiy mohiyatini yorituvchi har bir holatni ko'rib chiqish imkonini beradi. O'z mazmuniga ko'ra tahliliy xarakterga ega ushbu metod tizim va uning tarkibiy asoslari to'g'risidagi fikrlarni ham oydinlashtirishga yordam beradi.

⁸¹ Методики развития креативности // http://moluch.ru/rules/?utm_source=selfad&utm_medium=popup&utm_campaign=archive.

⁸² Методики развития креативности // http://moluch.ru/rules/?utm_source=selfad&utm_medium=popup&utm_campaign=archive.

Ayni o‘rinda “Morfologiya” tushunchasining mohiyatini yetarli darajada anglab olish maqsadga muvofiq sanaladi.

Morfologiya: 1) *biologiya fanida tirik organizmning tashqi (shakli, tarkibiy tuzilmasi, rangi, obrazlari) hamda ichki tuzilishi (masalan, odamning tashqi (eydonomiya) va ichki (anatomya) morfologiyasi); 2) tilshunoslikda: tabiiy tillarga xos so‘zlar, ularning ahamiyatli qismlari va morfologik belgilarini aks ettiruvchi grammatikaning bo‘limi.*

Har qanday holatda ham morfologik orzanizm, jism, jarayonning tarkibiy tuzilmasining to‘liq yoritilishini ifodalaydi.

Fris Svikki g‘oyasiga asoslangan bu metod “Morfologik tahlil” ham deb nomlanadi. Metod ob‘ektning tarkibiy tuzilmasini tahlil qilishga asoslanuvchi metod bo‘lib, u qabul qilingan qarorning nazariy imkoniyatlarini ifodalovchi barcha variantlarni tizimlashtirishni taqozo etadi. Metod jadval shakliga ega. Odatda qutilarga buyum, predmetlar tartib bilan joylashtirilgani kabi “Morfologik quti” grafik organayzerida ham o‘rganilayotgan mavzuga doir tayanch tushunchalar jadvalining muayyan kataklariga tartib bilan, o‘zaro izchillik asosida joylashtiriladi. Mazkur grafik organayzer talabalarni erkin, tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi.

Muammoni hal qilishga nisbatan tizimli yondashuvning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan morfologik tahlil qisqa vaqt oralig‘ida orginal yechimlarni topish imkonini beradi. Ta‘lim jarayonida foydalanadigan morfologik tahlil turli ramziy belgilarga asoslangan yozuvlar, rasmlardan tarkib topgan jadval ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Jadval tabiiy ravishda bo‘yiga va eniga ega. Odatda bo‘yicha predmet, buyumlar tegishli bo‘lgan umumiy tur (masalan, kiyim-kechak, oziq-ovqat, dori-darmon va hokazolar qayd etiladi. Eniga ega har bir turga taalluqli bo‘lgan narsa, buyum yoki jihozlarning nomlari ko‘rsatiladi. Ular iloji boricha rasm, shartli belgi yoki logotiplarda aks etishi kerak. “Bu kabi ko‘rsatkichlar sifatida format, ranglar, asosiy muammoni aks ettiruvchi ramzlar, tasvirning tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi tasavvurni oydinlashtirishga yordam beruvchi ramzlarni tanlash mumkin”⁸³.

5. “Fokal ob‘ektlar” metodi. Lug‘aviy mazmuniga ko‘ra “fokal” atamasi (ing. “focal” – “o‘zak”, “manba”, “o‘choq” ma’nolarini anglatadi. Asoschi Charlz Vayting bo‘lgan ushbu metodning g‘oyasi – turli ob‘ektlarga xos bo‘lgan belgilarni birgina predmetda aks etishiga erishish.

Muallifning o‘zi metod g‘oyasini tushuntirishda quyidagi misoldan foydalanadi: oddiy sham va “Yangi yil” tushunchasi qabul qilinadi. Odatda “yangi yil” tushunchasi bengal olovlari bilan assosiatsiyalanadi. Bu belgi (bengal olovi) shamni yodga soladi. Agarda bengal olovi kir yuvish vositasida artilib, unga mum qo‘shilsa, ichida juda kichik uchqunlanadigan “yangi yil” shami hosil bo‘ladi⁸⁴.

⁸³ Скрипник Ю. 5 приемов креативного мышления // <https://blog.mann-ivanov-ferber.ru/2016/01/08/5-priemov-kreativnogo-myshleniya>.

⁸⁴ Методики развития креативности // http://moluch.ru/rules/?utm_source=selfad&utm_medium=popup&utm_campaign=archive

6. “Sinektika” metodi. Uilyam Gordon asoslangan mazkur metod muallif kreativlikning asosi deya e’tirof etgan – muqobillar (o‘zaro o‘xshash jihatlar)ni izlashga xizmat qiladi. Metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1-bosqich: zarur ob’ekt (mavzuga oid muhim tushuncha) tanlanadi;

2-bosqich: tanlangan ob’ektning muqobil (o‘zaro o‘xshash jihat)larini topish uchun ikki bo‘limdan iborat jadval shakllantiriladi;

3-bosqich: jadvalning 1-ustunida tanlangan tushunchaga to‘g‘ri muqobil bo‘lgan tushunchalar qayd etiladi;

4-bosqich: 1-ustunda qayd etilgan har bir tushuncha asosida maqsad, tushunchaning mohiyati va noto‘g‘ri muqobillar belgilanadi.

Bu o‘rinda U.Gordon shunday misol keltiradi: ob’ekt – qalam; vazifa – qalamning turlarini ko‘paytirish; to‘g‘ri muqobil – bo‘rtma qalam; noto‘g‘ri muqobil – yassi qalam; natija – qalamni ishlab chiqarish⁸⁵.

7. “Mental xarita” (yoki “Idrok xaritasi”) metodi⁸⁶. Muallif – inglizlik psixolog Toni Byuzen. Muallifning fikriga ko‘ra, kreativlik xotira bilan bog‘liq. Shunday ekan, xotirani kuchaytirish kreativ fikrlash jarayonining sifatini yaxshilaydi. Sarlavha va abzaslar bilan yozishlarning an’anaviy tizimi eslab qolishga to‘sqinlik qiladi.

1974 yilda ilk bor T.Byuzen qog‘ozning o‘rtasiga asosiy tushunchani markazdan chiqargan holda uning atrofida “shox”lar hosil qilish orqali ularga eslab qolinishi zarur bo‘lgan assosiatsiyalarni qayd etgan holda o‘rganilayotgan muammoni tahlil qilishni taklif etadi. Fikrlarni grafikaviy (turli geometrik, arifmetik, fizik formulalar, shartli belgilar yordamida) ifodalash taqiqlanmaydi.

“Mental xarita” (“Idrok xaritasi”)ni “chizish” yangi assosiatsiyalarning yuzaga kelishiga imkon yaratadi, hosil bo‘lgan umumiy obraz esa muammo mohiyatini ifodalovchi tushuncha (bilim)larning uzoq vaqt yodda saqlanishiga yordam beradi⁸⁷.

8. “Bilvosita strategiyalar” metodi⁸⁸. Mualliflari Brayan Eno hamda Piter Shmidt bo‘lgan bu metod turli topshiriq (buyruq)lar yozilgan kartochkalar to‘plamiga tayangan holda yangi g‘oyalarni izlash, asoslash va ilgari surishga qaratilgan harakatlar amalga oshiriladi.

Yangi g‘oyani ishlab chiqishdan avval o‘quvchi kartochkalardan biri tanlaydi va unda ko‘rsatilgan topshiriq asosida muayyan xatti-harakat (masalan: “Uch yo‘l bilan yechimni top!”, “Echimni yangi g‘oyalar bilan boyit!”⁸⁹) bajariladi.

9. “Tugallanmagan rasmlar” testi⁹⁰. Ellis Pol Torrens tomonidan taklif qilingan testlar to‘plami shaxsning rasmi topshiriqlarni bajarish orqali fikrlash qobiliyatiga,

⁸⁵ Методики развития креативности // http://moluch.ru/rules/?utm_source=selfad&utm_medium=popup&utm_campaign=archive

⁸⁶ 10 лучших методов генерирования идей // <https://4brain.ru/blog/методы-генерирования-идей>.

⁸⁷ Методики развития креативности // http://moluch.ru/rules/?utm_source=selfad&utm_medium=popup&utm_campaign=archive.

⁸⁸ Методики развития креативности // http://moluch.ru/rules/?utm_source=selfad&utm_medium=popup&utm_campaign=archive.

⁸⁹ Методики развития креативности // http://moluch.ru/rules/?utm_source=selfad&utm_medium=popup&utm_campaign=archive.

⁹⁰ Тест креативности Торренса. Диагностика творческого мышления // <https://psycabi.net/testy/577-test-kreativnosti-torrensa-dagnostika-tvorcheskogo-myshleniya>; Тест креативности Торренса // http://www.miu.by/kaf_new/mpp/150.pdf.


fikrlarni original ifodalash layoqatiga egaligini aniqlash imkonini beradi. Respondent uchta variantdagi rasmlni topshiriqni bajaradi.

Topshiriqni bajarish shartlari:











- 1) imkon qadar ko'p g'oyani taklif qilish;
- 2) rasmlarning badiiy qiymatiga e'tibor bermaslik;
- 3) fikrlashda o'z oldiga cheklovlarni qo'yimaslik.

Topshiriqlar quyidagilardan iborat:

1. Rasm chizish (respondentga shakli va hajmi oddiy tuxumga teng bo'lgan rangli tuxumsimon shakl taklif etiladi; shaklning rangi ixtiyoriy tanlanadi; shakl rangining qanday bo'lishi respondent tomonidan taklif qilinishi mumkin). Misol uchun respondent ko'k rangdagi ushbu shakl negizida turli tasviriy ko'rinishlarni hosil qiladi va ularni nomlaydi:



2. Rasmlarni tugallash (o'quvchilar 10 ta tugallanmagan tayanch figuralar asosida ularni tugallab, yangi tasviriy ko'rinish hosil qilishi va uni nomlashi kerak). Respondent shtrixni ko'rganda nimani tasavvur qilsa, uni tasvirlashi lozim. Masalan, birinchi shtrix tugallangan holda ochiq kitob, yonma-yon turgan ikkita stakan, qo'shaloq shar bo'lishi mumkin. Respondentning e'tiboriga quyidagi shtrixlardan iborat shakllar taqdim etiladi:

3. Takrorlanayotgan chiziqlar. Tayanch material 30 juft parallel vertikal chiziqlar sanaladi. Har juft chiziqlar negizida qandaydir bir-birini takrorlaydigan rasmlar chizilishi zarur.

Shunday qilib, global axborotlashuv sharoitida shaxsning ta'lim olganlik darajasini tashxislash, unda kreativlik sifatlarini rivojlantirish dolzarb pedagogik masala sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Ushbu vazifaning samarali hal qilishda pedagogik tashxislash muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida P.I.Tretyakovning "Yaqin va bevosita rivojlantiruvchi hududni tashxislash" hamda G.A.Ruskiyning "Bilimlar tizimini o'zlashtirganlik darajasini tashxislash" metodikasi, shuningdek, o'quvchining kreativ fikrlash qobiliyatiga egaligini tashxislovchi metodlar: "Aqliy hujum", "Oltita rangli qalpoqcha", "Morfologik quti" ("Morfologik tahlil"), "Fokal ob'ektlar", "Sinektika", "Mental xarita" ("Idrok xaritasi"), "Bilvosita strategiyalar" kabilarning didaktik imkoniyatidan foydalangan holda tashxislashni amalga oshirish samarali natijalarni beradi.

Nazorat savollari:

1. O'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini tashxislash qanday maqsadda amalga oshiriladi?
2. P.I.Tretyakovning "Ta'lim olganlik darajasining tashxisi" metodikasi qanday maqsadni ko'zlaydi?
3. G.A.Ruskiy tomonidan asoslangan "O'quvchilarning o'quv materiallari matni bilan mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tashxislash" kabi metodikasini
4. "Aqliy hujum" metodi o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini tashxislashda qanday ahamiyatga ega?
5. "Tasodifiy assosiativlar" metodi o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. "Oltita rangli qalpoqcha" metodining mohiyati nimadan iborat?
7. "Morfologik quti" ("Morfologik tahlil" metodi o'quvchilarda qanday sifatlarni shakllantirishga yordam beradi.
8. "Fokal ob'ektlar" deganda nimani tushunasiz?
9. O'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishda sinektika qanday o'rin tutadi?
10. "Mental xarita" ("Idrok xaritasi") metodining o'quvchilarda aqliy qobiliyatni rivojlantirishdagi ahamiyati qanday?
11. "Bevosita strategiya" metodi yordamida pedagogik tashxislashda qanday natijaga erishish mumkin?
12. E.P.Torrensning "Tugallanmagan rasmlar" testining psixologik-pedagogik ahamiyatini shaxsan siz qanday baholaysiz?

Test topshiriqlari:

1. Shaxs fikrlash qobiliyati, tafakkurining rivojlanishi, intellektual salohiyati darajasining oshishi – uning ni ifodalaydi.
 - a) ma'naviy rivojlanish;
 - b) axloqiy rivojlanish;
 - c) **aqliy rivojlanish;**

d) fiziologik rivojlanish.

2. Shaxs fikrlash qobiliyati, tafakkuri, intellektual salohiyatining muayyan pogʻonasi, holati uning aqliy rivojlanishni belgilaydi.

a) **darajasi;**

b) bosqichi;

c) davri;

d) natijasi.

3. Oʻquvchi tomonidan oʻquv fanlarini oʻzlashtirish asosida uning fikrlash qobiliyati, tafakkuri, intellektual salohiyatining muayyan pogʻonaga egaligini, holatini tahlil qilish hamda baholash – bu

a) oʻrganish;

b) nazorat qilish;

c) tekshirish;

d) **tashxislash.**

4. ... – “Yaqin va faol rivojlantiruvchi hududni tashxislash” nomli metodikasining muallifi.

a) G.A.Russkiy;

b) **P.I.Tretyakov;**

c) E.P.Torrens;

d) J.P.Gilford.

5. “Yaqin va faol rivojlantiruvchi hududni tashxislash” (P.I.Tretyakov) nomli metodikasi maqsadi ...dan iborat.

a) taʼlim sifatini baholash;

b) **taʼlim istiqbollarini aniqlash;**

c) taʼlimning darajasini belgilash;

d) taʼlim natijasini oʻrganish.

6. “Bilimlar tizimini oʻzlashtirganlik darajasini tashxislash” metodikasining muallifi – ...

a) **G.A.Russkiy;**

b) P.I.Tretyakov;

c) E.P.Torrens;

d) J.P.Gilford.

7. Shaxsda yangi, koʻplab gʻoyalar ishlab chiqish, ularni tanqidiy tahlil qilish malakasini shakllantirish ... metodining asosiy gʻoyasi sanaladi.

a) “Tasodifiy assosiatsiyalar”;

b) “Fokal obʼektlar”;

c) **“Aqliy hujum”;**

d) “Sinektika”.

8. “Tasodifiy assosiatsiyalar” metodi ... bosqichda qoʻllaniladi.

a) 10 ta;

- b) 8 ta;
- c) 6 ta;
- d) 4 ta.**

9. “Oltita rangli qalpoqcha” metodining maqsadi .. dan iborat.

- a) ijodiy jarayonga baho berish;
- b) ijodiy jarayonni tartibga solish;
- c) ijodiy jarayonni tashki qilish;
- d) ijodiy jarayonni tahlil qilish.

10. Tanlangan ob’ektni unga xos bo’lgan belgilar yordamida bir necha tarkibiy qismga ajratish ... metodi yordamida amalga oshiriladi.

- a) “Morfologik quti”;**
- b) “Tasodifiy assosiatsiyalar”;
- c) “Sinektika”.
- d) “Fokal ob’ektlar”.

11. Turli ob’ektlarga xos bo’lgan belgilarni birgina predmetda aks ettirish ... metodi yordamida amalga oshiriladi.

- a) “Morfologik quti”;
- b) “Tasodifiy assosiatsiyalar”;
- c) “Sinektika”.
- d) “Fokal ob’ektlar”.**

12. ... metodi muqobillar (o‘zaro o‘xshash jihatlar)ni izlashga imkon beradi.

- a) “Morfologik quti”;
- b) “Tasodifiy assosiatsiyalar”;
- c) “Sinektika”.**
- d) “Fokal ob’ektlar”.

13. ... ni “chizish” yangi assosiatsiyalarning yuzaga kelishiga imkon yaratadi.

- a) morfologik quti;
- b) bevosita strategiya;
- c) mental xarita (idrok xaritasi);**
- d) fokal ob’ektlar.

14. ... metodi o‘quvchini turli topshiriq (buyruq)lar yozilgan kartochkalar to‘plamiga tayanib, yangi g‘oyalarni izlash, asoslash va ilgari surishga yo‘naltiradi.

- a) “Morfologik quti”;
- b) “Bevosita strategiya”;**
- c) “Mental xarita” (“Idrok xaritasi”);
- d) “Fokal ob’ektlar”.

Amaliy topshiriq.


“Intellektual imkoniyatni aniqlovchi test” (P.Rjichan)⁹¹

Ushbu tashxislovchi metod YuNESKO tashkiloti tomonidan tasdiqlangan. Soʻz bilan ifodalanmaydigan testlar guruhiga kiruvchi metod 25 ta testdan iborat boʻlib, nutqqa asoslanmagan aqliy layoqat darajasini tashxislashga yordam beradi. Testni yechish jarayonida oʻquvchilar ogʻzaki boʻlmagan maʼlumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash, predmet yoki hodisalar oʻrtasidagi bogʻliqlikni topish qobiliyatiga egaliklarini namoyon qiladi. Mazkur test 14 yoshdan katta shaxslar, xususan, oʻquvchilar uchun tavsiya qilingan. Test bilan ishlash uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

Koʻrsatma: 4 ta mashqlantirishga oid va 29 ta asosiy topshiriqlardan iborat. Har bir topshiriq ikki qismli boʻlib, bir qatorni egallaydi. Chap tomonda toʻrtta kvadrat boʻlib, ularning uchtasi rasmlar bilan toʻldirilgan, bittasi ochiq qoldirilgan. Rasmlar muayyan izchillikda joylashtirilgan, biroq, yakuniga yetkazilmagan.

Topshiriq: oʻquvchi rasmning oʻng tomonidagi qismidan izchillikni taʼminlash maqsadida chap tomondagi rasmlarga mosini tanlashi va uning tartib raqamini ochiq kvadrat ichiga qayd etishi kerak.

1. Mashqlantiruvchi test



⁹¹ Резапкина Г. Комплексная диагностика общих способностей подростков в условиях профильного обучения // <https://psy.1sept.ru/article.php?ID=200801209>.

2. Asosiy test

1

--	--	--	--

2

--	--	--	--	--	--

3

--	--	--	--	--

4

--	--	--	--

5

--	--	--	--

6

--	--	--	--

7

--	--	--	--

8

--	--	--	--

9

--	--	--	--

10

--	--	--	--

11

--	--	--	--

12

--	--	--	--

13

--	--	--	--

14


















--	--	--	--

15

--	--	--	--

16

--	--	--	--



Natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish

Qayta ishlash to'g'ri javoblarni tanlash bilan bog'liq. To'g'ri javoblarning soni o'quvchining so'zli bo'lmagan intellektual qobiliyati darajasini aniqlab beradi. O'quvchining intellektual rivojlanish darajasini quyidagi jadval asosida belgilash mumkin:

To'g'ri javoblar soni	Intellekt koeffisienti	Intellekt darajasi	Ushbu darajaga ega kishilar foizi
26–29	135–140	Juda yuqori	7 %
21–25	120–134	Yuqori	18 %
16–20	100–119	O'rtacha	50 %
10–15	80–99	Past	18 %
10 tadan kam	80 dan past	Juda past	7 %

To'g'ri javoblar

1 – 2	7 – 6	13 – 6	19 – 6	25 – 2
2 – 3	8 – 2	14 – 5	20 – 2	26 – 6
3 – 2	9 – 3	15 – 4	21 – 5	27 – 3
4 – 6	10 – 3	16 – 1	22 – 6	28 – 1
5 – 3	11 – 2	17 – 3	23 – 1	29 – 5
6 – 5	12 – 2	18 – 5	24 – 4	Jami

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Дудина М.М., Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во Рос.гос.проф.-пед. унив-та. 2016. – 190 с.
2. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.
3. Pedagogik diagnostika / Ma'ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Rahmatova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.
4. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.
5. Yo'ldoshev J.G'., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O'quv-metod.qo'll. – 2014. – 96 b.

9-mavzu. O‘quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tashxislash

Reja:

1. O‘quvchilarning axloqiy tarbiyalangan darajasini tashxislash mohiyati.
2. O‘quv-tarbiyalovchi vaziyatlar va ularning turlari.
3. Tarbiyalovchi vaziyatlarning tashkil etilishi va namoyon bo‘lishi.
4. Tarbiyaviy xarakterdagi muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish.
5. O‘quvchilarning axloqiy tarbiyalangan darajasini tashxislash usullari.

Tayanch tushunchalar: shaxs, o‘quvchi, tarbiya, tarbiyalash, tashxislash, tarbiyalanganlik, tarbiyalik darajasi, tarbiyalanganlik darajasini tashxislash, tarbiyalanganlik ko‘rsatkichlari.

I. O‘quvchilarning axloqiy tarbiyalangan darajasini tashxislash mohiyati. Pedagogik faoliyatning ikki muhim yo‘nalishi mavjud ekani barchaga ayon: 1) ta’lim (didaktika); 2) tarbiya. Pedagogik diagnostikada ham ana shu ikki yo‘nalish inobatga olinadi. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish darajasi – ma’lumotga egalik holati xususida avvalgi mavzuda so‘z yuritildi. Ushbu mavzuda esa bevosita o‘quvchining axloqiy tarbiyalanganlik (yoki tarbiyalangan) darajasi va uni tashxislash to‘g‘risida to‘xtalib o‘tiladi. Aksariyat o‘rinlarda sub’ektiv xarakterga ega “o‘quvchining tarbiyalanganlik darajasi” (yoki o‘quvchining tarbiyalanganlik darajasi) iborasi o‘rniga umumiy tarzda “shaxsning tarbiyalanganlik darajasi” (yoki shaxsning tarbiyalanganligi) tushunchasi ishlatiladi. Qolaversa, shaxs (o‘quvchi)ning tarbiyalanganligi tahlil qilinarkan, ayni o‘rinda “tarbiya”, “tarbiyalash”, “tarbiyalanganlik” tushunchalari ham qo‘llaniladi. Shu bois ushbu tushunchalarga izoh berib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

*Shaxs – jamiyatning psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari, xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega azosi*⁹².

O‘quvchi – umumiy o‘rta yoki o‘rta-maxsus ta’lim muassasasida tahsil olayotgan shaxs.

Tarbiya – 1) shaxsga bilim berish orqali unda axloqiy fazilatlarni, mehnat ko‘nikma-malakalarini, hayotiy tajribani hosil qilish, orqali uni voyaga yetkazish; 2) shaxsda axloqiy fazilatlarni, mehnat ko‘nikma-malakalarini, hayotiy tajribani hosil qilishga qaratilgan amaliy harakat, pedagogik faoliyat.

Tarbiya jarayoni – 1) muayyan, aniq maqsad va ijtimoiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori, dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni; 2) o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etilib, aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayoni.

⁹² Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 262-б.

Tarbiyalash – 1) o‘quvchini tarbiyalab voyaga yetkazish, ulg‘aytirish; 2) shaxsni tarbiyalash yo‘lida amaliy pedagogik harakatlarni, faoliyatni tashkil qilish.

Tarbiyalanganlik - o‘quvchida axloqiy fazilatlar, mehnat ko‘nikmalari hamda hayotiy tajribaning shakllanganligi yoki rivojlanganligi.

Shaxsning tarbiyalanganlik darajasi – o‘quvchining axloqiy fazilatlar, mehnat ko‘nikma-malakalari hamda hayotiy tajribaga egaligining muayyan ko‘rsatkichi.

Shaxs tarbiyalanganlik darajasining ko‘rsatkichi – o‘quvchining muayyan darajada axloqiy fazilatlar, mehnat ko‘nikma-malakalari hamda hayotiy tajribaga egaligining o‘lchovi.

Pedagogik jarayonda, shuningdek, tarbiyaning faoliyat sifatidagi darajasi ham belgilanadi. Mohiyatiga ko‘ra, **tarbiyaning muayyan darajasi** – o‘qituvchi, ota-onalar, kattalar yoki mutaxassislar tomonidan tashkil etilgan pedagogik faoliyat samaradorligining asosiy ko‘rsatkichi sanaladi.

Shaxsning muayyan yosh davrlari tarbiyaning ma‘lum darajasini ifodalaydi. Masalan, maktabgacha ta‘lim muassasasining tarbiyalanuvchisi muayyan axloqiy fazilatlarga ega bo‘lsa ham hali ularda mehnat ko‘nikmalari yetarlicha rivojlanmagan bo‘ladi. Ammo u shu yoshda kattalar va tengdoshlari bilan ijobiy munosabatda bo‘lish, salomlashish, minnatdorchilik bildirish, iltimos qilish, o‘ziga yoqmagan holatlarni ayta olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Tarbiya darajasining dinamik holati, ya‘ni, o‘quvchining axloqiy fazilatlari, mehnat ko‘nikma-malakalari hamda hayotiy tajriba “hajmi”ning ko‘payib borayotganligi uning shaxsida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotganligini, borliqqa, atrofdagilarga va o‘ziga nisbatan qadriyat sifatida yondashayotganligini anglatadi.

Ta‘limda ma‘lum ma‘lumot darajasiga ega bo‘lishning aniq vaqt chegarasi, muddati (boshlang‘ich sinf – boshlang‘ich ma‘lumot olish uchun, umumiy o‘rta ta‘lim – o‘rta ma‘lumotga ega bo‘lish uchun, o‘rta maxsus ta‘lim – o‘rta maxsus ma‘lumotga ega bo‘lish uchun, oliy ta‘lim – oliy (kasbiy) ma‘lumotga ega bo‘lish uchun) belgilanadi. Tarbiyada ta‘limdan farqli ravishda shaxsda ma‘lum sifatni hosil qilish uchun muddat, vaqt chegarasi belgilanmaydi. Ayrim sifatlar shaxsning 80-90 yoshida ham hosil bo‘lishi mumkin. Ba‘zan shaxsda keksalikda ham avval ega bo‘lgan ijobiy sifat o‘rnida salbiy odatlar, yoki aksincha, salbiy illatlar o‘rniga ma‘naviy-axloqiy xislat namoyon bo‘ladi.

Buning sababi tarbiyalovchi vaziyatlar, ichki (shaxsning hayotiy intilishlari, maqsadlari, tamoyillari, borliqqa, atrofdagilar va o‘ziga bo‘lgan munosabati) hamda tashqi (jamiyatda shakllangan qarashlar, ularning rasman yoki norasman tan olinishi, shaxs mansub bo‘lgan mikromuhitdagi psixologik holat, shaxslararo munosabatlar va boshqa) omillarning shaxs tarbiyasiga ko‘rsatayotgan ta‘siri bilan izohlanadi⁹³.

⁹³ Определение уровня воспитанности подростков / Т. Н.Матафонова и др. // Инновационные педагогические технологии. Мат. IV Междунар. науч. конф. (г. Казань, май 2016 г.). – Казань: Бук, 2016. – С. 8-11.

Shaxsni tarbiyalash (yoki shaxsning tarbiyalanish) jarayoni umr bo‘yi davom etadi. Ammo, shaxsni tarbiyalashda “qiyin o‘tish davri” hisoblanadigan o‘smirlik davri alohida o‘rin tutadi. Aynan shu yosh davrida o‘quvchi shaxsida hayotiy maqsadlar, intilishlar, ijtimoiy qarashlar shakllanadi.

O‘smirlikning “qiyin yosh davri” bo‘lishi o‘quvchi organizmida kechadigan keskin fiziologik o‘zgarishlar va uning shaxsiga psixologik ta‘siri bilan bog‘liq. Shu sababli oilada, ta‘lim muassasalarida o‘smir bilan ishlashga yanada jiddiy yondashishga e‘tibor qaratiladi. Bunda o‘quvchi shaxsi, uning xatti-harakatlari va faoliyatiga nisbatan oqilona pedagogik talablarni qo‘yish, ularning izchil bo‘lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Har qanday pedagogik talab keskin taqiqlar va cheklovlardan xolis bo‘lishi lozim. Qolaversa, imkon qadar uning qo‘yilayotgan talabning o‘quvchi tomonidan qabul qilinishi borasida fikrini bilish muhim. O‘quvchining fikri, o‘qituvchi, ota-onalar va mutaxassislarning yondashuvlari o‘zaro qiyosiy o‘rganilgan holda tarbiyaviy faoliyat rejalashtirilishi zarur. Tarbiya jarayonida imkon qadar har bir o‘quvchi uchun individual yondashuv bo‘lishi kerak. Zero, o‘quvchilar turlicha psixologik xarakter, fiziologik imkoniyat (ayniqsa, mehnat ko‘nikma, malakalarini shakllantirishda inobatga olinadi), hayotiy maqsadlar, muayyan darajada ma‘naviy-axloqiy fazilatlar, hayotiy tajribaga ega.

Pedagogik diagnostika yordamida o‘quvchi shaxsning tarbiyalanganlik darajasiga oid ma‘lumotlarga ega bo‘lish “Individual rivojlanish dasturi”ni ishlab chiqish, ma‘naviy-axloqiy fazilatlar, hayotiy tajribaning dinamik o‘sishini kuzatib borishga yordam beradi. Boshlang‘ich nazorat yordamida qo‘lga kiritilgan o‘quvchining rivojlanganlik darajasiga oid ma‘lumotlar pedagogik diagnostikada orqaliq va yakuniy nazorat muddatlarini belgilash, tarbiyalovchilik faoliyatini rejalashtirish hamda tarbiya jarayonini izchil kuzatib borish uchun imkoniyat yaratadi.

Ta‘lim jarayonida bo‘lgani kabi tarbiyada ham yakuniy nazorat natijalari boshlang‘ich nazoratning natijalari bilan o‘zaro taqqoslanadi. Ular o‘rtasidagi farq tarbiyaviy faoliyat samaradorligini belgilashga xizmat qiladi.

O‘quvchining tarbiyasini tashkil etayotgan o‘qituvchi, eng avvalo, tarbiya va ta‘lim maqsadlarini ajratib olishi zarur. Tarbiya jarayonida o‘quvchini intellektual rivojlantirish asosiy maqsadga aylanmasligi kerak. Zero, agar to‘g‘ri rejalashtirilsa va oqilona tashkil etilsa, o‘quvchini intellektual rivojlantirish ta‘lim jarayonida ta‘milanadi. Eng muhimi, tarbiya jarayonida o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini, fiziologik-jismoniy imkoniyatlarini inobatga olishdir.

Tarbiya jarayonida tarbiyalovchi vaziyatlardan foydalanish kutilgan natijalarga erishishni ta‘minlaydi.

II. Tarbiyalovchi vaziyatlar va ularning turlari. Pedagogik jarayonda o‘quvchilarni tarbiyalashda tarbiyaviy xarakterdagi vaziyatlarda maqsadli, o‘rinli foydalanish o‘quvchilarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni samarali rivojlantirishga imkon beradi. O‘quvchilarning tarbiyalanganligi ularning tarbiyalovchi vaziyatlardagi holatida yaqqol ko‘rinadi.

***Tarbiyalovchi vaziyat** – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot, hamkorlik asosida tarbiya jarayonining muayyan bosqichlarida turli qarorlar qabul qilinishini taqozo etadigan holat.*

Tarkibiy tuzilmasiga ko‘ra tarbiyalovchi vaziyatlarning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: tarbiyaviy maqsadlar; tarbiyaviy ta’sir ob’ektlari; pedagogik jarayonni harakatga keltiruvchi va uning yechimini topishda asosiy rolni o‘ynaydigan tarbiyaviy ta’sir sub’ektlari.T


Tarbiyalovchi vaziyatlar turli mazmunga ega bo‘ladi. Ular o‘rtasida o‘zaro

muloqotga kirishayotgan o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro hamkorligi asosida yuzaga keladigan holat eng universal sanaladi. Ayni o‘rinda shuni ham qayd etib o‘tish joizki, o‘quv-tarbiyalovchi vaziyatlarning yuzaga kelishiga ishtirokchi taraflarning barchasi u yoki bu darajada o‘z hissalarini qo‘shadi.

Odatda tarbiyalovchi vaziyat shaxsni o‘qitish va tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayonining o‘lchov birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, u o‘qituvchi va o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyatlarini baholash, aniq sharoitlarda yuzaga kelgan muammoning yechimini topishni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim muassasalarida yuzaga kelgan bir muammo o‘qituvchi, o‘quvchilar yoki alohida o‘quvchining faoliyatida turlicha ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi yoki o‘quvchi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan masala tashkiliy shakliga ko‘ra, biror bir shaxsning ta’siri bilan esa ichki mohiyatiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin. Shu bilan birga ta’lim jarayonining ishtirokchilaridan biri masalaning mohiyatini, g‘oyasini o‘zgartirganda mazmunan o‘zgaradi. Masala mohiyatining o‘zgarishi natijasida yangi vaziyat yuzaga kelib, rivojlanib boradi.

Garchi tarbiyalovchi vaziyatlar turlicha bo‘lsa-da, ularning xarakteri, murakkablik darajasiga ko‘ra muayyan guruhlariga ajratish mumkin (18-rasm):



18-rasm. Tarbiyaviy vaziyatlarning asosiy turlari

Odatda o‘qituvchi-talaba; o‘qituvchi-talabalarning kichik guruhi; o‘qituvchi-talabalar jamoasi; o‘qituvchilar-talabalar; o‘qituvchi(lar) – talaba(lar) – uchinchi shaxs tarbiyalovchi vaziyatlarning ishtirokchilari bo‘ladi.

Pedagogik jarayonda yuzaga kelgan vaziyatda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro harakatlari quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

1. Hamkorlik – tarbiyalovchi vaziyatning o‘zaro harakati bo‘lib, unga ko‘ra sub’ektlardan biri ikkinchisining ruhiy-jismoniy holatini to‘la xis etadi va voqelikka, masalaga nisbatan o‘zining salbiy munosabatini o‘zgartirgan holda, vaziyatning rivojlanishi va ijobiy tus olishiga sabab bo‘lishi mumkin. Hamkorlik asosida sherigi bilan o‘zaro harakat qilish, kayfiyati qanday bo‘lishidan qat’iy nazar uning osoyishtaligi haqida qayg‘urish yotadi.

2. O‘zaro ziddiyatga borish (konfrontatsiya) – ikki qarama-qarshi taraflar tomonidan bir-birlarining ob’ektiv va sub’ektiv xarakterga ega pozitsiyalarini qabul qilmaslik sanalib, vaziyatni ijobiy hal qilishni qiyinlashtiradi.

Tarbiyalovchi vaziyatlar uzoq muddatli pedagogik faoliyat strategiyasini ishlab

chiqish bilan bog‘liq bo‘lib, ular tarbiyaviy masalalarning yechimini topishni taqozo etadi. Tarbiyalovchi vaziyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: ma’lum bir davr yoki o‘quv yili mobaynida tarbiyaviy jarayonning maqsadini aniqlash; turli yoshdagi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan o‘quv muassasalarida tashkillashtirilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning metod va shakllarni aniqlash.

Pedagogik vaziyatlarning tahlili masalalarni yechishda kelgusidagi faoliyat jaryonida turli variantlarni izlashga imkon beradi. Biroq, o‘quv tarbiyalovchi vaziyatlar tahlilining murakkabligi shundaki, pedagogning faoliyati mazkur vaziyatni yechish uchun belgilangan vaqt omiliga bog‘liq. Doimiy ravishda masalalarni yechish bilan band bo‘lib qolgan o‘qituvchi haddan tashqari charchashi mumkin. Bu esa o‘z o‘rnida tarbiyalovchi vaziyatning tahlilini qiyinlashtiradi.

Tarbiyalovchi vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida quyidagilarga e’tibor berish lozim: o‘quvchining ta’lim olish va bilimlarin boyitishga nisbatan munosabati; talabaning bilim va ko‘nikma darajasi; konkret pedagog, o‘qituvchi bilan o‘zaro munosabatlar; pedagog muloqoti uslubi; ma’lum bir sinf yoki guruhda o‘zaro munosabatlar xarakteri; ota onalarning ma’lum bir fan va ta’lim olish jarayoniga nisbatan munosabati; pedagoglar o‘rtasidagi muloqot, ta’lim berish uslubi; u yoki bu o‘quv fanining kerak yoki kerak emasligi haqidagi jamoat fikrining ijtimoiy yo‘nalishi.

Barcha omillar talaba xatti-xarakati, xulqi, muloqot xarakteri, ta’lim jarayonidagi munosabatiga katta ta’sir o‘tkazadi.

II. Tarbiyalovchi vaziyatlarning tashkil etilishi va namoyon bo‘lishi. O‘quv-tarbiyalovchi vaziyatlarni namoyon bo‘lishi va tashkil etilishining shakllari turlicha bo‘lishi mumkin. Ularning yuzaga kelish va rivojlanish jarayonida ko‘p omillar o‘quv jarayonining ob’ektiv holatlari hamda pedagogik faoliyat sub’ekti – o‘qituvchiga bog‘liq.

Rag‘batlantiruvchi vaziyat; tanlov vaziyati; muvafaqqiyat vaziyati; ziddiyatli vaziyat; o‘quv masalalarning yechimini topish vaziyatlari; tavakkal kilish vaziyatlari; tanqid va o‘z o‘zini tanqid kilish vaziyatlari; yordam va uzaro yordam kursatish; tahdid va jazolash vaziyati; o‘z-o‘zini baholash vaziyati; muloqot vaziyati; bo‘ysindirish vaziyati; ishonish vaziyati; ayblash vaziyati; bir ish(muloqot)dan boshqasiga o‘tish vaziyati; kurashish va raqobat vaziyati; dalda berish vaziyati; e’tiborsizlik qilish vaziyati; chegaralash vaziyati; o‘yin vaziyatlari;

javobgarlik va mas'uliyatni sezgan holda qaror qabul qilish; faoliyatning yangi usullarini uzlashtirish vaziyatlari; ishonch bildirish vaziyatlari; talab qilish vaziyati; trening vaziyati; tartibsizlik vaziyati kabilar tarbiyalovchi vaziyatlarning ko'rinishlari sanaladi.

Mazkur holatlarni o'quv-tarbiyaviy faoliyat jarayonida eng ko'p yuzaga keluvchi alohida o'quv-tarbiyalovchi vaziyatlar misolida ularning namoyon bo'lish shakllari, mohiyati va xususiyatlarini ko'rib chiqish mumkin.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar o'quv-tarbiyalovchi vaziyatlarning yana bir shakli bo'lmish muvaffaqiyatli vaziyatni rivojlanishi uchun zamin yaratadi. V.A.Suxomlinskiyning aytishiga ko'ra, "qiyinchiliklarni yengib o'tish, bilim olish xohishi uchun energiya hosil qiluvchi ichki kuchning yagona manbai" – o'qishdagi muvaffaqiyatdir.

III. Tarbiyaviy xarakterdagi muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish. Pedagogik jarayonda muvaffaqiyatlarni kafolatlaydigan vaziyatlar ham namoyon bo'ladi. O'qituvchilar imkon qadar ana shunday vaziyatlarning ko'proq yuzaga kelishini ta'minlashga e'tibor qaratishlari lozim. Bu boradagi harakatlar muvaffaqiyatli vaziyatlarni loyihalashtirish deb nomlanadi.

Muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish – muvaffaqiyatli vaziyatlarni kafolatlovchi sharoitlar jamlanmasi yoki ana shu maqsadga yo'naltirilgan amaliy harakatlarni tashkil etish.

Muvaffaqiyat **mazkur vaziyatning natijasidir.**


Pedagogikada tarbiyaning universal vosita va metodlari mavjud emas. Bu tom ma'noda muvaffaqiyatli vaziyatga ham taaluqlidir. Bir ko'rishda, pedagog uchun o'quvchilarni muvaffaqiyatga erishishga undovchi bir-ikki vaziyatni o'zi yetarlidек. Biroq, vaziyatga nisbatan bunday munosabatda bo'lish ba'zan mutlaqo teskari natijaga olib kelishi mumkin: doimiy muvaffaqiyat o'quv faoliyatiga nisbatan turg'un, o'zgarmaydigan munosabatli vaziyatning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Qolaversa, muvaffaqiyatli natijani doimiy kutish qiyinchiliklarni yengib o'tishda layoqatsizlikning rivojlanishi, murakkab o'quv va hayotiy vaziyatlarda harakat qilishdan voz kechishga sabab bo'ladi.

Muvaffaqiyatli vaziyatning ijobiy jihatlarini ham aytib o'tish lozim. Ya'ni, muvaffaqiyatga erishish insonning o'z kuchiga bo'lgan ishonchini ortiradi; yana bir bor muvaffaqiyat lazzatini totish uchun, talabalarda yangi marralarga erishish xoxish istagi paydo bo'ladi; muvaffaqiyatli faoliyat natijasi sifatida ichki osoyishtalik xissini yuzaga keltiruvchi ijobiy his-tuyg'ular, o'z o'rnida, insonning atrof-muhit, dunyoga nisbatan munosabatiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyaviy xarakterdagi muvaffaqiyatli vaziyatlar pedagogik faoliyatda o'qituvchi tomonidan shakllantiriladi. Har qanday faoliyat kabi tarbiyani oddiy izchil zanjir ko'rinishida tashkillashtirish mumkin: o'quvchilarni ijtimoiy topshiriqlarni bajarishga ematsional tayyorlash; ijtimoiy faoliyat tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; olingan natijalarni taxmin qilingan natijalar

bilan taqqoslash (o'z o'quv mehnati natijasiga nisbatan idrokli munosabatda bo'lish).

Tarbiyalovchi vaziyatni loyihalashtirishda shuni esda tutish kerakki, har qanday o'quv masalasining yechimi tayyorgarlik ko'rish, bajarish va baholashni taqozo etadi. Muvaffaqiyatli vaziyatning rivojlanishi bir nechta bosqichda kechadi (19-rasm):



19-rasm. Muvaffaqiyatli vaziyatning rivojlanish bosqichlari

1. Motivatsiya (faoliyatga o'zini tayyorlash) bosqichi. O'qituvchi o'quvchilarda berilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga bo'lgan intilish, o'zini mazkur vaziyatning hokimi deb his qilish, qiyinchiliklarni yengib o'tish istaklarini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bir so'z bilan aytganda muvaffaqiyatga erishish sabablarini shakllantiradi.

Muvaffaqiyatga erishish sababi (motivi)ni shakllantirib, o'qituvchi ularning turli variantlarini taklif etishga haqlidir: barcha ish va masalalarni mustaqil bajarishga intilish, tengdoshlari oldida uz maqomini ko'tarish, birinchi bo'lish, o'z faoliyatini boshqalarga foydali jihatlari nuqtai nazaridan ko'ra bilish, boshqalar bilan faol muloqotga kirishish va h.k.

Oqibatda, motivatsion bosqichda o'qituvchi talabalardagi hissiyotlarni uyg'otish va faollashtirish uchun ma'lum bir vaziyatlarni tashkil kiladi. Shuni aytib o'tish kerakki, motivatsion soha bilan bog'liq muvaffaqiyatli vaziyat mazkur bosqichda psixologik jihatlar bilan aniqlanadi. Keyingi bosqichlarda yuzaga keluvchi vaziyatlardan ham asosiy farqi ana shunda.

2. Tashkillashtirish (yoki faoliyatni ta'minlash) bosqichi. O'qituvchining vazifasi – o'quvchilarning individual qobiliyatlari, bajarilayotgan ish ularga quvonch va rohat olib kelishi holatlarini inobatga olgan holda topshiriqlar berishdir. Bosqichda ba'zi o'quvchilarda shunday davr boshlanadiki, unda faoliyatga nisbatan salbiy munosabat kuzatiladi, ularni bajarishga bo'lgan qiziqish yo'qoladi. O'quvchilarda ishni bajarish majburiyati susayadi, qolaversa, ijtimoiy topshiriqlarni bajarish uchun yetarli sharoit bo'lmaydi.

Psixologiya va pedagogikada muvaffaqiyatsiz vaziyatni shakllantiruvchi shart-sharoitlar sifatida quyidagi to'rt jihat e'tirof etiladi: qobiliyatning yetishmovchiligi; masalaning murakkabligi; muvaffaqiyatning yo'qligi; irodaning sustligi.

O'qituvchi o'quvchining qobiliyatlariga mos ravishda vazifalarni tanlay olishi muhim.

Omad tashqi sharoitlarga bog'liq bo'lib, qobiliyat, omad va vazifaning murakkabligidan farqli iroda nazorat qilish faktori sifatida xizmat qiladi. Shu bois, iroda va chidam yoki o'z-o'zini tashkil etish faoliyat natijasini yaxshilashda yagona urinish omillaridir.

Muvafaqqiyatli vaziyatni yuzaga keltirish metodlari quyidagilardir:

1. Tashkiliy nazorat (ishning boshlanishi, tanaffuslar, ishning yakunlanishi);
2. Tarkibiy nazorat (ishning mohiyati bo'yicha maslahat tashkil etish).
3. Natija (samara)li bosqich yoki taxmin qilingan baholarni real baholar bilan taqqoslash.

O'qituvchi o'z oldiga oldingi faoliyat natijasini emosional stimulga, ya'ni, keyingi tarbiyaviy vazifani bajarish uchun motivga aylantirish vazifasi yotadi. Buning uchun o'qituvchi faoliyatning oldingi bosqichlarida qo'lga kiritilgan natijalarni idrok etishi va tahlil qilishi lozim.

O'quvchiga beriladigan individual topshiriqlar tizimini ularning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqish lozim. Hayotiy tajriba, ijtimoiy malakalarga ega bo'lib borgan sayin o'quvchining zimmasiga bir qadar murakkab, mas'uliyatli ijtimoiy vazifalar yuklatilishi zarur. Ularni bajarish chog'ida o'quvchi ma'lum qiyinchiliklarni yengishni o'rganadi.

Muvaffaqiyatni ta'minlovchi tarbiyalovchi vaziyatlar o'quvchida ijtimoiy faoliyatga bo'lgan ijobiy munosabatni tarbiyalash bilan birga, unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi. Bu esa global axborotlashuv, shaxslararo munosabatlar jarayonining murakkablashuvi sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni kirishimli bo'lishga, atrofdagilar bilan hech bir qiyinchiliksiz, psixologik to'siqlarsiz muloqot qilishga o'rgatadi.

IV. O'quvchilarning axloqiy tarbiyalangan darajasini tashxislash usullari. Psixologiya va pedagogika yo'nalishlarida shaxs, xususan, o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini tashxislashda samarali bo'lgan usullarni aniqlashga e'tibor qaratilgan. Natija bir qator samarali usullar ishlab chiqilgan. Ayni o'rinda ularning ayrimlari bilan tanishib chiqildi.

1-usul. O'zini o'zi axloqiy baholash diagnostikasi⁹⁴

Ko'rsatma: o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi so'zlar bilan murojaat qiladi: "Men sizga 10 ta holatni o'qib beraman. Diqqat bilan tinglang va ularni tasdiqlash-tasdiqlamasligingizni bildiring. Nima uchun ma'lum holatni yoqlayotganingiz haqida o'ylab ko'ring! Chunki javobingiz Siz haqingizda ko'p ma'lumotlarni beradi.

Javoblaringiz quyidagicha baholanadi:

Tasdiqlayman – 4 ball.

Tasdiqlamayman – 3 ball.

Qisman tasdiqlayman – 2 ball.

Mutlaqo tasdiqlamayman – 1 ball.

⁹⁴ Анкета № 12 диагностика нравственной воспитанности (5-8 классы) // <https://gigabaza.ru/doc/68320.html>.

Javoblarni tegishlilik asosida quyidagi jadvalda ifodalang:

Tasdiqlayman	Tasdiqlamayman

Holatlar:

1. Men doimo tengdoshlarim va kattalarga mehribonman.
2. Sinfdoshim muammoga duch kelsa, unga yordam berish men uchun muhim.
3. Ba'zan kattalarga nisbatan toqat qilmaslik mumkin, deb o'ylayman.
4. Meni yoqtirmaydigan kishiga qo'pol munosabatda bo'lishimning yomon jihati yo'q.
5. Xushmuomala bo'lishim atrofdagilar orasida o'zimni yaxshi his qilishimga yordam beradi.
6. Menga qilingan noo'rin e'tiroz uchun o'sha kishini koyishga haqliman.
7. Agar kimdir sinfdan achchig'imni chiqarsa, men ham unga javob qilaman.
8. Atrofdagilarga quvonch ulashish men uchun yoqimli.
9. Menimcha, salbiy xatti-harakatlari uchun ham atrofdagilarni kechira olish lozim.
10. Menimcha, hatto nohaq bo'lsalar ham, boshqalarni tushunishga harakat qilish kerak.

Natijalarni qayta ishlash:

Tasdiqlayman	Tasdiqlamayman
1	3
2	4
5	6
8	7
9	
10	

Natijalarning talqini:

- 34 dan 40 birlikgacha – o'zini o'zi qadrlash darajasi yuqori.
24 dan 33 birlikgacha – o'zini o'zi qadrlash darajasi o'rtacha.
16 dan 23 ballgacha – o'zini o'zi qadrlash darajasi qoniqarli.
10 dan 15 birlikgacha – o'zini o'zi qadrlash darajasi past.

2-usul. Xulq-atvor etikasi diagnostikasi

Ko'rsatmalar:

O'qituvchi: "Men tugallanmagan beshta jumlaning o'qiyman. Sizning vazifangiz jummalarni davom ettirishingiz kerak. Javob qaytarishda jummalarning birinchi qismi (o'qilgan qismi)ni yozishingiz shart emas.

Matn:

1. Yigitlardan birini kulgili holatda ko'rganimda, men ...

2. Agar kimdir ustimdan kulsa, men ...
3. Agar tadbirda ishtirok etmoqchi bo'lsam, men ...
4. Gapimni bo'lishganda, men ...
5. Sinfdozlarim bilan muloqot qilishni xohlamaganimda, men ...

Sharh:

Birinchi savol bo'yicha: o'quvchida befarqlik, tajovuzkorlik, beparvolik bo'lsa – javobi salbiy; o'zaro yordam, hamdardlik to'yg'usi bo'lsa, u holda javobi – ijobiy

Ikkinchi savol bo'yicha: o'quvchida tajovuzkorlik, psixologik bosimning turli usullari bo'lsa, u holda javobi salbiy; ta'sirlanmaslik, vaziyatdan o'zini olib qochish, his-tuyg'u, kechinmalarni ifodalashda qo'pollik, tajovuzning bo'lmasligi kuzatilsa, u holda – javobi – ijobiy.

Uchinchi savol bo'yicha: o'quvchida psixologik bosim, tajovuzkorlik, ayyorlik kuzatilsa, u holda javobi salbiy; munosabatlarda teng huquqli bo'lish, ochiqlikni yoqlasa, u holda javobi – ijobiy.

To'rtinchi savol bo'yicha: o'quvchida keskin ta'sirlanish, tajovuzkorlik, achchiqlanish, tahdid, psixologik bosim kuzatilsa, u holda javobi salbiy; xohish-istak, fikr, his-tuyg'ular, munosabatining tajovuzkorlik hamda qo'pollikdan holi bo'lishi, u holda javobi – ijobiy.

Beshinchi savol bo'yicha: o'quvchida qo'pollik, tajovuzkorlik, odobsizlik kuzatilsa, u holda javobi salbiy; xushmuomalalilik, muloyimlik, o'z xohishlarini tushunarli bayon qilsa, u holda javobi – ijobiy.

3-usul. Hayotiy qadriyatlarga munosabat diagnostikasi

Ko'rsatmalar:

Tasavvur qiling, qo'lingizda sehrli tayoqcha va 10 ta istaklar ro'yxati bor. Ammo istaklarning faqat beshtasini bayon qilingiz mumkin.

Istaklar ro'yxati yozuv taxtasiga oldindan yozib qo'yiladi.

Istaklar ro'yxati:

1. Sevimli inson bo'lish.
2. Ko'p pulga ega bo'lish.
3. Eng zamonaviy kompyuterga ega bo'lish.
4. Sodiq do'stga ega bo'lish.
5. Men uchun ota-onamning salomatligi muhim.
6. Ko'pchilikka buyruq berish huquqiga ega bo'lish.
7. Ko'p sonli xizmatkorlarga ega bo'lish va ular ustidan "hukmronlik qilish".
8. Soddil yurakka ega bo'lish.
9. Atrofdagilar hamdard bo'lish va ularga yordam berish.
10. Boshqalarda hech qachon bo'lmaydigan buyumlarga ega bo'lish.

Sharh:

Salbiy javoblarning tartib raqami: 2, 3, 6, 7, 10.

Ijobiy javoblarning tartib raqami: 1, 4, 5, 8, 9.

Beshta ijobiy javob – yuqori darajada hayotiy qadriyatlarga egalik.

4-3 ta ijobiy javob – o'rta darajada hayotiy qadriyatlarga egalik.

2 ta ijobiy javob – qoniqarli darajada hayotiy qadriyatlarga egalik.
0-1 ta ijobiy javob – past darajada hayotiy qadriyatlarga egalik.

4-usul. Axloqiy motivatsiya diagnostikasi

Ko'rsatmalar:

O'qituvchi: Men sizga to'rtta savol beraman. Siz ularga berilgan to'rtta javobdan birini tanlashingiz kerak.

Savollar:

1. Agar kimdir yig'lasa, u holda men
 - unga yordam berishga harakat qilaman;
 - nima bo'lgan bo'lishi mumkinligi haqida o'ylayman;
 - e'tibor beraman, biroq, qo'limdan hech narsa kelmaydi;
 - e'tibor bermayman.
2. Men do'stim bilan tennis o'ynayotganimda oldimizga 6-7 yoshli bola keladi va o'zida tennis raketkasi o'yin yo'qligini aytadi. Shunda men unga ...
 - kayfiyatimizni tushurmasligini aytaman;
 - hech qanday yordam berolmasligimni aytaman;
 - ota-onasidan tennis raketkasini sotib olib berishni so'rashini aytaman;
 - o'rtog'i bilan kelib, bizning tennis raketkalarimizda o'ynashi mumkinligini aytaman.
3. Agarda ishxonada kimdir qisqartirishga turib qolsa, u holda men
 - e'tibor bermayman;
 - shunchaki achinaman;
 - bu fojia emasligini tushuntiraman;
 - ishni olib borishni yaxshiroq o'rganishi zarurligi aytaman.
4. Bordi-yu, sinfdoshingiz sizdan xafa bo'lsa, u holda Siz ...
 - uning holatini juda yaxshi his qilaman;
 - bu vaziyatda nima qila olishim mumkinligi haqida o'ylayman;
 - men ham qattiq ranjiyman;
 - unga noto'g'ri qilayotganligini tushuntiraman;

Natijalarni qayta ishlash:

Ijobiy javoblar kaliti: 1-a, 2-d, 3-c, 4-a.

O'qituvchi o'quvchi bergan ijobiy javoblar miqdorini hisoblab chiqadi.

4 ball – yuqori darajada axloqiy motivatsiyaga egalik;

2-3 ball – o'rta darajada axloqiy motivatsiyaga egalik;

0-1 ball – past darajada axloqiy motivatsiyaga egalik.

Shunday qilib, tarbiyaning mazmunida shaxsni har tomonlama tarbiyalash uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyat mohiyati namoyon bo'ladi. O'quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tashxislash va natijalarni tahlil qilish bir qator afzalliklarni kafolatlaydi. Tashxislash orqali o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi – unda ma'lum sifatning mavjudlik holati to'g'risidagi ma'lumot qo'lga kiritiladi. Qolaversa, tashxislash natijasida olingan natijalarga tayangan holda o'quvchida yangi ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ana shu maqsadda individual ishlash dasturini ishlab chiqishga muvaffaq bo'linadi. Tarbiyalovchi vaziyatlar o'quvchilarda axloqiy

sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, tarbiyalovchi vaziyatlarga tahliliy yondashish pedagogik jarayonning yutuq va kamchiliklarini o‘rganish imkonini beradi. Muvaffaqiyatli vaziyat o‘quvchilarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini tarbiya qilish, o‘z-o‘zini baholash va boshqarishda asosiy omillardan biri bo‘lib qoladi.

Nazorat savollari:

1. O‘quvchilarning axloqiy tarbiyalangan darajasini tashxislash qanday maqsadda amalga oshiriladi?
2. Tarbiyalovchi vaziyatlar deganda nimani tushunasiz?
3. Tarbiyalovchi vaziyatlarning qanday turlari mavjud?
4. O‘quvchilarning tarbiyalangan darajasini tashxislashda tarbiyalovchi vaziyatlar qanday ahamiyatga ega?
4. Tarbiyaviy xarakterdagi muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish nima uchun zarur?
5. O‘quvchilarning tarbiyalangan darajasini tashxislash usullari nima?
6. O‘quvchilarning tarbiyalangan darajasini tashxislash qanday usullarni bilasiz?

Test topshiriqlari:

1. O‘quvchida axloqiy fazilatlar, mehnat ko‘nikmalari hamda hayotiy tajribaning shakllanganligi yoki rivojlanganligi ...ni anglatadi.
 - a) ma’lumotlilik;
 - b) tarbiyalanganlik;**
 - c) yetuklik;
 - d) onglilik.
2. O‘qituvchi, ota-onalar, kattalar yoki mutaxassislar tomonidan tashkil etilgan pedagogik faoliyat samaradorligining asosiy ko‘rsatkichi - ... sanaladi.
 - a) **tarbiyaning muayyan darajasi;**
 - b) ta’limning muayyan darajasi;
 - c) faoliyatning muayyan darajasi;
 - d) muloqotning muayyan darajasi.
3. Shaxsda ma’lum sifatni hosil qilish uchun muddat, vaqt chegarasi ...
 - a) belgilanadi;
 - b) qisman belgilanadi;
 - c) ba’zan belgilanadi;
 - d) belgilanmaydi.**
4. Tarbiyada ham ... boshlang‘ich nazoratning natijalari bilan o‘zaro taqqoslanadi.
 - a) oraliq nazorat natijalari;
 - b) joriy nazorat natijalari;
 - c) yakuniy nazorat natijalari;**
 - d) muddatli nazorat natijalari.

5. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot, hamkorlik asosida tarbiya jarayonining muayyan bosqichlarida turli qarorlar qabul qilinishini taqozo etadigan holat – bu ...

- a) o‘quv vaziyati;
- b) tarbiyalovchi vaziyat;**
- c) ijtimoiy vaziyat;
- d) ta’sir ko‘rsatuvchi vaziyat.

6. Sust kechadigan tarbiyaviy vaziyatlar, faol kechadigan tarbiyaviy vaziyatlar, tez sur’atda o‘tadigan tarbiyaviy vaziyatlar, uzoq davom etadigan tarbiyaviy vaziyatlar – ular tarbiyalovchi vaziyatlarning ...

- a) metodlari;
- b) vositalari;
- c) shakllari;
- d) turlari.**

7. Muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish muvaffaqiyatli vaziyatlarni kafolatlovchi ...

- a) vositalar tizimi;
- b) metodlar yig‘indisi;
- c) sharoitlar jamlanmasi;**
- d) texnologiyalar to‘plami.

8. O‘zini o‘zi axloqiy baholash diagnostikasi ... holat bo‘yicha o‘quvchining munosabatiga asoslanadi.

- a) 15 ta;
- b) 10 ta;**
- c) 7 ta;
- d) 5 ta.

9. “Xulq -atvor etikasi diagnostikasi” bo‘yicha o‘quvchi ... jumlanini davom ettiradi.

- a) 15 ta;
- b) 10 ta;
- c) 7 ta;
- d) 5 ta.**

10. “Hayotiy qadriyatlarga munosabat diagnostikasi”ning asosini tashkil qiladi.

- a) ehtiyojlar ro‘yxati;
- b) qiziqishlar ro‘yxati;
- c) istaklar ro‘yxati;**
- d) qobiliyatlar ro‘yxati.

Amaliy topshiriqlar:

Tavsiya etilgan savollar asosida o'quvchilar o'rtasida bahs-munozarani tashkil etish orqali ularning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tashxislash.

Ochiq so'rovnoma⁹⁵:

1. Sizning fikringiz qanday: komillikka intilishda e'tiqodga ega bo'lish qanday ahamiyatga ega?

2. Hadislarda aytilishicha, hech bir inson o'ziga berilgan umrdan o'z ixtiyori bilan voz kecha olmaydi. Bu og'ir gunoh sanaladi. U holda ayting-cha, jasoratning yorqin namunalaridan biri sifatida e'tirof etib kelinayotgan cho'pon yigit – Shiroqning o'z-o'zini o'limga mahkum etishi nodonlik emasmi?

3. Har bir inson o'z ideali – o'zi uchun namuna sifatida tanlagan qahramoniga ega bo'lishi zarur. Shaxsan Sizni kimning yoki kimlarning hayoti, faoliyati yoki jasorati hayratga solgan, undan namuna olishga undagan?

4. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ko'chalarning ozodaligi va tabiat muhofazasi uchun barcha birdek mas'ul. O'quvchilarda tabiat va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni samarali shakllantirish mumkinmi?

5. Qonunlar, eng avvalo, fuqarolarning huquq, manfaatlarini himoya qilish uchun ishlab chiqiladi. U holda nima uchun fuqarolar qonunlardan qo'rqishadi?

6. Vatanparvarlik qahramonlik ko'rsatishdagina namoyon bo'ladimi? Sizningcha, oddiy fuqarolar o'zlarining vatanparvar ekanliklarini namoyish qila oladilarmi?

7. Sizningcha, yashashdan maqsad, umr kechirishning ma'nosi nima?

8. Shaxsan Siz qanday hayotiy maqsadlarga egasiz? Hayotda Siz uchun nima juda ham muhim?

9. Nima deb o'ylaysiz, xuddi qahramon Shiroq kabi o'z xalqingiz, Vataningiz uchun hayotingizni qurbon qilish uchun jur'atingiz yetadimi?

10. Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zida namoyon eta olmagan shaxs tomonidan topilgan boylik ezgulikka xizmat qilmaydi! Sizningcha, bu fikr qanchalik to'g'ri?

11. Siz qanday qaraysiz, shaxsning turmush tarzi, ijtimoiy borliqqa nisbatan yondashuvi, kiyinishi hamda atrof-dagilar bilan munosabati uning ma'naviy-axloqiy dunyosi haqida yetarlicha ma'lumot bera oladimi?

12. O'ta bilimli, ziyoli shaxslarning ko'pchiligini moddiy boylik u qadar qiziqitirmaydi. Bu holatni Siz qanday baholaysiz?

13. 200 yildan buyon hal qilinmay kelinayotgan Puankare teoremasining yechimini topganligi uchun (2008 yil) Sankt-Peterburglik Georgiy Perelman jahon matematiklari uyushmasi tomonidan mukofot uchun belgilangan bir million AQSh dollari miqdoridagi moddiy mablag'ni olishdan voz kechdi. Siz qanday fikrdasiz, uning bu harakatini ma'naviy jasorat deb baholash mumkinmi?

14. O'zbek xalqi ongida “moddiy boylik” va “shaxs ma'naviyati” degan tushunchalar o'rtasida o'zaro bog'liqlik, aloqadorlik bo'lishi mumkin emas, degan tushuncha qaror topgan? Sizningcha, bu qaror to'g'rimi?

⁹⁵ Usmonboyeva M., Aripova M., Mo'minova D. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. – T.: “Lesson Pres” nashriyoti, 2019. – 29-30-b.

15. Totalitar tuzum davrida fuqarolar ongida “moddiy boylikka erishish kapitalistik tuzum sarqiti, axloqli shaxs boylikka ro‘ju qo‘ymaydi” degan munosabat qaror toptirilgan edi. Siz qanday fikrdasiz, mazkur munosabatni saqlab qolish kerakmi yoki o‘zgartirish lozimmi?

16. Tasavvur qiling, Sizga juda katta miqdorda moddiy mablag‘ni qo‘lga kiritish mumkin bo‘lgan ish taklif qilinmoqda. Biroq, bu ishning bajarilishi Sizga foyda keltirsa-da, jamiyatga zarar yetkazishi mumkin. Bunday vaziyatda qanday yo‘l tutasiz?

17. Hadislarda ko‘rsatilishicha, inson har bir so‘zi uchun zakot (mol-mulk va daromadning 40/1 miqdorida beva-bechoraga beriladigan xayr-sadaqa) to‘lashi zarur. Buni yoddan chiqarmagan holda “Men xudbinlar, manfaatparastlar, o‘z xalqiga, Vataniga xiyonat qiluvchilar toifasidan emasman”, deya olasizmi?

18. Yaponiyaliklar uchun mamlakat manfaati fuqarolarning shaxsiy manfaatidan yuqori qo‘yiladi. Agarda yaponiyalik tadbirkorga millionlab foyda keltiradigan loyiha taklif etsangiz, agarda bu loyiha uning o‘zi uchun foyda keltirib, davlat rivojiga zarar keltirsa, u bu loyihadan so‘zsiz voz kechadi. Sizningcha, O‘zbekiston fuqarolarining yaponiyalik bo‘lishi uchun tarbiyani qanday tashkil etish zarur?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Дудина М.М., Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во Рос.гос.проф.-пед. унив-та. 2016. – 190 с.

2. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.

3. Pedagogik diagnostika / Ma’ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Raxmatova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.

4. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.

5. Yo‘ldoshev J.G‘., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O‘quv-metod.qo‘ll. – 2014. – 96 b.

10-mavzu. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda pedagogik diagnostikaning o‘rni

Reja:

1. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish mohiyati, ustuvor tamoyillari.
2. O‘quvchilarning kasbga yo‘nalganligini tashxislash: maqsadi, vazifalari.
3. O‘quvchilarning kasbga yo‘nalganligini tashxislash metodlari va metodikalari.

Tayanch tushunchalar: o‘quvchi, kasb, yo‘naltirish, kasbga yo‘naltirish, kasbiy qiziqish, kasbiy qobiliyat.

I. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish mohiyati. Uzluksiz ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan eng muhim vazifa – bu umumiy fanlar hamda kasbiy bilim asoslarini puxta o‘zlashtirgan, har qanday vaziyatda faollik ko‘rsata oladigan, mavjud raqobatga bardoshli hamda doimiy ravishda ijodiy izlanishda bo‘la oluvchi, shuningdek, jahon ta’limi va ishlab chiqarish sohalari standartlariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash dan iborat.

So‘nggi chorak asr mobaynida O‘zbekiston Respublikasida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning muayyan kasb yoki hunar yo‘nalishida qiziqish, intilish, tegishli yo‘nalishlarda amaliy faoliyatni tashkil qilish ko‘nikma, malakalarini tashxislash orqali boshlang‘ich kasbiy sifatlarni rivojlantirish xalq ta’limi tizimining muhim tarkibiy elementiga aylandi. Bu borada bajarilgan ishlar o‘zini tarixiy xronologiyasiga egadir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 may (203-sonli) Qaroriga binoan Xalq ta’limi vazirligi qoshida “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi” tashkil etildi. Respublika Xalq ta’limi vazirligi tomonidan qabul qilingan “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish to‘g‘risida” 64-sonli (2001 yil 23 aprel) buyruq asosida tashxis markazi faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlari belgilandi⁹⁶.

O‘tgan vaqt mobaynida mazkur markaz faoliyati mohiyatini yorituvchi

“O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish to‘g‘risida”, “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish xonasi to‘g‘risida” hamda “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis markazi to‘g‘risida”gi namunaviy Nizom, “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazining Ustavi”, shuningdek, “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis

⁹⁶ Умаров С.Б. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини касб-хунарга йўналтириш технологиялари (YI-IX синфлар мисолида): пед.фанл.номз. ...дис. – Т.: 2005. – 154 б.

markazining Ilmiy Kengashi to'g'risida"gi Nizom⁹⁷ kabi me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 916-son (2017 yil 1 dekabr) Qaroriga muvofiq qabul qilingan "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi"ning Ustavida quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, psixologik-pedagogik tashxis qo'yish va tibbiy-defektologik xizmat ko'rsatish sohasida ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqish va xalq ta'limi muassasalarining o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish;

kasb-hunarga yo'naltirish, psixologik-pedagogik tashxis qo'yish xizmati faoliyatini tashkiliy, ilmiy-metodik, axborot bilan ta'minlash;

xalq ta'limi muassasalari o'quvchilarining qobiliyatlari, kasbiy moyilliklari, qiziqishlari va ko'nikmalarini inobatga olgan holda ta'lim olishni maktabning yuqori sinflarida, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida davom ettirishlarini tanlashlariga ko'maklashish va hisobini yuritish;

bolalarning psixologik-pedagogik jihatdan rivojlanishiga tashxis qo'yish, ularning qobiliyat va moyilliklarini aniqlash, 1-sinf o'quvchilarining maktab ta'limiga moslashuvi jarayonini nazorat qilib borish, o'quvchilar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni amalga oshirishda maktab psixologlari va o'qituvchilariga metodik yordam ko'rsatish;

iqtidorli va iste'dodli bolalar va yoshlarni aniqlash bo'yicha ilg'or tajribani o'rganish, tizimlashtirish va xalq ta'limi tizimiga joriy etishni tashkil etish, iqtidorli bolalar ma'lumotlar bazasini yaratish, iqtidorli va iste'dodli, shuningdek, jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan ishlash bo'yicha metodikalarni ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish, mazkur sohadagi ilg'or tajribani o'rganish va joriy etish⁹⁸.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son (2020 yil 6 noyabr) Qarorida tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlarining Pedagogik-psixologik tashxis faoliyatini tashkil etish sho'balari negizida belgilangan shtatlar doirasida yuridik shaxs maqomisiz Bolalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil etish zarurligi ko'rsatildi. "Bolalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash" Markazlarining asosiy vazifalari qatorida "xalq ta'limi tizimida kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik xizmat

⁹⁷ Умаров С.Б. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини касб-хунарга йўналтириш технологиялари (ҲИ-Х синфлар мисолида): пед.фанл.номз. ...дис. – Т.: 2005. – 19-20-б.

⁹⁸ "Ўқувчиларни касб-хунарга йўналтириш ва психологик-педагогик республика ташхис маркази"нинг Устави // [https://nrm.uz/contentf?doc=547263_o'zbekiston_respublikasi_xalq_talimi_vazirligining_o'quvchilarni_kasb-hunarga_yo'naltirish_va_psihologik-pedagogik_respublika_tashhis_markazi_ustavi_\(o'zr_vm_01_12_2017_y_961-son_qaroriga_3-ilova\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=547263_o'zbekiston_respublikasi_xalq_talimi_vazirligining_o'quvchilarni_kasb-hunarga_yo'naltirish_va_psihologik-pedagogik_respublika_tashhis_markazi_ustavi_(o'zr_vm_01_12_2017_y_961-son_qaroriga_3-ilova)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana).

ko‘rsatish, ilg‘or tajribalarga asoslangan kasb-hunarga yo‘naltirishning zamonaviy shakl va uslublarni joriy etish”⁹⁹ muhim ekanligiga e‘tibor qaratilgan.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning muayyan kasb yoki hunar yo‘nalishida kasbiy faoliyatni tashkil qilish layoqati, qobiliyatiga egaliklarini tashxislash masalasini yoritishdan avval “kasb”, “hunar”, “ixtisos”, “ixtisoslik”, “faoliyat”, “kasbiy faoliyat”, kasbiy layoqat (qobiliyat”) kabi tayanch tushunchalarning mazmunidan xabardor bo‘lish maqsadga muvofiq.

Lug‘aviy ma‘nosiga ko‘ra “kasb” tushunchasi lotin tilidan tarjima qilinganda, “rasmii mashg‘ulot”, “mutaxassislik” ma‘nosini anglatadi.

Kasb – 1) maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma‘lum bir sohada mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun lozim bo‘lgan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikma, malakalar majmuasini egallagan, jismoniy, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlari ta‘minlangan mehnat faoliyati (mashg‘uloti)ning turi¹⁰⁰; 2) muayyan shaxsiy sifatlarga tayanilgan holda tashkil etiluvchi mehnat faoliyati, mashg‘ulotning ko‘rinishidir¹⁰¹.

Hunar – 1) muayyan ko‘nikma, mahorat talab qilinadigan, tirikchilikning asosiy manbai hisoblanuvchi ish, mashg‘ulot, kasb¹⁰²; 2) asosan qo‘l kuchi bilan harakatlantiriladigan ish qurollari yordamida, ya‘ni, qo‘l mehnatiga asoslanib mahsulotlarni tayyorlashga qaratilgan faoliyat.

Mutaxassislik – biror kasb doirasida ma‘lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va tajribasi bilan erishilgan zarur bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi¹⁰³.

Yo‘naltirish – shaxsning ish-harakati yoki faoliyatini aniq maqsad asosida muayyan tomonga burish, ma‘lum yo‘lga solish.

Kasbiy qiziqish – o‘quvchilarning muayyan kasb yoki hunar asoslarini o‘rganishga bo‘lgan intilishi, havasi.

Kasbiy qobiliyat – o‘quvchilarning u yoki bu kasb, hunar yo‘nalishida amaliy faoliyatni tashkil eta olish layoqati.

Kasbga yo‘naltirish – yoshlar, shu jumladan, o‘quvchilarning shaxsiy layoqat, qiziqish va qobiliyatlari, shuningdek, ayni vaqtning o‘zida jamiyatning turli kasb mutaxassislari va ularning malaka darajasiga bo‘lgan talablarini inobatga olgan holda aniq maqsadga yo‘naltirilgan

⁹⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4884-сон (2020 йил 6 ноябрь) Қарори // <https://lex.uz/docs/5085887>.

¹⁰⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида узлуксиз бошланғич, ўрта ва ўрта махсус профессионал таълим тизимини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 466-сон (2020 йил 7 август) Қарори // <https://www.lex.uz/ru/docs/4945840>.

¹⁰¹ Профессиональная ориентация молодёжи / А.Д.Сазонов и др. – М.: Высшая школа. 1990. – С. 10.

¹⁰² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Шукрона – X / 5 жилдли. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев тахр.остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 561-б.

¹⁰³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида узлуксиз бошланғич, ўрта ва ўрта махсус профессионал таълим тизимини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 466-сон (2020 йил 7 август) Қарори // <https://www.lex.uz/ru/docs/4945840>.

*faoliyat asosida tashkil etiluvchi ularni muayyan kasbga tayyorlash jarayoni*¹⁰⁴.

O‘quvchilarning kasbga yo‘nalganligini tashxislash – tashxis metodlari yordamida o‘quvchilarning u yoki bu kasb, hunar asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, qobiliyat darajasini aniqlash.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish – ularning qiziqish, qobiliyatini aniqlash orqali ongli ravishda kasb yoki hunar yo‘nalishlarini tanlashiga ko‘maklashish va harakatlarini tegishli yo‘nalishga solish.

Shaxsda muayyan kasb yoki hunar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni samarali o‘zlashtirilishi kasbga tayyorlash jarayoni asosida ta‘minlanadi.

II. O‘quvchilarni kasbga yo‘nalganligini tashxislash: maqsadi, vazifalari. Pedagogik diagnostikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan o‘quvchilarni kasbga yo‘nalganligini tashxislash ham aniq maqsad asosida tashkil etiladi.

O‘quvchilarni kasbga yo‘nalganligini tashxislashdan ko‘zlangan maqsad - ularning qiziqish, qobiliyatini aniqlash orqali ongli ravishda kasb yoki hunar yo‘nalishlarini tanlashiga ko‘maklashish hamda ta‘limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yuzasidan o‘quvchilar, uning ota-onalarga tavsiyalar psixologik-pedagogik tavsiya, maslahat berish.

Bu yo‘nalishda tashxislashni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

o‘quvchilarga turli kasblar, ixtisosliklar, mansab lavozimlari, tanlangan kasbni, ixtisoslikni egallash mumkin bo‘lgan ta‘lim muassasalari hamda kasbning insonga, uning jismoniy, psixologik va shaxsiy sifatlariga, salomatligiga qo‘yadigan talablari haqida ma‘lumotlar berish;

o‘quvchilarning bilish (o‘quv predmetlariga, fanga) va kasbiy (kasblarga, mutaxassisliklarga) qiziqishlarini, kasb tanlash motivlari va kasbiy rejalarini aniqlash hamda baholash;

o‘quvchilarga ularning individual xususiyatlari va mehnat bozori talablarini, ta‘lim olish hamda kelgusida ishga joylashish imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasb va ta‘lim muassasasini tanlashga ko‘maklashish;

o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalarini, kasblarga qiziqish, mehnatsevarlik, ishchanlik va mas‘uliyatni shakllantirish hamda rivojlantirish.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish jarayonida quyidagi tamoyillar ustuvor ahamiyat kasb etadi: kasb-hunarga yo‘naltirish xizmatlarining tizimli-majmuaviy xarakterdaligi; iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozorini o‘rganish va istiqbolni belgilash orqali jamiyat va shaxs qiziqishlarini muvofiqlashuvi; shaxsni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilish shakli, uslublari va vrsitalarining ilmiy asoslanganligi; O‘zbekiston fuqarolarining va (lozim bo‘lganda) boshqa davlat fuqarolarining o‘qish, ish joyi, yoshi, jinsi, millati va diniy dunyoqarashidan qat‘iy nazar kasb-qunarga yo‘naltirish xizmatlaridan foydalanishga teng huquqliligi; kasb tanlash yoki almashtirish, ta‘lim turi va ishga

¹⁰⁴ Профессиональная ориентация молодёжи / А.Д.Сазонов и др. – М.: Высшая школа. 1990. – С. 49-50.

joylashish imkoniyatlariga nisbatan kasbiy va boshqa axborotlarning tushunarligi; umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilariga psixologik-pedagogik va kasb-hunarga yoʻnaltirish xizmatlarini koʻrsatishning majburiyligi va bepulligi, aholining boshqa guruhlariga davlat darajasida kafolatlangan kasbiy tashxis va maslahat berishning ixtiyoriyligi; kasbiy tanlov, tashxis va maslahat xulosalarining obʻektivligi, maxfiyligi va tavsivaviy xarakterda ekanligi¹⁰⁵.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻquvchilarning kasbga yoʻnalganligini tashxislashda quyidagi talablar inobatga olinishi zarur: oʻquvchining kasbiy faoliyatni tashkil etishga ruhiy tayyorligi, aniq maqsadga egaligi, ish oʻrnini toʻgʻri tashkil etish malakasiga egaligi, ish vaqtdan unumli foydalana olish zarurligini tushunishi, xavfsiz va qulay mehnat sharoitlariga ega boʻlishga harakat qilishi, ish qurollariga toʻgʻri munosabatda boʻlishi, xavfsizlik qoidalari (xususan, yongʻin va halokatlarning oldini olish, turli xildagi jarahotlanishlardan saqlanish, maʼlum kasbiy faoliyatni tashkil etish yuzasidan ishlab chiqilgan koʻrsatmalar)ga ogʻishmay rioya etishi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida kasbga yoʻnaltirishga faratilgan faoliyatni tashkil qilishda oʻquvchilarini quyidagi sohalar bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda dastlabki kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiq sanaladi (2-jadval):

2-jadval. Kasbiy faoliyat turlari

№	Turlari	№	Turlari
1.	Sanoat	13.	Aloqa
2.	Mashinasozlik	14.	Qurilish
3.	Samoliyotsozlik	15.	Uy-joy kommunal xoʻjaligi
4.	Avtomobilsozlik	16.	Qishloq va oʻrmon xoʻjaligi
5.	Metallurgiya	17.	Sogʻliqni saqlash
6.	Geologiya va foydali qazilmalarni qazib chiqarish	18.	Savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat koʻrsatish sohalari
7.	Kimyo sanoati	19.	Madaniyat va sanʼat
8.	Engil sanoat	20.	Ijtimoiy-iqtisodiy soha
9.	Poligrafiya ishlab chiqarishi	21.	Taʼlim-tarbiya
10.	Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish	22.	Axborot-kommunikatsion texnologiyalari
11.	Transport	23.	Filologiya
12.	Ijtimoiy faoliyat	24.	Hunarmandchilik

III. Oʻquvchilarning kasbga yoʻnalganligini tashxislash metodlari va metodikalari. Pedagogik diagnostikaning muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish muammolarini tadqiq qilish ana shu maqsadga xizmat qiladigan tashxislovchi metodlarni asoslash imkonini bergan.

1. A.E.Golomshtok tomonidan asoslangan “Qiziqishlar xaritasi”. Pedagogik manbalarda oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirishda A.E.Golomshtok tomonidan asoslangan “Qiziqishlar xaritasi” oʻziga xos metodik manba boʻla olishiga alohida urgʻu berilgan. “Qiziqishlar xaritasi” oʻquvchilarning turli kasb yoki hunar

¹⁰⁵ Умаров С.Б. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини касб-хунарга йўналтириш технологиялари (YI-IX синфлар мисолида): пед.фанл.номз. ...дис. – Т.: 2005. – 21-б.

asoslarini o'rganish hamda bu borada amaliy faoliyatni tashkil etishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqish darajasini o'rganishga xizmat qiladi. Mazkur metodika mazmunida asosiy e'tibor o'n uch mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha o'quvchilarni kasb yoki hunar faoliyatini tashkil etishga yo'naltirish mumkinligiga qaratiladi¹⁰⁶.

2. YE.A.Klimov tomonidan asoslangan "Tabaqalashtirilgan tashxis so'rovnomasi"¹⁰⁷ o'quvchilarni nafaqat kasb yoki hunarga yo'naltirish vazifasini ijobiy hal etishga xizmat qilmaydi, balki ularning istiqbolda muayyan yo'naltirishda kasbiy faoliyatni samarali tashkil eta olishi uchun amaliy ahamiyati yuqori yo'riqnomaga bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur so'rovnoma o'quvchilarning qiziqish va moyilliklarini aniqlash borasida eng mashhur metodlardan biri sanaladi. Metodning mohiyati mavjud kasb va hunarlarni ularning mazmuni va yo'nalishiga ko'ra quyidagi 5 tipga muvofiq ravishda o'rganishni anglatadi:

- 1) inson – tabiat (mehnat manbai sifatida – o'simlik, hayvon va mikroorganizmlar e'tirof etiladi);
- 2) inson – texnika (mashina va mexanizmlar);
- 3) inson – inson (odamlar guruhi, jamoalar);
- 4) inson – belgilar tizimi (raqamlar, tillar, ramzlar, kodlar);
- 5) inson – badiiy timsol (tasviriy san'at, badiiy asarlar va ularda ifoda etilgan obrazlar).

"Tabaqalashtirilgan tashxis so'rovnomasi" kasb yoki hunarlarning yuqorida qayd etilgan tasnifi doirasida o'quvchilarning qiziqish va layoqatlari xususida taxminiy dalillarga ega bo'lish uchun muhim ma'lumotlarni beradi¹⁰⁸.

3. "Men afzal ko'raman" nomli tashxis so'rovnomasi¹⁰⁹. So'rovnmadan foydalanish asosida o'quvchilarning muayyan kasb yoki hunarlar asoslari bo'yicha ma'lumotlarni egallaganlaridan so'ng har qanday faoliyatni yo'lga qo'yishlari mumkinligi aniqlanadi. O'quvchilarning ma'lum kasb yoki hunar yo'nalishi bo'yicha o'z oldilariga qo'yilgan maqsad va intilishlarining qay darajada qat'iy ekanliklarini aniqlash maqsadida ularning e'tiboriga ikki imkoniyatdan birini tanlashni taqozo etuvchi variantlar havola etildi. O'quvchilarning mazkur savollarga bo'lgan munosabatlari ham uning hayotiy maqsadining aniqligi borasida ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi.

Ayni o'rinda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga xizmat qiladigan metod va metodikalardan ayrimlari keltiriladi.

I. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining YI-IX sinf o'quvchilari uchun anketa so'rovnomasi

Sharifi _____ Ismi _____ Yoshi _____
Maktab № _____ Sinf _____ Sana _____

¹⁰⁶ Kasbga iynalтириш ykuv-metodik kabинети / Ykituvchilar uchun kitob. – T.: Ykituvchi, 1989. – 120 b.

¹⁰⁷ Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов-на-Дону. Финикс. 1996. – 264 с.

¹⁰⁸ Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов-на-Дону. Финикс. 1996. – 264 с.

¹⁰⁹ Умаров С.Б. Умумий yрта таълим мактаблари ykuvchilarини касб-хунарга iynalтириш технологиялари (YI-IX синфлар мисолида): пед.фанл.номз. ...дис. – T.: 2005. – 66-68-б.

Hurmatli o'quvchi! Quyida Sizing e'tiboringizga kasb yoki hunar yo'nalishlari bo'yicha qiziqishingizni aniqlashga xizmat qiluvchi savollar havola etiladi. Savolda javob variantlari ko'rsatilgan bo'lsa, ma'qul deb topgan javobingizni tagiga chizing. Agarda javob variantlari berilmagan bo'lsa, javobingizni to'la yozing.

1. Sizni qaysi fan sohasi ko'proq qiziqtiradi:

a) tabiiy fanlar (matematika, fizika, kimyo, biologiya, mehnat (bu o'rinda qishloq xo'jaligi mehnati);

b) ijtimoiy fanlar (tarix, huquqiy va iqtisodiy bilimlar asoslari);

v) gumanitar (adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, til o'rganishga oid fanlar (xususan, ona tili, ingliz tili)).

2. Siz qaysi fanlarni o'rganishni yoqtirasiz? _____

3. Qaysi fanlarni o'rganishni yoqtirmaysiz? _____

4. Quyidagi fanlar bo'yicha qanday baholarni olasiz: ona tili _____, matematika (algebra) _____, tarix _____, fizika _____, kimyo _____, biologiya (botanika) _____, adabiyot _____, geometriya _____, chet tili _____, mehnat ta'limi _____, jismoniy tarbiya _____, geografiya _____, huquq _____, Odam va uning salomatligi _____, Vatan tuyg'usi _____, milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari _____, iqtisodiyot asoslari _____, rus tili _____, musiqa _____, chizmachilik _____ va boshqalar.

5. Bo'sh vaqtda qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanasiz? _____

6. Qanday jamoatchilik vazifalarini bajarasiz? _____

7. Qanday to'garak va seksiyalarda qatnashasiz? _____

8. Repititorlik asosida qo'shimcha ta'lim olasizmi? _____

9. O'zingizda qanday xislatlarning mavjud bo'lishini xohlardingiz?

10. Sizda qanday emosional sifatlar ustun? _____

11. IX sinfni tugatgach, qanday yo'nalishda ta'lim olishni xohlaysiz:

a) X sinfda o'qishni davom ettirmoqchiman;

b) akademik lisey, kasb-hunar kollejida ta'lim olmoqchiman.

12. Bu borada ota-onangiz qanday fikrdalar? _____

13. Qaysi akademik lisey va kasb-hunar kollejida o'qimoqchisiz? (nomini to'la yozing) _____

14. Agar X sinfda o'qishni davom ettirsangiz qaysi mehnat ta'limi yo'nalishida bilim olmoqchisiz? _____

15. Ushbu yo'nalishni nima maqsadda tanlayapsiz? _____

16. Yana qaysi kasbiy faoliyatlar Sizni ko'proq qiziqtiradi? (Ularning nomlarini yozing) _____

II. Qiziqishlar xaritasi

Ko'rsatma: Siz o'qishni davom ettirishingiz yoki qiziq bir joyga yozilish imkoniyatiga egasiz. Kasb tanlashga yordam berish uchun savollar ro'yxati taklif bilinadi. Har bir savolga javob berishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'ring, shunchaki javob bermang!

Xaritada ko'rsatilgan holatlarning qay biri Sizni qiziqtirsang va sohaga qiziqishingiz aniq bo'lsa, u holda javob uchun tegishli variantni belgilang.

Har bir savolga javobingizni quyidagi tartibda belgilang:

Juda yoqadi va shug'ullanaman: ++

Yoqadi, ammo shug'ullanmayman: +-

Yoqish-yoqmasligini aniq bilmasangiz yoki shubhalansangiz: 0

Yoqtirmasangiz: --

Mutlaqo yoqmasa: -

Har bir savol bo'yicha javob qaytaring. Bordi-yu, savollaringiz bo'lsa, o'qituvchi yoki mutaxassisdan javob olishga harakat qiling.

“Qiziqishlar xaritasi”ni to'ldirish uchun vaqt chegaralanmagan.

1. Fizika darsini yoqtirasizmi?
2. Matematika darsini yoqtirasizmi?
3. Kimyo darsini yoqtirasizmi?
4. Astronomiyaga oid kitob yoki maqolalarni o'qiysizmi?
5. Hayvonlar bilan olib borilgan tajribalar haqida o'qib borasizmi?
6. Shifokorlarning hayoti va faoliyati Sizni qiziqtiradimi?
7. Qishloq xo'jaligiga oid ma'lumotlar bilan tanishib borasizmi?
8. O'rmonlarga oid ma'lumotlar Sizni qiziqtiradimi?
9. Jahon adabiyotining mumtoz asarlarini o'qiysizmi?
10. OAVda berilayotgan axborotlar bilan tanishib borasizmi?
11. Tarix darsini yoqtirasizmi?
12. Tez-tez teatr, muzey, badiiy ko'rgazmalarga tashrif buyurasizmi?
13. Geologik ekspeditsiyalar haqidagi adabiyotlarni o'qiganmisiz?
14. Turli mamlakatlar, ularning iqtisodiyoti va siyosatiga qiziqasizmi?
15. Jamoat ishlarini bajarish uchun ularga ijtimoiy sub'ektlarni jalb qila olasizmi?
16. Ichki ishlar organlarining faoliyati Sizni qiziqtiradimi?
17. Dengizchilar, uchuvchilar haqida o'qiganmisiz?
18. O'qituvchilik faoliyatini tashkil etishga qiziqasizmi?
19. Mashinalarning tuzilishi va ishlashi bilan tanishmisiz?
20. Ovqat tayyorlashni yoqtirasizmi?
21. Quruvchilarning faoliyati Sizni qiziqtiradimi?
22. O'zingiz yashayotgan, o'qiyotgan yoki ishlayotgan hududning obod bo'lishi to'g'risida qayg'urasizmi?
23. Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan tanishmisiz?
24. Elektr jihozlari va radio, televizor qurilmalarining tuzilishi Sizni qiziqtiradimi?
25. Fizika sohasidagi kashfiyotlar haqidagi ilmiy-ommabop asarlarni o'qiganmisiz?

26. Matematik kashfiyotlar to'g'risidagi ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan tanishib borasizmi?
27. Kimyo sohasida erishilayotgan yangi yutuqlar Sizni qiziqtiradimi?
28. Kosmonavtlar haqidagi teledasturlarni tomosha qilasizmi?
29. Biologiyani o'rganish Sizni qiziqtiradimi?
30. Kasalliklarning sabablari, davolash usullari bilan qiziqasizmi?
31. Botanikani o'rganasizmi?
32. O'rmonda vaqt o'tkazish Sizga yoqadimi?
33. Adabiy tanqidiy maqolalarni o'qib borasizmi?
34. Jamoat hayotida faol ishtirok etishga harakat qilasizmi?
35. Tarixiy voqealar haqidagi kitoblarni o'qib borasizmi?
36. Simfonik musiqa tinglashni yoqtirasizmi?
37. Yangi konlarning kashf etilishi haqida turli manbalardan bilib olasizmi?
38. Geografik kashfiyotlar Sizni qiziqtiradimi?
39. Jahonda va O'zbekistonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy voqea, hodisalarni tengdoshlaringiz bilan muhokama qilib borasizmi?
40. Tengdoshlaringiz, umuman, yoshlar o'rtasida tartib, intizomni o'rnatib olasizmi?
41. Mamlakat bo'ylab mashina, poezd, samolyotda sayohat qilish Sizga yoqadimi?
42. O'rtoqlaringizga qiyin masalalarni hal qilish, taklif va istaklarni to'g'ri yozishni tushuntirish Siz uchun qiziqarliymi?
43. Turli o'lchov asboblari bilan tanishish Sizni o'ziga jalb qiladimi?
44. Uy iqtisodiyoti darslari Sizni qiziqtiradimi?
45. Qurilish sohasida ro'y berayotgan yangi o'zgarishlar haqida bilib olasizmi?
46. Zavod, korxonalariga tashrif buyurishni yoqtirasizmi?
47. Mexanizmlar, mashina qurilmalari bilan tanishish Sizni o'ziga jalb qiladimi?
48. Ilmiy-ommabop jurnallarda chop qilinayotgan radiotexnikaning turli sohalariga oid yutuqlar haqidagi maqolalarni o'qib borasizmi?
49. Fizik hodisalar nazariyasini tushunasizmi?
50. Murakkab matematik masalalarni yecha olasizmi?
51. Kimyo bo'yicha tajribalar o'tkazish, kimyoviy reaksiyalarning borishini kuzatish Siz uchun zavqlimi?
52. Osmon jismlarini kuzatib borasizmi?
53. O'simliklarni kuzatib borishni xohlaysizmi?
54. Kiyinish, jarohat olganlarga birinchi yordam ko'rsatish va shu kabi faoliyat turlari Sizga yoqadimi?
55. Hayvonlarni boqish, parvarishlash Sizni qiziqtiradimi?
56. Gerbariy yig'ishga qiziqasizmi?
57. Hikoya va she'rlar yozish qo'lingizdan keladimi?
58. Boshqalarning xulq-atvori va hayotini kuzatib borasizmi?
59. Tarix fanlaridan to'garaklarning ishlarida ishtirok etib, tarixiy voqealar haqida guvohlik beradigan materiallarni izlash Siz uchun qiziqmi?

60. Insonlarni kuldirish, xorda kuylash, sahnada chiqishlar qilish qo‘lingizdan keladimi?
61. Axborotlarni to‘plash, ularning kelib chiqish manbalari bilan qiziqasizmi?
62. Yurt tabiatini o‘rganish Siz uchun qiziqarlirmi?
63. Maktabda ijtimoiy tadbirlarni uyushtirish qo‘lingizdan keladimi?
64. Atrofdagilarning xulq –atvorini o‘rganish Sizni qiziqtiradimi?
65. Haydovchilar bilan suhbatlashish, avtomobillarga xizmat ko‘rsatish qo‘lingizdan keladimi?
66. Bolalar bilan vaqt o‘tkazish (ularga kitob o‘qish, ertaklar aytish va sarguzashtlarni hikoya qilish yoki biror ishni bajarishda ko‘maklashish) Siz uchun yoqimli bo‘ladimi?
67. Turli xil detal, konstruksiya va buyumlarni yasash qo‘lingizdan keladimi?
68. Sayohatlar vaqtida ovqatlanishni tashkil qila olasizmi?
69. Qurilish maydonlarida bo‘lish Siz uchun zavqlimi?
70. Turli urfdagi kiyimlarni tika olasizmi?
71. Velosipedlar, tikuv mashinalari, soatlar, boshqa turli mexanizmlarni yig‘ish va ta‘mirlash qo‘lingizdan keladimi?
72. Maishiy elektr va radio texnika qurilmalarini ta‘mirlay olasizmi?
73. Doimiy ravishda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishga harakat qilasizmi?
74. Matematika to‘garagiga qatnashish Siz uchun zavq bag‘ishlaydimi?
75. Eritmalar tayyorlash, reagentlarni o‘lchash Sizga yoqadimi?
76. Planetariumga tashrif buyurishni yoqtirasizmi?
77. Biologiya darsi Sizga yoqadimi?
78. Bemorlarni parvarishlash, ularga yordam ko‘rsatish qo‘lingizdan keladimi?
79. Tabiatni kuzatish, kuzatuvlarni qayd etib borish Sizni qiziqtiradimi?
80. Daraxtlarni ekish va parvarish qilish Siz uchun qiziqarlirmi?
81. Lug‘at va adabiy manbalar bilan ishlash, bibliografik ma‘lumotnomalarni to‘plashni yoqtirasizmi?
82. Bir ish faoliyatidan ikkinchisiga tezda o‘ta olasizmi?
83. Tarixiy mavzular bo‘yicha ma‘ruzalar o‘qiy olasizmi?
84. Musiqiy asboblarni yasash, bo‘yash, umuman olganda, yog‘och o‘ymakorligi Sizni qiziqtiradimi?
85. Foydali qazilmalarni tavsiflab bera olasizmi?
86. Geografik ekspeditsiyalarda ishtirok etish Siz uchun qiziqarlirmi?
87. Xalqaro vaziyat haqida hisobotlarni tayyorlash olasizmi?
88. Polisiya xodimlariga yordam berish qo‘lingizdan keladimi?
89. Yosh dengizchilar to‘garagiga qatnashgan bo‘larmidingiz?
90. Maslahatchi vazifasini bajara olasizmi?
91. Mehnat darslari Sizga qadimi?
92. Kiyim sotib olayotganda do‘stlaringizga maslahat berish qo‘lingizdan keladimi?
93. Quruvchi ishini nazorat qilishni yoqtirasizmi?
94. Tikuvchilik sanoati bilan tanishish Sizni qiziqtiradimi?

95. Planer, samolyot, kema modellarini yasay olasizmi?
96. Radio va elektr qurilmalarini yig'ish qo'lingizdan keladimi?
94. Zavod, korxonalariga tashrif buyurishni yoqtirasizmi?
95. Mexanizmlar, mashina qurilmalari bilan tanishish Sizni o'ziga jalb qiladimi?
96. Ilmiy-ommabop jurnallarda chop qilinayotgan radiotexnikaning turli sohalariga oid yutuqlar haqidagi maqolalarni o'qib borasizmi?
97. Fizika bo'yicha fan olimpiadalarida qatnashasizmi?
98. Matematika bo'yicha fan olimpiadalarda qatnashasizmi?
99. Kimyo fanidan masalalar yechish Siz uchun qiyin emasmi?
100. Astronomiya to'garagi ishida ishtirok eta olasizmi?
101. Hayvonlar bilan tajribalar o'tkazish qo'lingizdan keladimi?
102. Odam organizmining funksiyalari, kasalliklarning sabablarini o'rganish Sizni qanchalik qiziqtiradi?
103. Yangi qishloq xo'jaligini mahsulotlarini yetishtirish maqsadida tajriba ishlarini olib borishni xohlaysizmi?
104. Tabiatni muhofaza qilish jamiyatiga a'zo bo'lganmisiz?
105. Ilmiy mavzulardagi bahs-munozara, seminar, konferensiyalarida qatnashasizmi?
106. Hayotiy hodisa va voqealarni tahlil qilasizmi?
107. Mamlakat o'tmishi Sizni qiziqtiradimi?
108. San'atning rivojlanish nazariyasi va tarixiga qiziqasizmi?
109. Uzoq masofaga yurishni amalga oshira olsizmi, yurish davomida zo'riqishga duch kelsangiz, Sizga berilgan dastur talablariga amal qilasizmi?
110. Geografik xaritalarni tuzish, geografik materiallarni to'plash Sizga qanchalik zavq beradi?
111. Turli mamlakatlarning siyosiy tizimini o'rganishni xohlaysizmi?
112. Advokatlik ishi Sizni qiziqtiradimi?
113. Yo'l harakati qoidalarini o'rganib borasizmi?
114. O'qituvchilik kasbi Sizni qiziqtiradimi?
115. Zavodlarga uyushtirilgan ekskursiyalarda doimiy ishtirok etasizmi?
116. Xizmat ko'rsatish bilan shug'ullangan bo'larmidingiz?
117. Qurilish ishlarida ixtiyoriy qatnashasizmi?
118. Sanoat tovarlarini ishlab chiqarish bilan tanishish Sizni qiziqtiradimi?
119. Texnik chizma va sxemalar mazmunini tushunasizmi?
120. Aniqlikni o'lchov asboblardan foydalanish, ma'lumotlarni qayta ishlash Sizni qiziqtiradimi?
121. Fizikadan tajribalar o'tkazish Sizga zavq bag'ishlaydimi?
122. Matematik qoida va formulalarni bilishni talab qiladigan ishni bajargan bo'larmidingiz?
123. Kimyo fanidan tajriba o'tkazishda o'qituvchiga yordam berishni xohlaysizmi?
124. O'zga sayyoralar haqida ma'lumot to'plash Sizni zavqlantiradimi?
125. Mashhur biologlarning faoliyati haqida o'qib borasizmi?
126. Sanitariya otryadlarining faol a'zosi bo'lganmisiz?

127. Qishloq xo‘jaligi mashinalari va asboblari tuzatish bo‘yicha ma’lum ishlarni bajarganmisiz?

128. O‘rmon xo‘jaligi bilan tanishish Siz uchun zavqlimi?

129. So‘zlar va iboralarning kelib chiqishini o‘rganishga qiziqasizmi?

130. Kundalik yuritish, maktab va shahar gazetalariga xabarlar yozishga qiziqasizmi?

131. Boshqa mamlakatlarning tarixini o‘rganish Sizni qiziqtiradimi?

132. Teatrda bir spektaklni bir necha marta tomosha qilganmisiz?

133. Mashhur geologlarning hayoti va faoliyati to‘g‘risida o‘qib borasizmi?

134. Mamlakat geografiyasini o‘rganish Sizni qiziqtiradimi?

135. Taniqli siyosiy arboblarning tarjimai hollarini o‘rganib borasizmi?

136. Do‘stlaringiz, tanishlaringiz, badiiy qahramon yoki boshqalarning harakatlarini tahlil qilish, baholash qo‘lingizdan keladimi?

137. Avtotransport vositalari to‘g‘risidagi kitobni o‘qib borasizmi?

138. Bolalarga ta’lim va tarbiya berish qo‘lingizdan keladimi?

139. Malakali ishchining harakatlarini kuzatish, tahlil qilishni yoqtirasizmi?

140. Atrofdagilar bilan muloqotga tez kirishasizmi?

141. Qurilish loyihalarini loyihalash qo‘lingizdan keladimi?

142. Yengil sanoat ko‘rgazmalarida qatnashasizmi?

143. Chizmalar, dizaynlarni kompyuter qurilmasida bajara olasizmi?

144. Radio aloqa zanjirlarining mohiyatini tushunasizmi?

Eslatma: Agar sizga so‘rovnomada ko‘rsatilmagan boshqa sohalar yoqsa, savollarga javob berib bo‘lganingizdan so‘ng bu haqida javoblar varag‘ining chetiga yozib qo‘ying!

Qiziqishlar xaritasi uchun javoblar varaqasi

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24
	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45	46	47	48
	49	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59	60	61	62	63	64	65	66	67	68	69	70	71	72
	73	74	75	76	77	78	79	80	81	82	83	84	85	86	87	88	89	90	91	92	93	94	95	96
	97	98	99	100	101	102	103	104	105	106	107	108	109	110	111	112	113	114	115	116	117	118	119	120
	121	122	123	124	125	126	127	128	129	130	131	132	133	134	135	136	137	138	139	140	141	142	143	144
+																								
-																								

Javoblarni o‘qish

1. Fizika.
2. Matematika.
3. Kimyo.
4. Astronomiya.
5. Biologiya.
6. Tibbiyot.
7. Qishloq xo‘jaligi.
8. O‘rmon xo‘jaligi.
9. Filologiya.
10. Jurnalistika.
11. Tarix.
12. San‘at.
13. Geologiya.
14. Geografiya.
15. Ijtimoiy faoliyat.
16. Huquq.
17. Transport.
18. Pedagogika.
19. Ishchi mutaxassisliklari.
20. Xizmat ko‘rsatish sohasi.
21. Qurilish.
22. Yengil sanoat.
23. Texnika.
24. Elektronika.

III. “Men afzal ko‘raman” nomli tashxis so‘rovnomasi

So‘rovnomadani foydalanish asosida o‘quvchilarning muayyan kasb yoki hunar asoslari bo‘yicha ma‘lumotlarni egallaganlaridan so‘ng har qanday faoliyatni yo‘lga qo‘yishlari mumkinligi aniqlanadi. O‘quvchilarning ma‘lum kasb yoki hunar yo‘nalishi bo‘yicha o‘z oldilariga qo‘yilgan maqsad va intilishlarining qay darajada qat‘iy ekanliklarini aniqlash maqsadida ularning e‘tiboriga ikki imkoniyatdan birini tanlashni taqozo etuvchi variantlar havola etildi. O‘quvchilarning mazkur savollarga bo‘lgan munosabatlari ham uning hayotiy maqsadining aniqligi borasida ma‘lumotga ega bo‘lish imkonini beradi.

“Men afzal ko‘raman” nomli tashxis so‘rovnomasi

1 ^a	Hayvonlar boqishni		1 ^b	Mashina va asboblarga xizmat ko‘rsatish (tuzatish, sozlash)ni
2 ^a	Bemorlarga yordam berishni		2 ^b	Sxema, dastur hamda kopyuter dasturlarini tuzishni
3 ^a	Kitobdagi rasm, plakat, badiiy otkritka, grammplastinkalarning sifatini kuzatishni		3 ^b	O‘simliklarning holatini kuzatishni
4 ^a	Xom-ashyolarga ishlov berishni (daraxt, gazlama, metall va plastmassa)		4 ^b	Tayyor mahsulotlarni iste‘molchilarga yetkazish, sotish va reklama qilishni
5 ^a	Ilmiy-ommabop kitoblar va maqolalar mazmunini muhokama qilishni		5 ^b	Badiiy asarlar (pesa, konsert) mazmunini muhokama
6 ^a	Yosh hayvonlarni parvarish qilishni		6 ^b	O‘rtoqlari yoki kichik yoshdagi bolalarga biror harakatni bajarishni (mehnat, o‘quv yoki sport) mashq qildirishni
7 ^a	Rasmlardan nusxa olish (musiqa asboblarni sozlash ni)ni		7 ^b	Qanday yuk ko‘taruvchi vosita (ko‘targich kran, traktor, teplovoz va boshqalar)ni boshqarishni
8 ^a	Odamlarga kerakli ma‘lumotlarni berish, tushuntirish (ma‘lumotlar byurosi (ekskursiyalarda)		8 ^b	Ko‘rgazma, vitrinalarni beza tish yoki pesa va konsertlar tayyorlashda ishtirok etishni
9 ^a	Buyum, tayyor mahsulot, kiyim-kechak, texnika va uy-joylarni ta‘mirlashni		9 ^b	Matn, jadval va rasmlardagi xatolarni topib, ularni tuzatishni
10 ^a	Hayvonlarni davolashni		10 ^b	Hisob-kitob qilishni
11 ^a	O‘simliklarning yangi navini yaratishni		11 ^b	Sanoat mahsulotlarining yangi turlari (mashina, ki yim-kechak, oziq-ovqat va bosh qalar)ni konstruksiyalash va loyihalashni
12 ^a	Odamlar orasidagi bahs, janjallarni muhokama qilish, ishontirish, tushuntirish, jazolash va rag‘batlantirishni		12 ^b	Chizma va jadvallarning mo hiyatini tushunish, tekshirish va xatoliklarini aniqlash hamda tartibga keltirishni
13 ^a	Badiiy havaskorlik to‘garaklari faoliyatini kuzatishni		13 ^b	Mikroblar faoliyatini Kuzatish va o‘rganishni

14 ^a	Tibbiyot asboblari Xizmatlar ko'rsatish, ularni sozlashni	14 ^b	Jarohatlangan va kuygan hollarda bo'lgan odamlarga yordam berishni
15 ^a	Kuzatilayotgan voqea-hodisa hamda o'rganilayotgan ob'ektlar haqida aniq yozma hisobotlar tayyorlashni	15 ^b	Kuzatilayotgan yoki tasavvur qilinayotgan hodisalarning mohiyatini badiiy jihatdan ta'riflash, tasvirlashni
16 ^a	Kasalxonalarda laboratoriya tahlilini o'tkazishni	16 ^b	Bemorlarni qabul qilish, ko'rib chiqish, ular bilan suhbatlashish hamda davolashni
17 ^a	Uy-joylarning devorlari, ro'zg'or buyumlarining tashqi tomonlarini bo'yash yoki bezatishni	17 ^b	Asboblari va mashinalarni yig'ish hamda montaj qilishni
18 ^a	Tengdoshlar yoki o'zidan kichik yoshdagilar bilan teatr, muzeylarda madaniy hordiq chiqarish, ekskursiyalar tashkil etish	18 ^b	Sahnada rollar ijro etish va konsertlarda ishtirok etishni
19 ^a	Chizmalar asosida detal, buyum, mashina va kiyim-kechaklar tayyorlash hamda binolarni qurishni	19 ^b	Chizmalar bilan ishlash, xarita va chizmalardan nusxa ko'chirishni
20 ^a	O'simliklarga xos bo'lgan kasalliklar, shuningdek, bog' va dalalarda zararli hashoratlariga qarshi kurash olib borishni	20 ^b	Klavishli mashinalar (yozuv mashinkasi, kompyuter, teletayp hamda harf teruv masini)da ishlashni

IV. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha maslahatlar xaritasi

Sharifi _____ Ismi _____
Tug'ilgan yili _____ Maktab № _____ Sinf _____

I-bosqich. O'quvchi shaxsini o'rganish

№	O'quvchining individual xususiyatlari	YI-IX sinflar
1	2	3
1.	Kasbiy faoliyat sohasini tanlash yo'nalishi: qiziqishi, moyilligi, kasbiy mo'ljallari, ularning barqarorligi	
2.	Ta'lim jarayonida namoyon bo'lgan layoqati (matematika, adabiyot, kimyo, jismoniy tarbiya va hokazolar bo'yicha)	
3.	Topshirilgan vazifaga bo'lgan munosabati (mehnatsevarlik, tirishqoqlik, mustaqillik, intizomlilik, tartiblilik, mas'uliyatlilik)	
4.	Muomala jarayonida ko'zga tashlanuvchi emosional xususiyati (samimiylik, jamoa bilan bo'lishga intilish, yolg'izlikni yoqtiruvchi, tajanglik, qat'iylik, fidoiylik va boshqalar)	
5.	Salomatlik holati: A) sog'lom; B) surunkali kasalliklar bilan og'rigan; V) kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishga layoqatli emas	
1	2	3

6.	TTS natijalari (“Inson-tabiati”, “inson-texnika”, “inson-inson”, “inson-belgilar tizimi”, “inson-badiiy obraz”)	
7.	Ota-onasining munosabati: A) farzandi tomonidan tanlangan kasbga salbiy munosabatda; B) quyidagi kasb (yoki hunar) yo‘nalishini taklif etadi	
8.	Kasbiy faoliyat yo‘nalishini tanlashda muayyan qiyinchiliklarni his etadi	

II-bosqich. Tibbiy tavsifnoma

Sharifi _____ Ismi _____

Maktab № _____

№	Zarur ma’lumotlar	Sinflar			
		YI	YII	YIII	IX
1	2	3	4	5	6
I.	O‘quvchining salomatligi va uning organizmida kechayotgan o‘zgarishlar (ular “X” bilan belgilanadi)				
II.	O‘quvchining salomatligi uchun qo‘yilgan tashxis (batafsil yoziladi)				
III.	Kasbiy jihatdan cheklanuvchi holatlari (ular “X” bilan belgilanadi)				
IV.	Kasbiy faoliyatni tashkil etishga yaroqlilikni cheklovchi sharoitlar (ular “X” bilan belgilanadi)				
1)	noqulay mikroiklim				
2)	havoning gaz va chang bilan ifloslanganligi				
3)	zaharli moddalar bilan ishlash				
4)	yuqori darajada jismoniy zo‘riqish				
5)	majburiy ish holati				
6)	tikka turib bajariladigan ish				
7)	shovqin, vibratsiya, balandda harakatlanuvchi mexanizmlarda ishlash				
8)	ko‘zoynak taqishni talab etuvchi faoliyat				
9)	ranglarni aniq farqlashni talab qiluvchi faoliyat				
10)	Shikastlanish xavfining kuchliligi, tovush pardalarining muntazam zo‘riqishi hamda barqaror diqqatni talab etuvchi faoliyat				
11)	qo‘lni doimiy ravishda ho‘l tutib turishni talab etuvchi faoliyat				
12)	rejim saqlashga imkon bermaydigan faoliyat				
Y.	Mutaxassislar tomonidan olib boriluvchi qo‘shimcha tekshiruv (mutaxassis maslahatining zarurligi “X” bilan belgilanadi)				
1)	Otolaringolog				
2)	Oftalmolog				
3)	Nevropatolog				
4)	Dermatolog				
1	2	3	4	5	6

YI.	Kasbiy faoliyatni tashkil etishga yaroqliligi to'g'risidagi xulosa (ijobiy holatda "X", salbiy holatda "-" bilan belgilanadi, shuningdek, yangi turdagi o'quv muassasalari, oliy o'quv yurtlarida ma'lumot olishni davom ettirish, korxonalarda ishlash imkonini bermaydigan kasalliklarning mavjudligi aniq ko'rsatiladi)				
1)	kasb tanlamadi (1-guruh)				
2)	Salomatligiga mos kasb tanladi (2-guruh)				
3)	Salomatligiga to'g'ri kelmaydigan kasb tanlandi (3-guruh)				
YII.	Tibbiy-pedagogik yo'llanma				
1)	Proflaktika (1-guruh)				
2)	Proflaktika (2-guruh)				
3)	Qayta kasbga yo'naltirish (3-guruh)				

Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonining yaxlit tizimini yaratish, tizim asosida pedagogik faoliyatni olib borishda pedagogik diagnostika tamoyillariga tayanish ko'zlangan maqsadning ijobiy yechimini topishga yordam beradi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ular o'rtasida kasb-hunar asoslari borasidagi nazariy bilimlarni targ'ib etish, ularda ma'lum kasb yoki hunar yo'nalishida dastlabki ko'nikma va malakalarni hosil qilishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Inson kapitali va undan samarali, oqilona foydalanishga bo'lgan ehtiyojning yuzaga kelishi ayni vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablari oldiga o'quvchilarni kasbga samarali yo'naltirish vazifasini qo'yimoqda. O'quvchilarning muayyan kasb yoki hunarga bo'lgan qiziqish va qobiliyatini tashxislash ularni kasbga yo'naltirish jarayonining samarali kechishiga yordam beradi. Tashxis xarakteriga ega metod va mualliflik metodiklari ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish qanday ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega?
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish qanday huquqiy asosga ega?
3. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ustuvor tamoyillari qaysilar?
4. O'quvchilarning kasbga yo'nalganligini tashxislash qanday maqsadda amalga oshiriladi?
5. O'quvchilarning kasbga yo'nalganligini tashxislashga qanday vazifalarni hal etish asosida erishiladi?
6. O'quvchilarning kasbga yo'nalganligini tashxislashda qanday metod va metodikalar qo'llaniladi?

Test topshiriqlari:

1. O‘zbekistonda O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi ... da tashkil etilgan.

a) **1998 yil 13 may;**

b) 1996 yil 13 may;

c) 1994 yil 13 may;

d) 1992 yil 13 may.

2. “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi”ning Ustavi ...da qabul qilingan.

a) 2019 yil 1 dekabr;

b) 2018 yil 1 dekabr;

c) **2017 yil 1 dekabr;**

d) 2016 yil 1 dekabr.

3. ... – muayyan shaxsiy sifatlarga tayanilgan holda tashkil etiluvchi mehnat faoliyati, mashg‘ulotning ko‘rinishidir.

a) hunar;

b) mutaxassislik;

c) **kasb;**

d) faoliyat.

4. Asosan qo‘l kuchi bilan harakatlantiriladigan ish qurollari yordamida, ya’ni, qo‘l mehnatiga asoslanib mahsulotlarni tayyorlashga qaratilgan faoliyat – bu ...

a) **hunar;**

b) mutaxassislik;

c) kasb;

d) faoliyat.

5. ... – o‘quvchilarning muayyan kasb yoki hunar asoslarini o‘rganishga bo‘lgan intilishi, havasi

a) kasbiy mayl;

b) kasbiy ehtiyoj;

c) kasbiy qobiliyat;

d) **kasbiy qiziqish.**

6. O‘quvchilarning u yoki bu kasb, hunar yo‘nalishida amaliy faoliyatni tashkil eta olish layoqati – bu ...

a) kasbiy mayl;

b) kasbiy ehtiyoj;

c) **kasbiy qobiliyat;**

d) kasbiy qiziqish.

7. Tashxis metodlari yordamida o‘quvchilarning u yoki bu kasb, hunar asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, qobiliyat darajasini aniqlash – bu ...

a) o‘quvchilarning kasbga yo‘nalganligini korreksiyalash;

b) **o‘quvchilarning kasbga yo‘nalganligini tashxislash;**

c) o‘quvchilarning kasbga yo‘nalganligini tahlil qilish;

d) o'quvchilarning kasbga yo'nalganligini tekshirish.

8. ... – qiziqish, qobiliyatini aniqlash orqali o'quvchilarga ongli ravishda kasb yoki hunar yo'nalishlarini tanlashiga ko'maklashish va harakatlarini tegishli yo'nalishga solish.

a) o'quvchilarga kasbiy tanlashga oid tavsiyalarni berish;

b) o'quvchilarga kasblar to'g'risida ma'lumot berish;

c) o'quvchilarga kasbiy maslahat berish;

d) o'quvchilarni kasbga yo'naltirish.

9. A.E.Golomshtok tomonidan asoslangan "Qiziqishlar xaritasi" o'quvchilarni ... mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha kasbiy yo'naltiradi.

a) 17 ta;

b) 15 ta;

c) 13 ta;

d) 11 ta.

9. Ye.A.Klimov tomonidan asoslangan "Tabaqalashtirilgan tashxis so'rovnomasi"da kasbiy faoliyat ... tipga bo'linadi.

a) 7 ta;

b) 6 ta;

c) 5 ta;

d) 3 ta.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. YI-IX sinflardan ixtiyoriy 4 nafar o'quvchining kasbiy qiziqish va qobiliyatlarini quyidagi anketa so'rovnomasi asosida tashxislang.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining YI-IX sinf o'quvchilari uchun anketa so'rovnomasi

Sharifi _____ Ismi _____ Yoshi _____
Maktab № _____ Sinf _____ Sana _____

Hurmatli o'quvchi! Quyida Sizing e'tiboringizga kasb yoki hunar yo'nalishlari bo'yicha qiziqishingizni aniqlashga xizmat qiluvchi savollar havola etiladi. Savolda javob variantlari ko'rsatilgan bo'lsa, ma'qul deb topgan javobingizni tagiga chizing. Agarda javob variantlari berilmagan bo'lsa, javobingizni to'la yozing.

1. Sizni qaysi fan sohasi ko'proq qiziqtiradi:

a) tabiiy fanlar (matematika, fizika, kimyo, biologiya, mehnat (bu o'rinda qishloq xo'jaligi mehnati);

b) ijtimoiy fanlar (tarix, huquqiy va iqtisodiy bilimlar asoslari);

v) gumanitar (adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, til o'rganishga oid fanlar (xususan, ona tili, ingliz tili)).

2. Siz qaysi fanlarni o'rganishni yoqtirasiz? _____

3. Qaysi fanlarni o'rganishni yoqtirmaysiz? _____

4. Quyidagi fanlar bo'yicha qanday baholarni olasiz: ona tili _____, matematika (algebra)_____, tarix _____, fizika_____, kimyo_____, biologiya (botanika)_____, adabiyot _____, geometriya_____, chet tili _____, mehnat ta'limi _____, jismoniy tarbiya_____, geografiya_____, huquq _____, Odam va uning salomatligi _____, Vatan tuyg'usi_____, milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari _____, iqtisodiyot asoslari _____, rus tili_____, musiqa_____, chizmachilik_____ va boshqalar.

5. Bo'sh vaqtda qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanasiz?_____

6. Qanday jamoatchilik vazifalarini bajarasiz? _____

7. Qanday to'garak va seksiyalarda qatnashasiz? _____

8. Repititorlik asosida qo'shimcha ta'lim olasizmi?_____

9. O'zingizda qanday xislatlarning mavjud bo'lishini xohlardingiz?

10. Sizda qanday emosional sifatlar ustun? _____

11. IX sinfni tugatgach, qanday yo'nalishda ta'lim olishni xohlaysiz:

a) X sinfda o'qishni davom ettirmoqchiman;

b) akademik lisey, kasb-hunar kollejida ta'lim olmoqchiman.

12. Bu borada ota-onangiz qanday fikrdalar?_____

13. Qaysi akademik lisey va kasb-hunar kollejida o'qimoqchisiz? (nomini to'la yozing)_____

14. Agar X sinfda o'qishni davom ettirsangiz qaysi mehnat ta'limi yo'nalishida bilim olmoqchisiz?_____

15. Ushbu yo'nalishni nima maqsadda tanlayapsiz?_____

16. Yana qaysi kasbiy faoliyatlar Sizni ko'proq qiziqtiradi? (Ularning nomlarini yozing)_____

2-topshiriq. “Men afzal ko‘raman” nomli tashxis so‘rovnomasi yordamida o‘zingiz tanlagan respondent-o‘quvchilarning kasbiy qiziqish va qobiliyatlarini o‘rganing

III. “Men afzal ko‘raman” nomli tashxis so‘rovnomasi

1 ^a	Hayvonlar boqishni		1 ^b	Mashina va asboblarga xizmat ko'rsatish (tuzatish, sozlash)ni
2 ^a	Bemorlarga yordam berishni		2 ^b	Sxema, dastur hamda kopyuter dasturlarini tuzishni
3 ^a	Kitobdagi rasm, plakat, badiiy otkritka, grammplastinkalarning sifatini kuzatishni		3 ^b	O'simliklarning holatini kuzatishni
4 ^a	Xom-ashyolarga ishlov berishni (daraxt, gazlama, metall va plastmassa)		4b	Tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazish, sotish va reklama qilishni

5 ^a	Ilmiy-ommabop kitoblar va maqolalar mazmunini muhokama qilishni		5 ^b	Badiiy asarlar (pesa, konsert) mazmunini muhokama
6 ^a	Yosh hayvonlarni parvarish qilishni		6 ^b	O'rtoblari yoki kichik yoshdagi bolalarga biror harakatni bajarishni (mehnat, o'quv yoki sport) mashq qildirishni
7 ^a	Rasmlardan nusxa olish (musiqa asboblarini sozlash ni)ni		7 ^b	Qanday yuk ko'taruvchi vosita (ko'targich kran, traktor, teplovoz va boshqalar)ni boshqarishni
8 ^a	Odamlarga kerakli ma'lumotlarni berish, tushuntirish (ma'lumotlar byurosi (ekskursiyalarda)		8 ^b	Ko'rgazma, vitrinalarni beza tish yoki pesa va konsertlar tayyorlashda ishtirok etishni
9 ^a	Buyum, tayyor mahsulot, kiyim-kechak, texnika va uy-joylarni ta'mirlashni		9 ^b	Matn, jadval va rasmlardagi xatolarni topib, ularni tuzatishni
10 ^a	Hayvonlarni davolashni		10 ^b	Hisob-kitob qilishni
11 ^a	O'simliklarning yangi navini yaratishni		11 ^b	Sanoat mahsulotlarining yangi turlari (mashina, ki yim-kechak, oziq-ovqat va bosh qalar)ni konstruksiyalash va loyihalashni
12 ^a	Odamlar orasidagi bahs, janjallarni muhokama qilish, ishontirish, tushuntirish, jazolash va rag'batlantirishni		12 ^b	Chizma va jadvallarning mo hiyatini tushunish, tekshirish va xatoliklarini aniqlash hamda tartibga keltirishni
13 ^a	Badiiy havaskorlik to'garaklari faoliyatini kuzatishni		13 ^b	Mikroblar faoliyatini Kuzatish va o'rganishni
14 ^a	Tibbiyot asboblariga Xizmatlar ko'rsatish, ularni sozlashni		14 ^b	Jarohatlangan va kuygan hollarda bo'lgan odamlarga yordam berishni
15 ^a	Kuzatilayotgan voqea-hodisa hamda o'rganilayotgan ob'ektlar haqida aniq yozma hisobotlar tayyorlashni		15 ^b	Kuzatilayotgan yoki tasavvur qilinayotgan hodisalarning mohiyatini badiiy jihatdan ta'riflash, tasvirlashni
16 ^a	Kasalxonalarda laboratoriya tahlilini o'tkazishni		16 ^b	Bemorlarni qabul qilish, ko'rib chiqish, ular bilan suhbatlashish hamda davolashni
17 ^a	Uy-joylarning devorlari, ro'zg'or buyumlarining tashqi tomonlarini bo'yash yoki bezatishni		17 ^b	Asboblarni va mashinalarni yig'ish hamda montaj qilishni
18 ^a	Tengdoshlar yoki o'zidan kichik yoshdagilar bilan teatr, muzeylarda madaniy hordiq chiqarish, ekskursiyalar tashkil etish		18 ^b	Sahnada rollar ijro etish va konsertlarda ishtirok etishni
19 ^a	Chizmalar asosida detal, buyum, mashina va kiyim-kechaklar tayyorlash hamda binolarni qurishni		19 ^b	Chizmalar bilan ishlash, xarita va chizmalardan nusxa ko'chirishni

20 ^a	O‘simliklarga xos bo‘lgan kasalliklar, shuningdek, bog‘ va dalalarda zararli hashoratlariga qarshi kurash olib borishni	20 ^b	Klavishli mashinalar (yozuv mashinkasi, kompyuter, teletayp hamda harf teruv masini)da ishlashni
-----------------	---	-----------------	--

3-topshiriq. Har bir respondent-o‘quvchilarning ikki turdagi anketa so‘rovnomasi bo‘yicha javoblarini tahlil qilish orqali ularning kasbiy qiziqish va qobiliyatlari yuzasidan muayyan xulosani shakllantiring.

4-topshiriq. Shakllantirilgan xulosaga tayangan holda o‘quvchilar va ularning ota-onalari uchun psixologik-pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqing.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Дудина М.М., Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во Рос.гос.проф.-пед. унив-та. 2016. – 190 с.

2. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.

3. Pedagogik diagnostika / Ma’ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Raxmatova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.

4. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.

5. Yo‘ldoshev J.G‘., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O‘quv-metod.qo‘ll. – 2014. – 96 b.

11-mavzu. Sinf (guruh) jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash

Reja:

1. O‘quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyati.
2. O‘quvchi shaxsini tarbiyalashda sinf (guruh) jamoasining o‘rni.
3. Jamoa an‘analari – tarbiyaviy ta‘sir vositasi sifatida.
5. O‘quvchilar jamoasining tarbiyaviy funksiyalari.
6. O‘quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash va bu jarayonda qo‘llaniladigan tashxislovchi metod va metodikalar.

Tayanch tushunchalar: sinf (guruh), jamoa, sinf (guruh) jamoasi, tarbiyaviy imkoniyat, sinf (guruh) jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlari, tashxislash, sinf (guruh) jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash.

I. O‘quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyati. Zamonaviy talqinda “jamoat” tushunchasi ikki xil ma‘noda ishlatiladi: 1) bir necha kishilarning muayyan maqsad yo‘lida birlashuvdan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o‘quv yurti jamoasi, xo‘jalik jamosi va hokazo); 2) yuqori darajada uyushtirilgan guruh.

Sinf – yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo‘lgan muayyan o‘quvchilar guruhi¹¹⁰.

Guruh – tarbiyalanuvchilarning yosh, psixologik xususiyatiga ko‘ra shakllantirilgan yoki o‘rta maxsus va oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim oluvchilarining akademik jamoasi.

Jamoa (lot. “kollektivus”) – yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh.

O‘quvchilar jamoasi – ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida bir necha o‘quvchilardan tashkil topgan guruh.

Tarbiyaviy imkoniyat – shaxs yoki jamoaning individga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish quvvati va qobiliyatlari.

O‘quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlari – sinf (guruh) jamoasining har bir o‘quvchiga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish quvvati va qobiliyatlariga egaligi.

O‘quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash – sinf (guruh) jamoasining har bir o‘quvchiga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish quvvati va qobiliyatlariga egaligini aniqlash va mavjud darajasini baholash.

O‘quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi. Shu sababli har qanday jamoa kabi o‘quvchi shaxsiga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega.

¹¹⁰ Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 171-б.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o‘ynashi to‘g‘risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a‘zolari o‘rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta‘minlaydi.


O‘quvchilar jamoasi o‘ziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilarga egadir.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me‘yorlari o‘z ifodasini topadi. Shu bois jamoa hayotining aniq (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g‘oyaviy xususiyat kasb etishi uning yetakchi belgisi sanaladi.

Har bir **jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy aloqadorlikda mavjud** bo‘ladi. Muayyan jamoaning har bir a‘zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o‘z jaomasi bilan birgalikda ishtirok etadi.

Har bir **jamoa o‘z-o‘zini boshqarish organiga ega** va umumiy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog‘lanadi. **Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyat** jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir.

Maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa a‘zolari o‘rtasida o‘zaro ruhiy yaqinlik, ishchanlik, bir-biri uchun g‘amxo‘rlik, o‘zaro yordam, jamoa manfaati uchun qayg‘urish, bu yo‘lda amaliy harakatlarni tashkil etish, javobgarlik hissi qaror topadi. Jamoa quyidagi xususiyatlarga ega (20-rasm):



20-rasm. Sinf (guruh) jamoasining o‘ziga xos xususiyatlari

Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun ma‘suliyat hissini uyg‘ota borib, jamoa a‘zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, a‘zolarida jamoaga mansublik hissini paydo bo‘lishiga ko‘maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo‘lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a‘zolari orasida o‘zaro hissiy birlik (bir-birini yoqtirish hissi) yuzaga keladi.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. **Jamoaning rasmiy tuzilishi** deganda jamoa faoliyatining turli ko‘rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan tashkiliy jihatlari ko‘zda tutiladi.

Jamoaning norasmiy tuzilmasi jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. O'quvchining jamoadagi o'rni uning shaxs sifatida shakllanishi va kamolotga erishishiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar guruhlari qanchalik ahil va inoq munosabat asosida tashkil topgan bo'lmasin haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro hamkorlik va ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarni qaror toptirishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga o'qituvchi rahbarligining yo'lga qo'yilishidir.

Jamoa va uni shakllantirish o'qituvchilik faoliyatining maqsadi hisoblanadi. Muhim tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan sub'ektlarning namuna ko'rsatishlari jamoani shakllantirishning muhim **vositasi** bo'lib, u yordamida jamoaning barcha yoki muayyan a'zosini tarbiyalash mumkin.

Jamoa tomonidan hal etilishi ko'zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir.

Ta'lim muassasasi tarkibida eng barqaror bo'g'in – bu muayyan guruhlar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Guruh jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan guruh jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, guruhlar jamoalari negizida ta'lim muassasasining jamoasi shakllanadi. Muassasa jamoasi ikki muhim bo'g'in – o'qituvchilar jamoasi va o'quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi.

O'quvchilar jamoalariga o'qituvchi va rasmiy saylangan (tayinlangan) o'quvchilar yo'lbo'shchilik qiladi. Ular sirasiga guruh rahbari, guruh faollari (guruh yetakchisi (starosta), “Kamolot” tashkilotining guruh bo'limi raisi, tozalik komissiyasi raisi, devoriy gazeta muharriri va b.).

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan **uzoq muddatli murakkab jarayondir.**


II. O'quvchi shaxsini tarbiyalashda sinf (guruh) jamoasining o'rni. Bola yoshligidan o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlarini tengdoshlari bilan birgalikda tashkil etish asosida ijtimoiy muhitga moslasha boradi. Ijtimoiy muhit bolaga borliqni anglash uchungina emas, balki o'zligini anglash uchun ham imkoniyat yaratadi. Bolaning jamoa orasida bo'lishi, jamoa ta'sirida shakllanishi unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi.

Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o'zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas, balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta'sir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bo'lgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni ta'kidlaydi.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, inson boshqalar bilan munosabatda bo‘lish, ularning yordami va qo‘llab-quvvatlashlarini his etish ehtiyojiga ega. Ana shu ehtiyojni qondirish yo‘lidagi amaliy harakatlar insonni kamolotga yetaklaydi, deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniy esa shaxsning rivojlanishida o‘zaro yordam, hamkorlik, odamlarga nisbatan xayrihohlik uning ijtimoiy muhitdagi roli va o‘rnini belgilab beradi.

III. Jamoa an‘analari – tarbiyaviy ta’sir vositasi sifatida. O‘quvchilar jamoasini shakllantirishda an‘analar muhim o‘rin tutadi. **Jamoa an‘analari** – jamoa a‘zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo‘lib, ularda munosabatlar xususiyati va jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

Jamoa an‘analari shartli ravishda ikkiga bo‘linadi (21-rasm):



21-rasm. Jamoa an‘analarining turlari

Kundalik faoliyat an‘analari o‘quvchilarning o‘quv faoliyati (o‘zaro yordam turlari) va mehnat faoliyati (ko‘chatlar o‘tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o‘z ichiga oladi.

Bayram an‘analariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog‘liq sanalar (xususan, “Alifbe bayrami”, “Mustaqillik bayrami”, “Navro‘z bayrami”, “Xotira va qadrlash kuni” va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi.


O‘quvchilar jamoalarida rasmiy yetakchilar bilan birga norasmiy yo‘lboshchilarning mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Odatda rasmiy yo‘lboshchilar tarkibini a‘lo baholarga o‘qiydigan, jamoa ishlarida faol ishtirok etuvchi o‘quvchilar tashkil etsa, norasmiy liderlar garchi bu kabi sifatlarni namoyon etmasalarda, ayrim sifatlariga ko‘ra tengdoshlarini o‘z ortlaridan ergashtira oladilar. Norasmiy liderlarning ma‘naviy-axloqiy qiyofasi boshqa o‘quvchilarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Sinf rahbari va maktab pedagogik jamoasi bunday liderlar faoliyatini doimiy nazorat qilib borishlari zarur.

O‘quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli sinf rahbari guruhning umumiy hamda har bir a‘zosining individual xususiyatlarini bilishi, ularni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur¹¹¹.

IV. O‘quvchilar jamoasining tarbiyaviy funksiyalari. Har qanday sinf (guruh) jamoasining o‘quvchiga individual ravishda ko‘rsatadigan tarbiyaviy ta’siri ma‘lum xarakterga ega bo‘ladi. Pedagogik manbalarda o‘quvchilar

¹¹¹ Педагогика назарияси ва тарихи. 1-қисм. Педагогика назарияси / Олий ўқув юртлари учун дарслик. М.Х.Тохтаходжаеванинг умумий тахр. остида. – Т.: “Иқтисод-молия”, 2007. – 102-114-б.

jamoasining o'quvchiga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sirini uning xarakteri va mohiyatiga ko'ra uch guruhga ajratilishi ko'rsatilgan. Ular (22-rasm):



22-rasm. Sinf (guruh) jamoasining tarbiyaviy funksiyalari

1. O'quvchilar jamoasining tashkiliy funksiyasi. O'z mohiyatiga ko'ra tashkiliy funktsiya yordamida o'quvchilar jamoasining turli ko'rinishdagi faoliyatini uyushtirish, o'z-o'zini boshqarish organiga egalik asosida jamoa hayotida avvaldan ishlab chiqilgan rejaga muvofiq tashkil qilinadigan tadbirlarning tashkiliy masalalarini hal qilish, yuzaga kelgan tasodifiy vaziyatlarni hal qilish kabi vazifalar bajariladi. Bu kabi vazifalarni bajarishda jamoadagi har bir a'zoning ichki imkoniyatlarini inobatga olish, ularning zimmasiga mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy topshiriqlarni yuklash muhim ahamiyatga ega.

Sinf o'quvchilar jamoasining tashkiliy funksiyasi, birinchi navbatda, jamoaning rivojlanish dinamikasida namoyon bo'ladi. Qolaversa, ushbu funktsiya o'quvchilar jamoasi tomonidan ijtimoiy topshiriqlarning o'zaro hamjihatlikda, hamkorlikda bajarishda yaqqol namoyon bo'ladi.

2. O'quvchilar jamoasining mafkuraviy-tarbiyaviy funksiyasi. Har bir jamoa aniq maqsad asosida muayyan g'oyalarni atrofida birlashadi. Jamoaviy birlik, hamkorlik, o'zaro yordam va hamjihatlikka erishish; zarur, ayniqsa, qiyin vaziyatlarda jamoa a'zolarining bir-birlarini qo'llab-quvvatlashiga erishish; ta'lim muassasasida belgilangan tartib-intizom qoidalariga rioya qilish; jamoaning sha'ni uchun kurashish, obro'sini saqlash; jamoa an'alariga hurmat bilan munosabatda bo'lish; ta'lim muassasasida o'quvchilar jamoasining o'quv-bilish hamda ijtimoiy faoliyat, shuningdek, turli yo'nalishlarda tashkil etiladigan ko'rik-tanlov va sport musobaqalarida yetakchiligini ta'minlash orqali mafkuraviy-tarbiyaviy funksiyaning mohiyati namoyon bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar jamoasi mafkuraviy va axloqiy g'oyalarni tashuvchisi, targ'ibotchisiga aylanadi. Binobarin, o'quvchilar jamoasining ta'siri tufayli o'quvchida muayyan axloqiy e'tiqod shakllanadi.

Mavjud imkoniyatlardan to'g'ri, oqilona foydalanish orqali mafkuraviy-tarbiyaviy funksiyaning amalga oshirilishi har bir o'quvchida o'zining jamoadagi o'rnini anglashiga yordam beradi.

3. O'quvchilar jamoasining rag'batlantirish funksiyasi. Jamoa tomonidan har qanday shakldagi ijtimoiy-foydali ishlarni bajarishda o'quvchilarda o'ziga, atrofdagilarga, ijtimoiy hamda tabiiy borliqqa nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Ijtimoiy-foydali ishlarni bajarishda har bir o'quvchi tomonidan qo'lga kiritilgan yutuq, muvaffaqiyat jamoa tomonidan e'tirof qilinadi. Sinf yig'ilishlarida ijtimoiy-foydali ish yakunlarining muhokama qilinishi, unda faol

ishtirok etgan o‘quvchilar nomlarining qayd etilishi ularda o‘ziga bo‘lgan hurmatni qaror toptiradi, o‘z kuchi va imkoniyatiga ishonchni oshiradi. Shu tarzda jamoa a‘zolarining xulq-atvori shakllanishiga erishiladi, o‘zaro munosabatlar tartibga solinadi.

Jamoaning tarbiyaviy imkoniyati, birinchi navbatda, uning birligi, axloqiy yo‘nalishi hamda sosiometriyasida ko‘zga tashlanadi. Bunda o‘quvchilarning fikrlari, borliqqa bo‘lgan munosabatlari, hayotiy pozitsiyalari, xohish-istaklari, qiziqish va ehtiyojlari jamoaning umumiy maqsadlariga mos kelishi nihoyatda muhim sanaladi. Aks holda jamoada parokandalik, tarqoqlik ro‘y beradi, nosog‘lom muhit shakllanadi.

V. O‘quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash va bu jarayonda qo‘llaniladigan tashxislovchi metod va metodikalar. Pedagogik diagnostikada o‘quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash va baholashga yordam beradigan tashxislovchi metod va metodikalardan ham foydalaniladi. Ular orasida “Nima muhimroq?”, “Jamoadagi psixologik muhitni baholash” va “O‘quvchilar soni – intellektual imkoniyatlar ko‘rsatkichi” nomli metodikalar alohida o‘rin tutadi. Ayni o‘rinda ushbu metodikalarning tavsifi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

I. “Guruhdagi psixologik muhitni baholash”

(L.G.Jedunova) so‘rovnomasi

Maqsad: sinf jamoasidagi psixologik muhitni o‘rganish.

So‘rovnomani tashkil etish tartibi: tadqiqotda ishtirok etayotgan o‘qituvchi va o‘quvchilarga sinf jamoasidagi psixologik muhitni 9 balli tizimda baholash so‘raladi.

Topshiriq: sinfdagi psixologik muhit holatidan kelib chiqqan holda qutb (“+” va “-” tomon)larda berilgan sifatlarni belgilang.

Ko‘rsatma. Quyida sinfingizdagi muhitni tasvirlash uchun qarama-qarshi juft so‘zlar mavjud. Har bir juftlikdagi o‘ng yoki chap tomondagi so‘z Sizga qanchalik yaqin bo‘lsa, u holda “X” belgisini qo‘ygan holda buni tasdiqlang (tegishli raqamning ustiga “X”ni chizing). Shu orqali sinfingizdagi muhit haqidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Demak, sinfingizdagi psixologik muhit quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi:

№	Holatlar	O‘lchov ko‘rsatkichlari									Holatlar
1.	Do‘stona munosabat	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Dushmanlik
2.	O‘zaro kelishuv	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Kelishmovchilik
3.	Qoniqish	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Qoniqmaslik
4.	Bir-biriga qiziqish	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Befarqlik
5.	Natijaga intilish	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Natijaga intilmaslik
6.	Munosabatlardagi iliqlik	9	8	7	6	5	4	3	2	1	“Hamkorlikdagi” sovuqqonlik

7.	Hamjihatlik	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Hamjihatlikning yo'qligi
8.	Bir-birini qo'llab-quvvatlash	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Bir-biriga yaxshilikni ravo ko'rmaslik
9.	Jamoa hayotining zavqligi	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Jamoa hayotining zerikarliligi
10.	Jamoa hayotining yutuqlarga boyligi	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Jamoa hayotida omadsizliklarga boyligi

Javoblarni tahlil qilish: ballar qanchalik yuqori bo'lsa, sinf jamoasidagi psixologik muhit shunchalik yuqori bo'ladi yoki aksincha. Natijalarning tahlili sinf jamoasidagi psixologik muhit holatini, jamoa a'zolarining bir-birlariga munosabatini sub'ektiv baholashga imkon beradi. Raqam ko'rsatkichlari respondentlarning sinf jamoasida qaror topgan psixologik muhitni belgilovchi o'rtacha qiymatni qabul qilish imkonini beradi.

I. "Bizning munosabatlarimiz" metodikasi (L.M.Fridmana)

Maqsad: o'quvchilarning sinf jamoasining turli faoliyatidan qoniqish darajasini aniqlash.

Metodika bilan ishlash: O'quvchiga sinf jamoasining mavjud holatini baholashga oid oltita fikrni tasdiqlash so'raladi. Javob qaytarishda o'quvchining fikriga mos kelgan va u tomonidan tasdiqlangan fikr qayd qilingan tartib raqamni yozish mumkin. Anketa bilan ishlash jarayonida, shuningdek, bir-biriga qarama-qarshi fikrlar ham yuzaga kelishi mumkin.

O'quvchiga tasdiqlash uchun taklif qilingan oltita fikr taklif qilinadi:

1-variant. Sinf jamoasining ahil yoki noahilligini aniqlash.

1. Sinfimiz juda ahil va jips.
2. Sinfimiz ahil.
3. Sinfimizda tortishuvlar bo'lmaydi, biroq, har kim o'zi bilan o'zi ovora.
4. Sinfimizda ba'zan tartishuvlar bo'lib turadi, ammo, uni "ziddiyatli sinf" deb atab bo'lmaydi.
5. Sinfimiz ahil emas, tez-tez janjallar yuzaga keladi.
6. Sinfimiz mutlaqo ahil emas, bunday sinfda o'qish qiyin.

2-variant. Jamoa a'zolarining bir-birini tushunish olish hissiga egaligini aniqlash

1. Garchi bu so'ralmasa ham, sinfimizda bir-birimizga yordam beramiz.
2. Sinfimiz o'quvchilar faqat o'ziga do'st deb bilganlarga yordam beradi.
3. Sinfimizda, qachonki, o'quvchining o'zi yordam so'rasa, shundagina yordam ko'rsatiladi.
4. Sinfimizda, qachonki, o'qituvchimiz buni so'rasa, bir-birimizga yordam beramiz.
5. Sinfimiz bir-biriga yordam berishga odatlanmagan.
6. Sinfimizda bir-biriga yordam berish inkor qilinadi.

Natijalarni qayta ishlash. Ko'pchilik o'quvchilar tomonidan tasdiqlangan fikr sinf jamoasining bir-biriga bo'lgan munosabatlari to'g'risida ma'lumot beradi. Bir vaqtning o'zida o'quvchi tomonidan bildirilgan fikr uning jamoadagi mavjud munosabatlar tizimida o'zini qanday his qilishidan dalolat beradi.

V. "Sinf jamoasining jozibasi (o'quvchini o'ziga torta olishi)ni aniqlash" anketasi

Maqsad: sinf jamoasining o'quvchini o'ziga torta olishini aniqlash.

Ko'rsatma: Anketa yordamida o'z sinfingiz jamoasining o'quvchini o'ziga torta olish layoqatiga egaligini baholang. Har bir bo'lim bo'yicha bitta javobingiz bo'lishi mumkin.

I. O'zingizning jamoaga mansubligingizni qanday baholaysiz?

1. O'zimni jamoa a'zosi, uning bir qismi deb bilaman _____ 5

2. Jamoaning ko'pgina faoliyatida ishtirok etaman _____ 4

3. Jamoaning birgina faoliyatida ishtirok etib, qolganida ishtirok etmayman _____ 3

4. O'zimni jamoaning a'zosi deb his qilmayman _____ 2

5. Sinfda boshqalardan ajralgan holda shug'ulanaman _____ 1

6. Bilmayman, javob berishim qiyin _____ 0

II. Bordi-yu, Sizga shunday imkoniyat berilsa, boshqa sinfga o'tgan bo'larmidingiz?

1. Albatta, o'qitishni xohlagan bo'lardim _____ 1

2. Bu sinfda qolgandan ko'ra o'tishni ma'qul ko'raman _____ 2

3. Har ikki sinf o'rtasida hech qanday farq yo'q _____ 3

4. O'zimning sinfimda qolish ehtimolim ko'proq _____ 4

5. Bilmayman, biror narsa deyishim qiyin _____ 5

III. Sinfingizdagi o'quvchilarning o'zaro munosabatlari qanday?

A. O'quv mashg'ulotlaridagi munosabatlari:

1. Boshqa sinflarga qaraganda yaxshiroq _____ 3

2. Taxminan boshqa sinflar bilan bir xil _____ 2

3. Boshqa sinfdagilarga qaraganda yomonroq _____ 1

4. Bilmayman _____ 0

B. Darsdan tashqari sharoitlarda:

1. Boshqa sinflarga qaraganda yaxshiroq _____ 3

2. Taxminan boshqa sinflar bilan bir xil _____ 2

3. Boshqa sinfdagilarga qaraganda yomonroq_____

1

4. Bilmayman_____

0

IV. Jamoangizda norasmiy liderlar bormi?

1.

Bor_____ 1

2. Bir nafar_____

2

3. Bir nechta_____

3

4. Bilmayman_____

0

Natijalarni qayta ishlash. Javoblarga tegishli ballarning miqdori (ular ustun sifatida ko'rsatilgan) hisoblanadi. Barcha bo'limlar bo'yicha yakuniy ko'rsatkich 7 ball (juda qoniqarsiz baho)dan 25 ball (sinf jamoasining jozibadorligi juda yuqori ekanligini anglatuvchi baho)gacha bo'lishi mumkin.

Demak, jamoa bir necha a'zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon qiladi. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, u ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlariga ko'ra to'rt bosqichdan iborat bo'ladi. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Jamoaning mustahkam bo'lishi, a'zolari o'rtasida o'zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyati nimalarda namoyon bo'ladi?

2. O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislashda qanday maqsad ko'zlanadi?

3. O'quvchi shaxsini tarbiyalashda sinf (guruh) jamoasi qanday o'rin tutadi?

4. Jamoa an'analari tarbiyaviy ta'sir vositasi sifatida qanday ahamiyatga ega?

5. O'quvchilar jamoasining qanday tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi?

6. O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislashda qanday tashxislovchi metod va metodikalar qo'llaniladi?

Test topshiriqlari:

1. ... – yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan muayyan o'quvchilar guruhi.

a) jamoa;

b) guruh;

c) *sinf*;

d) uyushma.

2. Tarbiyalanuvchilarning yosh, psixologik xususiyatiga ko'ra shakllantirilgan yoki o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarining akademik jamoasi – bu ...

- a) jamoa;
- b) guruh;**
- c) sinf;
- d) uyushma.

3. Shaxs yoki jamoaning individga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish quvvati va qobiliyatlari – bu ...

- a) pedagogik imkoniyat;
- b) tarbiyaviy imkoniyat;**
- c) ta'limiy imkoniyat;
- d) texnologik imkoniyat.

4. O'quvchilar jamoasining har bir o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish quvvati va qobiliyatlariga egaligi – bu

- a) o'quvchilar jamoasining pedagogik imkoniyati;
- b) o'quvchilar jamoasining ta'limiy imkoniyati;
- c) o'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyati;**
- d) o'quvchilar jamoasining texnologik imkoniyati.

5. Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash – bu ...

- a) muhim tarbiyaviy omil;
- b) muhim tarbiyaviy g'oya;
- c) muhim tarbiyaviy nazariya;
- d) muhim pedagogik tamoyil.**

6. Har bir jamoa ...ga ega.

- a) o'z-o'zini yo'naltirish malakasi;
- b) o'z-o'zini tahlil qilish layoqati;
- c) o'z-o'zini boshqarish organi;**
- d) o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati.

7. Jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlarini ifodalaydi.

- a) jamoaning norasmiy tuzilishi;
- b) jamoaning rasmiy tuzilishi;**
- c) o'z-o'zini boshqarish organini;
- d) o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati.

8. ... – jamoa a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar.

- a) jamoa logotipi;
- b) jamoa atributlari;
- c) jamoa bayramlari;
- d) jamoa an'analari.**

9. Sinf (guruh) jamoasining tarbiyaviy funksiyalari – bu ...

a) **tashkiliy, mafkuraviy-tarbiyaviy, rag‘batlantiruvchi;**

b) tashkiliy, nazariy, amaliy;

c) kognitiv, amaliy, refleksiv;

d) tashkiliy, jarayonli, baholovchi.

10. “Guruhdagi psixologik muhitni baholash” (L.G.Jedunova) so‘rovnomasi ... tizimga asoslanadi.

a) 12 balli;

b) 10 balli;

c) **9 balli;**

d) 5 balli.

11. “Nima muhimroq?” anketasi o‘zida sifat (fazilat)ni qamrab oladi.

a) 47 ta;

b) 41 ta;

c) **35 ta;**

d) 30 ta.

12. “Bizning munosabatlarimiz” metodikasi (L.M.Fridmana)ga ko‘ra o‘quvchilarga ... variantda savollar to‘plami taqdim qilinadi.

a) 5 ta;

b) 4 ta;

c) **2 ta;**

d) 7 ta.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. “Guruhdagi psixologik muhitni baholash” (L.G.Jedunova) so‘rovnomasi asosida 3-4 nafar o‘quvchilarning o‘z sinflaridagi psixologik muhit to‘g‘risidagi munosabatlarini o‘rganish va baholash.

Ko‘rsatma. sinfdagi psixologik muhit holatidan kelib chiqqan holda qutb (“+” va “-” tomon)larda berilgan sifatlarni belgilang.

Anketada sinfingizdagi muhitni tasvirlash uchun qarama-qarshi juft so‘zlar berilgan. Har bir juftlikdagi o‘ng yoki chap tomondagi so‘z Sizga qanchalik yaqin bo‘lsa, u holda “X” belgisini qo‘ygan holda buni tasdiqlang.

№	Holatlar	O‘lchov ko‘rsatkichlari									Holatlar
		9	8	7	6	5	4	3	2	1	
1.	Do‘stona munosabat	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Dushmanlik
2.	O‘zaro kelishuv	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Kelishmovchilik
3.	Qoniqish	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Qoniqmaslik
4.	Bir-biriga qiziqish	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Befarqlik
5.	Natijaga intilish	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Natijaga intilmaslik
6.	Munosabatlardagi iliqlik	9	8	7	6	5	4	3	2	1	“Hamkorlikdagi” sovuqqonlik
7.	Hamjihatlik	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Hamjihatlikning yo‘qligi

8.	Bir-birini qo'llab-quvvatlash	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Bir-biriga yaxshilikni ravo ko'rmaslik
9.	Jamoa hayotining zavqligi	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Jamoa hayotining zerikarliligi
10.	Jamoa hayotining yutuqlarga boyligi	9	8	7	6	5	4	3	2	1	Jamoa hayotida omadsizliklarga boyligi

Javoblarni tahlil qilish: ballar qanchalik yuqori bo'lsa, sinf jamoasidagi psixologik muhit shunchalik yuqori bo'ladi yoki aksincha. Natijalarning tahlili sinf jamoasidagi psixologik muhit holatini, jamoa a'zolarining bir-birlariga munosabatini sub'ektiv baholashga imkon beradi. Raqam ko'rsatkichlari respondentlarning sinf jamoasida qaror topgan psixologik muhitni belgilovchi o'rtacha qiymatni qabul qilish imkonini beradi.

2-topshiriq. "Bizning munosabatlarimiz" metodikasi (L.M.Fridman) yordamida sinf jamoasiga tavsif tayyorlang.

Ko'rsatma: 3-4 nafar o'quvchiga sinf jamoasining mavjud holatini baholashga oid oltita fikrni taqdim etiladi. O'quvchilar ularni tasdiqlay olishi lozim.

O'quvchiga tasdiqlash uchun taklif qilingan oltita fikr taklif qilinadi:

1-variant. Sinf jamoasining ahil yoki noahilligini aniqlash.

1. Sinfimiz juda ahil va jips.
2. Sinfimiz ahil.
3. Sinfimizda tortishuvlar bo'lmaydi, biroq, har kim o'zi bilan o'zi ovora.
4. Sinfimizda ba'zan tartishuvlar bo'lib turadi, ammo, uni "ziddiyatli sinf" deb atab bo'lmaydi.
5. Sinfimiz ahil emas, tez-tez janjallar yuzaga keladi.
6. Sinfimiz mutlaqo ahil emas, bunday sinfda o'qish qiyin.

2-variant. Jamoa a'zolarining bir-birini tushunish olish hissiga egaligini aniqlash

1. Garchi bu so'ralmasa ham, sinfimizda bir-birimizga yordam beramiz.
2. Sinfimiz o'quvchilar faqat o'ziga do'st deb bilganlarga yordam beradi.
3. Sinfimizda, qachonki, o'quvchining o'zi yordam so'rasa, shundagina yordam ko'rsatiladi.
4. Sinfda, qachonki, o'qituvchimiz buni so'rasa, bir-birimizga yordam beramiz.
5. Sinfimiz bir-biriga yordam berishga odatlanmagan.
6. Sinfimizda bir-biriga yordam berish inkor qilinadi.

Natijalarni qayta ishlash. Ko'pchilik o'quvchilar tomonidan tasdiqlangan fikr sinf jamoasining bir-biriga bo'lgan munosabatlari to'g'risida ma'lumot beradi. Bir vaqtning o'zida o'quvchi tomonidan bildirilgan fikr uning jamoadagi mavjud munosabatlar tizimida o'zini qanday his qilishidan dalolat beradi.

3-topshiriq. "Sinf jamoasining jozibasi (o'quvchini o'ziga torta olishi)ni aniqlash" anketasi bo'yicha jamoa bilan o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganing.

Buning uchun respondent sifatida 3-4 nafar o'quvchini tanlab oling. Ularga anketa savollarini taqdim qiling. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach anketa

javoblarini tahlil qiling va qayta ishleng. Yakuniy natijaga ko'ra sinf jamoasiga baho bering.

Savollar:

I. O'zingizning jamoaga mansubligingizni qanday baholaysiz?

1. O'zimni jamoa a'zosi, uning bir qismi deb bilaman _____ 5
2. Jamoaning ko'pgina faoliyatida ishtirok etaman _____ 4
3. Jamoaning birgina faoliyatida ishtirok etib, qolganida ishtirok etmayman _____ 3

4. O'zimni jamoaning a'zosi deb his qilmayman _____ 2
5. Sinfda boshqalardan ajralgan holda shug'ulanaman _____ 1
6. Bilmayman, javob berishim qiyin _____ 0

II. Bordi-yu, Sizga shunday imkoniyat berilsa, boshqa sinfga o'tgan bo'larmidingiz?

1. Albatta, o'qitishni xohlagan bo'lardim _____ 1
2. Bu sinfda qolgandan ko'ra o'tishni ma'qul ko'raman _____ 2
3. Har ikki sinf o'rtasida hech qanday farq yo'q _____ 3
4. O'zimning sinfimda qolish ehtimolim ko'proq _____ 4
5. Bilmayman, biror narsa deyishim qiyin _____ 5

III. Sinfingizdagi o'quvchilarning o'zaro munosabatlari qanday?

A. O'quv mashg'ulotlaridagi munosabatlari:

1. Boshqa sinflarga qaraganda yaxshiroq _____ 3
2. Taxminan boshqa sinflar bilan bir xil _____ 2
3. Boshqa sinfdagilarga qaraganda yomonroq _____

1

4. Bilmayman _____ 0

B. Darsdan tashqari sharoitlarda:

1. Boshqa sinflarga qaraganda yaxshiroq _____ 3
2. Taxminan boshqa sinflar bilan bir xil _____ 2
3. Boshqa sinfdagilarga qaraganda yomonroq _____ 1
4. Bilmayman _____ 0

IV. Jamoangizda norasmiy liderlar bormi?

1. Bor _____ 1
2. Bir nafar _____ 2
3. Bir nechta _____ 3
4. Bilmayman _____ 0

Natijalarni qayta ishlash. Javoblarga tegishli ballarning miqdori (ular ustun sifatida ko'rsatilgan) hisoblanadi. Barcha bo'limlar bo'yicha yakuniy ko'rsatkich 7 ball (juda qoniqarsiz baho)dan 25 ball (sinf jamoasining jozibadorligi juda yuqori ekanligini anglatuvchi baho)gacha bo'lishi mumkin.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Дудина М.М., Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во Рос.гос.проф.-пед. унив-та. 2016. – 190 с.

2. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.
3. Pedagogik diagnostika / Ma'ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Raxmatova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.
4. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.
5. Yo'ldoshev J.G'., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O'quv-metod.qo'll. – 2014. – 96 b.

12-mavzu. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxis qilish

Reja:

1. Oilaning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni.
2. Oilaning asosiy funksiyalari va tarbiyaviy imkoniyatlari.
3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash.
4. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislovchi metodlar.

Tayanch tushunchalar: oila, tarbiya, oila tarbiyasi, oila tarbiyasining shaxs kamolotidagi o‘rni, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash, psixologik muhit, oiladagi psixologik muhitni tashxislash, farzandlarning mehnat malakalariga egaligini tashxislash, otalarning pedagogik-psixologik bilimlarga egaligini tashxislash, farzandlarning oila qurishga tayyorligini tashxislash.

I. Oilaning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni. Oila har inson uchun muqaddas maskan sanaladi. Uning muqaddasligi bu maskanda shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo‘lgan omil va sharoitlarning mavjudligi, shuningdek, oilaga xos bo‘lgan psixologik iqlimni boshqa biror bir ijtimoiy muhitda topib bo‘lmasligi bilan belgilanadi.

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas’uliyat hamda o‘zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Bir-birlari bilan qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog‘langanligi oila a‘zolarining doimo o‘zaro yordamga tayyor turishlari, sulola sha‘ni, or-nomusi va obro‘cini birgalikda himoya qilishlariga imkon beradi. Oilaning yana bir ustuvor jihati – uning shaxsda ma‘naviy-axloqiy, jismoniy, aqliy, estetik va mehnat sifatlarini tarbiyalash imkoniyatiga egaligi bilan bog‘liq.

Zero, “oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo‘lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma‘naviy qiyofasini ko‘radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi”¹¹².

Farzand tarbiyasini tashkil etishda oila qanchalik imkoniyatga ega bo‘lmasin uning bu boradagi faoliyatida muvaffaqiyat ta‘lim muassasalari tomonidan ko‘rsatilayotgan amaliy-metodik yordam bilan ham bog‘liqdir. Chunki, ta‘lim muassasasi o‘qitish va tarbiya ishlarini tashkil etish yuzasidan boy ilmiy-nazariy va metodik ta‘minotga, shuningdek, mazkur jarayonni pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishiga mas’ul bo‘lgan malakali mutaxassislariga ega. Oila va ta‘lim muassasalari o‘rtasida u yoki bu yo‘nalishlarda pedagogik faoliyatni olib borishda o‘zaro hamkorlikka erishilishi yosh avlodni har tomonlama komil shaxs bo‘lib tarbiyalash uchun zarur bo‘lgan sharoitni yaratadi.


¹¹² Педагогика назарияси ва тарихи. 1-қисм. Педагогика назарияси / Дарслик. М.Х.Тохтаходжаева ва б. Проф. М.Х.Тохтаходжаеванинг умумий тахр.остида. – Т.: “Moliya-iqtisod”, 2007. – 196-бет.

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar sanaladi

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish va faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi. Oiladagi tarbiyaviy munosabatlar kelgusida o'rnatiladigan munosabatlarga mustahkam zamin yaratadi. "Oilada yuz beradigan turli holatlar orqali bola o'zida boshqalarga ishonish, do'st orttirish va hurmat qilish kabi fazilatlarni shakllantiradi. Bunday birinchi saboqlar bolaning kelgusida munosabatlar o'rnatishiga poydevor yaratadi"¹¹³.

Oilaning o'ziga xos tarbiya maskani sifatidagi maqomiga ko'ra oilaviy munosabatlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin (23-rasm):




23-rasm. Oilaviy munosabatlarning asosiy turlari

Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

II. Oilaning asosiy funksiyalari va tarbiyaviy imkoniyatlari. Oila

– ijtimoiy birlashma sifatida muayyan vazifalarni hal qiladi. Bugungi kunda yosh avlodni kamol toptirish yo'lida zamonaviy oila tomonidan hal qilinadigan vazifalar¹¹⁴ quyidagilardan iboratdir (24-rasm):



¹¹³ The Family Role in a Child's Development // <http://www.mindgarden.com/child-development/child-development.html>

¹¹⁴ Oilaning asosiy funksiyalari va tarbiyaviy imkoniyatlari. Oila – ijtimoiy birlashma sifatida muayyan vazifalarni hal qiladi. Bugungi kunda yosh avlodni kamol toptirish yo'lida zamonaviy oila tomonidan hal qilinadigan vazifalar¹¹⁴ quyidagilardan iboratdir (24-rasm):

Oilaning tarbiyaviy imkoniyati u tomonidan asosiy funksiyalaridan birining bajarilishida ko‘zga tashlanadi.

Imkoniyat (lot. “*potentia*” – kuch) – har qanday muammoni hal qilish, aniq maqsadga erishish uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan manba, vosita hamda resurslar; ma’lum bir shaxs, jamiyat, davlatning muayyan soahdagi vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga bo‘lgan quvvati, kuchi, qobiliyati.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyati – oilaning farzandlarni har jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalovchi omillar, sharoitlarga, oilaning sog‘lom muhit, sog‘lom turmush tarzi ega bo‘lishi hamda farzandlarni oilaviy hayotga samarali tayyorlashdagi kuch-quvvati, qobiliyati.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyati murakkab tuzilmaga, tuzilmaning o‘zi esa muhim tarkibiy qismlarga egaligida aks etadi. Mavjud qismlar oilaning pedagogik, ijtimoiy-psixologik, madaniy va qadriyatli, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va gigienik hamda demografik xarakterga ega imkoniyatini yoritadi. Ularning barchasi oilada farzandni har tomonlama sog‘lom qilib voyaga yetkazish uchun zarur bo‘lgan sharoitlar sanaladi.

Farzandlar tarbiyasida muvaffaqiyata erisha olish uchun oila ma’lum tarbiya mexanizmlariga ega bo‘lishi zarur.

Oilaviy tarbiya mexanizmlari –individual tarbiyaviy imkoniyatlari asosida oila tomonidan farzand tarbiyasini samarali tashkil etishda qo‘llaydigan vosita va usullari¹¹⁵.

Ota-onalarning vakolatlari, oilaviy ta’lim uslublari, oilaviy an’analar, bo‘sh vaqtni tashkil etish uslubi oilaviy tarbiyaning asosiy mexanizmlari hisoblanadi.

Oila an’analari (yoki oilaviy an’analar) – oilaning tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, avloddan avlodga meros sifatida o‘tish

¹¹⁵ Воспитательный потенциал семьи // https://studme.org/1527092124184/pedagogika/vospitatelnyy_potentsial_semi.

*orqali oila a'zolarining ma'naviy shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-madaniy hodisa*¹¹⁶.

Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (to'y, yangi uyga ko'chish marosimlari), sayillar, oilaviy an'analar (tug'ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ma'lumotga egalik to'g'risidagi attestat va diplom, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va musobaqalar oilaviy an'analarning o'ziga xos ko'rinishlari bo'lib, farzand tarbiyasini tashkil qilishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Farzandlarni oilaviy an'ana, qadriyat, urf-odatlar bilan tanishtirish orqali ularning bu jarayonlarda ishtirok etishi uchun sharoit yaratilsa, u holda oilaviy an'analarning tarbiyaviy ta'siri sezilarli darajada oshadi.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyatini o'rganish va tahlil qilish mazkur muhitda farzandlar tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi talablarni inobatga olish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi:

ota-onalarning o'z farzandlari, ularning xulq-atvori, ruhiyati, xarakteri to'g'risida yetarli bilimlarga ega bo'lishi;

farzandlarni ularning yosh, psixologik hamda fiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda oilaviy munosabatlar va faoliyat tizimida doimiy, faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish;

ota-onalarning o'zlarini o'zlari, shuningdek, oilaviy munosabatlarni takomillashtirib borishi;

farzandlarni ular balog'atga yetishishdan boshlab, oilaviy hayotga tayyorlab borish.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyatini quyidagi mezonlarga ko'ra baholash mumkin:

oilaning sog'lom psixologik muhitga egaligi;

oilaning shaxs ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondirish qobiliyati;

ota-onalarning pedagogik madaniyati darajasi;

oilaviy munosabatlarning xarakteri;

oilaning turli ijtimoiy institutlardan zarur vaziyatlarda yordam so'rash qobiliyati.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini baholaganda, bolalarning xulq-atvori va ta'limini kuzatish, ota-onalarning tarbiyaviy faoliyati, oilalarga tashrif buyurish, oilalar va ularning o'quvchilari bilan individual suhbatlar, bolalarni nazorat qilish va tekshirish, ota-onalar, shuningdek, bolaning yondashuvi nuqtai nazridan oilaviy munosabatlar mazmunini rasmlarda aks ettirish, ota-onalar va bolalarga "Tugallanmagan jumlar" metodi bilan ishlashni taklif qilish kabi usullaridan foydalanish tavsiya etiladi¹¹⁷.

III. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash. Yosh avlodni har tomonlama kamolga yetkazishda oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash va

¹¹⁶ Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет.қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Т.: ТДПУ, 2012. – 118-б.


¹¹⁷ Курбатова Е.И. Воспитательный потенциал семьи // <https://urok.1sept.ru/articles/412578>.

tashxis natijalariga ko‘ra oila tarbiyasi samaradorligini oshirish choralarini belgilash pedagogik diagnostika oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

***Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash** – uning farzandlarni har jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalovchi omillar, sharoitlar, xususan, sog‘lom muhit va sog‘lom turmush tarzi ega bo‘lish hamda farzandlarni oilaviy hayotga samarali tayyorlashdagi kuch-quvvati, qobiliyatini o‘rganish, tahlil qilish va baholash.*

Farzandlarning jismoniy, ruhiy va ma‘naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo‘lib kamol topishlarida oilaning iqtisodiy ta‘minlanganligi, ota-onalar hamda oilada yashovchi keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligi, oila a‘zolarining o‘zaro va atrofdagilar (qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh-urug‘lar, hamkasblar, tengdoshlar) bilan o‘zaro samimiy munosabati, ota-onalarning o‘z farzandlarining hayotiy intilishlari, xohish-istaklarini tushuna olishi, shuningdek, ularning muayyan qobiliyatga egaliklarini o‘z vaqtida anglashi, oilada mehnat taqsimotining to‘g‘ri, oqilona tashkil etilganligi, ota-onalar va keksa avlod vakillarining farzandlarga teng huquqlilik asosida munosabatda bo‘lishi, yoshligidan farzandlarni oilaviy hayotga har tomonlama tayyorlay olishi, ularda oila xo‘jaligini yuritish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga e‘tibor qaratishi muhim ahamiyatga ega.

O‘z mohiyatiga ko‘ra oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari tashxislash quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi (25-rasm):



25-rasm. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash yo‘nalishlari

Farzandlarni tarbiyalashda oilada sog‘lom psixologik muhitning qaror topganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sog‘lom psixologik muhit mavjud bo‘lgan oila odatda “sog‘lom oila” deb nomlanadi.

***Sog‘lom oila** – oila a‘zolari axloqiy e‘tiqod, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, psixologik jihatdan bir-birini tushunadigan va o‘zaro qo‘llab-quvvatlaydigan, moddiy jihatdan yetarlicha ta‘minlangan oila.*

Oilaning sog‘lomligi – uning ijtimoiy ko‘rsatkichi bo‘lib, jamiyat, mahalladagi o‘rni, mavqeini ham belgilab beradi.

Sogʻlom oilalarda, odatda, uning aʼzolari bir-birlariga hurmat bilan munosabatda boʻladi, har bir subʼektning qiziqishlari, xohish-istaklaridan xabar boʻlinadi, ijobiy mazmunga ega hayotiy intilishlari oʻzaro qoʻllab-quvvatlanadi. Qolaversa, farzandlar tarbiyasiga ijobiy taʼsir koʻrsatadigan oila anʼanalari shakllanadi. Oilaviy qadriyatlar ota-onalar, farzandlar, keksa yoshli oila aʼzolari oʻrtasida hamjihatlik, ahillikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shaxslararo munosabatlar maʼnaviy-axloqiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunday oilada har qanday zoʻravonlik, kamsitish, huquqiy tengsizlik, kimgadir alohida imtiyoz berish kabi holatlar inkor qilinadi. Aksincha, oilaga taalluqli boʻlgan barcha masalalar imkon qadar ota-onalar, oilaning keksa yoshli aʼzolari oʻrtasida, ayrim holatlarda farzandlar ishtirokida oʻzaro maslahat asosida hal qilinadi. Odatda, sogʻlom oilaning aʼzolari ijtimoiy jihatdan ham faol boʻladi. Eng muhimi, sogʻlom oilaning aʼzolari ularning axloqan yetuk, jismonan, ruhan tetik boʻlishlariga yordam beradigan odatlarni oʻzlashtiradi.

Boshqacha aytganda, sogʻlom oilalarda ijtimoiy axloq talablariga rioya qilinadi. Yaʼni, oila aʼzolari tomonidan spirtli ichimliklarni, giyohvand, tamaki mahsulotlarini isteʼmol qilish, tartibsiz jinsiy hayot, ishratparastlik, bir-birlariga qoʻpol muomalada boʻlish, jismoniy hamda ruhiy zoʻravonlik inkor qilinadi. Bu kabi ijtimoiy axloq talablariga boʻysunmaslik, ularga zid ish koʻrish oilaning nosogʻlomligidan dalolat beradi.

Nosogʻlom oila – oila aʼzolari axloqiy eʼtiqod, sogʻlom turmush tarzi koʻnikmalariga ega boʻlmagan, aksincha, tartibsiz hayot kechiradigan, shaxslararo munosabatlarda axloqsizlik, qoʻpollik, ruhiy bosim ustuvor boʻlgan, psixologik jihatdan bir-birini tushunmaydigan va oʻzaro qoʻllab-quvvatlamaydigan, moddiy jihatdan taʼminlanmagan oila.

Bu kabi oilalarning aʼzolarida koʻp holatlarda ruhiy, baʼzan jismoniy nosogʻlomlik koʻzga tashlanadi. Ularda ijtimoiy axloq meʼyorlaridan ogʻish – jinoyat, surunkali ravishda giyohvand moddalar, tamaki mahsulotlari hamda spirtli ichimliklarni isteʼmol qilish, betartib jinsiy hayot kechirishga moyillik kuzatiladi.

Farzandlar tarbiyasida muhim oʻrin tutish uchun oilada sogʻlom muhit, shaxslararo iliq, samimiy munosabatlarni qaror toptirish muhimdir. Aks holda oiladagi muhit farzandlar tarbiyasiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Ular tomonidan turli deviant va delikvent xulq-atvorlarning oʻzlashtirilishiga sabab boʻladi.

Psixologik nuqtai nazardan “oilaning salomatligi maʼnaviy-axloqiy, individual psixologik, ijtimoiy-psixologik, psixologik-somatik, bioenergetik kabi darajalar bilan belgilanadi”¹¹⁸.

Oilaning sogʻlom hamda nosogʻlomligini belgilashda unda qaror topgan psixologik muhit (oilalarning aʼzolarining oʻzaro bir-birlarini tushunishlari, qoʻllab-quvvatlashlari, zarur vaziyatlarda bir-birlariga yordam koʻrsatishlari), ota-onalarning pedagogik madaniyati (oilalarning xoʻjaligini yuritish, oila byudjetini shakllantirish, farzandlarni tarbiyalash), farzandlarning mehnat malakalari (oilalarning

xo'jaligini yuritish va mehnat taqsimotidagi ishtiroki) hamda ularning oila qurishga tayyorligi (nikoh va oilaning mohiyatini tushuna olishi, oila iqtisodiyotini shakllantirish, farzandlar tarbiyasini tashkil etish, oilaga tegishli bo'lgan muammolarni hal qilishda mas'uliyatni anglashi) tashxislanadi.

IV. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislovchi metod va metodikalari. Pedagogik diagnostikaning barcha yo'nalishlarida bo'lgani kabi oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislashda bir guruh tashxislovchi metod va metodikalar qo'llaniladi. O'qituvchi, tadqiqotchi hamda psixolog tashxis maqsadidan kelib chiqqan holda oilaning tarbiyaviy xarakterga ega u yoki bu jihatlarni tashxislaydi. Bunda tashxis maqsadining aniq bo'lishi nihoyatda muhim.

Ayni o'rinda oiladagi psixologik muhit hamda oila a'zolari o'rtasidagi munosabat, ushbu munosabat mazmunini belgilovchi muloqotning o'rnini baholashga oid "Oiladagi psixologik muhit holatini o'rganish" hamda "Oilaviy munosabatlarda muloqotning qanday mazmunga ega bo'lishini xohlaysiz?" testlari keltiriladi.

I. "Oiladagi psixologik muhit holatini o'rganish" testi

1. Bizning oila juda inoq.
 - a) ha;
 - v) ba'zan;
 - s) yo'q.
2. Dam olish kunlari nonushta, tushlik va kechki ovqatni birga tanovul qilish odat tusiga kirgan.
 - a) ha;
 - v) ba'zan;
 - s) yo'q.
3. Oilada uning ba'zi a'zolarining xatti-harakatlari menda norozilik uyg'otadi.
 - a) ha;
 - v) ba'zan;
 - s) yo'q.
4. O'z uyimizda men o'zimni juda yaxshi his qilaman.
 - a) ha;
 - v) ba'zan;
 - s) yo'q.
5. Oilaviy hayotimizda shunday holat borki, u oila ahilligini buzib turadi.
 - a) ha;
 - v) ba'zan;
 - s) yo'q.
6. Uy sharoitida men juda yaxshi dam olaman.
 - a) ha;
 - v) ba'zan;
 - s) yo'q.
7. Oilada norozilik paydo bo'lsa, hamma bu norozilikni tezda tushanadi.
 - a) ha;

- v) ba'zan;
s) yo'q.
8. Oilamizda quvnoq, ko'tarinki kayfiyat hukmronlik qiladi.
a) ha;
v) ba'zan;
s) yo'q.
9. Oilada og'ir, tushkun va tajang muhit yuzaga kelgan.
a) ha;
v) ba'zan;
s) yo'q.
10. Oilamizda ba'zi bir a'zolarning yoki hammaning baland ovozda gapirishlari menga yoqmaydi.
a) ha;
v) ba'zan;
s) yo'q.
11. Yo'l qo'yilgan xatolar, yaratilgan poqulayliklar uchun kechirim so'rash oilamizda odat tusiga kirgan.
a) ha;
v) ba'zan;
s) yo'q.
12. Oilaviy bayramlarning keng nishonlaymiz.
a) ha;
v) ba'zan;
s) yo'q.
13. Oiladagi noqulay muhit tufayli uyga borgim kelmaydigan holatlar tez-tez ro'y beradi.
a) ha;
v) ba'zan;
s) yo'q.
14. Uyda meni tez-tez xafa qilib turishadi.
a) ha;
v) ba'zan;
s) yo'q.
15. Uyimizdagi sarishtalik meni doim xursand qiladi.
a) ha;
v) ba'zan;
s) yo'q.
16. Uyga kelganimda hech kimni ko'rishni, eshitishni ham istamaydigan holat menda tez-tez sodir bo'ladi.
a) ha;
v) ba'zan;
s) yo'q.
17. Oilamizda uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar o'ta taranglashgan.
a) ha;
v) ba'zan;

s) yo‘q.

18. Men oilamizda yaqinlarimdan birining o‘zini noqulay his qilishidan xabardorman.

a) ha;

v) ba‘zan;

s) yo‘q.

19. Biznikiga mehmonlar tez-tez kelib turishadi.

a) ha;

v) ba‘zan;

s) yo‘q.

II. “Oilaviy munosabatlarda muloqotning qanday mazmunga ega bo‘lishini xohlaysiz?” testi

1. Men ona (ota) sifatida oilada menga barcha narsa “mumkin” yoki “men aytdimmi, demak shunday bo‘lishi lozim” tarzda muloqot qilishni xohlayman.

a) ha;

v) yo‘q.

2. Siz farzandingizga nisbatan jismoniy jazo qo‘llagan bo‘larmidingiz?

a) ha;

v) yo‘q.

3. Siz atrofdagilarga nisbatan ovozingizni ko‘tarib gapirishingiz, ularni haqorat qilishni oddiy hol deb hisoblaysizmi?

a) ha;

v) yo‘q.

4. Siz oilada shaxsiy zaruriyat uchun oila a‘zolaridan pul yashirasizmi?

a) ha;

v) yo‘q.

5. Agarda ishda yoki o‘qishda ushlanib qolsangiz, bu haqida oila a‘zolaringizni ogohlantirishni o‘z burchingiz deb hisoblaysizmi?

a) ha;

v) yo‘q.

6. Siz oila a‘zolaringiz bilan munosabatda ularni qo‘rqitish uchun musht ko‘tarasizmi?

a) ha;

v) yo‘q.

7. Oilaning boshqa a‘zolariga baqirib munosabatda bo‘lasizmi?

a) ha;

v) yo‘q.

8. Oila a‘zolari bilan xayrlashmay turib, uydan chiqrib keta olasizmi?

a) ha;

v) yo‘q.

9. Yaqinlaringiz kasalxonada bo‘lsa, ularning holidan qanchalik tez-tez xabar olasizmi?

a) ha;

v) yo‘q.

10. Siz yaqinlaringizning dugonalari, do'stlariga nisbatan samimiy munosabatda bo'la olasizmi?

a) ha;

v) yo'q.

11. Qiyin vaziyatlarda oila a'zolariga murojaat qilish, ulardan ko'mak so'ray olasizmi?

a) ha;

v) yo'q.

12. Muayyan vaziyatlarda oila a'zolaridan birini uzoq vaqt kutish Sizning jahlingizni chiqaradimi?

a) ha;

v) yo'q.

Shunday qilib, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarga egaligi shaxsning ruhiy, jismoniy, axloqiy jihatdan kamolga etishida muhim o'rin tutadi. Shu sababli pedagogik diagnostikada har oilaning tarbiyaviy imkoniyatga egaligini o'rganish, uning darajasini tashxislashga e'tibor qaratiladi. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarga egaligini tashxislashda uning farzandlarni har jihatdan sog'lom qilib tarbiyalovchi omillar, sharoitlar, xususan, sog'lom muhit va sog'lom turmush tarzi ega bo'lish hamda farzandlarni oilaviy hayotga samarali tayyorlashdagi kuch-quvvati, qobiliyati o'rganiladi. Bu yo'nalishda tashxislashni amalga oshirish oilaning farzandlar tarbiyasidagi o'rni va rolini kuchaytirish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish choralari belgilashga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. "Oila" tushunchasini siz qanday ta'riflagan bo'ladingiz?
2. Oilaviy munosabatlar nima?
3. Tarbiya maskani sifatida oilaviy munosabatlarni qanday turlarga ajratish mumkin?
4. Oila tomonidan qanday funksiyalar bajariladi?
5. Oila an'analari nima?
6. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari nimalarda ko'rinadi?
7. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini qanday mezonlar asosida baholash mumkin?
8. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash deganda nimani tushanasiz?
9. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari tashxislash qanday yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi?
10. "Sog'lom oila", "nosog'lom oila" tushunchalari qanday ma'noni anglatadi?
11. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislovchi qanday metodlarni bilasiz?

Test topshiriqlari:

1. Kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi – bu ...
a) sulola;

- b) nasl;
- c) oila;**
- d) shajara.

2. ... – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

- a) iqtisodiy munosabatlar;
- b) ijtimoiy munosabatlar;
- c) mehnat munosabatlari;
- d) oilaviy munosabatlar.**

3. Iqtisodiy, tarbiyaviy, reproduktiv, regulyativ, rekreativ, kommunikativ, relaksatsiya, fiziologik. Ular oilaning ...

- a) munosabat yo‘nalishlari;
- b) asosiy funksiyalari;**
- c) faoliyat turlari;
- d) munosabatlar mazmuni.

4. Oilaning farzandlarni har jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalovchi omillar, sharoitlarga, oilaning sog‘lom muhit, sog‘lom turmush tarzi ega bo‘lishi – bu ..

- a) oilaning huquqiy maqomi;
- b) oilaning iqtisodiy salohiyati;
- c) oilaviy tarbiya mexanizmlari;
- d) oilaning tarbiyaviy imkoniyati.**

5. ... – individual tarbiyaviy imkoniyatlari asosida oila tomonidan farzand tarbiyasini samarali tashkil etishda qo‘llaydigan vosita va usullari.

- a) oilaning huquqiy maqomi;
- b) oilaning iqtisodiy salohiyati;
- c) oilaviy tarbiya mexanizmlari;
- d) oilaning tarbiyaviy imkoniyati.**

6. Oilaning tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, avloddan avlodga meros sifatida o‘tadigan ijtimoiy-madaniy hodisa – bu ...

- a) oila qadriyatlari;
- b) oila an’analari;**
- c) oilaviy bayramlar;
- d) oilaviy tadbirlar.

7. Oilaning sog‘lom psixologik muhitga egaligi, shaxs ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondirish qobiliyati, ota-onalarning pedagogik madaniyati darajasi oilaviy munosabatlarning xarakteri. Ular oilaning tarbiyaviy imkoniyatini baholovchi – ...

- a) ko‘rsatkichlar;
- b) darajalar;
- c) mezonlar;**

d) o'lovlar.

8. Oilaning farzandlarni har jihatdan sog'lom qilib tarbiyalovchi omillar, sharoitlarga, oilaning sog'lom muhit, sog'lom turmush tarzi egaligini baholash –

a) tekshirish;

b) o'rganish;

c) tashxislash;

d) tahlil.

9. Axloqan va psixologik jihatdan barqaror, iqtisodiy jihatdan ta'minlangan oila – bu ...

a) barkamol oila;

b) sog'lom oila;

c) mukammal oila;

d) to'kis oila.

10. Axloqan va psixologik jihatdan berqaror, iqtisodiy jihatdan ta'minlanmagan oila – bu ...

a) yetuk bo'lmagan oila;

b) nosog'lom oila;

c) nomukammal oila;

d) noto'kis oila.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 4 nafar o'quvchisining ota-onalari ishtirokida E.G.Eydemiller va V.V.Yustiskis tomonidan asoslangan anketa so'rovini tashkil qiling.

11 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan bolalar, o'smirlar va yoshlarning ota-onalari uchun anketa (E.G.Eydemiller, V.V.Yustiskis)

1. Men nimaiki qilsam, barchasini o'g'lim (qizim) uchun qilaman.

2. O'g'lim (qizim) bilan birga vaqt o'tkazish (biror joyga birga borish, qiziqarli narsalar haqida suhbatlashish)ga ko'pincha vaqtim yetmaydi.

3. Farzandinga boshqa ota-onalar ruxsat bermaydigan yumushlarni bajarishga ruxsat beraman.

4. O'g'lim (qizim)ning ko'p savol berishi menga yoqmaydi, savollarga o'zi javob topishi kerak.

5. Farzandim boshqa tengdoshlariga qaraganda ko'proq mas'uliyatga ega.

6. O'g'lim (qizim)ga uyda biror ish qildirish qiyin.

7. Agar bolalar ota-onalarining qarashlari to'g'rimi, deb o'ylamasalar, bu yanada yaxshi.

8. O'g'lim (qizim) kechqurun xohlagan vaqtda uyga qaytadi.

9. O'g'lim (qizim)ni yaxshi inson bo'lishini xohlayman, shu sababli uning hech qanday yomon ishini jazosiz qoldirmayman.

10. Agar iloji bo'lsa, o'g'lim (qizim)ni jazolamaslikka harakat qilaman.

11. Boshqa payt jazolasam ham, kayfiyatim yaxshi bo'lganida, o'g'lim (qizim)ni tez-tez kechiraman.

12. O'g'lim (qizim)ni turmush o'rtog'imdan ham ko'ra yaxshi ko'raman.
13. Kattalarga qaraganda yosh bolalarni yaxshi ko'raman.
14. Agar o'g'lim (qizim) uzoq vaqt qaysarlik qilsa yoki g'azablansa, unga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lganimni his qilaman.
15. Garchi biz buni juda xohlagan bo'lsak ham uzoq vaqt farzand ko'rmaganmiz.
16. Umuman olganda bolalar bilan muloqot qilish zerikarli ish.
17. O'g'lim (qizim)da meni aqldan ozdiradigan ayrim xislatlar bor.
18. Agar erim (xotinim) menga xalaqit qilmaganda edi, o'g'lim (qizim)ning tarbiyasi ancha yaxshi bo'lgan bo'lardi.
19. Aksariyat erkaklar ayollarga qaraganda mulohazasiz.
20. Ayollarning aksariyati erkaklarga qaraganda mulozahasiz.
21. O'g'lim (qizim) – hayotimdagi eng muhim narsa.
22. Ko'p holatlarda o'g'lim (qizim) nima bilan bandligini bilmayman.
23. Garchi qimmat bo'lsa ham o'g'lim (qizim)ga u xohlagan kiyimlarni sotib olishga harakat qilaman,
24. O'g'lim (qizim) hech narsani tushunmaydi, shuning uchun unga bir marta tushuntirishgandan ko'ra o'sha ishni o'zim ikki marta bajarishim osonroq.
25. O'g'lim (qizim) ko'pincha ukasi (singlisi)ga qarashga majbur bo'ladi.
26. Ko'pincha shunday bo'ladi: o'g'limga (qizimga) biror narsa qilishni eslataman, eslataman, keyin esa toqatim toq bo'lib, u ishni o'zim bajaraman.
27. Ota-onalar hech qachon farzandlari ularning ojiz tomonlarini, kamchiliklarini sezishlariga yo'l qo'ymasliklari kerak.
28. O'g'lim (qizim) kim bilan o'ynashni o'zi hal qiladi.
29. Bolalar nafaqat ota-onalarini yaxshi ko'rishlari, balki ulardan qo'rqishlari ham kerak.
30. Men juda kamdan-kam hollarda o'g'lim (qizim)ni xafa qilaman.
31. O'g'lim (qizi)ning tarbiyasiga yondashishda bizga qat'iylik yetishmaydi, ba'zan juda qattiqqo'lmiz, ba'zida esa istagan ishini qilishga yo'l qo'yamiz.
32. Umr yo'ldoshimga qaraganda o'g'lim bilan bir-birimizni yaxshiroq tushunamiz.
33. O'g'lim (qizim)ning juda tez voyaga yetayotgani meni xafa qiladi.
34. Agarda bola o'jarlik qilsa va shu sababli o'zini yomon his qilsa, u holda uning istagini bajargan ma'qul.
35. Bolam zaif va nimjon bo'lib voyaga yetgan.
36. Agar farzandlarim bo'lmaganida edi, men hayotda bundan ham ko'proq narsaga erishgan bo'lardim.
37. O'g'lim (qizim)ning tuzatib bo'lmaydigan zaif jihatlari bor, lekin men ularni yo'qotish uchun qaysarlik bilan kurashaman.
38. Ko'pincha o'g'lim (qizim)ni jazolaganimda, erim (xotinim) menga ortiqcha qattiqqo'lligim uchun tanbeh beradi, uni esa yupatadi.
39. Ayollarga qaraganda erkaklar xiyonat qilishga ko'proq moyil bo'ladi.
40. Ayollar erkaklarga qaraganda xiyonat qilishga ko'proq moyil bo'ladi.
41. O'g'lim (qizim)ni tarbiyalash ko'p vaqtimni oladi.

42. Ko'p marta ota-onalar yig'ilishini o'tkazib yuborishga majbur bo'lganman.
43. Qimmatga tushsa ham ayolim xohlagan narsalarni sotib olishga harakat qilaman.
44. O'g'lim (qizim)ning yonida uzoqroq tursangiz, charchab qolishingiz mumkin.
45. Ko'p marta o'g'lim (qizim)ga muhim va qiyin ishlarni ishonib topshirishimga to'g'ri kelgan.
46. Jiddiy masalalarda o'g'lim (qizim)ga tayanib bo'lmaydi.
47. Ota-onalar farzandlariga o'rgata oladigan eng muhim narsa – bu itoat qilish.
48. Chekish yoki chekmaslikni o'g'lim (qizim)ning o'zi hal qiladi.
49. Ota-ona bolaga qanchalik qattiqqo'l bo'lsa, bu uning uchun shunchalik yaxshi.
50. Men yumshoq xarakterga egaman.
51. O'g'lim (qizim)ga nimadir kerak bo'lsa, u kayfiyatim yaxshi bo'lishini kutishga harakat qiladi.
52. Qachonki, o'g'lim (qizim) bir kun voyaga yetadi va men unga kerak bo'lmay qolishimni o'ylasam, kayfiyatim buziladi.
53. Bolalar katta bo'lgani sayin ular bilan biror ishni qilish shunchalik qiyinlashadi.
54. Ko'p holatlarda bolaning qaysarligi ota-onasi unga qanday munosabatda bo'lishni bilmasligidan kelib chiqadi.
55. O'g'lim (qizim)ning sog'lig'i haqida har doim qayg'uraman.
56. Farzandlarim bo'lmaganida sog'ligim ancha yaxshi bo'lardi.
57. O'g'lim (qizim)ning ayrim kamchiliklarini qanday chora bilan bo'lsa ham yo'qolmaydi.
58. O'g'lim (qizim) otasi (onasi)ni yoqtirmaydi.
59. Erkak kishi ayollarga qaraganda boshqalarning his-tuyg'ularini tushunmaydi.
60. Ayollar erkaklarga qaraganda boshqalarning his-tuyg'ularini tushunmaydi.
61. O'g'lim (qizim) uchun hayotda ko'p narsadan voz kechishimga to'g'ri kelgan.
62. Shunday bo'lganki, o'g'lim (qizim)ning kundaligidagi ogohlantirish yoki ikki baholarni eslay olmayman, chunki men uni tekshirmaganman.
63. O'g'lim (qizim)ga o'zimga qaraganda ko'proq pul sarflayman.
64. O'g'lim (qizim) nimanidir so'rasa, bu menga yoqmaydi. Unga nima kerakligini o'zim bilganim ma'qul.
65. O'g'lim (qizim)ning bolaligi uning o'rtoqlari (dugonalari)ga qaraganda juda qiyin kechgan.
66. O'g'lim (qizim) uyda, zarur bo'lgan ishni emas, balki o'zi xohlagan ishni bajaradi.
67. Farzandlar o'z ota-onasini atrofdagilarga qaraganda ko'proq hurmat qilishi kerak.

68. O‘g‘lim (qizim) pul mablag‘ini nimaga sarflashni o‘zi hal qiladi.
69. O‘g‘lim (qizim)ga boshqa ota-onalarga qaraganda qattiqqo‘llik bilan munosabatda bo‘laman.
70. Jazolashdan foyda yo‘q.
71. Oilamiz a‘zolari o‘g‘lim (qizim)ga birdek qattiqqo‘l emas. Ba‘zilar uni erkalatadi, ba‘zilar esa qattiqqo‘llik qiladi.
72. O‘g‘lim (qizim) mendan boshqa hech kimni yaxshi ko‘rmasligini xohlamayman.
73. O‘g‘lim (qizim) menga bolaligida hozirgidan ko‘proq yoqqan edi.
74. Ko‘p holatlarda o‘g‘lim (qizim) bilan qanday munosabatda bo‘lishni bilmayman.
75. O‘g‘lim (qizim)ning kasalligi sababli bolaligida unga ko‘p narsalarga ruxsat berganmiz.
76. Bolalar tarbiyasi – qiyin va biror qiymatga ega bo‘lmagan ish. Ular uchun barcha narsangni berasan, qaytimiga esa hech narsa olmaysan.
77. O‘g‘lim (qizim)ga yaxshi so‘z yoqmaydi. Unga faqat bir narsa – doimiy qo‘llaniladigan og‘ir jazolar kerak.
78. Erim (ayolim) o‘g‘lim (qizim)ni menga har doim qarshi qo‘yadi.
79. Ko‘p hollarda erkaklar ayollarga qaraganda mulohaza qilmay, oqibatini o‘ylamay ish qiladi.
80. Ko‘p hollarda ayollar erkaklarga qaraganda mulohaza qilmay, oqibatini o‘ylamay ish qiladi.
81. Har doim o‘g‘lim (qizim) to‘g‘risida, uning ishlari, salomatligi va boshqalar haqida o‘ylayman.
82. Ko‘p hollarda kundalikka bir necha haftani bir yo‘la yozishimga to‘g‘ri kelgan (keladi).
83. O‘g‘lim (qizim) mendan o‘zi xohlagan narsalarni oladi.
84. Menga ko‘proq yuvosh va xotirjam bo‘lgan bolalar yoqadi.
85. O‘g‘lim (qizim) menga uy ishlarida ko‘p yordam beradi.
86. Uyda o‘g‘lim (qizim)ning zimmasiga kam majburiyatlar yuklangan.
87. Farzandlar, hatto ular ota-onalari nohaqligiga ishongan taqdirda ham ota-onalarining aytganlarini bajarishga majburlar.
88. O‘g‘lim (qizim)ni uydan chiqishdan avval qaerga ketayotganini albatta aytadi.
89. Ko‘p holatlarda eng yaxshi jazo turi – kamar bilan savalash bo‘ladi.
90. O‘g‘lim (qizim)ning xulqidagi salbiy odatlar uning yosh o‘zgarishlari bilan bog‘liq.
91. Agarda o‘g‘limiz (qizimiz) nimanidir sodir qilsa, barchamiz uning uchun kurashamiz. Bordi-yu, u hech narsa sodir qilmasa, u holda biz uni tinch qo‘yamiz.
92. O‘g‘lim (qizim) shunday yoqimtoyki, uni barcha yoqtirib qoladi.
93. Menga o‘smirlardan ko‘ra ko‘proq bolalar bilan gaplashish yoqadi.
94. O‘g‘lim (qizim)dagi salbiy xislatlar uchun men aybdorman, chunki men uni to‘g‘ri tarbiya qilolmadim.
95. Bizning sa‘i-harakatlarimiz tufayli o‘g‘lim (qizim) tirik qolgan.
96. Bolasiz ota-onalarni ko‘p bor hasad qilganman.

97. Agar o‘g‘lim (qizim)ga ozgina yengillik bersasak, u bundan o‘zi va atrofdagilar uchun aziyat ketkazish uchun foydalanadi.

98. Bordi-yu, men o‘g‘lim (qizim)ga nimadir desam, shu zahoti erim (ayolim) ataydan uning teskarisini gapiradi.

99. Erkaklar ayollarga qaraganda o‘zlarini ko‘proq o‘ylaydi.

100. Ayollar erkaklarga qaraganda o‘zlarini ko‘proq o‘ylaydi.

101. O‘g‘lim (qizim) uchun o‘zimga sarflagandan ko‘ra ko‘proq kuch va vaqt sarflayman.

102. Men o‘g‘lim (qizim)ning ishlari to‘g‘risida juda kam ma‘lumotga egaman.

103. O‘g‘lim (qizim)ning istagi – men uchun qonun.

104. O‘g‘lim (qizim) bolaligida men bilan uxlayni yaxshi ko‘rardi.

105. O‘g‘lim (qizim)ning oshqozoni tez-tez og‘rib turadi.

106. Ota-onalar farzandlariga ular hali voyaga yetmaganida kerak. Keyin ular ota-onalari to‘g‘risida tobora kamroq o‘ylaydigan bo‘ladi.

107. O‘g‘lim (qizim) tufayli men har qanday “qurbonlik”ka tayyorman.

108. O‘g‘lim (qizim)ga men uning uchun ajratayotganimdan ko‘ra ko‘proq vaqt kerak.

109. O‘g‘lim (qizim) gohida shunday yoqimtoy bo‘lib oladiki, natijada uni barcha ayblarini kechiraman.

110. Men o‘g‘limning 30 yoshdan keyin uylanishini (qizimning 30 keyin turmushga chiqishini) xohlayman.

111. O‘g‘lim (qizim)ning qo‘l-oyoqlari tez-tez muslab turadi.

112. Bolalarning ko‘pchiligi – kichkintoy xudbinlar. Ular ota-onalarining sog‘ligi va his-tuyg‘ulari to‘g‘risida mutlaqo o‘ylamaydi.

113. Agar o‘g‘lim (qizim) uchun ko‘p vaqt va kuch sarflanmasa, u holda barchasi yomonlik bilan tugaydi.

114. Barchasi joyida bo‘lsa, u holda o‘g‘lim (qizim)ning ishlari bilan kamdan kam qiziqaman.

115. O‘z farzandimga “yo‘q” deyishim nihoyatda qiyin.

116. O‘g‘lim (qizim)ning tobora menga ehtiyoji bo‘lmayotganligi meni tashvishga soladi.

117. O‘g‘lim (qizim)ning salomatligi ko‘pchilik tengdoshlarinikiga qaraganda yomonroq.

118. Juda ko‘p farzandlar o‘z ota-onalaridan doim ham minnatdor bo‘lavermaydi.

119. O‘g‘lim (qizim) hech narsani mening yordamimsiz bajara olmaydi.

120. O‘g‘lim (qizim) vaqtining asosiy qismida uydan tashqarida o‘tkazadi.

121. O‘g‘lim (qizim) o‘yin-kulguga juda ko‘p vaqtini sarflaydi.

122. Menga hayotda o‘g‘lim (qizim)dan boshqa hech kim kerak emas.

123. O‘g‘lim (qizim) tiniqib uxlay olmaydi, uyqusida doim bezovtalanadi.

124. Juda vaqtli uylanganim (turmushga chiqqanim) ko‘p o‘ylayman.

125. Farzandim hozir vaqtda (o‘qishda, ishda yoki boshqa sohalarda) nimaniki bilsa, bunga men ko‘rsatgan doimiy yordam tufayli erishgan.

126. O'g'lim (qizim)ga taalluqli ishlar bilan, asosan, erim (ayolim) shug'ullanadi.

127. Dars (yoki ishdan qaytgani)dan keyin o'g'lim (qizim) o'ziga yoqqan ish bilan shug'ullanadi.

128. Bordi-yu, o'g'limni birorta qiz bilan ko'rsam, u holda kayfiyatim buziladi.

129. O'g'lim (qizim) tez-tez kasal bo'ladi.

130. Oilam menga yordam bermaydi, aksincha, vaziyatni chigallashtiradi.

2-topshiriq. Anketa natijalarini tahlil qiling.

3-topshiriq. Ota-onalar uchun oila tarbiyasini samarali tashkil etishga oid amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqing.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Дудина М.М., Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во Рос.гос.проф.-пед. унив-та. 2016. – 190 с.

2. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.

3. Pedagogik diagnostika / Ma'ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Raxmatova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.

4. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.

5. Yo'ldoshev J.G'., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O'quv-metod.qo'll. – 2014. – 96 b.

III. KORREKSION FAOLIYAT VA UNI SAMARALI TASHKIL ETISH

13-mavzu. Korreksion faoliyat. Fanlarni o‘zlashtira olmaslik va uni korreksiyalash (pedagogik tuzatish)

Reja:

1. Korreksion faoliyat (korreksiyalash) mazmuni.
2. Korreksiyalash va korreksiyalashning ustuvor tamoyillari.
3. Fanlarni o‘zlashtira olmaslik va uni pedagogik tuzatish bosqichlari.


Tayanch tushunchalar: korreksiya, korreksiyalash, faoliyat, korreksion faoliyat, tamoyil, korreksiyalash tamoyillari, bosqich, korreksiyalash bosqichlari, korreksiyalash shartlari.

I. Korreksion faoliyat mazmuni. To‘liq holda korreksion faoliyatning mohiyati “Korreksion pedagogika” (“Maxsus pedagogika”) fani negizida ochib berilgan. “Korreksion pedagogika” (“Maxsus pedagogika”) pedagogik turkum fanlar orasida alohida o‘rin tutadi.

“Korreksion pedagogika” (“Maxsus pedagogika”) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga asoslangan, imkoniyatlari cheklangan bolalarni rivojlantirish jarayonini boshqarishni o‘rganuvchi fan¹¹⁹.

Ushbu fan jismoniy va aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni parvarishlash, ularga individual ta‘lim berish, tarbiyalash orqali ularni rivojlantirish masalalari o‘rganatadi.

Maxsus pedagogika o‘z ichiga quyidagi sohalarini qamrab oladi (26-rasm)¹²⁰:



26-rasm. Maxsus pedagogikning muhim sohalarini

¹¹⁹ Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет.кўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Т.: ТДПУ, 2012. – 179-б.

¹²⁰ Ўша манба. – 179-б.

Maxsus pedagogika uzoq yillar davomida pedagogika oliy ta'lim muassasalarining "Defektologiya" (yun. "defectus" – nuqson, kamchilik, "logos" – fan, ta'limot) fakultetlarida o'qitilib kelingan.

Zamonaviy sharoitda "Maxsus pedagogika" fani "Inklyuziv ta'lim" degan nom bilan ham atalmoqda.

***Inklyuziv ta'lim** (ing. "inclusion" – o'z ichiga olish, kiritish, uyg'unlashtirish) davlat siyosati bo'lib, nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli (tarbiyasi og'ir, yetim bolalar, turli hil kasalliklarga chalingan ijtimoiy himoyaga muhtoj mayda millat bolalari) maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birga umumta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyalashni ko'zda tutadi.*

Respublika OTMda Pedagogik turkum fanlar doirasida "Korreksion pedagogika" mustaqil fan sifatida o'qitilgani sababli ayni o'rinda ushbu fan asoslari xususida batafsil to'xtalmay, asosiy e'tiborni umumiy o'rta ta'lim maktablarida kuzatiladigan korreksion hodisalar va ularning pedagogik tuzatish yuzasidan so'z yuritiladi.

II. Korreksiyalash va korreksiyalashning ustuvor tamoyillari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik jarayonida o'quvchining o'qishi va xulqi bilan bog'liq salbiy holatlarni bartaraf qilishda o'qituvchi, maktab psixologi, tibbiyot xodimi tomonidan korreksion faoliyat tashkil etiladi. Korreksion faoliyatning asosini korreksiyalash tashkil qiladi.

***Korreksiya** (yun. "correctio" – tuzatish; pedagogikada – pedagogik tuzatish) – pedagogik uslub, tibbiy choralardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik, jismoniy rivojlanish kamchiliklarining qisman yoki to'liq tuzatilishi¹²¹.*

***Korreksiyalash (pedagogik tuzatish)** – o'quvchi shaxsida kuzatilayotgan og'ishlarni tashxislash asosida ularni bartaraf qilishga qaratilgan maxsus hamda umumiy pedagogik chora tadbirlar tizimi; sabablarini tashxislash asosida o'quvchi shaxsida kuzatilayotgan og'ishlarni bartaraf etishga qaratilgan harakat; maxsus hamda umumiy pedagogik chora-tadbirlarning ko'rilishi.*

***Korreksion faoliyat** – pedagogik uslub, tibbiy choralardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatishga qaratilgan pedagogik faoliyat¹²².*

O'z mohiyatiga ko'ra korreksiyalash mustaqil pedagogik hodisa hamda maxsus harakatlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, korreksiyalash muayyan pedagogik hodisaga yondashuv nuqtai nazardan to'liq yoki qisman amalga oshirilishi ham mumkin. Aksariyat holatlarda korreksiyalash yaxlit pedagogik hodisaga

¹²¹ Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет.қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмоибоева, Д.Иноғомова. – Т.: ТДПУ, 2012. – 179-б.

¹²² Ўша манба. – 179-б.

nisbatan amalga oshiriladi va bunda ko'p omillilik inobatga olinadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik tuzatishlar korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim negizida amalga oshiriladi. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

tashxislash natijalarini tahlil qilish va baholash asosida ularda kuzatilayotgan o'quv va xulqiy nuqsonlarni bartaraf qilish orqali o'quvchi shaxsini rivojlantirish maqsadi, vazifalarini aniq belgilash;

rivojlanish (o'qish, murakkab bo'lmagan matematik amallarni bajarish, nutq, fikrlash qobiliyati, fikrlarni mantiqiy bog'lay olish, fikrni og'zaki va yozma tarzda bayon qilish)da muammolari bo'lgan o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi uchun "Individual rivojlanish dasturi"ni ishlab chiqish;


o'quvchi yoki o'quvchilar guruhini korreksion rivojlantirish metodikasini puxta asoslash, samarali shakl, metod, vosita, texnologiyalarini tanlash;

ta'lim mazmunini, o'quv materiallarini o'quvchining mavjud rivojlanish darajasini to'ldiradigan, u tomonidan qabul qilinadigan bir muncha murakkab o'quv axborotlari bilan to'ldirish;

shartli tabaqalashtirgan o'quvchilar guruhlarining bilim darajasiga mos holda o'quv materiallarini taqdim qilish;

o'quvchi yoki o'quvchilar guruhining "yaqin rivojlanish hududi"ni belgilagan holda imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish choralarini belgilash.

Korreksiyalashning ustuvor tamoyillarini quyidagilar tashkil qiladi 27-rasm):



27-rasm. Korreksiyalashning ustuvor tamoyillari

1. Tuzatish va rivojlanish birligi. Unga ko'ra pedagogik tuzatishning zarurligi haqidagi qaror faqat o'quvchi shaxsi rivojlanishining ichki va tashqi sharoitlarini psixologik-pedagogik tahlil qilish asosida qabul qilinadi.

2. O'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi yosh birligi. Bu o'quvchiga uning yoshi rivojlanishi nuqtai nazaridan individual yondashuvni bildiradi.

3. O'quvchi shaxsini rivojlantirishni tashxislash va tuzatish birligi. Tuzatish ishlari mavjud muammolarni faqat o'quvchining keyingi "rivojlanish hududi"ni uning o'ziga xosligi asosida kelib chiqadigan keyingi ehtimoliy rivojlanishini bashoratlashni yaxlit holda tashxislash hamda baholashdan iboratligini anglatadi. Pedagogik tuzatish va rivojlanish bir-biri bilan o'zaro bog'liq. Zero, pedagogik tuzatishning natijasi o'quvchi

shaxsini rivojlantirishni anglatadi.

4. Pedagogik tuzatishni izchil amalga oshirish tamoyili. O'quvchining faolligi uni rivojlantirishda asosiy harakatlantiruvchi kuchdir. Shu sababli o'qituvchi, psixolog hamda ota-onalar o'zaro hamkorlikda o'quvchini ma'lum faoliyat turlariga jalb qilish, unda faollik ko'rsatishini ta'minlash orqali psixologik-pedagogik tuzatishni tashkil etishi zarur. Ushbu tamoyil maqsadga erishishning samarali yo'l, metod, vositalarini tanlash muhimligini ko'rsatadi.

5. O'quvchining individual xususiyatini inobatga olish tamoyili. Bu tamoyil har bir o'quvchining ichki imkoniyatlarini aniqlash asosida pedagogik tuzatish ishlarini rejalashtirish, amalga oshirish lozimligini belgilab beradi. Tamoyilning mohiyatiga ko'ra o'quvchilar bilan psixologik-pedagogik tuzatish olib boriladigan o'quvchilarga "ikkinchi toifali o'quvchilar" singari munosabatda bo'lmaslik kerak. Shundagina ular da kuzatilayotgan "ta'limiy og'ish"ni bartaraf qilish mumkin.

6. "Yuqoridan pastgacha" tuzatish tamoyili (L.S.Vygotskiy). O'qituvchi va psixologning diqqati o'quvchining "ertangi rivojlanishi"ga qaratilishi lozim. Shunga ko'ra, bordi-yu, pedagogik tuzatishning maqsadi "pastdan" boshlangan, ya'ni, quyi ko'rsatkichlarga tayanilgan bo'lsa, u holda uning mazmunini o'quvchilarning "keyingi rivojlanish hududi"ni shakllantirish tashkil qiladi. O'quvchi tomonidan erishilgan natijalarni o'rganish va baholash uning keyingi rivojlanish hududini "yuqoridan pastgacha" tamoyili bo'yicha tuzatish maqsadga muvofiqligini ifodalaydi¹²³.

Korreksion faoliyat quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

o'quvchini ijtimoiy muhitga moslashtirish (ayniqsa, bolalar bog'chalariga qatnamay, uy sharoitida tarbiyalanganlarni, chunki ularning aksariyati odamovi bo'lib, ijtimoiy muloqotga kirishga qiynaladi);

o'quvchini ta'lim jarayoniga moslashtirish;

o'quvchida ijtimoiy faollikni rivojlantirish;

o'zlashtira olmaslik sabablarini aniqlash va ularni bartaraf qilish;

o'quvchida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

o'quvchining nutqidagi nuqsonlarni bartaraf qilish, nutq boyligini oshirish;

o'quvchining xulqidagi kamchiliklar (tajovuzkorlik, yuqori darajadagi ta'sirchanlik, tushkunlikka beriluvchanlik, hissiyotni sust namoyish qilish, salbiy odatlar – tamaki mahsulotlarini chekish, giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, jinoyatga moyillik kabilar)ni tuzatish;

o'quvchi mansub bo'lgan oiladgi nosog'lom muhitni bartaraf qilish va oilaga ijtimoiy yordam ko'rsatish choralari belgilash.

III. Fanlarni o'zlashtira olmaslik va uni korreksiyalash (pedagogik

¹²³ Колесникова Г.И. Основы психокоррекции – Ростов на-Дону: Феникс, 2005. – С. 324.

tuzatish). Pedagogik tuzatish o'quvchi shaxsida kuzatilayotgan ma'lum xususiyat (xossa, jarayon, holat)larni sinfda yoki darsdan tashqari sharoilarda pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali to'liq yoki qisman o'zgartirishga qaratilgan pedagogik faoliyat tizimi sifatida e'tirof qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "o'zlashtira olmaslik" tushunchasi negizida ikki holat:

o'quv fanlarini o'zlashtira olmaslik;

ijtimoiy xulq ko'nikmalarini o'zlashtira olmaslik tushuniladi.

Har ikki holat ham bevosita korreksiyalash (pedagogik tuzatish)ga qaratilgan maqsadli pedagogik faoliyatning tashkil etilishini taqozo qiladi.

***Fanlarni o'zlashtira olmaslik** – o'quvchi tomonidan qayd etilgan natijalarning ta'lim, didaktik hamda DTS talablariga mos kelmasligi.*

Odatda fanlarni o'zlashtira olmaslik o'quvchining o'qish, hisoblash, tahlil qilish va sintezlash qobiliyatining pastligi, mantiqiy fikrlash olmaslik, fikrni og'zaki hamda yozma bayon qila olmaslik kabilar bilan izohlanadi.

O'quvchining doimiy ravishda fanlarni o'zlashtira olmasligi bir qator omillarga bog'liq. Xususan:

pedagogik nazoratning sustligi;

pedagogning o'quvchi bilan individual ishlash tajribasining yetishmasligi;

pedagogning kasbiy kompetentligining pastligi;

o'quvchiga, uning faoliyatiga nisbatan adolatsiz yondashuv;

ota-onalarning pedagogik madaniyat, psixologik bilimlarga ega emasligi;

o'quvchida muayyan kasallik (masalan, organizmda yod moddasining yetishmasligi bilan bog'liq bo'qoq kasalligi, kalsiy moddasining yetishmasligi tufayli kelib chiqadigan suyak kasalliklari, temir moddasining yetishmasligi bilan bog'liq kamqonlik, miyaning yengil darajada jarohatlanganligi, nimjonlik va hokazolar)ning mavjudligi;

o'quvchilar jamoasining nosog'lom psixologik muhiti;

o'quvchining anomal (turli og'ishlarga asoslangan) xulq (tajovuzkorlik, giyohvand va tamaki mahsulotlari, spirtli ichimliklarga ruju qo'yishi, jinoyat sodir etishga moyillik kabilar)ga egaligi;

o'quvchining kamsitilishi, unga nisbatan zo'ravonlik va ta'ziqning mavjudligi;

o'quvchining melanxolik (ruhiy siqilish, tushkunlik, g'amginlikka moyillik, yuqori darajadagi ta'sirchanlik, hissiyotni sus ifodalash – "ichimdagini top"lik);

sifatli ta'lim olish uchun zarur sharoitning yaratilmaganligi va boshqalar.

O'quvchining tizimli ravishda fanlarni o'zlashtira olmasligi o'qituvchining pedagogik e'tiborsizligiga ham olib keladi. Pedagogik nazoratdan chetda qolgan o'quvchilar ko'p holatlarda nosog'lom psixologik muhitga ega mikro guruhlarga qo'shilib ketadi.

Psixolog A.Gelmontning fikriga ko'ra, fanlarni o'zlashtira olmaslik – o'quvchining murakkab va ko'p qirrali faoliyati bo'lib, uni to'liq o'rganish uchun

turli xil yondashuvlar talab qilinadi¹²⁴. Qolaversa, fanlarni o‘zlashtira olmaslik – o‘quvchilarning mavjud tayyorgarligi maktabning majburiy talablarini bajarishga, bilim, rivojlanishning amaliy ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish, ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish, ijtimoiy munosabat malakalariga mos kelmasligini ifodalaydi. O‘zlashtirmovchilikni o‘z vaqtida payqash va barcha elementlarini bartaraf qilish uning oldini olishga yordam beradi¹²⁵.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlardan o‘zlashtira olmaslik boshlang‘ich sinflarda ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Buning sababi ko‘pchilik o‘quvchilar maktab ta’limiga psixologik hamda jismonan tayyor bo‘lmaydi. Shu sababli maktabgacha ta’lim muassasalari hamda oilalarda 6-7 yoshli bolalarni ta’lim olishga, o‘qish hamda maktab hayoti bilan bog‘liq ijtimoiy talablarni bajarishga samarali tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Bunda tashxislash natijalariga tayanish, ta’limiy muvaffaqiyatsizlikka olib keluvchi sabablarni o‘rganish va ularni bartaraf qilish choralarini belgilashga alohida e’tibor qaratiladi.

Fanlarni o‘zlashtira olmaslikni bartaraf etishga oid turli nazariyalar mavjud: biologik nazariya (L.S.Slavina), ijtimoiy-genetik yondashuv (I.A.Armyanov, P.P.Blonskiy, L.S.Vygotskiy), ijtimoiy nazariya (Dembele Baboy).

Psixolog va pedagog olimlar o‘quvchi tomonidan fanlarning o‘zlashtira olmaslik holatini bir necha guruhlariga ajratadi. Jumladan:

Fanlarni mutlaq o‘zlashtira olmaslik (o‘quchi doimiy ravishda fanlar bo‘yicha “2” hamda “1” baho oladi; maktab o‘quv dasturining minimal talablarini deyarli bajara olmaydi) va fanlarni nisbiy o‘zlashtira olmaslik (o‘quvchi DTS talablarini qoniqarsiz ravishda bajaradi; o‘quv dasturi hamda didaktik talablarni minimal ravishda bajaradi; o‘quvchining imkoniyatlari kognitiv yuklama (o‘quv materialini nazariy jihatdan o‘zlashtira olish)ni ko‘tara oladi) (A.A.Budarniy);

Fanlarni oshkora o‘zlashtira olmaslik va fanlarni yashirin o‘zlashtira olmaslik (bu holat ko‘pincha o‘quvchining ta’lim olishga bo‘lgan munosabatini belgilaydi) (V.S.Setlin);

A – ahmoqlik olib keladigan umumiy fanlarni o‘zlashtira olmaslik;

B – umumiy (tuzatilgan va tuzatilmagan) yoki maxsus (tuzatilgan va tuzatilmagan) fanlarni o‘zlashtira olmaslik;

C – o‘quvchining qobiliyati to‘la ro‘yobga chiqarilmaganligi sababli yuzaga kelgan fanlarni o‘zlashtira olmaslik (P.P.Borisov tomonidan ingliz yozuvchisi F. Shonellning qarashlariga muvofiq asoslangan).

o‘qishdagi umumiy kechikish va ayrim fanlarni o‘zlashtirishdagi kechikish (N.P.Lokalova);

patologik irsiyat (asab va yurak kasalliklari), homiladorlikning og‘ir kechishi, ota-onalarning fanlarni yomon o‘zlashtirganligi bilan bog‘liq o‘zlashtirmovchiliklar (P.P.Blonskiy).

P.P.Borisov o‘tgan asrning 80-yillarida fanlarni o‘zlashtira olmaslikning barcha sabablarini tahlil qilgan holda quyidagi to‘rtta katta guruhga ajratadi:

¹²⁴ Гельмонт А.М. О причинах неуспеваемости и путях ее преодоления. – М.: Просвещение, 2004. – С. 326.

¹²⁵ Тот источник. – С. 324.


1) pedagogik sabablar: ayrim fanlarni o'qitishdagi kamchiliklar, oldingi yillardagi bilimlardagi bo'shliqlar, keyingi sinfga noto'g'ri o'tish bilan bog'liq o'zlashtira olmaslik;

2) ijtimoiy va maishiy sabablar: oiladagi nosog'lom turmush tarzi, otionalarning anomal (ijtimoiy axloq me'yorlariga mos kelmaydigan) xatti-harakatlari, oilaning moddiy ta'minoti, o'quvchida kuzatilgan muayyan ruhiy holatlarning o'z vaqtida davolanmaganligi, o'quvchining umumiy holatiga beparvolik;

3) fiziologik sabablar: turli kasalliklar – umumiy salomatlikning zaifligi, yuqori nafas yo'llari kasalliklari, yuqumli kasalliklar, markaziy asab tizimi, tayanch-harakat tizimining funksional buzilishi, asab tizimi kasalliklari.

4) psixologik sabablar: diqqat, xotira, tushunishning sekinligi, nutq rivojlanishi darajasining pastligi, kognitiv qiziqishning mavjud emasligi, dunyoqarashning torligi¹²⁶.

Psixolog hamda pedagoglar tomonidan fanlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar quyidagi uch tipga ajratiladi (28-rasm):



28-rasm. Fanlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarning asosiy tiplari

Pedagogik diagnostika va korreksiyada o'quvchilarning fanlarni o'zlashtira olmasligini korreksiyalash muhim ahamiyatga ega.

Fanlarni o'zlashtira olmaslikni korreksiyalash (pedagogik tuzatish) – o'quvchi tomonidan qayd etilgan natijalarning ta'lim, didaktik, DTS talablariga mos kelmasligini bartaraf qilishga qaratilgan pedagogik faoliyatni tashkil qilish.

Ana shu maqsadda pedagogik faoliyatni tashkil qilish uchun muayyan shart-sharoitlarning mavjud bo'lishi taqozo qilinadi. Ular:


1. Fanlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar bilan ishlash uchun qulay, sog'lom psixologik muhitni yaratish.

¹²⁶ Акулина А.В. Педагогическая коррекция неуспеваемости учащихся начальных классов // <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskaya-korreksiya-neuspevaemosti-uchaschihsya-nachalnyh-klassov>.

2. Bu toifadagi o'quvchilar bilan ishlashda ularda o'qishga bo'lgan motivlarning shakllanganlik darajasini aniqlash hamda hisobga olish.

3. Korreksion faoliyat jarayonida fanlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarda o'qishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish, shuningdek, ularda o'z-o'zini, o'z imkoniyatlarini yuqori baholash qobiliyatini rivojlantirish.

Fanlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar bilan ishlash muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi. Ular (29-rasm):



29-rasm. Fanlarni o'zlashtira olmaslikni korreksiyalash bosqichlari

O'quvchilarda kuzatiladigan fanlarni o'zlashtira olmaslikni korreksiyalashda uni keltirib chiqaradigan sabablarni o'rganish va o'zlashtira olmaslik darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda bir qator metod va metodikalardan foydalanish samarali sanaladi. Quyida ulardan aynimlari namuna sifatida keltirildi.

I. "O'quvchilarning o'quv predmetlariga bo'lgan munosabatini o'rganish" anketasi (N.S.Luskanova)

Hurmatli, o'quvchi! Iltimos, quyidagi jadvalni to'ldir! Qayd etilgan sababning to'g'risiga sen uchun o'rganilishi zarur (jadvalning 1-qismi) va qiziqarli

(jadvalning 2-qismi) bo‘lgan o‘quv predmetini ko‘rsat! Jadval berilgan savollarga javob berish asosida to‘ldirilishi kerak.

№	O‘rganilish sababi	O‘quv predmeti
I. Zarur predmetlar		
1.	Bu predmetni bilish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun zarur	
2.	Bu fan hozirgi vaqtda tez rivojlanmoqda va jamiyat hyotida katta rol o‘ynaydi	
3.	Bu fan kollejga, OTMga o‘qishga kirishda asqotadi, ubo‘lajak kasb asoslarini o‘zlashtirish uchun zarur	
4.	Bu predmet hayotda asqotadigan foydali malakalarni shakllantiradi	
5.	Bu predmet hayotda barcha narsalarni bo‘laklarga ajratishni o‘rgatadi	
6.	Bu predmetni o‘rganishni ota-onam ahamiyatli deb hisoblaydi	
7.	Bu predmet intellektni rivojlantiradi, dunyoqarashni kengaytiradi	
8.	Bu predmet asosida yakuniy test nazorati tashkil qilinadi	
II. Qiziqarli predmetlar		
1.	Yangi dalillar, hayratomuz voqealar to‘g‘risida bilish qiziqarli	
2.	Kishilarning hayoti va faoliyati to‘g‘risida bilish qiziqarli	
3.	Voqealarning kelib chiqish sabablarini bilish qiziqarli	
4.	Bu predmet bo‘yicha o‘qituvchining tushuntirishini tinglash qiziqarli	
5.	Darsda va uyda masalalarni yechish, mashqlar va amaliy ishlarni bajarish, jadval, xarita va sxemalarni to‘ldirish qiziqarli	
6.	Qo‘shimcha ma‘lumotlarni o‘zing topish, xabarnoma tayyorlash, sinf oldida chiqish qilish qiziqarli	
7.	Hodisalarning mohiyatiga tushuntirishlar topish, muammoni qo‘yish va uni hal qilish, tadqiqot olib borish qiziqarli	
8.	O‘qituvchining g‘ayrioddiy dars berishi va o‘quvchilarni o‘ziga jalb qila olishi qiziqarli	
9.	Men bu predmetni oson o‘zlashtiraman, u shuning uchun qiziqarli	
10.	Bu predmet mening qiziqishlari doirasini to‘ldiradigan boshqa predmetlar bilan bog‘langan	
11.	Bu predmetdan baho olish oson, shu sababli u men uchun qiziqarli	
12.	Predmet to‘liq irodali bo‘lishni va fikrlarni bir nuqtaga to‘lashni taqozo qilishi bilan men uchun qiziqarli	

II. “O‘quv predmetlarini o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyalarni aniqlash” nomli anketa (N.A.Shamova)

Hurmatli, o‘quvchi! Jadvalda berilgan maktab o‘quv predmetlarini o‘zlashtirishingiz uchun sabab bo‘lgan motivlarini qayd qiling!

Predmetlar:

Informatika

Astronomiya

Ekologiya

Jismoniy tarbiya

Hayot xavfsizligi asoslari

Chizmachilik
“Iqtisodiy bilim asoslari”
Jamiyatshunoslik
Matematika

Motivlar:

Predmet mazmunining qiziqarli ekanligi
Darslarning qiziqarli o‘tilishi
O‘quv predmetining amaliy ahamiyatga egaligi
O‘qituvchini hurmat qilishim
Qo‘shimcha bilimlarni egallashni xohlashim

**III. “O‘quvchining maktabdagi muvaffaqiyatlarini
aniqlash” nomli anketa (N.A.Shamova)**

(o‘quv va o‘qituvchining nuqtai nazariga ko‘ra)

1. Darsdagi ishchanlik qobiliyatining darajasi: 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 (kerakli raqamni chizing).
2. Diqqatning dars vaqtidagi holati: doimo yuqori; ba’zan yuqori – ba’zan past; tez-tez bo‘linadi; diqqatni jamlash qiyin.
3. Darslarda topshiriqlarni bajaradi: to‘la holda; xohishiga qarab, qachonki, topshiriq qiziqarli, oson, tushunarli, o‘ziga xos bo‘lsa va ijodiy yondashuvni taqozo qilsa; qisman, onda-sonda.
4. O‘qituvchining tushuntirishini diqqat bilan tinglaydi.
5. Qiziqarli savollar beradi.
6. Yozma va og‘zaki matnlarda o‘ziga xos mulohazalarni bildiradi.
7. Ijodiy topshiriqlarni sidqidildan bajaradi.
8. O‘quv predmeti bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlarga qatnashadi.
9. Predmetni tushunadi: chuqur; yuzaki; qisman; yomon.
10. Mikroguruh (sinf)dagi o‘rni: yetakchi rolini bajaradi, sustkash, muhokamalarda faol ishtirok etadi.
11. Sidqidildan: doskada javob beradi; ijodiy topshiriqni bajaradi; yozma ishlarni bajaradi.
12. O‘quv predmet o‘zlashtirganman deb hisoblaydi: chuqur; yetarlicha; qisman.
13. O‘quv predmeti bo‘yicha yuqori baholarni olishni yaxshi ko‘radi.
14. Bordi-yu, o‘qituvchi o‘quv faoliyatidan norzi bo‘lsa, u holda tashvishga tushadi.
15. O‘quv materiallarini kerakli sur‘at (zarur vaqt)da o‘zlashtira olmayapman, shu sababli o‘qituvchining maxsus yordamiga ehtiyojim bor.
16. Topshiriqlarni bajara olaman: istalgan murakkablikdagi; yetarlicha murakkab bo‘lgan; o‘rtacha murakkablikdagi; oddiy masalalarni.
17. O‘quv topshiriqlarini va ularni bajarishni yoqtiraman: mustaqil; ota-onamning yordami bilan; o‘qituvchining yordami bilan; sinfdagi tengdoshlarim bilan birgalikda.

18. Darsdagi xulq-atvori: tartibli; kamdan kam holatlarda tartibni buzadi; o'quvchiga o'qituvchining "quyushqondan chiqarishi" yoqadi; o'quvchi boshqalarning g'ashini keltiradigan qiliqlar qiladi; darslarda qo'pollik qiladi.

19. O'qituvchiga assistent, yordamchi sifatida ko'maklashadi.

20. Turli hayotiy va muammoli masalalar bo'yicha o'qituvchi bilan maslahatlashishni yoqtiradi.

Shunday qilib, pedagogik diagnostikaning muhim tarkibiy elementi, tashxislash natijasida aniqlangan salbiy holatlarni bartaraf etishning natijasi korreksiyalash (pedagogik tuzatish) sanaladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ko'p kuzatiladigan salbiy hodisalar fanlarni o'zlashtira olmaslik hamda xulqiy me'yordan og'ish sanaladi. Pedagogik tashxislash natijalariga ko'ra tashkil etiladigan korreksiyalash (pedagogik tuzatish) fanlarni o'zlashtira olmaslik hamda xulqiy me'yordan og'ish kabi salbiy holatlarni to'liq yoki qisman bartaraf qilish imkonini yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kuzatiladigan fanlarni o'zlashtira olmaslik o'quvchining o'qish, hisoblash, tahlil qilish va sintezlash qobiliyatining pastligi, mantiqiy fikrlash olmaslik, fikrni og'zaki hamda yozma bayon qila olmaslik kabilar bilan izohlanadi. Fanlarni o'zlashtira olmaslik bir qator pedagogik, ijtimoiy, psixologik va biologik sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Korreksiyalash (pedagogik tuzatish)da fanlarni o'zlashtira olmaslikni keltirib chiqaruvchi sabablarni o'rganish, uning darajasini tashxislash muhim ahamiyatga ega. Maqsaddan kelib chiqqan holda o'quvchilarning fanlarni o'zlashtira olmasligini korreksion faoliyat bir necha bosqich (pedagogik tashxislash, pedagogik konsilium, tibbiy tekshirish va tahlil, ota-onalar uchun psixologik-pedagogik maslahat, korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, pedagogik refleksiya, pedagogik strategiya)da amalga oshiriladi.

Nazorat savollari:

1. "Korreksiya" tushunchasi qanday ma'noni anglaydi?
2. Korreksiyalash (pedagogik tuzatish) nima?
3. Korreksiyalash jarayonida qanday tamoyillar ustuvorlik kasb etadi?
4. Psixologik-pedagogik tuzatish qanday yo'nalishlarda amalga oshiriladi?
5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "o'zlashtira olmaslik" tushunchasi negizida qanday hodisalar aks etadi?
6. "Fanlarni o'zlashtira olmaslik" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
7. Fanlarni o'zlashtira olmaslikning asosiy sabablari nimalardan iborat?
8. Fanlarni o'zlashtira olmaslikni bartaraf etishga oid qanday nazariyalar mavjud?
9. Fanlarni o'zlashtira olmaslikning qanday turlari mavjud?
10. P.P.Borisov fanlarni o'zlashtira olmaslikning qanday sabablarini ko'rsatadi?
11. Fanlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar qanday tiplarga bo'linadi?
12. Fanlarni o'zlashtira olmaslikni korreksiyalash nimani anglatadi?

13. Fanlarni o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilar bilan ishlash bosqichlarida qanday korreksion-pedagogik faoliyat amalga oshiriladi?

14. Korreksiyalashdagi psixologik-pedagogik konsilium nima?

Test topshiriqlari:

1. O‘quvchida kuzatilayotgan og‘ishlar tashxislash asosida ularni bartaraf qilishga qaratilgan maxsus va umumiy pedagogik chora tadbirlar tizim – bu ...

- a) proflaktika;
- b) diagnostika;
- c) korreksiya;**
- d) ontogenez.

2. ... – sabablarini tashxislash asosida o‘quvchi shaxsida kuzatilayotgan og‘ishlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat.

- a) sintezlash;
- b) korreksiyalash;**
- c) tashxislash;
- d) oldini olish (profilaktika).

3. Tuzatish va rivojlanish birligi, o‘quvchi shaxsini rivojlantirishni tashxislash va tuzatish birligi, “Yuqoridan pastgacha” tuzatish (L.S.Vygotskiy). Ular – korreksiyalashning ...

- a) yetakchi nazariyalari;
- b) ustuvor tamoyillari;**
- c) muhim shartlari;
- d) asosiy qonunlari.

4. O‘quvchi tomonidan qayd etilgan natijalarning ta’lim, didaktik hamda DTS talablariga mos kelmasligi – bu

- a) fanlarni o‘zlashtira olmaslik;
- b) xulqiy me’yordan og‘ish;
- c) ijtimoiy vazifalarni bajarmaslik;
- d) pedagogik talablarga rioya qilmaslik.

5. Biologik nazariya (L.S.Slavina), ijtimoiy-genetik yondashuv (I.A.Armyanov, P.P.Blonskiy, L.S.Vygotskiy), ijtimoiy nazariya (Dembele Baboy). Ular – fanlarni o‘zlashtira olmaslikni bartaraf etishga oid ...

- a) qarashlar;
- b) munosabatlar;
- c) g‘oyalar;
- d) nazariyalar.**

6. Fanlarni oshkora o‘zlashtira olmaslik va fanlarni yashirin o‘zlashtira olmaslik. Fanlarni o‘zlashtira olmaslikning bu turlari ... tomonidan asoslangan.

- a) A.Gelmont;
- b) A.A.Budarniy;
- c) V.S.Setlin;**
- d) P.P.Borisov.

7. ... sabablariga ko‘ra (pedagogik, ijtimoiy va maishiy, fiziologik, psixologik jihatdan) fanlarni o‘zlashtira olmaslikni to‘rtta guruhga ajratgan.

- a) A.Gelmont;
- b) A.A.Budarniy;
- c) V.S.Setlin;
- d) P.P.Borisov.**

8. O‘quvchi tomonidan qayd etilgan natijalarning ta‘lim talablariga mos kelmasligini bartaraf qilishga qaratilgan pedagogik faoliyatni tashkil qilish – bu fanlarni o‘zlashtira olmaslikni ...

- a) sintezlash;
- b) korreksiyalash;**
- c) tashxislash;
- d) oldini olish (profilaktika).

9.

Maktab psixologi, fan o‘qituvchilari, tibbiyot xodimlari, sinf rahbari, maktab rahbariyati ishtirokidagi maslahatlashuv – bu ...

- a) psixologik-pedagogik konsilium;**
- b) psixologik-pedagogik tashxislash;
- c) tibbiy tekshirish va tahlil;
- d) psixologik-pedagogik refleksiya.

10. Pedagogik kuzatish, anketa, test, ota-onalar va o‘quvchi bilan suhbat asosida ikkilamchi tashxislash – bu ...

- a) psixologik-pedagogik konsilium;
- b) psixologik-pedagogik tashxislash;
- c) tibbiy tekshirish va tahlil;
- d) psixologik-pedagogik refleksiya.**

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. N.G.Luskanovanning “Maktabga bo‘lgan qiziqishni aniqlash” testi yordamida 4 nafar o‘quvchining maktabga bo‘lgan munosabatini tashxislang.

“Maktabga bo‘lgan qiziqishni aniqlash” nomli test (N.G.Luskanova)

1. Maktab senga yoqadimi?

unchalik emas – 1 ball;

yoqadi – 2 ball;

juda yoqadi – 2 ball.

2. Ertalab uyqudan uyg‘ongandan so‘ng maktabga xursand holda borasanmi yoki tez-tez uyda qolging keladimi?

tez-tez uyda qolgim keladi – 1 ball;

ba‘zan qolgim keladi, ba‘zan yo‘q – 2 ball;

xursand holda boraman – 3 ball.

3. Bordi-yu, o'qituvchi "Ertaga barcha maktabga kelishi shart emas, xohlovchilar uyda qolishi mumkin. Kim maktabga keladi yoki uyda qoladi?", deb so'rasa, sen nima qilgan bo'larding?

bilmayman – 1 ball;

uyda qolgan bo'lardim – 2 ball;

maktabga borgan bo'lardim – 3 ball.

4. Sinfinglarda qandaydir dars bo'lmasa, bu senga yoqadimi?

yoqmaydi – 1 ball;

ba'zan yoqadi, ba'zan yo'q – 2 ball;

yoqadi – 3 ball.

5. Sen uyga vazifalar berilmasligini xohlaysanmi?

xohlayman – 1 ball;

xohlamayman – 2 ball;

bilmayman – 3 ball.

6. Maktabda faqatgina tanaffuslar bo'lishini xohlaysanmi?

bilmayman – 3 ball;

xohlamayman – 2 ball;

xohlagan bo'lardim – 1 ball.

7. Sen ota-onaningga maktab haqida tez-tez gapirib turasanmi?

tez-tez gapirib turaman – 3 ball;

ba'zan gapirib turaman – 2 ball;

gapirmayman – 1 ball.

8. O'qituvchining biroz yumshoq fe'lli bo'lishini xohlarmiding?

aniq ayta olmayman – 3 ball;

xohlagan bo'lardim – 2 ball;

xohlamagan bo'lardim – 1 ball.

9. Sinfinglarda o'rtoqlaring ko'pmi?

kam – 3 ball;

ko'p – 2 ball;

o'rtoqlarim yo'q – 1 ball.

10. Senga sinfdoshlaring yoqadimi?

yoqadi – 3 ball;

unchalik yoqmaydi – 2 ball;

mutlaqo yoqmaydi – 1 ball.

Javoblarni tahlil qilish:

Har bir variant bo'yicha o'quvchi to'plagan ballarning yig'indisi hisoblanadi.

26 balldan – 30 ballgacha – o'quvchining maktabga bo'lgan qiziqishi yuqori;

21 balldan – 25 ballgacha – o'quvchining maktabga bo'lgan qiziqishi o'rtacha;

16 balldan – 20 ballgacha – o'quvchining maktabga bo'lgan qiziqishi past.

2-topshiriq. Tashxislash natijalariga tayangan holda o'quvchilarda maktabga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishga oid amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqing.

3-topshiriq. N.S.Luskanovaning “Ustuvor bo‘lgan o‘quv motivlarini aniqlash” anketasi yordamida 4 nafar o‘quvchining o‘quv predmetlari asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan munosabatini aniqlang.

**“Ustuvor bo‘lgan o‘quv motivlarini aniqlash”
nomli anketai (N.S.Luskanova)**

Hurmatli, o‘quvchi! Ma’lum o‘quv fanlarini o‘zlashtira olmaslikni bartaraf qilish bo‘yicha ishlash uchun o‘qituvchi sening anglangan motivlarini ko‘proq va nomma-nom bilishi zarur. Shu sababli, iltimos, ko‘rsatilgan motivning to‘g‘risiga ko‘rsatilgan ballni qo‘y!

1. O‘quvchi yaxshi o‘qishi kerakligini tushunaman.
2. Maktabni bitirishni va o‘qishni davom ettirishni xohlayman.
3. Bilim mening istiqbolim uchun zarurligini tushunaman.
4. Madaniyatli va har tomonlama rivojlangan kishi bo‘lishni xohlayman.
5. Yaxshi baholar olishni xohlayman.
6. Ota-onalardan maqtov eshitishni xohlayman.
7. Sinfdoshlarimning men haqidagi fikrlari ijobiy bo‘lishini xohlayman.
8. Sinfdagi eng yaxshi o‘quvchi bo‘lishni xohlayman.
9. Darslarda mening javoblarim eng yaxshi bo‘lishini xohlayman.
10. Sinfdagi eng yaxshi o‘quvchilar orasidan munosib joy egallashni istayman.
11. Menga ta’lim olish yoqadi.
12. Yangi ma’lumotlarni bilishni xohlayman.
13. O‘qituvchilarning g‘ayrioddiy va nostandart darslari yoqadi.
14. Menga o‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish yoqadi.
15. Fikrlashga imkon beriladigan darslar yoqadi.
16. O‘qituvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatlarimni adolatli baholashlarini yoqtiraman.

Ta’lim motivlari:

1. Burch va majburiyatni anglash motivi.
- 2-4. O‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini takomillashtirish motivi.
- 5-7. Shaxsiy farovonlik motivi.
- 8-10. Obro‘ qozonish, nufuzga erishish motivi.
- 11-13. O‘quv faoliyati mazmunini anglash motivi.
- 14-16. O‘qish jarayoniga bo‘lgan munosabat motivi.

4-topshiriq. Tashxislash natijalariga ko‘ra o‘quvchining o‘quv predmetlari asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan munosabatini baholang va salbiy munosabatni bartaraf qilish choralarini ishlab chiqing.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Дудина М.М., Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во Рос.гос.проф.-пед. унив-та. 2016. – 190 с.

2. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.
3. Pedagogik diagnostika / Ma'ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Raxmatova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.
4. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.
5. Yo'ldoshev J.G'., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O'quv-metod.qo'll. – 2014. – 96 b.

14-mavzu. Ijtimoiy xulq ko'nikmalarini o'zlashtira olmaslik va uni korreksiyalash (pedagogik tuzatish)

Reja:

1. Ijtimoiy xulq ko'nikmalarini o'zlashtira olmaslik.
2. Me'yordan xulqiy og'ish va uning turlari.
3. Pedagogik og'ish: sabablari va uni korreksiyalash.
4. Me'yordan xulqiy og'ishni korreksiyalashga pedagogik yondashish.

Tayanch tushunchalar: xulq, ijtimoiy xulq, ijtimoiy xulq ko'nikmalari, o'zlashtira olmaslik, ijtimoiy xulq ko'nikmalarini o'zlashtira olmaslik, me'yordan xulqiy og'ish, me'yordan xulqiy og'ish turlari, jismoniy og'ish, psixologik og'ish, ijtimoiy og'ish, pedagogik og'ish, ijtimoiy xulq ko'nikmalarini o'zlashtira olmaslikni korreksiyalash.

I. Ijtimoiy xulq ko'nikmalarini o'zlashtira olmaslik. Avvalgi mavzuda aytib o'tilganidek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ko'zga tashlanadigan yana bir salbiy holat – o'quvchi tomonidan ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini o'zlashtira olmaslik sanaladi.

Ijtimoiy xulq-atvor ko'nimalalarini o'zlashtira olmaslik – yosh, psixologik hamda fiziologik nuqtai nazaridan o'quvchi xulq-atvori, xatti-harakatlarining ijtimoiy, shuningdek, jismoniy va ruhiy rivojlanganlik ko'rsatkichlariga mos kelmasligi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilarida ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini o'zlashtira olmaslik ko'p holatlarda boshlang'ich sinf, asosan, maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnamagan, uy sharoitida, tor doiradagi munosabatlar jarayonida tarbiyalangan o'quvchilarda ko'zga tashlanadi. Ular duch keladigan jiddiy muammo – makro muhit bo'lgan maktab sharoitiga ko'nika olmaslik, yangi o'rtoqlarni qabul qilolmaslik, ular bilan muloqot qila olmaslikdir. Buning natijasida o'quvchi maktab ta'limi talablari – ma'lum vaqtda kelish va ketish, darslarning majburiy ravishda muayyan vaqt oralig'ida tashkil qilinishi, o'quv jarayoni ishtirokchilari: o'qituvchi va sinfdoshlar bilan muloqot qilish kabilarga moslasha olmaydi. O'zini sinf jamoasida o'zini “begona” tutadi, noqulaylikni his qiladi, o'qishga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'ladi, o'quv materiallarini qabul qilmaydi, topshiriqlarni bajarishga nisbatan beparvo bo'ladi.

Global axborotlashuv, marginallik (“marginalis” – chekkada turadigan; turli madaniyatlar qarishmasi)ning keskin rivojlanayotganligi, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotga nisbatan qat'iy ijtimoiy-axloqiy talablarning belgilanmaganligi, “ommaviy madaniyat” ta'sir ko'lamining kengayishi me'yordan xulqiy og'ish ko'rinishlarining umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari orqasida faol kuzatilishiga sabab bo'lmoqda.


II. Me'yordan xulqiy og'ish va uning turlari. Psixologiya, sosiologiya, pedagogikada ijtimoiy xulq ko'nikmalarini o'zlashtira olmaslik “me'yordan xulqiy og'ish” yoki “deviatsiya” (lot. “deviation” – “og'ish”) deb ham nomlanadi.

“Me’yordan xulqiy og‘ish”ning mohiyatini anglash uchun dastlab “me’yor” tushunchasining lug‘aviy ma’nosini anglash maqsadga muvofiqdir.

Lug‘aviy jihatdan “me’yor” tushunchasi: asosiy o‘lchov, “qabul qilingan o‘lchovning o‘rtacha kattaligi; mavjud yoki yangi ob’ektlarni yaratishni baholash uchun andoza yoki o‘rnatilgan standart”¹²⁷ ma’nolarini anglatadi. Shaxsning rivojlanishiga nisbatan “me’yor” tushunchasining qo‘llanilishi esa uning ruhiy, jismoniy hamda axloqiy jihatdan mo‘tadil rivojlanishini ifodalaydi.

Me’yordan og‘ish (lot. “defectus” – kamayish, nuqson) – bolaning mo‘tadil rivojlanishida buzilishlarni keltirib chiqaruvchi jismoniy, ruhiy, ixtimoiy yoki pedagogik nuqsonlar.

Ijtimoiy sub’ektlar, jumladan, o‘quvchilar o‘rtasida turli jihatdan “me’yordan og‘ish” holatlari kuzatiladi. Ular (30-rasm):



30-rasm. Me’yordan og‘ishning asosiy turlari

Me’yordan og‘ish turlaridan bir jismoniy og‘ish sanaladi.

Jismoniy og‘ish – shaxsning fiziologik o‘sishi va salomatligida kuzatilayotgan nuqsonlar bo‘lib, asosan, tibbiy ko‘rsatkichlar (tananing og‘irligi, bo‘yi, hajmi va hokazolar) bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Odatda jismoniy og‘ish kasalliklar, ko‘rish va eshitish qobiliyatining buzilishi, tayanch-harakat apparatlarining nuqsonlari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi¹²⁸. Shunga ko‘ra, jismoniy og‘ish quyidagi holatlarning mavjudligi bilan belgilanadi:

kasallik, xastalikning kelib chiqishi (ruhiy va fiziologik funksiyalarning buzilishi);

imkoniyatning cheklanishi (aqliy yoki amaliy faoliyatni bajara olish qobiliyatining ma’lum darajada vaqtincha yoki umrbod yo‘qotilishi);

nogironlik (aqliy yoki amaliy faoliyatni bajara olish qobiliyatining deyarli yo‘qotilishi, ishga yaroqsiz bo‘lib qolish, to‘g‘ri fikrlay olmaslik).

Jismoniy og‘ishning yuzaga kelishiga muayyan omillar ta’sir qiladi. Ular: irsiy omillar;

¹²⁷ Понятие нормы и отклонения в физическом, психическом, моторном и интеллектуальном развитии человека // <https://katip39.ru/wp-content/uploads/2020/05/Ponyatie-normy-i-otkloneniya-v-fizicheskom-psihicheskom-motornom-i-intellektualnom-razvitii-cheloveka.pdf>.

¹²⁸ Понятие нормы и отклонения в физическом, психическом, моторном и интеллектуальном развитии человека // <https://katip39.ru/wp-content/uploads/2020/05/Ponyatie-normy-i-otkloneniya-v-fizicheskom-psihicheskom-motornom-i-intellektualnom-razvitii-cheloveka.pdf>.

ekologik vaziyat;
turmush darajasining pastligi;
oziq-ovqat mahsulotlarida kimyoviy unsurlar miqdorining yuqoriligi;
nurlanish;
turli ko‘rinish hamda darajada jarohat olish;
aholining tibbiy madaniyatga ega emasligi yoki uning pastligi;
shaxsda o‘zining va atrofdagilarning salomatligiga nisbatan mas’uliyatning shakllanmaganligi.

Me’yordan og‘ishning yana bir turi – ruhiy og‘ish hisoblanadi.

Ruhiy og‘ish – aqliy faoliyatni tashkil etish, psixologik holatni boshqara olish qobiliyatining butunlay yoki ma’lum darajada yo‘qotilishi.

Bu turdagi og‘ish shaxsning aqliy rivojlanishda ortda qolishi va ruhiy nuqsonlarga egaligini belgilaydi.

Aqliy qoloqlik asab tizimining tug‘ma yoki orttirilgan nuqsonlar sababli yuzaga keladi. Bolalar o‘rtasida aqliy qoloqlikning yengil (aqlsizlik) va og‘ir (tentaklik) shakllari kuzatiladi. Nutqning buzilishi ham ruhiy nuqsonlar sirasiga kiradi.

Ruhiy og‘ishning eng og‘ir shakllari ***autizm*** (yun. “autos” – o‘zim; ijtimoiy munosabatlar va muloqotga ehtiyoj sezmaslik) hamda suisid (o‘z-o‘zini o‘ldirish, suiqasd) sanaladi.

Voyaga yetmagan o‘rtasida ijtimoiy og‘ish ham ko‘zga tashlanadi va globallashuv sharoitida uning darajasi ortib bormoqda.

Ijtimoiy og‘ish – individning to‘laqonli shaxs bo‘lib shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi holatlarning mavjudligi.

Ijtimoiy og‘ish bir necha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ular:
me’yordan xulqiy og‘ish (tajovuzkorlik, giperfaollik, qo‘pollik, xudbinlik, dilozorlik);

yetimlik;

aroqxo‘rlik;

giyohvandlik;

taksokomaniya;

fohishabozlik;

daydilik;

huquqbuzarlik;

jinoyat sodir etishga moyillik va boshqalar.

Shaxsning me’yordan psixologik va ijtimoiy og‘ishi “me’yordan xulqiy og‘ish” sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda me’yordan xulqiy og‘ish umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham kuzatilmoqda. Ijtimoiy og‘ishning yetimlik; aroqxo‘rlik; giyohvandlik; taksokomaniya; fohishabozlik; daydilik; huquqbuzarlik; jinoyat sodir etishga moyillik kabi ko‘rinishlari “Ijtimoiy pedagogika” fanining tadqiqot predmeti bo‘lganligi sababli bu urinda ularning mohiyati, kelib chiqish sabablari, proflaktikasi, diagnostikasi va korreksiyasi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tishga

hojat yo‘q. Asosiy e‘tibor me‘yordan xulqiy og‘ish


Me‘yordan xulqiy og‘ish – shaxsning jamiyat tomonidan tan olingan va ijtimoiy munosabatlar uchun ustuvor bo‘lgan ma‘naviy-axloqiy qoidalar, me‘yorlarga rioya etmasligi.

III. Pedagogik og‘ish: sabablari va uni korreksiyalash. Jamiyatda shunday holat ham kuzatiladiki, ayrim o‘quvchilar majburiy ta‘lim olish, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida o‘qishni davom ettirishni istamaydi. Mazkur holat “pedagogik og‘ish” sifatida e‘tirof etiladi.

Pedagogik og‘ish – uzluksiz ta‘lim tizimining majburiy bosqichlarida umumiy (kasbiy) fanlari asoslarini o‘zlashtirishda ta‘lim standartlari talablarini zarur va minimal darajada bajarimaslik yoki bajarishni istamaslik.

Zero, o‘smir va o‘spirinlik davrlarida ta‘lim olish yuzasidan ijtimoiy-huquqiy me‘yorlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularga rioya qilmaslik o‘z mohiyatiga ko‘ra og‘ish hisoblanadi. So‘nggi yillarda o‘smir va o‘spirinlarning ta‘lim olishga nisbatan rag‘bat bildirmayotganliklarining sabablarini chuqur o‘rganish, tahlil qilish va bartaraf etishga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda.

Pedagogik og‘ishning quyidagi ikki turi qayd etilgan (31-rasm):



31-rasm. Pedagogik og‘ishning asosiy turlari

O‘smir va o‘spirin o‘quvchilarda pedagogik og‘ish bir necha shakllarda namoyon bo‘ladi. Ular quyidagilardir:

1. Rasman qabul qilingan bo‘lsa-da, na‘lim muassasasiga qatnamaslik.
2. Boshlang‘ich ma‘lumotga ega bo‘lmaslik.
3. Faqatga boshlang‘ich ma‘lumotga ega bo‘lish.
4. Umumiy o‘rta ta‘lim ma‘lumotiga ega bo‘lmaslik.
5. O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limiga ega bo‘lmaslik

Pedagogik og‘ish salbiy ijtimoiy-pedagogik hodisa bo‘lib, uning sodir etilishi turli sabablar bilan bog‘liq. Jumladan:

oilada nosog‘lom muhitning mavjudligi;
boquvchisini yo‘qotganlik tufayli ishlashga majbur bo‘lish;
betoblik yoki oilaviy sharoit tufayli darsni uzoq vaqt qoldirish;
o‘quvchi shaxsiga mikrogruphning salbiy ta‘siri;
darslar (ta‘lim)ni o‘zlashtira olmaslik;
muassasasida o‘quvchiga salbiy munosabatda bo‘lish;
oilada ta‘lim olishning rag‘batlantirilmamasligi;

o'quvchi shaxsida ayrim salbiy xislatlarning ustuvorligi;
ta'lim muassasasining boshqa hududda joylashuvi;
oilada o'quvchiga "o'gaylik" munosabatida bo'linishi;
ta'lim muassasasi, jamoatchilik e'tiborsizligi;
ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan o'quvchining qarovsiz qoldirilishi;
o'quvchi ruhiyatida ma'naviy "bo'shliq"ning yuzaga kelishi;
o'quvchining turli buzg'unchi, yot, kriminal oqimlar ta'siriga tushib qolishi;

o'quvchining o'zi duch kelgan ayrim muammolarni mustaqil hal qila olmasligi;
o'quvchining o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholamay mustaqillikka intilishi.

"Pedagogik og'ish"ning oldini olish va uni bartaraf etish davlat, jamiyat, oila, ta'lim muassasasi, mahalla hamda jamoat tashkilotlarining birgalikdagi va o'zaro hamkorlikka asoslangan faoliyatini samarali yo'lga qo'yish orqali hal etiladi.

Voyaga yetmaganlarda "pedagogik og'ish"ning oldini olish va bartaraf etish maqsadida ijtimoiy-pedagogik faoliyat quyidagi shartlar asosida tashkil etilishi lozim:

1. O'quvchi voyaga yetayotgan oilaning ma'naviy-psixologik muhitini o'rganish.
2. O'quvchining buzg'unchi yot, g'oyalarni targ'ib etuvchi oqimlardan muhofazalash.
3. O'quvchining ijtimoiy, ruhiy va jismoniy holatidan xabardor bo'lish.
4. O'quvchini shaxs sifatida anglash, uning istak va intilishlarini quvvatlash.
5. O'quvchi mansub bo'lgan mikroguruhga xos "qadriyatlar"ni aniqlash.
6. O'quvchi ruhiyatida ma'naviy "bo'shliq"ning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik.
7. O'quvchi duch kelgan muammoni anglash va uni hal qilishga ko'maklashish.
8. O'quvchi xatti-harakatlarini bilvosita nazorat qilish.
9. Mikro, makro muhitda o'quvchiga salbiy munosabatda bo'lishning oldini olish.

IV. Me'yordan xulqiy og'ishni korreksiyalashga pedagogik yondashish.
Pedagogik diagnostikada pedagogik og'ishni korreksiyalash masalasining o'rganilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Me'yordan xulqiy og'ishni korreksiyalash – *shaxsning jamiyat tomonidan tan olingan va ijtimoiy munosabatlar uchun ustuvor bo'lgan ma'naviy-axloqiy qoidalar, me'yorlarga rioya etmasligi kabi nuqsonlarni tuzatish.*


O'quvchilarda me'yordan xulqiy og'ish holatini korreksiyalashda ma'lum shartlarga rioya qilish talab qilinadi:

- muloqot jarayonining samimiy bo'lishiga erishish;
- o'quvchining ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, qiziqishlarini rivojlantirish;
- ruhiyatdagi deformatsiyalarni qayta tiklash choralarni belgilash;
- ijobiy fazilatlarini yanada boyitish, liderlik sifatlarini rivojlantirish;
- o'quvchining xulqi yaqqol namoyon bo'ladigan vaziyatlarda uni qo'llab-

quvvatlash va rag‘batlantirish;

o‘quvchi tomonidan hayotiy tajribaning to‘planishiga imkoniyat yaratish;
o‘quvchining salbiy odatlarni jamoada va jamoa ta‘sirida yo‘qotib borish.

Pedagogik diagnostika va korreksiyada o‘quvchining me‘yordan xulqiy og‘ishi, asosan, quyidagi to‘rtta usul yordamida tuzatiladi (32-rasm):



32-rasm. Me‘yordan og‘ishning asosiy turlari

O‘quvchining me‘yordan xulqiy og‘ishni korreksiyalashda bir nechta ijobiy xarakterdagi pedagogik texnikalarni qo‘llash talab qilinadi. Ular:

o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga yordam berish, ular o‘rtasida hissiy aloqani o‘rnatish (mehribonlik, e‘tibor ko‘rsatish va hamda g‘amxo‘rlik ko‘rsatilishiga erishish; o‘quvchiga biror topshiriqni buyruq ohangida bermaslik, aksincha, “iltimos” deb murojaat qilish; o‘quvining ijobiy xulqini rag‘batlantirish; o‘qituvchi, ota-ona tomonidan noto‘g‘ri yo‘l tutilgan holatlarda kechirim so‘rash; o‘quvchining muammolariga nisbatan hamdardlikni namoyon qilish; uning biror-biri ishi uchun kafil bo‘lish;

ta‘lim muassasasi hamda uy sharoitida o‘quvchini ma‘naviy-axloqiy ta‘sirga ega ish jarayonlariga jalb qilish; u tomonidan ijobiy hayotiy tajribalarni to‘planishi uchun zarur sharoitni yaratish (unga ishonch bildirish, ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, o‘quvchini qiziqarli bo‘lgan mashg‘ulotlarga jalb qilish; turli ijobiy ta‘sirga ega omillar yordamida o‘quvchida yuksak insoniy his-tuyg‘ularni uyg‘otish; unda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantiradigan hamda rivojlantiradigan mashq va treninglarni tashkil qilish);

o‘quvchining his-tuyg‘ulari hamda qiziqishlari dinamikasini anglash hamda tushunish (vositachilik, “yon tomondan yondashish” (o‘quvchining kamchilik va nuqsonlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri tanqid qilmay, aksincha, unda ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otuvchi omillardan foydalanish orqali tushuntirish; o‘quvchining hali namoyon bo‘lmagan ijobiy ichki his-tuyg‘ularini faollashtirish).

Xulqiy og‘ish nuqsonlarini korreksiyalashda samaradorlikka faqat

o'quvchining xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bilan erishib bo'lmaydi, pedagogik faoliyatda uning ayrim xatti-harakatlarini "to'xtatish" ham talab qilinadi.

Korreksiyalashda o'quvchining quyidagi xatti-harakatlarini "to'xtatish" kutilgan natijani beradi:

O'qituvchi tomonidan o'z kuchining oshqora namoyish qilinishi (taqiqlovchi harakatlarni amalga oshirishi; o'quvchining xulqi yuzasidan xulosani aytish; muayyan xulq-atvor uchun o'quvchini jazolash; o'rinli buyruqlar berish; qat'i ogohlantirish; beriladigan jazoni ifodalash; jahli chiqqanini namoyish qilish; aybdor o'quvchini topish);

ochiq-oydin taqiqlovchi ta'sir ko'rsatish (o'qituvchi va o'quvchining o'zaro uyg'un xatti-harakatlari, beozor tanbeh berish, ishora bilan bildirish, o'zini befarqday tutish, tstezhzo yoki xayolparastlik qilish, ishonchsizlik bildirish).

Xulqiy og'ish nuqsonlarini korreksiyalashda, shuningdek, yordamchi pedagogik texnikalardan ham foydalaniladi:

o'quvchining ijobiy xulqini rivojlantirish uchun tashqi omillardan foydalanish;

o'quvchining individual harakatlarini qayd qilmaslik (salbiy nuqsonlar ko'zga tashlanganda).

Pedagogik diagnostika va korreksiyada o'quvchining salbiy nuqsonlarini bartaraf qilishda o'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish kutilgan natijani beradi. Korreksiyalashda o'quvchilar jamoasi tomonidan ko'rsatiladigan quyidagi tarbiyaviy ta'siri muhim ahamiyatga ega:

ishonch bildirish – bunda o'quvchi o'z bilim va ko'nikmalarini namoyish etgan holda jamoaning muhim ijtimoiy topshirig'ini bajaradi;

doimiy ravishda ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni tashkil qilishga odatlantirib borish – bu jarayonda o'quvchiga jamoa tomonidan beriladigan topshiriqlar takrorlanadi, murakkablashtiriladi va o'quvchi tomonidan ularning umumiy ahamiyatini anglash rag'batlantiriladi;

o'quvchida jamoa bilan birlikning namoyon bo'lishini qo'llab-quvvatlash – bunda o'quvchining ijtimoiy ishlarni bajarishga bo'lgan sa'y-harakatlari rag'batlantiriladi va ma'qullanadi, unga nisbatan sinfdoshlarning xayrixohligi kuchaytiriladi;

ishonchsizlik bildirish – bu jarayonda jamoa tomonidan o'quvchining xatti-harakati, xulqi salbiy baholangani sababli unga biron bir ijtimoiy topshiriqni berish borasida shubha bildirilib, shu orqali u o'zini o'zi tanqidiy tahlil qilishga undaladi;

vijdonan yondashmagan holda va sifatsiz bajarilgan ishni qabul qilishdan bosh tortish – bunda jamoa o'quvchidan ishni qayta bajarishni talab qiladi, o'quvchining ishni yaxshiroq bajarishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi;

o'quvchining xudbinona munosabati va qarashlari ijtimoiy axloq me'yorlariga mos kelmasligini qoralash – bu jarayonda o'quvchining xulqi bevosita tanqid qilinadi;

jamoaviy tanqid o'rniga o'quvchida o'z-o'zini tanqid malakalarini shakllantirish – bunda o'quvchi o'z harakatlariga ob'ektiv baho berishga, sinfdoshlar uning harakatidan noroziligi ekani sababini o'ylab ko'rishga undaladi,

o‘quvchini jamoaviy ijtimoiy ahamiyatli faoliyatga jalb qilish – bu jarayonda o‘quvchi jamoaviy ishlarga o‘z munosabatini bildiradi, sinfdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat yurita olish qobiliyatiga egaligini ko‘rsata olishi talab qilinadi.

Korreksiyalashda o‘quvchining salbiy nuqsonlarini bartaraf qilish maqsadida u bilan individual ishlash foydali sanaladi. O‘quvchi bilan individual ishlashda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

ijtimoiy topshiriqni bajarishga o‘quvchining ichki imkoniyatini safarbar qilish – buning natijasida o‘quvchining ichki imkoniyatlari yuzaga chiqadi, ijtimoiy-foydali ko‘nikma, malakalar o‘zlashtiriladi, unda ijtimoiy topshiriqlarni bajarishga nisbatan ehtiyoj yuzaga keladi;

hayotiy maqsadni aniqlashtirishga bo‘lgan intilishni faollashtirish – bunda o‘quvchi bilan birgalikda kundalik faoliyat tartibi (boshlangan ishni oxiriga yetkazish, bir vaqtning o‘zida ko‘p vazifalarni bajarmaslik, har qanday ishni sifatli bajarish, uning samaradorligini baholash, yo‘l qo‘yilgan xatolarni tahlil qilish);


o‘rin almashtirish – o‘quvchi faoliyatidagi doimiy muvaffaqiyatsizlik negizida yutuqlarga erishishni ta‘minlash;

o‘quvchining qadr-qimmatini rag‘batlantirish, o‘zini o‘zi hurmat qilishini yoqlash – unga imkoniyatlariga mos keladigan faoliyat turini taklif qilish, muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan ishonchini qo‘llab-quvvatlash, qiyin vaziyatlarga ko‘mak berish;

talabchan ohangda ishonch bildirish – bunda o‘quvchiga ijtimoiy topshiriqni bajarish muhimligini tushuntirish bilan birga uning yondashuvi qo‘llab-quvvatlanadi, bu faoliyatda o‘quvchining u tomonidan nimaningdir o‘zlashtirib olishga bo‘lgan umidi mustahkamlanadi;

o‘quvchini ijtimoiy faoliyatga jalb qilganda izchillikka erishish – bunda uning faoliyati rag‘batlantiriladi – e‘tirof qilinadi – qo‘llab-quvvatlanadi, e‘tirof qilinadi – topshiriqni bajarish, ijtimoiy-foydali ish jarayonida ixtiyoriy qatnashishi yuzasidan qaror qabul qilishiga imkon beriladi¹²⁹.

Pedagogik diagnostika va korreksiyada o‘quvchining salbiy nuqsonlarini bartaraf qilish muayyan tamoyillarga muvofiq tashkil qilinadi. Ular (33-rasm):



33-rasm. Korreksiyalash (pedagogik tuzatish)ning ustuvor tamoyillari

¹²⁹ Липина С.И. Коррекция отклоняющегося поведения подростков // <https://urok.1sept.ru/articles/635871>.

1. Maqsadga muvofiqlik tamoyili. Ijtimoiy faoliyatda maqsad qonun maqomiga ega bo'lib, shaxs harakatlarining xarakteri va uslubini belgilaydi. Korreksiyalashda shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishning umumiy maqsadlari inobatga olingan holda o'quvchining ijtimoiy me'yordan og'ish holati kuzatilgan xulqni tuzatish asosiy maqsad sifatida belgilanadi.

2. Korreksion jarayonining tizimligi va yaxlitligi tamoyili. Agarda pedagogik jarayon yaxlit tizim sifatida qaralsa, korreksiyalash o'zaro bog'liq tarbiyaviy xarakterdagi elementlardan biri hisoblanadi. Yaxlitlik korreksion faoliyatni tashkil etishda ichki va tashqi omillarni, o'quvchining ichki imkoniyati, mavjud pedagogik shart-sharoitlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

3. Korreksion jarayonni insoniylashtirish tamoyili. Ushbu tamoyil jamiyat va shaxs maqsadlarining uyg'unlashtirish zarurligini, ta'lim jarayonining bolaning shaxsiy imkoniyatlari, uning qiziqishlari va ehtiyojlariga yo'nalishini belgilaydi. Korreksion jarayonning markazida o'quvchi shaxsi turishi, shu sababli rivojlantiruvchi dasturlarning o'quvchining ichki imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga xizmat qilishiga erishish asosiy vazifa ekanini anglatadi.

4. Korreksion jarayonda insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligi tamoyili. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, unga oqilona, talabchanlik asosida yondashishni ifodalaydi. Oqilona ifodalangan talab o'quvchining shaxsiy fazilatlarini ijobiy rivojlantirish imkonini beradi. Binobarin, o'quvchining ehtiyojlari avvaldan belgilangan pedagogik jarayonning ob'ektiv maqsadiga muvofiq kelishi tarbiyaning muhim sharti sanaladi. O'quvchi nafaqat ijtimoiy talabni anglashi, balki uni sifatli, kutilganidek puxta bajara olishi ishonishi zarur.

O'quvchining xulqiga nisbatan pedagogik talabni qo'yishda uning qadr-qimmatini, g'ururiga dalil qilinmasligi, haq-huquqi poymol bo'lmasligi muhim.

5. O'quvchining ichki imkoniyatiga tayanish tamoyili. O'qituvchi va ot-onalar o'quvchiga nisbatan insonparvarlik ruhida, hurmat bilan munosabatda bo'lishi, uning fe'l-atvori, xulqidagi salbiy xususiyatlarini o'z vaqtida ang'lay olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Korreksion jarayonda eng to'g'ri yo'l – o'quvchining salbiy odatlarini uning ijobiy fazilatlariga tayangan holda nuqsonlarni bartaraf qilib borish hisoblanadi.

Korreksiyalash jarayonida muvaffaqiyatga erishgan o'quvchida o'ziga, o'z kuchiga bo'lgan ishonch shakllanadi. U quvonch hissini tuyadi, o'zini o'zi hurmat qila boshlaydi. O'quvchi ichki qoniqishni his qiladi, muvaffaqiyatga ishonchi ortadi. Natija uning oldiga qo'yiladigan ijtimoiy vazifalarni sidqidildan bajaradi.


6. O'quvchining ijtimoiy faolligi tamoyili. Pedagogik tuzatish jarayonining muhim bo'g'ini o'quvchining ijtimoiy faolligini oshirishdir. Bordi-yu, o'quvchi ijtimoiy jihatdan faollashsa, xulqidagi nuqsonlarni bartaraf qilish zarurligini o'zi ang'lab yetadi. Ana shu maqsadda tashkil etilayotgan jarayonni tezlashishini istaydi. Korreksiyalash natijasida ijtimoiy faoliyatda, sub'ektlar, xususan, sinfdoshlari bilan munosabatning yaxshilanishiga umid qiladi. Natijada o'quvchi ob'ektdan pedagogik faoliyat sub'ektiga aylanadi. Bu jarayon uzoq va

murakkabdir. Shunga qaramay, o‘qituvchi korreksion faoliyatda ijobiy natijaga erishishni umid qilishi lozim.

7. Korreksion faoliyat yo‘nalishlarining o‘zaro uyg‘unligi. Mazkur tamoyil

ijtimoiy ahamiyatli omillarni yagona nuqtada birlashtirish, barcha imkoniyatlarni o‘quvchi xulqidagi nuqsonlarni bartaraf qilishga safarbar etish orqali pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Zero, korreksiyalash vaqtida o‘qituvchi o‘quvchilar jamoasi hamda ota-onalarning tarbiyaviy ta‘sirini, jamoatchilik fikrini o‘zaro uyg‘unlashtiradi. Buning natijasida ulkan pedagogik ta‘sir maydoni yaratiladiki, bu maydonda o‘quvchining xulqidagi nuqsonlarni samarali bartaraf etish mumkin bo‘ladi.

Me‘yordan xulqiy og‘ish nuqsonlari mavjud o‘quvchilar bilan ishlash muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi. Ular (34-rasm).



34-rasm. Me‘yordan xulqiy og‘ish nuqsonlarini korreksiyalash bosqichlari

Shunday qilib, global axborotlashuv, marginallik (“marginalis” – chekkada turadigan; turli madaniyatlar qorishmasi)ning keskin rivojlanayotganligi, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotga nisbatan qat‘iy ijtimoiy-axloqiy talablarning belgilanmaganligi, “ommaviy madaniyat” ta‘sir ko‘lamining kengayishi umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilari orasida me‘yordan xulqiy og‘ish ko‘rinishlarining faol kuzatilishiga sabab bo‘lmoqda. Me‘yordan xulqiy og‘ishning asosiy turlari (jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va pedagogik)ning xususiyatlarini o‘rganish, ularni tashxislash hamda korreksiyalash “Pedagogik diagnostika va korreksiya” fanining tadqiqot predmeti sanaladi. Korreksiyalash jarayonida ustuvor tamoyillarning aniqlanishi, pedagogik shartlarning inobatga olinishi kutilgan natijani qo‘lga kiritish imkonini beradi.

Nazorat topshiriqlari:

1. “Ijtimoiy xulq ko‘nikmalarini o‘zlashtira olmaslik” deganda nimani tushnasiz?.
2. “Me’yordan xulqiy og‘ish” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
3. Me’yordan xulqiy og‘ishning qanday turlari mavjud?
4. Pedagogik og‘ish nima?
5. Pedagogik og‘ish qanday sabablarga ko‘ra yuzaga keladi?
6. Pedagogik og‘ishni korreksiyalashda nimalarga e’tibor qaratiladi?
7. Ijtimoiy xulq ko‘nikmalarini o‘zlashtira olmaslikni korreksiyalashda qanday tamoyillar ustuvor ahamiyatga ega?
8. Ijtimoiy xulq ko‘nikmalarini o‘zlashtira olmaslikni korreksiyalash qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

Test topshiriqlari:

1. O‘quvchi xulq-atvori, xatti-harakatlarining ijtimoiy, shuningdek, jismoniy va ruhiy rivojlanganlik ko‘rsatkichlariga mos kelmasligi – bu ...
 - a) hayotiy tajribalarni o‘zlashtira olmaslik;
 - b) o‘quv fanlarini o‘zlashtira olmaslik;
 - c) ijtimoiy xulq-atvor ko‘nimalalarini o‘zlashtira olmaslik;**
 - d) ijtimoiy axloq talablarini bilmaslik.
2. Bolaning mo‘tadil rivojlanishida buzilishlarni keltirib chiqaruvchi jismoniy, ruhiy, ixtimoiy yoki pedagogik nuqsonlar – bu ...
 - a) **me’yordan og‘ish;**
 - b) qolipdan chiqish;
 - c) standartga mos emaslik;
 - d) mezoniga mos emaslik.
3. Jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va pedagogik og‘ish. Ular – me’yordan og‘ishning ...
 - a) samarali shakllari;
 - b) yetakchi tiplari;
 - c) muhim ko‘rinishlari;
 - d) asosiy turlari.**
4. ... – shaxsning fiziologik o‘sishi va salomatligida kuzatilayotgan nuqsonlar.
 - a) ijtimoiy og‘ish;
 - b) jismoniy og‘ish;**
 - c) ruhiy og‘ish;
 - d) pedagogik og‘ish.
5. Aqliy faoliyatni tashkil etish, psixologik holatni boshqara olish qobiliyatining butunlay yoki ma’lum darajada yo‘qotilishi – bu ...
 - a) ijtimoiy og‘ish;
 - b) jismoniy og‘ish;
 - c) ruhiy og‘ish;**

d) pedagogik og‘ish.

6. ... – individning to‘laqonli shaxs bo‘lib shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi holatlarning mavjudligi.

a) **ijtimoiy og‘ish;**

b) jismoniy og‘ish;

c) ruhiy og‘ish;

d) pedagogik og‘ish.

7. .. – shaxsning jamiyat tomonidan tan olingan va ijtimoiy munosabatlar uchun ustuvor bo‘lgan ma’naviy-axloqiy qoidalar, me’yorlarga rioya etmasligi.

a) **me’yordan xulqiy og‘ish;**

b) me’yordan to‘laqonli og‘ish;

c) me’yordan qisman og‘ish;

d) me’yordan ruhiy og‘ish.

8. Uzluksiz ta’lim tizimining majburiy bosqichlarida umumiy (kasbiy) fanlari asoslarini o‘zlashtirishda ta’lim standartlari talablarini zarur va minimal darajada bajaraslik yoki bajarishni istamaslik – bu ...

a) ijtimoiy og‘ish;

b) jismoniy og‘ish;

c) ruhiy og‘ish;

d) **pedagogik og‘ish.**

9. Shaxsning jamiyat tomonidan tan olingan va ijtimoiy munosabatlar uchun ustuvor bo‘lgan ma’naviy-axloqiy qoidalar, me’yorlarga rioya etmasligini korreksiyalash – bu

a) ruhiy og‘ishni korreksiyalash;

b) **me’yordan xulqiy og‘ishni korreksiyalash;**

c) jismoniy og‘ishni korreksiyalash;

d) pedagogik og‘ishni korreksiyalash.

10. Maqsadga muvofiqlik, Korreksion jarayonining tizimligi va yaxlitligi, Korreksion jarayonni insoniylashtirish va insonparvarlashtirish, O‘quvchining ichki imkoniyatiga tayanish, O‘quvchining ijtimoiy faolligi, Korreksion faoliyat yo‘nalishlarining o‘zaro uyg‘unligi. Ular - ...

a) me’yordan ruhiy og‘ishni korreksiyalash;

b) **me’yordan xulqiy og‘ishni korreksiyalash;**

c) me’yordan jismoniy og‘ishni korreksiyalash;

d) me’yordan pedagogik og‘ishni korreksiyalash.

Amaliy topshiriq:

1-topshiriq. A.G.Maklakova, S.V.Chernyaninaning “Moslashuvchanlik” nomli ko‘p darajali anketasi yordamida 4 nafar o‘quvchining ijtimoiy muhitdagi roli va o‘rnini aniqlash.

“Moslashuvchanlik” nomli ko‘p darajali anketasi

(A.G.Maklakova, S.V.Chernyanina)

Shkalalar: moslashuvchanlik qobiliyatlari, ruhiy barqarorlik, kommunikativ

xususiyatlar, axloqiy me'yorga egalik

Anketaning maqsadi: moslashuvchanlik qobiliyatlari, ruhiy barqarorlik, kommunikativ xususiyatlar, axloqiy me'yorga egalik kabi o'lchovlar bo'yicha sinaluvchi-o'quvchining moslavchanligini tashxislash

Anketani o'tkazish yuzasidan ko'rsatma:

Javoblar quyida qayd etilgan fikrlarni tasdiqlash/tasdiqlamaslikka ko'ra "Ha" yoki "Yo'q" tarzida beriladi.

Anketa

1. Ba'zan jahlim chiqadi.
2. Odatda ertalab tetik va yaxshi kayfiyatda uyg'onaman.
3. Hozirgi ishchanlik menda avval hech kuzatilmagan.
4. Taqdir menga adolatsizlik qiladi.
5. Menda qabziyat kamdan kam ro'y beradi.
6. Vaqti-vaqti bilan menda uyimizni tashlab ketish istagi uyg'onadi.
7. Vaqti-vaqti bilan kutilmaganda mening kulгим yoki yig'lagim keladi, bu odatdan halos bo'la olmayman.
8. Nazarimda meni hech kim tushunmaydi.
9. Kimdir menga yomonlik qilsa, men ham unga xuddi shunday javob berishim kerak, deb o'ylayman.
10. Ba'zan xayolimga shunday yomon fikrlar keladiki, yaxshisi ular haqida hech kimga gapirmaslik zarur.
11. Qandaydir topshiriq yoki ishni bajarishda diqqatimni jamlashim qiyin bo'ladi.
12. Menda ko'pincha g'alati va g'ayrioddiy tashvish yuzaga keladi.
13. Xulq-atvorim tufayli hech qanday muammoga duch kelmaganman.
14. Bolaligimda bir marta mayda o'g'rilik qilganman.
15. Gohida menda hamma narsani buzish yoki yo'q qilish istagi paydo bo'ladi.
16. Menda ba'zan shunday holat bo'ldiki, o'zimni majburlay olmaganim uchun bir necha kun, hatto bir necha hafta davomida hech narsa qila olmayman.
17. Uyqum uzuq-yuluq, uxlaganimda ko'p bezovtalanaman.
18. Oilamizdagilar men tanlagan ishni ma'qullamaydi.
19. Va'dalarimni bajarmagan paytlarim bo'lgan.
20. Boshim tez-tez og'riydi.
21. Haftada bir marta yoki undan ko'p marta hech qanday arzirli sababsiz birdaniga butun vujudim qizishini his qilaman.
22. Deyarli barcha qonunlar bekor qilinsa yaxshi bo'lardi.
23. Sog'ligimning holati aksariyat do'stlarimning salomatligi bilan xil xil (yomon emas).
24. Bordiyu, ko'chada ko'pdan buyon ko'rishmagan tanishlarim yoki maktabdosh do'stlarimni uchratib qolsam, agar ularning o'zlari men bilan birinchi bo'lib gaplashmasalar, men yonlaridan hech narsa demay o'tib ketaman.
25. Men biladigan aksariyat insonlar menga yoqadi.

26. Men kirishimliman.
27. Ba'zan men o'zimni biror ishga shunday majburlaymanki, bundan atrofda gilarining sabr kosasi to'shladi.
28. Kunning asosiy qismida tushkun kayfiyatda bo'laman.
29. Endilikda men hayotda biror narsaga erishishni umid qilishim qiyin.
30. Menda o'zimga bo'lgan ishonch kam.
31. Ba'zida yolg'on gapiraman.
32. Men odatda hayotni bebaho deb hisoblayman.
33. Men ishonaman, lavozimga ko'tarilish uchun ko'pchilik yolg'on gapiradi.
34. Men yig'ilish va boshqa ijtimoiy tadbirlarda o'z xohishim bilan qatnashaman.
35. Men oila a'zolarimiz bilan juda kam janjallashaman.
36. Ba'zan menda axloq qoidalarini buzish yoki kimgadir zarar yetkazishga bo'lgan kuchli istak uyg'onadi.
37. Men uchun eng qiyin kurash – bu o'zim bilan o'zim kurashish.
38. Tomir tortishish yoki qisilish holati menda juda kam uchraydi (yoki deyarli uchramaydi).
39. Men bilan nima bo'lishi meni tashvishlantirmaydi.
40. Ba'zan, qachonki, o'zimni yomon his qilsam, serzarda bo'lib qolaman.
41. Ko'pincha men biror bir ish noto'g'ri, hatto yomon darajada bajardim, degan o'y-xayolda bo'laman.
42. Ba'zi kishilar buyruq berishni shunchalik yaxshi ko'radiki, men garchi ularning haqligini bilsam ham hamma narsaning teskarisini qilgim keladi.
43. Haqiqatni topish uchun men o'zimni himoya qilishga majbur bo'laman.
44. Nutqim har doim qanday bo'lsa, hozir ham shunday (tez ham, sekin ham emas, xirillamaydi, noaniq ham emas).
45. Oilaviy hayotim ko'pchilik tanishlarimnikidan yaxshi ekaniga ishonaman.
46. Meni tanqid qilishsa yoki menga tanbeh qilishsa, qaerlargadir ketigim keladi.
47. Ba'zan menda o'zimni yoki boshqa birovni xafa qilishim kerak, degan tuyg'u uyg'onadi.
48. Xatti-harakatlarimni atrofimdagi kishilarning odatlari belgilaydi.
49. Bolalikda mening o'z guruhim bor edi, u yerda barcha bir-birining o'rnini bosishga harakat qilardi.
50. Ba'zan kim bilandir janjallashishni xohlayman.
51. O'zim tushunmagan narsalar to'g'risida gapirishimga to'g'ri kelgan.
52. Odatda men tez uxlab qolaman, meni hech qanday fikrlar bezovta qilmaydi.
53. So'nggi yillarda o'zimni yaxshi his qilyapman.
54. Menda hech qachon tomir tortishishi va talvasalar bo'lmagan.
55. Mening vaznim doim bir xil (ozib ham semirib ham ketmayman).
56. Ko'pincha nohaq jazolanganimga ishonaman.
57. Oson yig'layman.
58. Men kamdan kam holatlarda charchayman.

59. Oilamdan kimdir qonunni buzgani uchun jazolansa, men yetarlicha xotirjam bo‘lardim.
60. Xayolimga tushunarsiz uy-xayollar kelaveradi.
61. Tortinchoqligimni yashirish uchun ko‘p kuch sarflashimga to‘g‘ri keladi.
62. Menda bosh aylanishi holati juda kam kuzatiladi (yoki hech qachon kuzatilmaydi).
63. Meni jinsiy tarbiya masalalari o‘ylantiradi.
64. Hozirgina tanishgan kishilar bilan suhbatlashish men uchun juda qiyin.
65. Biror narsa qilmoqchi bo‘lsam, qo‘llarim qaltirayotganini tez-tez sezaman.
66. Qo‘llarim avvalgidek abjir va chaqqon.
67. Kunning asosiy qismida menda umumiy holsizlik kuzatiladi.
68. Ba‘zan, qachonki hijolat bo‘lsam, ko‘p terlayman va bu meni tashvishga soladi.
69. Bugun bajarishim kerak bo‘lgan ishlarni ertangi kunga qoldirishimga to‘g‘ri kelgan.
70. O‘zimni halokatga mahkum shaxs deb hisoblayman.
71. Kimdandir yoki qaerdandir (masalan, magazindan) nimanidir o‘g‘irlash kerak bo‘lganda o‘zimni zo‘rg‘a ushlab turgan holatlarim ham bo‘lgan.
72. Spirtli ichimliklarni juda ko‘p iste‘mol qilganman.
73. Men tez-tez nimalardir to‘g‘risida qayg‘uraman.
74. Bir qancha to‘garak yoki jamiyatlarga a‘zo bo‘lishni xohlayman.
75. Kamdan-kam holatda bo‘g‘ilib qolaman, menda kuchli yurak urishi holati kuzatilmaydi.
76. Umrim davomida burch tuyg‘usiga asoslangan tamoyillarga qat‘i amal qilib kelaman.
77. Shunday bo‘ldiki men uchun haqiqatan muhim bo‘lgani uchun tufayli emas, shunchaki prinsiplarimdan voz kecholmaganligim sababli atrofdagilarga to‘sqinlik yoki ularga qarshi harakat qildim.
78. Meni jarimaga tortishmasa va yaqin atrofda mashinalar bo‘lmasa, ko‘chani kerakli joydan emas, xohlagan joyimdan kesib o‘tishim mumkin.
79. Har doim mustaqil va oila nazoratdan ozod bo‘lganman.
80. Menda shunday tashvishli davrlar bo‘lganki, hatto bir joyda o‘tira olmay qolganman.
81. Ko‘p holatlarda harakatlarim noto‘g‘ri talqin qilinadi.
82. Ota-onam va (yoki) oilamning boshqa a‘zolari meni keragidan ortiq ayblashadi.
83. Kimdir fikrlarimni boshqaradi.
84. Siz bilan nima sodir bo‘lishidan qat‘i nazar atrofdagilar bunga beparvo va befarq bo‘lishadi.
85. Menga barcha bir-birini ustidan kuladigan davrada bo‘lish yoqadi.
86. Maktabda men materialni boshqalarga qaraganda sekinroq o‘rganardim.
87. Men o‘zimga to‘la ishonaman.
88. Hech kimga ishonmaslik – eng xavfsiz holat.

89. Haftada bir yoki undan ko‘p marta juda asabiy va tajang bo‘lib qolaman.
90. O‘rtoqlar davrasida bo‘lganimda suhbat uchun mos mavzuni topishga qiynalaman.
91. Boshqalarni o‘zimdan qo‘rqishga majbur qilishim oson, gohida buni kulgi bo‘lishi uchun qilaman.
92. O‘yinda g‘alabaga erishishni yaxshi ko‘raman.
93. O‘zini aldashlariga yo‘l qo‘ygan kishini aldagan shaxsning xatti-harakatlarini muhokama qilish ahmoqlikdir.
94. Kimdir fikrlarimga ta’sir o‘tkazishga harakat qiladi.
95. Men har kuni ko‘p suv ichaman.
96. Qachonki yolg‘iz qolsam, eng baxtli inson bo‘laman.
97. Qachonki, jinoyatchi qandaydir sababga ko‘ra jazolanmay qolganini bilsam har gal nafratim oshadi.
98. Hayotimda bir yoki bir necha marta shunday holatlar bo‘lganki, kimdir gipnoz orqali meni u yoki bu kabi harakatlarni sodir qilishga majburlaganini his qilganman.
99. Men kamdan-kam holatlarda yonimdagilar bilan birinchi bo‘lib gaplashaman.
100. Men hech qachon qonun bilan to‘qnash kelmaganman.
101. Tanishlarim orasida taniqli odamlar borligidan xursandman, bu ko‘zlarimga quvonch bag‘ishlaydi.
102. Gohida menda hech qanday sababsiz birdaniga g‘ayrioddiy tarzda quvnoqlik yuzaga keladi.
103. Men uchun hayot deyarli har doim zo‘riqishlar bilan kechadi.
104. Maktabda menga sinf oldida gapirish juda qiyin edi.
105. Qachonki, shunga loyiq bo‘lsam, atrofdagilar shunchalik xayrixoh bo‘ladi va meni yoqtirib qoladi.
106. Yaxshi bilmaganim uchun ayrim o‘yinlarni o‘ynashdan bosh tortaman.
107. Menimcha, men ham boshqalar kabi do‘stlarga oson ega bo‘laman.
108. Atrofimda odamlarning bo‘lish men uchun yoqimsiz.
109. Mening omadim kelgan.
110. Men osongina chalkashib ketaman.
111. Oila a’zolarimning ba’zilarini meni qo‘rqitadigan ishlarni qilishadi.
112. Ba’zan o‘z-o‘zidan kulaman va yig‘layman, bu odatimni hech yo‘qata olmayman.
113. Yangi topshiriqni bajarishim yoki yangi ishni boshlashim qiyin.
114. Agarda atrofdagilar menga qarshilik qilmaganida edi, hayotda bundan ham ko‘proq yutuqlarga erishgan bo‘lardim.
115. Nazarimda, meni hech kim tushunmaydi.
116. Tanishlarim orasida menga yoqmaydiganlari ham bor.
117. Atrofdagilarga nisbatan sabrim osonlik bilan yo‘qoladi.
118. Ko‘pincha yangi muhitda vahimaga tushaman.
119. Tez-tez o‘lishni xohlayman.
120. Ba’zida shunchalik jahlim chiqadiki, yotib uxlashim qiyin.

121. Ko‘pincha biror kishini uchratib qolsam, u bilan to‘qnash kelmaslik uchun ko‘chaning narigi tomoniga o‘tib ketaman.

122. Bunga dosh berolmayman deb qo‘rqqanim uchun boshlagan ishimdan voz kechganman.

123. Deyarli har kuni meni qo‘rqitadigan narsadir sodir bo‘ladi.

124. Hatto odamlar orasida ham o‘zimni yolg‘iz his qilaman.

125. Hayotning mazmunini tushunishda bor-yo‘g‘i bitta – yagona to‘g‘ri yondashuv borligiga ishonchim komil.

126. Mehmonga borganimda odatda ko‘ngilochar tadbirlarda qatnashishdan ko‘ra chetda o‘tiranman va kim bilandir yolg‘iz gaplashaman.

127. Menga tez-tez qizishib ketishimni aytishadi.

128. Shunday bo‘lganki, kim bilandir g‘iybat qilganman.

129. Ko‘pincha biror kishini xatolardan ogohlantirmoqchi bo‘lsam, ularning meni noto‘g‘ri tushunishlari men uchun yoqimsiz holat.

130. Men atrofdagilarga maslahat uchun tez-tez murojaat qilaman.

131. Ko‘p holatda, hatto men uchun barcha narsa yaxshi ketayotgan bo‘lsa ham, barcha narsaga befarq ekanimni his qilaman.

132. O‘zimni o‘zim xafa qilishim juda qiyin.

133. Atrofdagilarga ularning xatolarni ko‘rsatishga yoki yordam berishga harakat qilsam, ular ko‘pincha meni noto‘g‘ri tushunadi.

134. Odatda xotirjam insonman va meni ruhiy muvozanatdan chiqarish oson bo‘lmaydi.

135. Qilmishlarim uchun qattiq jazoga loyiqman.

136. Men shunchalik ko‘ngil qolishlarni boshdan kechirganmanki, ularni o‘ylashga o‘zimni majbur qila olmayman.

137. Borgan sayin hech narsaga yaramasligimga ishonib boryapman.

138. Ba‘zan shunday bo‘ldiki, ayrim masalalar muhokama qilinganda ko‘p o‘ylab o‘tirmay boshqalarning fikriga qo‘shilaman.

139. Turli xil baxtsizliklarning sodir bo‘lishidan xavotirga tushaman.

140. E‘tiqodim va qarashlarim mustahkam.

141. Menimcha, qonunni buzmasdan ham undagi “bo‘shliq”ni topishga urinib ko‘rish mumkin.

142. Men uchun yoqimsiz bo‘lgan shunday kishilar borki, ular biror narsa uchun tanbeh olsa yurak-yuragimdan quvonib ketaman.

143. Menda shunday damlar bo‘ladiki, xavotirlar tufayli uxlay olmayman.

144. Men har qanday ijtimoiy tadbirlarda qatnashaman, chunki bu menga odamlar orasida bo‘lishimga imkon beradi.

145. Odamlarni ular bema’ni deb hisoblagan qoidalarni buzgani uchun kechirish mumkin.

146. Menda shu qadar kuchli yomon odatlar borki, ular bilan kurashish befoyda.

147. Men bajonidil notanish kishilar bilan tanishishga tayyorman.

148. Shunday bo‘ladiki, uyatsiz va hatto yaramas hazil ham meni kuldiradi.

149. Agar biror bir ishim yurishmasa, undan darhol voz kechгим keladi.

150. Boshqalarning ko'rsatmalariga amal qilishdan ko'ra o'z rejalarim bo'yicha harakat qilishni afzal ko'raman.

151. Boshqalar qarashlarimdan xabar bo'lishini yoqtiraman.

152. Biror kishi to'g'risida yomon fikrda bo'lsam yoki hatto undan nafratlansam ham undan buni deyarli yashirishga harakat qilmayman.

153. Men asabiy va tez jahli chiqadigan insonman.

154. Menda barcha narsa kutilgandek emas, balki yomon bo'lib chiqadi.

155. Men uchun kelajak umidsizlikdan boshqa narsa emas.

156. U hatto menga yakuniy qarordek tuyulsa ham, atrofdagilar fikrimni osonlikcha o'zgartirishi mumkin,

157. Haftada bir necha marta dahshatli nimadir yuz beradi, degan tuyg'uni boshimdan kechiraman.

158. Ko'pincha charchaganimni his qilaman.

159. Ziyofatlarga borishni, shunchaki do'stlar davrasida bo'lishni yoqtiraman.

160. Nizolar va qiyin vaziyatlardan qochishga harakat qilaman.

161. Tez-tez narsalarni qaerga qo'yganimni unutganimdan jahlim chiqadi.

162. Menga sevgi to'g'risidagi hikoyalardan ko'ra ko'proq sarguzashtlar yoqadi.

163. Biror narsa qilishni xohlasam, biroq, atrofdagilar buni qilmasligi kerak deb hisoblasalar, men o'z niyatlarimdan osongina voz kechaman.

164. Qo'llaridan kelganicha hayotdan barcha narsalarni olishga harakat qilayotgan kishilarni muhokama qilish ahmoqlikdir.

165. Boshqalarning men haqimda nima deb o'ylashi meni qiziqtirmaydi.

2-topshiriq. Anketa natijalarini hisoblang va qayta ishlang.

Test natijalarini qayta ishlash va izohlash

Test uchun ochqich

Ishonchlilik (I)

“Yo‘q”: 1, 10, 19, 31, 51, 69, 78, 92, 101, 116, 128, 138, 148.

Moslashuvchan qobiliyatlar (MQ)

“Ha”: 4, 6, 7, 8, 9, 11, 12, 14, 15, 16, 17, 18, 20, 21, 22, 24, 27, 28, 29, 30, 33, 36, 37, 39, 40, 41, 42, 43, 46, 47, 50, 56, 57, 59, 60, 61, 63, 64, 65, 67, 68, 70, 71, 72, 73, 75, 77, 79, 80, 81, 82, 83, 84, 86, 88, 89, 90, 91, 93, 94, 95, 96, 98, 99, 102, 103, 104, 106, 108, 109, 110, 111, 112, 113, 114, 115, 117, 118, 119, 120, 121, 122, 123, 124, 125, 126, 129, 131, 133, 135, 136, 137, 139, 141, 142, 143, 145, 146, 149, 150, 151, 152, 153, 154, 155, 156, 157, 158, 161, 162, 164, 165.
“Yo‘q”: 2, 3, 5, 13, 23, 25, 26, 32, 34, 35, 38, 44, 45, 48, 49, 52, 53, 54, 55, 58, 62, 66, 74, 76, 85, 87, 97, 100, 105, 107, 127, 130, 132, 134, 140, 144, 147, 159, 160, 163.

Ruhij barqarorlik (RB)

“Ha”: 4, 6, 7, 8, 11, 12, 15, 16, 17, 18, 20, 21, 28, 29, 30, 37, 39, 40, 41, 47, 57, 60, 63, 65, 67, 68, 70, 71, 73, 75, 80, 82, 83, 84, 86, 89, 94, 95, 96, 98, 102, 103, 108, 109, 110, 111, 112, 113, 115, 117, 118, 119, 120, 122, 123, 124, 129, 131, 135, 136, 137, 139, 143, 146, 149, 153, 154, 155, 156, 157, 158, 161, 162.

“Yo‘q”: 2, 3, 5, 23, 25, 32, 38, 44, 45, 49, 52, 53, 54, 55, 58, 62, 66, 87, 105, 127, 132, 134, 140.

Kommunikativ xususiyatlar (KX)

“Ha”: 9, 24, 27, 33, 46, 61, 64, 81, 88, 90, 99, 104, 106, 114, 121, 126, 133, 142, 151, 152.
 “Yo‘q”: 26, 34, 35, 48, 74, 85, 107, 130, 144, 147, 159.

Axloqiy me‘yorga egalik (AME)

“Ha”: 14, 22, 36, 42, 50, 56, 59, 72, 77, 79, 91, 93, 125, 141, 145, 150, 164, 165.
 “Yo‘q”: 13, 76, 97, 100, 160, 163.

Sinov natijalarini qayta ishlash

Natijalarni qayta ishlash sinaluvchi- o‘quvchi javoblarining har bir shkala bo‘yicha kalitga muvofiq kelgan ko‘rsatkichlarni hisoblash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Sinaluvchi-o‘quvchining o‘zini bir qadar ijtimoiy jihatdan boshqalarga yoqimli bo‘lishga intilishini baholash uchun qayta ishlash “Aniqlik” (A) shkalasidan boshlanadi. Agarda sinaluvchi-o‘quvchi “Aniqlik” (A) shkalasi bo‘yicha 10 balldan yuqori ball to‘plasa, u holda test natijasini shubhali deb hisoblash kerak va tushuntiruvchi suhbatdan so‘ng test topshiriqlari qaytadan yechiladi.

Ballarni mezonlarga o‘tkazish jadvali

Shkalalarning nomlari va ochqichga mos keladigan javoblar miqdori

Qatorlar	MQ	RB	KX	AME
1.	62->	46->	27-31	18->
2.	51-61	38-45	22-26	15-17
3.	40-50	30-37	17-21	12-14
4.	33-39	22-29	13-16	10-11
5.	28-32	16-21	10-12	7-9
6.	22-27	13-15	7-9	5-6
7.	16-21	9-12	5-6	3-4
8.	11-15	6-8	3-4	2
9.	6-10	4-5	1-2	1
10.	1-5	0-3	0	0

Test natijalarini izohlash

“Moslashuvchanlik” metodikasining asosiy shkalalarini izohlash

Shkala-larning nomi	Fazilatning rivojlanish darajasi	
	O‘rtachadan past (1-3-qatorlar)	O‘rtachadan yuqori (7-10-qatorlar)
RB	Asab-ruhiy buzilishga og‘ishni aniqlovchi xulqiy o‘z-o‘zini boshqarishning past darajasi, o‘z-o‘zini yuqori baholash bilan real harakatni anglash o‘rtasida muvofiqlikning mavjud emasligi	Asab-ruhiy barqarorlik va xulqiy o‘z-o‘zini boshqarishning yuqori darajasi, o‘z-o‘zini yuqori baholash bilan real harakatni anglash o‘rtasidagi yuqori muvofiqlik
KX	Kommunikativ qobiliyatlar rivojining past darajasi, atrofdagilar bilan aloqa o‘rnatishdagi qiyinchiliklar, tajovuzkorlikning namoyon bo‘lishi, ziddiyatga kirishishning ortishi	Kommunikativ qobiliyatlar rivojining yuqori darajasi, atrofdagilar bilan aloqani oson o‘rnatish, ziddiyatli emaslik
AME	Jamoadagi o‘rni va rolini munosib baholay olmaydi, umum qabul qilgan xulqiy me‘yorlarga rioya qilishga intilmaydi	Jamoadagi o‘rni va rolini to‘g‘ri baholaydi, umum qabul qilgan xulqiy me‘yorlarga rioya qilishga intiladi

“Moslashuvchanlik qobiliyati” (MQ) shkalasi bo‘yicha yakuniy baholashga ball ko‘rsatkichlarini uchta shkala bo‘yicha jamlash yo‘li bilan erishiladi. Bu holat formulada quyidagicha ifodalanadi:

$$MQ = \text{“RB”} + \text{“KX”} + \text{“AME”}$$

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Дудина М.М., Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во Рос.гос.проф.-пед. унив-та. 2016. – 190 с.
2. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.
3. Pedagogik diagnostika / Ma’ruza matnlari. Tuzuvchi: X.Raxmatova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 100 b.
4. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika / O‘quv-metod.qo‘ll. – 2014. – 96 b.

XOTIMA

Zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika g'oyalarini amaliyotda qo'llash didaktik va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy, metodik, tashkiliy, amaliy jihatdan to'g'ri tashkillashtirilishini ta'minlaydi. O'quvchilar tomonidan BKMning samarali o'zlashtirilishi uchun sharoit yaratadi. Qolaversa, pedagogik jarayonda muayyan kamchiliklar ko'zga tashlansa, ularni tezkor bartaraf etish, istiqbol vazifalarni oqilona belgilashga yordam beradi.

Bugungi kunda har bir o'qituvchi har o'qituvchi pedagogik diagnostika asoslarini puxta bilishi, bu boradagi mavjud bilimlaridan ta'lim va tarbiya jarayonida samarali foydalana olishi zarur. Zero, shunda pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlash va o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan shaxs etib tarbiyalashga erishiladi.

O'qituvchining pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq qilishda ustuvor tamoyillari, pedagogik tashxislash darajalari hamda bosqichlaridan yetarlicha xabardor bo'lishi tegishli jarayonni samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyatni tashxislash afaqat o'qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlariga egaligi, shu bilan birga uning pedagogik faoliyatni tashxislashning metodik jihatlaridan xabardorli hamda pedagogik diagnostikani metodik jihatdan to'g'ri, oqilona tashkil etishga tayyorligi to'g'risi bir to'xtamga kelishga yordam beradi.

Pedagogik tadqiqotlar ta'lim samaradorligini oshirish ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. So'nggi yarim asrlik vaqt oralig'ida ob'ektiv va sub'ektiv omillarni inobatga olgan holda ta'lim samaradorligini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda bu borada bir qator yondashuvlar (m: texnologik, innovatsion, majmuaviy yondashuv)ning ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati katta ekanligi aytilmoqda.

Pedagogik diagnostika va tadqiqotni tashkil etishda o'lchash muhim ahamiyatga ega. Zero, o'lchash ishini metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish tashxislash va tadqiqotning samarali borishini ta'minlaydi. Pedagogik jarayonlarda o'lchashning bir necha turidan foydalaniladi. Ular orasida shkalalash alohida o'rin tutadi. Shkalalashda boshlang'ich amaliy natijalar shkalalarga asoslanuvchi baholashga o'tkaziladi. Muayyan turdagi shkalalash belgilangan tartibda o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari, shuningdek, ularda ma'lum sifatning tarbiyalanganlik darajasini o'lchash va baholashga imkon beradi. Shu sababli o'qituvchi va tadqiqotchilar pedagogik o'lchash ishlarini amalga oshirishga oid bilimlardan xabardor bo'lishi orqali tashxislash hamda tadqiqot jarayonini samarali tashkil etish malakalarini o'zlashtira olishlari zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarning o'zlashtirilganligi pedagogik nazorat yordamida aniqlanadi va baholanadi. Pedagogik nazoratni tashkil etishda o'qituvchining uning asoslari, xususan, turlari, funksiyalari, tamoyillari, mazmuni hamda imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi maqsadni to'g'ri shakllantirish, jarayonni tashkiliy-metodik jihatdan oqilona tashkil etishiga yordam beradi.

So‘nggi yarim asrlik vaqt oraliq‘ida ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarni inobatga olgan holda ta‘lim samaradorligini oshirishga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda bu borada bir qator yondashuvlar (m: texnologik, innovatsion, majmuaviy yondashuv)ning ta‘lim samaradorligini ta‘minlashdagi ahamiyati katta ekanligi aytilmoqda. Ana shunday yondashuvlardan yana biri tashxisli yondashuvdir. Pedagogik amaliyot tashxisli yondashuv, shu jumladan, P.I.Tretyakov tomonidan asoslangan “Ta‘lim olganlik darajasini tashxislash” va G.A.Ruskiy tomonidan ishlab chiqilgan “O‘quvchilarning o‘quv materailari matni bilan mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tashxislash” kabi metodikalarning ta‘lim, tarbiya jarayonini tashkil etishda alohida amaliy qiymatga egaligini tasdiqlaydi.

Global axborotlashuv sharoitida shaxsning ta‘lim olganlik darajasini tashxislash, unda kreativlik sifatlarini rivojlantirish dolzarb pedagogik masala sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Ushbu vazifaning samarali hal qilishda pedagogik tashxislash muhim ahamiyatga ega. Ta‘lim jarayonida P.I.Tretyakovning “Yaqin va bevosita rivojlantiruvchi hududni tashxislash” hamda G.A.Ruskiyning “Bilimlar tizimini o‘zlashtirganlik darajasini tashxislash” metodikasi, shuningdek, o‘quvchining kreativ fikrlash qobiliyatiga egaligini tashxislovchi metodlar: “Aqliy hujum”, “Oltita rangli qalpoqcha”, “Morfologik quti” (“Morfologik tahlil”), “Fokal ob‘ektlar”, “Sinektika”, “Mental xarita” (“Idrok xaritasi”), “Bilvosita strategiyalar” kabilarning didaktik imkoniyatidan foydalangan holda tashxislashni amalga oshirish samarali natijalarni beradi.

Tarbiyaning mazmunida shaxsni har tomonlama tarbiyalash uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan faoliyat mohiyati namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tashxislash va natijalarni tahlil qilish bir qator afzalliklarni kafolatlaydi. Tashxislash orqali o‘quvchining tarbiyalanganlik darajasi – unda ma‘lum sifatning mavjudlik holati to‘g‘risidagi ma‘lumot qo‘lga kiritiladi. Qolaversa, tashxislash natijasida olingan natijalarga tayangan holda o‘quvchida yangi ma‘naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ana shu maqsadda individual ishlash dasturini ishlab chiqishga muvaffaq bo‘linadi. Tarbiyalovchi vaziyatlar o‘quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, tarbiyalovchi vaziyatlarga tahliliy yondashish pedagogik jarayonning yutuq va kamchiliklarini o‘rganish imkonini beradi. Muvaffaqiyatli vaziyat o‘quvchilarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini tarbiya qilish, o‘z-o‘zini baholash va boshqarishda asosiy omillardan biri bo‘lib qoladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonining yaxlit tizimini yaratish, tizim asosida pedagogik faoliyatni olib borishda pedagogik diagnostika tamoyillariga tayanish ko‘zlangan maqsadning ijobiy yechimini topishga yordam beradi. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda ular o‘rtasida kasb-hunar asoslari borasidagi nazariy bilimlarni targ‘ib etish, ularda ma‘lum kasb yoki hunar yo‘nalishida dastlabki ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga e‘tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Inson kapitali va undan samarali, oqilona foydalanishga bo‘lgan ehtiyojning yuzaga kelishi ayni vaqtda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari oldiga o‘quvchilarni kasbga samarali yo‘naltirish vazifasini qo‘ymoqda. O‘quvchilarning muayyan kasb yoki hunarga bo‘lgan qiziqish va

qobiliyatini tashxislash ularni kasbga yo'naltirish jarayonining samarali kechishiga yordam beradi. Tashxis xarakteriga ega metod va mualliflik metodiklari ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Jamoa bir necha a'zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon qiladi. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, u ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlariga ko'ra to'rt bosqichdan iborat bo'ladi. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Jamoaning mustahkam bo'lishi, a'zolari o'rtasida o'zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarga egaligi shaxsning ruhiy, jismoniy, axloqiy jihatdan kamolga etishida muhim o'rin tutadi. Shu sababli pedagogik diagnostikada har oilaning tarbiyaviy imkoniyatga egaligini o'rganish, uning darajasini tashxislashga e'tibor qaratiladi. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarga egaligini tashxislashda uning farzandlarni har jihatdan sog'lom qilib tarbiyalovchi omillar, sharoitlar, xususan, sog'lom muhit va sog'lom turmush tarzi ega bo'lish hamda farzandlarni oilaviy hayotga samarali tayyorlashdagi kuch-quvvati, qobiliyati o'rganiladi. Bu yo'nalishda tashxislashni amalga oshirish oilaning farzandlar tarbiyasidagi o'rni va rolini kuchaytirish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish choralari belgilashga yordam beradi.

Pedagogik diagnostikaning muhim tarkibiy elementi, tashxislash natijasida aniqlangan salbiy holatlarni bartaraf etishning natijasi korreksiyalash (pedagogik tuzatish) sanaladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ko'p kuzatiladigan salbiy hodisalar fanlarni o'zlashtira olmaslik hamda xulqiy me'yordan og'ish sanaladi. Pedagogik tashxislash natijalariga ko'ra tashkil etiladigan korreksiyalash (pedagogik tuzatish) fanlarni o'zlashtira olmaslik hamda xulqiy me'yordan og'ish kabi salbiy holatlarni to'liq yoki qisman bartaraf qilish imkonini yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kuzatiladigan fanlarni o'zlashtira olmaslik o'quvchining o'qish, hisoblash, tahlil qilish va sintezlash qobiliyatining pastligi, mantiqiy fikrlash olmaslik, fikrni og'zaki hamda yozma bayon qila olmaslik kabilar bilan izohlanadi. Fanlarni o'zlashtira olmaslik bir qator pedagogik, ijtimoiy, psixologik va biologik sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Korreksiyalash (pedagogik tuzatish)da fanlarni o'zlashtira olmaslikni keltirib chiqaruvchi sabablarni o'rganish, uning darajasini tashxislash muhim ahamiyatga ega. Maqsaddan kelib chiqqan holda o'quvchilarning fanlarni o'zlashtira olmasligini korreksion faoliyat bir necha bosqich (pedagogik tashxislash, pedagogik konsilium, tibbiy tekshirish va tahlil, ota-onalar uchun psixologik-pedagogik maslahat, korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, pedagogik refleksiya, pedagogik strategiya)da amalga oshiriladi.

Global axborotlashuv, marginallik ("marginalis" – chekkada turadigan; turli madaniyatlar qorishmasi)ning keskin rivojlanayotganligi, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotga nisbatan qat'iy ijtimoiy-axloqiy talablarning belgilanmaganligi,

“ommaviy madaniyat” ta’sir ko‘lamining kengayishi umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari orasida me’yordan xulqiy og‘ish ko‘rinishlarining faol kuzatilishiga sabab bo‘lmoqda. Me’yordan xulqiy og‘ishning asosiy turlari (jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va pedagogik)ning xususiyatlarini o‘rganish, ularni tashxislash hamda korreksiyalash “Pedagogik diagnostika va korreksiya” fanining tadqiqot predmeti sanaladi. Korreksiyalash jarayonida ustuvor tamoyillarning aniqlanishi, pedagogik shartlarning inobatga olinishi kutilgan natijani qo‘lga kiritish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Rasmiy adabiyot va elektron manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014. – 46 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining yangi tahriri (2019 yil 12 dekabr) // <https://regulation.gov.uz/uz/document/7093>.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” /Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 31-61-b.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 227-b.
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 14-b
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2018 yil 5 sentyabr) PF-5538-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/3893445>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son (2020 yil 6 noyabr) Qarori // <https://lex.uz/docs/5085887>.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019 yil 29 aprel) PF-5712-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/4312785>.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-son (2020 yil 7 avgust) Qarori // <https://www.lex.uz/ru/docs/4945840>.
10. “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi”ning Ustavi // [https://nrm.uz/contentf?doc=547263_o'zbekiston_respublikasi_xalq_talimi_vazirligining_o'quvchilarni_kasb-hunarga_yo'naltirish_va_psixologik-pedagogik_respublika_tashhis_markazi_ustavi_\(o'zr_vm_01_12_2017_y_961-son_qaroriga_3-ilova\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=547263_o'zbekiston_respublikasi_xalq_talimi_vazirligining_o'quvchilarni_kasb-hunarga_yo'naltirish_va_psixologik-pedagogik_respublika_tashhis_markazi_ustavi_(o'zr_vm_01_12_2017_y_961-son_qaroriga_3-ilova)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana).

II. Bosma adabiyotlar:

11. Выготский Л.С. Диагностика развития и педологическая клиника трудного детства // Собрание сочинений: в 6 т. Т. 5. - М.: Наука, 1983. – С. 257-321.
12. Большая психологическая энциклопедия / Самое полное современное издание. – М.: Эксмо, 2007. – С. 160.
13. Гельмонт А.М. О причинах неуспеваемости и путях ее преодоления. – М.: Просвещение, 2004. – С. 326.

14. Гутник И.Ю. Зачем нужна педагогическая диагностика? // Учитель на все времена. Материалы XXXII Всероссийской научно-практ. конф. – М.: Педагог, 2011. – С. 183.
15. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 5-17.
16. Инназаров М.А. Малака ошириш тизимида педагог кадрлар касбий компетентлигини таъхислаш ва баҳолаш технологиялари: пед.фанл.бўйича PhD ...дис. – Т.: 2020. – 35-52-б.
18. Kasbga yo‘naltirish o‘quv-metodik kabinetini / O‘qituvchilar uchun kitob. – Т.: O‘qituvchi, 1989. – 120 б.
18. Касбга йўналтириш ўқув-методик кабинети / Ўқитувчилар учун китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1989. – 120 б.
19. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов-на-Дону. Феникс. 1996. – 264 с.
20. Колесникова Г.И. Основы психокоррекции – Ростов на-Дону: Феникс, 2005. – С. 324.
21. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Педагогика, 1990. – 28.
22. Михалычев Е.А. К понятийному аппарату педагогической диагностики // Педагогическая диагностика. – 2006. – № 2 . – С. 57.
23. Набиев Ғ.А. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг иқтисодий муносабатларга киришиш кўникмаларини ривожлантириш технологиялари (“Иқтисодий билим асослари” фани мисолида): пед.фанл.бўйича фанл.дис. (PhD) ... дис. – Наманган: 2021. – 85-87-б.
24. Оила психологияси / Проф. Ғ.Б.Шоумаров таърифи остида. Ғ.Б.Шоумаров ва б. – Т.: “Sharq”, 2008. – 47-62-б.
25. Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 72-316-б.
26. Педагогика. Катта изоҳли луғат / М.Усмонбоева, Ф.Асқарова. – Т.: “Сано-стандарт”, 2017. – 14-282-б.
27. Педагогика / Нопедагогик ОТМ учун мўлжалланган дарслик. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, Д.И.Рўзиева, М.Ҳ.Усмонбоева. – Т.: “Фан” нашриёти, 2012. – 133-б.
28. Педагогика назарияси ва тарихи. 1-қисм. Педагогика назарияси / Дарслик. М.Х.Тохтаходжаева ва б. Проф. М.Х.Тохтаходжаевнинг умумий таърифи остида. – Т.: “Moliya-iqtisod”, 2007. – 118-196-б.
29. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет.кўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Т.: ТДПУ, 2012. – 179-б.
30. Пермяков О.Е., Менькова С.В. Диагностика формирования профессиональных компетенций. – М.: ФИРО, 2010. – С. 33.
31. Польшина М.А. Самооценка как фактор психологической защищенности личности подростков с отклонениями в развитии // Научно-методический электронный журнал “Концепт”. – Киров: 2018. – Т. 20. – С. 71.
32. Профессиональная ориентация молодёжи / А.Д.Сазонов и др. – М.: Высшая школа. 1990. – С. 10-50.

33. Умаров С.Б. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини касб-хунарга йўналтириш технологиялари (ҲI-IX синфлар мисолида): пед.фанл.номз. ...дис. – Т.: 2005. – 154 б.

34. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тартибот – Шукр / 5 жилдли. Тўртинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 367-б.

35. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Шукрона – Ҳ / 5 жилдли. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев таҳр.остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 561-б.

III. Elektron manbalar:

36. Аванесов В.С. Определение, предмет и основные функции педагогической диагностики // <http://testolog.narod.ru/Obrasov21.html>.

37. Акулина А.В. Педагогическая коррекция неуспеваемости учащихся начальных классов // <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskaya-korreksiya-neuspevaemosti-uchaschihsya-nachalnyh-klassov>.

38. Анкета № 12 диагностика нравственной воспитанности (5-8 классы) // <https://gigabaza.ru/doc/68320.html>.

39. Биография Александра Сергеевича Пушкина (1799-1837) // <https://pushkinland.ru/2018/pushkin/push1.php>.

40. Валидность // <https://ru.wikipedia.org/wiki/Валидность>.

41. Воспитательный потенциал семьи // https://studme.org/1527092124184/pedagogika/vospitatelnyu_potentsial_semi.

42. Выдвижение и обоснование научной гипотезы // <https://www.internauka.org/blog/vydvizhenie-i-obosnovanie-nauchnoy-gipotezy>.

43. Гребенникова Л.В. Диагностика профессиональной компетентности учителя // <https://kopilkaurokov.ru/zavuchu/planirovanie/diagnostika-professionalnoi-kompetentnosti-uchitelia>.

44. Демьянович О.В. Самооценка как социально-психологический феномен // <http://www.sch612.edusite.ru/samoocenka.pdf>.

45. Диагностика // <http://referat-kurovaya.repetitor.info>.

46. Контент-анализ – описание метода // <https://psyfactor.org/lib/kontent.htm>.

47. Криллова А.В. Повышение эффективности и качества урока на этапе закрепления материала / <http://kirillova.nsknet.ru/metodika-prepodavaniya-anglijskogo-jazyka-v-povyshenie-effektivnosti-i-kachestva-uroka..>

48. Курбатова Е.И. Воспитательный потенциал семьи // <https://urok.1sept.ru/articles/412578>.

49. Лекция 5. Анализ данных // https://tsput.ru/res/informat/mop/lections/lection_5.htm.

50. Лекция 7. Педагогические измерения. // http://koi.tspu.ru/koi_books/samolyuk/lek7.htm.

51. Липина С.И. Коррекция отклоняющегося поведения подростков // <https://urok.1sept.ru/articles/635871>.

52. Манаев О.Т. Контент-анализ как метод исследования // <https://psyfactor.org/lib/content-analysis3.htm>.
53. Методики развития креативности // http://moluch.ru/rules/?utm_source=selfad&utm_medium=popup&utm_campaign=archive.
54. Метод, методология, методика, инструмент // https://studme.org/144026/psihologiya/metod_metodologiya_metodika_instrument.
55. Педагогическая диагностика // https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Pedagog/konspekt/66.php.
56. Предмет педагогической диагностики и ее историческое развитие // <http://lib4all.ru/base/V2590/V2590Part2-5.php>.
57. Полякова М.Н. Зачем нужна педагогическая диагностика? // <https://nsportal.ru/vuz/pedagogicheskie-nauki/library/2018/05/05/zachem-nuzhna-pedagogicheskaya-diagnostika>.
58. Понятие нормы и отклонения в физическом, психическом, моторном и интеллектуальном развитии человека // <https://katip39.ru/wp-content/uploads/2020/05/Ponyatie-normy-i-otkloneniya-v-fizicheskom-psihicheskom-motornom-i-intellektualnom-razvitii-cheloveka.pdf>.
59. Пудочкина Т.С. Педагогическая диагностика: инструментарий, организация, проведение, обработка и использование результатов // [www/openclass.ru/node/249066](http://www.openclass.ru/node/249066).
60. Расулов И.М. Таълим жараёнида педагогик ташхис тамойилларини қўллаш // <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-zharayonida-pedagogik-tashhis-tamoyillarini-qo'llash>.
61. Самоуправление личности в ситуации выбора профессии // <https://www.mgpru.ru/event/samoupravlenie-lichnosti-v-situatsii-vybora-professii>.
62. Сарсекеева Ж.Е. Информационно-дидактическое обеспечение учебных дисциплин в вузе // http://www.rusnauka.com/25_NPM_2009/Pedagogica/51119.doc.htm.
63. Скрипник Ю. 5 приемов креативного мышления // <https://blog.mann-ivanov-ferber.ru/2016/01/08/5-priemov-kreativnogo-myshleniya>.
64. Тест креативности Торренса. Диагностика творческого мышления // <https://psycabi.net/testy/577-test-kreativnosti-torrensa-diagnostika-tvorcheskogo-myshleniya>; Тест креативности Торранса // http://www.miu.by/kaf_new/mpp/150.pdf.
65. Фаридиддин Аттот (1145-1221) // <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/fors-tojik-sheriyati/fariduddin-attor>.
66. Шапран Ю.П. Диагностика профессиональной компетентности будущих учителей биологии // <https://sibac.info/conf/pedagog/xxii/30254>.
67. Шкалы измерений // https://studme.org/170818/pedagogika/shkaly_izmereniy.
68. Что такое самоконтроль? // <https://wikigrowth.ru/razvitie/samokontrol>.
69. 10 лучших методов генерирования идей // <https://4brain.ru/blog/методы-генерирования-идей>.
70. The Family's Role in a Child's Development // <http://mom.me/kids/5258-familys-role-childs-development>.

GLOSSARIY

Anketa (fr. “enquete” – surishtirish, ma’lumot olish, tekshirish) – og‘zaki yoki yozma ravishda dastlabki ijtimoiy va ijtimoiy-pedagogik ma’lumotlarni olishda qo‘llaniladigan metodik vosita, so‘rov vositasi.

Anketa metodi – pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida dalillar to‘plash maqsadida qo‘llanilib, tizimli savollar yordamida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadigan metod.

Attestatsiya (yoki davlat attestatsiyasi) – bitiruvchilarni tayyorlash darajasi va sifatining rasman belgilangan ta’lim darajasi hamda sifatiga qo‘yiladigan talablar tizimi (DTS)ga mosligini aniqlashga qaratilgan chora-tadbir.

Aqliy rivojlanish – shaxs fikrlash qobiliyati, tafakkurining rivojlanishi, intellektual salohiyati darajasining oshishi

“Aqliy hujum” metodi (Aleks Osborn) – asosiy g‘oyasi shaxsda yangi, ko‘plab g‘oyalar ishlab chiqish, ularni tanqidiy tahlil qilish malakasini shakllantirishdan iborat metod. Unga ko‘ra, o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha har bir o‘quvchi o‘z fikrini bildiradi, yechim yuzasidan o‘z taklifini ilgari suradi. Qolganlar bildirilgan fikrni to‘ldiradi va rivojlantiradi. O‘quvchilar tomonidan bildiriladigan hech bir fikr tanqid qilinmaydi. Barcha o‘quvchilar muammoning yechimi yuzasidan o‘z taklifini bildirgandan so‘nggina ular umumiy holda tahlil qilinadi va eng to‘g‘ri, samarali yechim tanlanadi

“Bilvosita strategiyalar” metodi (Brayan Eno, Piter Shmidt) – turli topshiriq (buyruq)lar yozilgan kartochkalar to‘plamiga tayangan holda yangi g‘oyalarni izlash, asoslash va ilgari surishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan metod.

Grafik kompozisiya – grafikning barcha elementlaridan iborat kombinatsiya.

Guruh – tarbiyalanuvchilarning yosh, psixologik xususiyatiga ko‘ra shakllantirilgan yoki o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalari ta’lim oluvchilarining akademik jamoasi.

Diagnos (tashxis; “diagnosis” – “aniqlash”, “bilish”) atamasi esa “bemorni har tomonlama o‘rganib, uning kasalligini aniqlash”

Diagnostika (tashxislash; yun. “diagnostikos” – “aniqlashga qodirlik”, “aniqlashga imkon berish”) – tegishli sohalarida mavjud muammolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash, nuqson va muammolarni bartaraf qilish yo‘li, usul va tamoyillarini o‘rganish.

Diagramma (yun. “diagramma” – chizma, rasm, shakl) – chiziqli kesmalar shaklida ifodalanuvchi turli miqdorlar o‘rtasidagi munosabatni tasvirlovchi chizma, grafik tasvir. Pedagogik diagnostikada diagrammaning bir nechta turi qo‘llaniladi. Ular:

A. Chiziqli grafik – sonlarda ifodalanadigan ayrim o‘lchovlarning o‘zgarishlarini (masalan, o‘quv yili davomida bitta sinfdagi o‘tkazilgan testlarning o‘rtacha baholaridagi o‘zgarishlari)ni ifodalashga xizmat qiladi.

B. Gistogramma – “Y” o‘qi bo‘ylab guruhning chastota (interval) qiymatlari ifodalanishi asosida ustun (grafa)larning pog‘onali ifodalanishini ta’minlovchi grafik turi.

C. Tebranishli ko‘pburchak (yoki chastotali poligon) – chastotali ko‘pburchak asosida shakllantirilgan gistogramma. Bu turdagi diagrammalar boshqalardan ko‘pburchakda interval chastotasining markazigacha kamayadi, gistogrammada chastotalar intervalning barcha chegaralarida teng ifodalanadi.

D. Tebranishlarni jamlovchi grafik (lot. “cumulatio” – yig‘ilgan, jamlangan; tebranishlar taqsimlanishini jamlovchi grafik) – alohida intervallar jamlanmasining tebranishini, ya’ni, avvalgi barcha intervallarning har bir interval tebranishiga qo‘shilib borishini ifodalovchi diagramma.

E. Diagramma – miqdor ko‘rsatkichlarni turli shakldagi maydon (doira, to‘rtburchak, sektor, silindr, pufakchalar va boshqa)lar ko‘rinishida solishtiradigan grafik.

F. Grafika – natijalar ma’lumotlarini grafik ko‘rsatishning maxsus turi; bu chiziq segmentlari (qirralari) bilan bog‘langan nuqtalardan (tepaliklardan) iborat shakl. Grafik nuqtalari pedagogik jarayonning turli komponentlari, ko‘rsatkichlari, omillari, o‘ziga xos jihatlarni, shuningdek, ular orasidagi munosabat va aloqalarni ifodalashi mumkin. Grafika (u model sifatida taqdim qilinishi ham mumkin) ko‘pincha tajribani bashorat qilishda qo‘llaniladi, Grafika ko‘rsatkichlari ma’lumotlarni umumlashtirish bosqichida yakuniy natijalar bilan o‘zaro solishtiriladi.

Jamoa (lot. “kollektivus”) – yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh.

Ijtimoiy xulq-atvor ko‘nimalalarini o‘zlashtira olmaslik – yosh, psixologik hamda fiziologik nuqtai nazaridan o‘quvchi xulq-atvori, xatti-harakatlarining ijtimoiy, shuningdek, jismoniy va ruhiy rivojlanganlik ko‘rsatkichlariga mos kelmasligi.

Ilmiy faraz – dalil, hodisa yoki jarayonning ishonchli va haqqoniy ekanini tasdiqlash, ikki yoki bir necha hodisa o‘rtasidagi aloqalarni taxmin qilish maqsadida ilgari suriladigan ilmiy bashorat.

Imkoniyat (lot. “potentia” – kuch) – har qanday muammoni hal qilish, aniq maqsadga erishish uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan manba, vosita hamda resurslar; ma’lum bir shaxs, jamiyat, davlatning muayyan soahdagi vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga bo‘lgan quvvati, kuchi, qobiliyati.

Inklyuziv ta’lim (ing. “inclusion” – o‘z ichiga olish, kiritish, uyg‘unlashtirish) davlat siyosati bo‘lib, nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli (tarbiyasi og‘ir, yetim bolalar, turli hil kasalliklarga chalingan ijtimoiy himoyaga muhtoj mayda millat bolalari) maxsus yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarni sog‘lom tengdoshlari bilan birga umumta’lim muassasalarida o‘qitish va tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Intervyu metodi – respondent e’tiboriga turkum savollarni havola etish orqali uning tadqiq etilayotgan muammo, yoki umumiy muammoning biror jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabatini o‘rganish metodi.

Yo'naltirish – shaxsning ish-harakati yoki faoliyatini aniq maqsad asosida muayyan tomonga burish, ma'lum yo'lga solish.

Kasbga yo'naltirish – yoshlar, shu jumladan, o'quvchilarning shaxsiy layoqat, qiziqish va qobiliyatlari, shuningdek, ayni vaqtning o'zida jamiyatning turli kasb mutaxassislari va ularning malaka darajasiga bo'lgan talablarini inobatga olgan holda aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat asosida tashkil etiluvchi ularni muayyan kasbga tayyorlash jarayoni.

Kasb – maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun lozim bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma, malakalar majmuasini egallagan, jismoniy, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlari ta'minlangan mehnat faoliyati (mashg'uloti)ning turi; muayyan shaxsiy sifatlarga tayanilgan holda tashkil etiluvchi mehnat faoliyati, mashg'ulotning ko'rinishidir¹³⁰.

Kasbiy qiziqish – o'quvchilarning muayyan kasb yoki hunar asoslarini o'rganishga bo'lgan intilishi, havasi.

Kasbiy qobiliyat – o'quvchilarning u yoki bu kasb, hunar yo'nalishida amaliy faoliyatni tashkil eta olish layoqati.

Kontent-tahlil metodi (inglizcha “contens”–mazmun) – hujjatlarda aks ettirilgan turli dalillar va an'analarni aniqlash yoki o'lchash maqsadida ularning mazmunini sifat hamda miqdor ko'rsatkichlari asosida tahlil qilish usuli.

“Korreksion pedagogika” (“Maxsus pedagogika”) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, imkoniyatlari cheklangan bolalarni rivojlantirish jarayonini boshqarishni o'rganuvchi fan.

Korreksion faoliyat – pedagogik uslub, tibbiy choralardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatishga qaratilgan pedagogik faoliyat.

Korreksiya (yun. “correctio” – tuzatish; pedagogikada – pedagogik tuzatish) – pedagogik uslub, tibbiy choralardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik, jismoniy rivojlanish kamchiliklarining qisman yoki to'liq tuzatilishi.

Korreksiyalash (pedagogik tuzatish) – o'quvchi shaxsida kuzatilayotgan og'ishlarni tashxislash asosida ularni bartaraf qilishga qaratilgan maxsus hamda umumiy pedagogik chora tadbirlar tizimi; sabablarini tashxislash asosida o'quvchi shaxsida kuzatilayotgan og'ishlarni bartaraf etishga qaratilgan harakat; maxsus hamda umumiy pedagogik chora-tadbirlarning ko'rilishi. Korreksiyalashda o'quvchining salbiy nuqsonlarini bartaraf qilish maqsadida u bilan individual ishlash ham foydali sanaladi. O'quvchi bilan individual ishlashda quyidagi usullar qo'llaniladi:

ijtimoiy topshiriqni bajarishga o'quvchining ichki imkoniyatini safarbar qilish – buning natijasida o'quvchining ichki imkoniyatlari yuzaga

¹³⁰ Профессиональная ориентация молодёжи / А.Д.Сазонов и др. – М.: Высшая школа. 1990. – С. 10.

chiqadi, ijtimoiy-foydali ko'nikma, malakalar o'zlashtiriladi, unda ijtimoiy topshiriqlarni bajarishga nisbatan ehtiyoj yuzaga keladi;

hayotiy maqsadni aniqlashtirishga bo'lgan intilishni faollashtirish – bunda o'quvchi bilan birgalikda kundalik faoliyat tartibi (boshlangan ishni oxiriga yetkazish, bir vaqtning o'zida ko'p vazifalarni bajarmaslik, har qanday ishni sifatli bajarish, uning samaradorligini baholash, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish);

o'rin almashtirish – o'quvchi faoliyatidagi doimiy muvaffaqiyatsizlik negizida yutuqlarga erishishni ta'minlash;

o'quvchining qadr-qimmatini rag'batlantirish, o'zini o'zi hurmat qilishini yoqlash – unga imkoniyatlariga mos keladigan faoliyat turini taklif qilish, muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan ishonchini qo'llab-quvvatlash, qiyin vaziyatlarga ko'mak berish;

talabchan ohangda ishonch bildirish – bunda o'quvchiga ijtimoiy topshiriqni bajarish muhimligini tushuntirish bilan birga uning yondashuvi qo'llab-quvvatlanadi, bu faoliyatda o'quvchining u tomonidan nimaningdir o'zlashtirib olishga bo'lgan umidi mustahkamlanadi;

o'quvchini ijtimoiy faoliyatga jalb qilganda izchillikka erishish – bunda uning faoliyati rag'batlantiriladi – e'tirof qilinadi – qo'llab-quvvatlanadi, e'tirof qilinadi – topshiriqni bajarish, ijtimoiy-foydali ish jarayonida ixtiyoriy qatnashishi yuzasidan qaror qabul qilishiga imkon beriladi.

Ko'rsatkich (lot. “indicator” – ko'rsatkich) – aniq ob'ektda namoyon bo'ladigan qandaydir o'lchov birligi yoki o'zgarish sifati (mezoni). Mezon, uning miqdoriy va sifat tavsifi bo'yicha ob'ektning turli holatlarini muhokama qilishga imkon beradigan o'lchov, chegara. Ko'rsatkich, odatda, o'lchanadigan mezonning tashqi jihatdan juda yaxshi farqlashga imkon beradi.

Mezon (yun. “kriteron” – muhokama (mulohaza qilish) uchun vosita) – unga asoslangan holda baholash amalga oshiriladigan belgi; nimaningdir tavsifi yoki tasnifi; baholash o'lchovi.

“Mental xarita” (yoki “Idrok xaritasi”) metodi (Toni Byuzen) - kreativ fikrlash jarayonining sifatini yaxshilash maqsadida xotirani kuchaytirishga xizmat qiladigan metod.

Metodika – aniq belgilangan maqsadga erishish yo'lida, ma'lum vazifalarni bajarishda foydalaniladigan pedagogik faoliyatning tashkiliy shakllari, metodlari va vositalari jamlanmasi hisoblanadi.

Metod (qad. yun. “μέθοδος” – yo'l, usul; yun. “methodos” – tadqiqot yo'li, usuli) – muayyan maqsadga erishish uchun ma'lum yo'lni, tartib yoki tizimga solingan faoliyat usulini tanlash; ta'lim (tarbiya) maqsadiga erishishning yo'li, usuli; doimiy ravishda rivojlanib va shaklan o'zgarib boradigan usul yoki uslublar, usullar va qadamlar, harakatlar. Mazkur tushuncha turlicha talqin qilinadi. Jumladan, 1) faoliyat usuli; 2) qandaydir faoliyat usullarining majmui; 3) harakat usuli yoki ko'rinishi; 4) harakat tizimi; 5) ta'sir ko'rsatish yo'li; 6) maqsadga erishish uchun tashkil etilayotgan harakat.

Me'yordan og'ish (lot. “defectus” – kamayish, nuqson) – bolaning mo'tadil rivojlanishida buzilishlarni keltirib chiqaruvchi jismoniy, ruhiy, ixtimoiy yoki

pedagogik nuqsonlar. Ijtimoiy sub'ektlar, jumladan, o'quvchilar o'rtasida turli jihatdan "me'yordan og'ish" holatlari kuzatiladi. Ular:

Jismoniy og'ish – shaxsning fiziologik o'sishi va salomatligida kuzatilayotgan nuqsonlar bo'lib, asosan, tibbiy ko'rsatkichlar (tananing og'irligi, bo'yi, hajmi va hokazolar) bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy og'ish – individning to'laqonli shaxs bo'lib shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi holatlarning mavjudligi.

Pedagogik og'ish – uzluksiz ta'lim tizimining majburiy bosqichlarida umumiy (kasbiy) fanlari asoslarini o'zlashtirishda ta'lim standartlari talablarini zarur va minimal darajada bajarmaslik yoki bajarishni istamaslik.

Ruhiy og'ish – aqliy faoliyatni tashkil etish, psixologik holatni boshqara olish qobiliyatining butunlay yoki ma'lum darajada yo'qotilishi.

Me'yordan xulqiy og'ishni korrektsiyalash – shaxsning jamiyat tomonidan tan olingan va ijtimoiy munosabatlar uchun ustuvor bo'lgan ma'naviy-axloqiy qoidalar, me'yorlarga rioya etmasligi kabi nuqsonlarni tuzatish.

Me'yordan xulqiy og'ish – shaxsning jamiyat tomonidan tan olingan va ijtimoiy munosabatlar uchun ustuvor bo'lgan ma'naviy-axloqiy qoidalar, me'yorlarga rioya etmasligi.

Me'yor (tashxislovchi me'yor) – 1) tashxislash jarayonining avvali (boshi) va yakuni (oxiri)da qo'lga kiritilgan natijalarni o'zaro solishtirish uchun xizmat qiladigan standartlashtirilgan o'lchov birliklari, ko'rsatkichlar; 2) o'rganilayotgan shaxs yoki shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfi)ga xos bo'lgan xulq-atvor, ma'lum xatti-harakatni tashkil qilish, shuningdek, ma'lum jarayonga xos xususiyatlarni tadqiq qilish uchun namuna, andoza.

Miqdor – bilish ob'ektining real mavjudligi ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, uni o'xshash qismlarga ajratish imkonini beradi.

"Morfologik quti" ("Morfologik tahlil") metodi (Fris Svikki) –tanlangan ob'ektni unga xos bo'lgan bir nechta belgini saralab olish orqali bir necha tarkibiy qismlarga ajratish, so'ngra ular mohiyatan o'zgartirish va qayta birlashtirish orqali yangi ob'ektni paydo bo'lishini ta'minlovchi metod.

Muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish – muvaffaqiyatli vaziyatlarni kafolatlovchi sharoitlar jamlanmasi yoki ana shu maqsadga yo'naltirilgan amaliy harakatlarni tashkil etish.

Mutaxassislik – biror kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va tajribasi bilan erishilgan zarur bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi¹³¹.

Nazorat (ta'lim jarayonida) – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayoni.

¹³¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида узлуksiz бошланғич, ўрта ва ўрта махсус профессионал таълим тизимини тартибга солувчи норматив-хуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 466-сон (2020 йил 7 август) Қарори // <https://www.lex.uz/ru/docs/4945840>.

Nosog‘lom oila – oila a‘zolari axloqiy e‘tiqod, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalariga ega bo‘lmagan, aksincha, tartibsiz hayot kechiradigan, shaxslararo munosabatlarda axloqsizlik, qo‘pollik, ruhiy bosim ustuvor bo‘lgan, psixologik jihatdan bir-birini tushunmaydigan va o‘zaro qo‘llab-quvvatlamaydigan, moddiy jihatdan ta‘minlanmagan oila.

Ob‘ekt (jarayon)ning sifati uning mavjudligini ta‘minlovchi muhim, barqaror xususiyatlari sanaladi. Shu sababli ob‘ekt (jarayon)ning sifati to‘g‘risidagi ma‘lumot uning mohiyati va mazmunida aks etadi hamda uni tavsiflash uchun zarur sanaladi.

Oila an‘analari (yoki oilaviy an‘analar) – oilaning tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, avloddan avlodga meros sifatida o‘tish orqali oila a‘zolarining ma‘naviy shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-madaniy hodisa.

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas‘uliyat hamda o‘zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas‘ul bo‘lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

Oilaviy tarbiya mexanizmlari – individual tarbiyaviy imkoniyatlari asosida oila tomonidan farzand tarbiyasini samarali tashkil etishda qo‘llaydigan vosita va usullari¹³².

Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash – uning farzandlarni har jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalovchi omillar, sharoitlar, xususan, sog‘lom muhit va sog‘lom turmush tarzi ega bo‘lish hamda farzandlarni oilaviy hayotga samarali tayyorlashdagi kuch-quvvati, qobiliyatini o‘rganish, tahlil qilish va baholash.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyati – oilaning farzandlarni har jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalovchi omillar, sharoitlarga, oilaning sog‘lom muhit, sog‘lom turmush tarzi ega bo‘lishi hamda farzandlarni oilaviy hayotga samarali tayyorlashdagi kuch-quvvati, qobiliyati.

“Oltita rangli qalpoqcha” metodi (Edvard de Bono) – xayolan turli rangdagi oltita qalpoqchani kiyish yordamida ijodiy jarayonni tartibga solishga imkon beradigan metod. Turli rangdagi qalpoqchalar shaxs tomonidan quyidagi harakatlarning tashkil etilishini ifodalaydi: oq qalpoqcha – raqamlar va dalillar tahlil qilinadi; qora qalpoqcha – tegishli masala bo‘yicha faqat salbiy fikrni bildirish; sariq qalpoqcha – muammoning ijobiy tomonlarini izlash; yashil qalpoqcha – yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, ilgari surish; qizil qalpoqcha – muammo yuzasidan o‘zining hissiy kechinmalarini bayon qilish; yashil qalpoqcha – natijalarni umumlashtirish¹³³.

“Pedagogik diagnostika va korreksiya”– maqsadi pedagogik ahamiyatga ega ma‘lumotlarni aniqlash va ulardan foydalanish asosida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, tarbiyalash, o‘quv hamda kasbiy faoliyatga psixologik

¹³² Воспитательный потенциал семьи // https://studme.org/1527092124184/pedagogika/vospitatelnyy_potentsial_semi.

¹³³ Методики развития креативности // http://moluch.ru/rules/?utm_source=selfad&utm_medium=popup&utm_campaign=archive.

jihatdan samarali tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat o'quv fani.

Pedagogik diagnostika tamoyillari – pedagogik diagnostikaning mazmuni, maqsadi, ijtimoiy-didaktik, tarbiyaviy ahamiyati, qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari, uni qo'llash shartlarining mohiyatini yorituvchi yetakchi, asosiy g'oyalar.

Pedagogik diagnostika (tashxislash) – zarur o'lcham (ko'rsatkich)lardan foydalanish asosida hodisalar mohiyatini anglash va ularning muayyan vaziyatlardagi holatiga baho berish jarayoni (K.Ingenkamp); pedagogik tizimning turli elementlari holati va uni barcha bosqichlarda bashoratlash, mo'tadil rivojlanish tendensiyalarining buzilishini bartaraf etish uchun ularni amalga oshirish sharoitlarini tavsiflovchi belgilarini aniqlanish va o'rganish (E.A.Mixalychev), ta'lim va tarbiya natijasini baholashda shaxsning ma'lum bir xususiyatlarini aniqlash uchun mo'ljallangan pedagog va pedagogik kollektivlarning o'ziga xos faoliyatining tizimi (V.S.Avanesov); aniq maqsaddan kelib chiqqan holda muayyan holat (fazilat, bilimlarni o'zlashtirish) bo'yicha o'rganiluvchi shaxs faoliyatini kuzatish, tekshirish va baholashga oid statistik ma'lumotlarni yig'ish, ularni tahlil qilish, dinamik rivojlanishni aniqlashga qaratilgan nazorat yoki monitoringning tarkibiy qismi (M.A.Innazarov); ta'lim oluvchilar, pedagog yoki ta'lim muassasasi rahbarining faoliyati darajasida jarayon yoki hodisani bir vaqtning o'zida tezkor o'rganish, baholash, yo'naltirish va to'g'rilash (S.T.Pudochkina).

Pedagogik diagnostikaning bir necha turi mavjud. Ular:

asosiy boshlang'ich diagnostika – o'quvchining joriy vaqtgacha erishgan yutuqlari, shuningdek, rivojlanishdagi muammolari aniqlashga qaratilgan tashxislash;

asosiy yakuniy diagnostika – o'quv yili oxirida o'tkazilib, uning natijalariga ko'ra o'qituvchining oldiga qo'yilgan pedagogik vazifalarning hal qilinish darajasi tahlil qilinib, baholanadigan tashxislash;

oraliq diagnostika – sinfning barcha o'quvchilari uchun emas, balki ular orasidan tanlab olingan – rivojlanishida jiddiy muammolari bo'lgan o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan tashxislash;

tezkor diagnostika – favqulotda muammolarni hal qilish sifatini baholashga qaratilgan tashxislash.

Pedagogik tashxislash pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga egaligini ham tashxislashga xizmat qiladi. Bu jarayonda uning bir necha turidan foydalaniladi. Ular:

Attestatsion tashxislash – ta'lim sifatini boshqarishga qaratilgan umumiy tizimda o'qituvchilar faoliyatini kompleks ekspert baholash xususiy hodisa bo'lib, o'qitishning tegishli sohasida pedagogik faoliyatni tegishli muassasa ustavi, davlat ta'lim standartlari, mahalliy va xalqaro tajribalarga muvofiq kelishini anglatuvchi qobiliyati sifatida e'tirof etilishini ta'minlaydi.

Boshqaruv xarakteridagi pedagogik tashxislash – o'quv-tarbiya jarayonining didaktik va metodik imkoniyatini, pedagoglar va o'quv muassasalari rahbarlarining kasbiy malakasini pedagogik tashxislashning

funksional hamda tuzilmaviy jihatdan o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlarining mazmuni.

Tashkiliy-metodik tashxislash – o‘qituvchilarning metodik kompetentligi va kasbiy tayyorgarligini, pedagogik jarayonni tashkil etishning o‘ziga xosligini pedagogik tashxislashning funksional va tuzilmaviy jihatdan o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlarining mazmuni.

Tezkor tashxislash – o‘qituvchi faoliyatini mezonlarning eng quyi darajasini ifodalovchi tizimda pedagogik tizimni boshqarishni takomillashtirish uchun qarama-qarshiliklar, muammoli muhit va tayanch, dastlabki muammolarni aniqlovchi tezkor tashxisli tahlil.

Pedagogik kuzatish metodi – ta‘lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilishi zarur bo‘lgan pedagogik muammoni aniqlash, uning yechimini topish maqsadida qo‘llaniladigan usul.

Pedagogik nazorat – uning yetakchiligi va tashkilotchiligi asosida o‘qituvchi va o‘quvchilarning faoliyatini o‘zaro birlashtirgan holda o‘quv hamda tarbiya jarayonlarining natijalarini baholashga qaratilgan tekshirish xarakteriga ega yagona didaktik va metodik tizim.

Psixologik-pedagogik diagnostika metodikalari shaxsning individual psixologik o‘ziga xosliklari hamda axloqiy fazilatlarga egalik darajasini o‘lchash hamda baholashga qaratilgan faoliyatning shakl, metod va vositalari yig‘indisi.

Pedagogik tajriba metodi (lot. “experimentum” – sinov, sinash, tajriba qilib ko‘rish) – mavjud pedagogik muammoning yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in‘ikosiga ega bo‘lishi, ularning samaradorligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladigan usul.

Pedagogik tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy didaktik vazifasi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida teskari aloqani ta‘minlash, pedagog tomonidan o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishi haqida ob‘ektiv axborot olinishi, bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlashni ta‘minlashdir.

Pedagogik o‘lchov – ma‘lum qoidalarga muvofiq ob‘ektlar va ularga xos xususiyatlarning raqamlardagi ifodasini anglatuvchi kattalik. O‘lchash, odatda, bevosita (muayyan standart, tayanch o‘lchagich, mezonlar asosida) yoki bilvosita (boshqalarning yordamida yoki muayyan vositalar asosida) amalga oshiriladi:

Bevosita o‘lchash – o‘lchanadigan ob‘ektni biron-bir standart, tayanch o‘lchagich bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslash.

Bilvosita o‘lchash – ob‘ekt holatini ma‘lum mezonlar (masalan, savollarga qaytarilgan javoblar mazmuni va soni, to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar soni, muammoli masalalarni hal qilish, diktant, yozma ish, inshodagi xatolar, xulq-atvordagi og‘ishlar va boshqalar) yordamida ma‘lum vositalar (nazorat ishlari, test topshiriqlari, loyihalar, imtihon va sinov savollari) yordamida baholash¹³⁴.

¹³⁴ Лекция 5. Анализ данных // https://tsput.ru/res/informat/mop/lections/lecture_5.htm.

Reyting (ingl. “baholash”, “tartibga keltirish”) – muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo‘yicha baholash.

Rivojlanishni bashoratlash – dinamik xarakterga ega modelning asosiy natijasi bo‘lib, uning yordamida tashxislanuvchi ob‘ektning sabab-oqibatli o‘zaro bog‘liqligi, uning mavjud bo‘lishini ta‘minlovchi jarayon qonuniyatlari to‘g‘risidagi qarashlar tartiblanadi.

“Sinektika” metodi (Uilyam Gordon) – muqobillar (o‘zaro o‘xshash jihatlar)ni izlashga xizmat qiladigan metod. Metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1-bosqich: zarur ob‘ekt (mavzuga oid muhim tushuncha) tanlanadi; 2-bosqich: tanlangan ob‘ektning muqobil (o‘zaro o‘xshash jihat)larini topish uchun ikki bo‘limdan iborat jadval shakllantiriladi; 3-bosqich: jadvalning 1-ustunida tanlangan tushunchaga to‘g‘ri muqobil bo‘lgan tushunchalar qayd etiladi; 4-bosqich: 1-ustunda qayd etilgan har bir tushuncha asosida maqsad, tushunchaning mohiyati va noto‘g‘ri muqobillar belgilanadi.

Sinf – yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo‘lgan muayyan o‘quvchilar guruhi.

Sog‘lom oila – oila a‘zolari axloqiy e‘tiqod, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, psixologik jihatdan bir-birini tushunadigan va o‘zaro qo‘llab-quvvatlaydigan, moddiy jihatdan yetarlicha ta‘minlangan oila.

Standart (davlat ta‘lim standartlari – DTS; ingl. “standard” – meyor, namuna) – uzluksiz ta‘lim bosqichlarining asosiy ta‘lim dasturlari mazmunining zaruriy minimumini, o‘quvchilarga yuklanadigan o‘quv yuklanmalarning maksimal hajmini, ta‘lim muassasasi bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini, ta‘lim jarayonini ta‘minlash (uning moddiy-texnik, o‘quv-laboratoriya, axborot-metodik, kadrlar taminoti)ning asosiy talablarini aniqlab beradigan meyor va talablar¹³⁵. Diagnostika nazariyasida “standart” tushunchasi quyidagi uch jihatga ko‘ra qo‘llaniladi: 1) o‘lchash, o‘zaro solishtirish, tahlil qilish va baholash uchun asos bo‘ladigan ko‘rsatkich; 2) psixologik-pedagogik ko‘rsatkich (shkala)larni shakllantirish uchun asos bo‘ladigan ixtiyoriy etalon (namuna); 3) muayyan jamiyat tomonidan e‘tirof qilingan ijtimoiy axloq mezoni.

Talab (psixologik-pedagogik talab) – turli xatti-harakatlarni bajarish, muayyan faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy –psixologik xulq-atvor me‘yorlari va tarbiyaviy ta‘sir usuli. U ma‘lum harakatlarni rag‘batlantirish yoki to‘xtatish, shaxsni ijobiy harakatlarga undash xarakteriga ega bo‘ladi. Psixologik va pedagogik diagnostikada talab (psixologik-pedagogik talab)lar to‘rtta guruhga ajratiladi. Ular: 1) nazariy xarakterga ega talab (psixologik va pedagogik ko‘rsatma, yo‘l-yo‘riq, maslahat; o‘lchov birliklari); 2) amaliy xarakterga ega talab (tashxislash jarayonida ustuvor bo‘lgan omillarga tayanishni taqozo qiladigan psixologik-pedagogik talab; o‘lchov birliklari); 3) ob‘ektiv qonuniyatlar asosida shakllantiriladigan tashxis tamoyillari; 4) tashxislash jarayonini tashkil qilish tartibi va qoidalari.

Tamoyil (lot. “principium” – boshlang‘ich) – muayyan ta‘limot, nazariya, fan yoki qarashlarning asosiy, boshlang‘ich holati.

¹³⁵ Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 130-б.

Tarbiyaviy imkoniyat – shaxs yoki jamoaning individga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish quvvati va qobiliyatlari.

Tarbiya jarayoni – muayyan, aniq maqsad va ijtimoiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori, dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni; o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etilib, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayoni.

Tarbiyalanganlik - o'quvchida axloqiy fazilatlar, mehnat ko'nikmalari hamda hayotiy tajribaning shakllanganligi yoki rivojlanganligi.

Tarbiyalash – 1) o'quvchini tarbiyalab voyaga yetkazish, ulg'aytirish; 2) shaxsni tarbiyalash yo'lida amaliy pedagogik harakatlarni, faoliyatni tashkil qilish.

Tarbiyalovchi vaziyat – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro muloqot, hamkorlik asosida tarbiya jarayonining muayyan bosqichlarida turli qarorlar qabul qilinishini taqozo etadigan holat.

Tarbiya – shaxsga bilim berish orqali unda axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikma-malakalarini, hayotiy tajribani hosil qilish, orqali uni voyaga yetkazish; shaxsda axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikma-malakalarini, hayotiy tajribani hosil qilishga qaratilgan amaliy harakat, pedagogik faoliyat.

“Tasodifiy assosiatsiyalar” metodi – tasodifiy tanlangan ikkita so'z (tushuncha) o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik topish va u asosida orginal hikoya to'qishga yo'naltirilgan metod. Pedagogik tashxislash jarayonida “Tasodifiy assosiatsiyalar” metodidan quyidagicha foydalaniladi: 1-bosqich. Har bir o'quvchi o'zi istagan kitob (u lug'at, badiiy adabiyot, turli sohalarga oid qiziqarli jurnal)ni qo'lga olib, uning sahifalarini tasodifiy ochadi; 2-bosqich. Ochilgan sahifaning raqamiga e'tibor qaratmay, ko'rsatkich barmoq ixtiyoriy so'zning ustiga qo'yiladi, aniqlangan so'z qog'ozga qayd etiladi; 3-bosqich. Bu harakat yana bir bor qayta takrorlanib, yana bir so'z aniqlanadi; 4-bosqich. Aniqlangan har ikki so'z o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik topiladi va u asosida orginal hikoya to'qiladi.

Tashxis (pedagogikada) – o'zida tadqiqot (o'rganish) ob'ekti sifatida tanlangan shaxs yoki ijtimoiy guruh (masalan, o'quvchilar sinfi)ga xos muayyan xususiyatlarni, shaxslararo o'zaro ta'sirni, o'zaro munosabatlarni, o'zaro bir-birlarini tushunishni tavsiflaydigan pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi; tashxislashning, ya'ni, tashxislash jarayonining natijasi, shuningdek, ma'lum xususiyat, sifat, holat va shu kabilarning tasdiqlanishi.

Tashxislovchi metodika – ma'lum me'yorlarga tayangan holda muayyan shaxs, shaxslar guruhi (o'quvchilar sinfi) yoki o'rganilayotgan jarayonga xos qandaydir sifat, o'ziga xos xususiyatlarni o'lchash, natijalarni o'zaro solishtirish va tasdiqlashga qaratilgan chora-tadbir.

Tashxislovchi metodlar – olingan natijalar asosida psixologik hamda pedagogik jarayonning mohiyatini, muayyan shaxsga yoki shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfi)ning o'ziga xos xususiyatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'lchash, ularni o'zaro solishtirish va tasdiqlashga xizmat qiladigan metodlar. Odatda, tashxis metodlari sifatida anketa, suhbat, test, intervyu, pedagogik kuzatish, ekspert baholash, natijalarni matematik qayta ishlash (matematik-statistik metod) kabilar qo'llaniladi.

Tashxislovchi texnika – pedagog yoki mutaxassis tomonidan samarali o‘zlashtirilib, o‘rganilayotgan shaxs (o‘quvchi, tarbiyalanuvchi) yoki shaxslar guruhi (masalan, o‘quvchilar sinfi)ga pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlarini amalda samarali qo‘llashga imkon beradigan bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalar yig‘indisi.

Tekshirish (yoki tekshiruvdan o‘tkazish) – tadqiqot ob’ekti bo‘lgan shaxs yoki jarayonga oid dalillarning tashxis ma’lumotlari bilan o‘zaro solishtirish va ularning tasdiqlanishini ta’minlovchi jarayon.

Test metodi (ingl. “test” – sinash, tekshirish) – o‘rganilayotgan shaxsning aqliy rivojlanish darajasi, qobiliyati, muayyan ish-harakat, faoliyatni bajarishga doir ko‘nikma, malakalari, shaxsiy va irodaviy sifatlari, ruhiy xususiyatlari, shaxslar guruhi (masalan, o‘quvchilar sinfi)ga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashda qo‘llaniladigan qisqa standart tekshirish yoki sinov usuli.

“Tugallanmagan rasmlar” testi (Ellis Pol Torrens) – testlar to‘plami shaxsning rasmi topshiriqlarni bajarish orqali fikrlash qobiliyatiga, fikrlarni orginal ifodalash layoqatiga egaligini aniqlash imkonini beradigan metod.

Fanlarni o‘zlashtira olmaslikni korreksiyalash (pedagogik tuzatish) – o‘quvchi tomonidan qayd etilgan natijalarning ta’lim, didaktik, DTS talablariga mos kelmasligini bartaraf qilishga qaratilgan pedagogik faoliyatni tashkil qilish.

Fanlarni o‘zlashtira olmaslik – o‘quvchi tomonidan qayd etilgan natijalarning ta’lim, didaktik hamda DTS talablariga mos kelmasligi.

“Fokal ob’ektlar” metodi (asoschisi – Charlz Vaying; ingl. “focal” – “o‘zak”, “manba”, “o‘choq”) – turli ob’ektlarga xos bo‘lgan belgilarni birgina predmetda aks etishiga erishish imkonini beradigan metod.

Shaxs – jamiyatning psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari, xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega azosi.

Shaxsning tarbiyalanganlik darajasi – o‘quvchining axloqiy fazilatlar, mehnat ko‘nikma-malakalari hamda hayotiy tajribaga egaligining muayyan ko‘rsatkichi.

Shaxs tarbiyalanganlik darajasining ko‘rsatkichi – o‘quvchining muayyan darajada axloqiy fazilatlar, mehnat ko‘nikma-malakalari hamda hayotiy tajribaga egaligining o‘lchovi.

Shaxs (o‘quvchi)ning aqliy rivojlanish darajasini tashxislash – u tomonidan o‘quv fanlarini o‘zlashtirish asosida uning fikrlash qobiliyati, tafakkuri, intellektual salohiyatining muayyan pog‘onaga egaligini, holatini tahlil qilish hamda baholash.

Shaxs (o‘quvchi)ning aqliy rivojlanish darajasi – shaxs fikrlash qobiliyati, tafakkuri, intellektual salohiyatining muayyan pog‘onasi, holati.

Shkalalash – boshlang‘ich amaliy natijalarni shkalali baholashga o‘tkazish yo‘li bilan tartiblashga qaratilgan harakat.

Shkala – muayyan raqamli tizimga ularni joylashtirish yo‘li bilan ob’ektlar xususiyatlarini o‘lchash natijalarini qayd qilish vositasi bo‘lib, bunda alohida

natijalar o'rtasidagi munosabat tegishli raqamlarda ifodalanadi¹³⁶. Tartiblash jarayonida kuzatilgan natijaning shkaladagi mavjud holatiga ko'ra har bir tanlangan elementiga muvofiqlik asosida ball (shkalali indeks) beriladi.

Ekspert baholash metodi – malakali mutaxassislar tomonidan o'rtacha arifmetik qiymatni topish yo'li bilan shaxs faoliyati, ma'lum jarayon, tizimning sifat ko'rsatkichlarini baholashga xizmat qiladigan usul.

O'zaro ziddiyatga borish (konfrontatsiya) – ikki qarama-qarshi taraflar tomonidan bir-birlarining ob'ektiv va sub'ektiv xarakterga ega pozitsiyalarini qabul qilmaslik sanalib, vaziyatni ijobiy hal qilishni qiyyinlashtiradi.

O'zini o'zi baholash – shaxsning o'z imkoniyatlari, sifatlari, yutuqlari, kamchiliklari hamda boshqa kishilar orasidagi o'rnini mustaqil baholay olishi¹³⁷; shaxs tomonidan o'z xatti-harakatlari, ma'naviy fazilatlarini, qarashlari, motivlarining axloqiy baholanishi.

O'zini o'zi boshqarish – shaxsning muloqot, xulq-atvor hamda faoliyatda o'z faolligini boshqarish asosida maqsadga muvofiq holda o'zgarishi. Ijodiy jarayon bo'lgan o'zini o'zi boshqarish shaxsning muhim vaziyatlarda o'zini anglashi, yangi maqsadlarni o'z oldiga qo'yishi, ularga erishish yo'lida to'g'ri qarorga kelish vositalarini izlashini ifodalovchi ijodiy jarayon sanaladi.

O'zini o'zi nazorat qilish – shaxsning zarur irodaviy sifatlarini namoyon etgan holda turli vazifalarda o'z qarashlari, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari, xulq-atvorini nazorat ostiga olish malakasiga egalik.

O'lchash natijalarining asoslanganligi (ingl. "validity" – yaroqlilik (haqqoniylik, qonuniylik) – qo'llanilgan metodika hamda muayyan sharoitlarda amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining haqqoniyligi va yaroqliligi.

O'lchash natijalarining ishonchliligi (ing. "reliability") – olingan natijalarning aniqligi va ularning tasodifiy omillarga ta'siriga barqarorligini ifodalovchi tavsif. Natijalarning ishonchliligi o'lchash ishlarining haqiqatda, tashxislash yoki tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda belgilangan talab, aniqlangan mezonlarga muvofiq amalga oshirilganligini anglatadi.

O'lchash – qandaydir belgining ahamiyati, qiymatini aniqlash jarayoni.

O'lchov (yoki o'lchov birligi) – muayyan ko'rsatkichni miqdor jihatdan baholash uchun qabul qilingan kattalik.

O'quvchilar jamoasi – ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida bir necha o'quvchilardan tashkil topgan guruh.

O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlari – sinf (guruh) jamoasining har bir o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish quvvati va qobiliyatlariga egaligi.

O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash – sinf (guruh) jamoasining har bir o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish quvvati va qobiliyatlariga egaligini aniqlash va mavjud darajasini baholash. Korreksiyalashda o'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyati asosida o'quvchiga ko'rsatiladigan

¹³⁶ Чельшкова М.Б. Теория и практика конструирования педагогических тестов. – М.: Педагогика, 2001. – С. 359.

¹³⁷ Демьянович О.В. Самооценка как социально-психологический феномен // <http://www.sch612.edusite.ru/samoocenka.pdf>.

ta'sir quyidagi metodlar asosida amalga oshiriladi:

ishonch bildirish – bunda o'quvchi o'z bilim va ko'nikmalarini namoyish

etgan holda jamoaning muhim ijtimoiy topshirig'ini bajaradi;

doimiy ravishda ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni tashkil qilishga odatlantirib borish – bu jarayonda o'quvchiga jamoa tomonidan beriladigan topshiriqlar takrorlanadi, murakkablashtiriladi va o'quvchi tomonidan ularning umumiy ahamiyatini anglash rag'batlantiriladi;

o'quvchida jamoa bilan birlikning namoyon bo'lishini qo'llab-quvvatlash – bunda o'quvchining ijtimoiy ishlarni bajarishga bo'lgan sa'y-harakatlari rag'batlantiriladi va ma'qullanadi, unga nisbatan sinfdoshlarning xayrixohligi kuchaytiriladi;

ishonchsizlik bildirish – bu jarayonda jamoa tomonidan o'quvchining xatti-harakati, xulqi salbiy baholangani sababli unga biron bir ijtimoiy topshiriqni berish borasida shubha bildirilib, shu orqali u o'zini o'zi tanqidiy tahlil qilishga undaladi;

vijdonan yondashmagan holda va sifatsiz bajarilgan ishni qabul qilishdan bosh tortish – bunda jamoa o'quvchidan ishni qayta bajarishni talab qiladi, o'quvchining ishni yaxshiroq bajarishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi;

o'quvchining xudbinona munosabati va qarashlari ijtimoiy axloq me'yorlariga mos kelmasligini qoralash – bu jarayonda o'quvchining xulqi bevosita tanqid qilinadi;

jamoaviy tanqid o'rniga o'quvchida o'z-o'zini tanqid malakalarini shakllantirish – bunda o'quvchi o'z harakatlariga ob'ektiv baho berishga, sinfdoshlar uning harakatidan noroziligi ekani sababini o'ylab ko'rishga undaladi,

o'quvchini jamoaviy ijtimoiy ahamiyatli faoliyatga jalb qilish – bu jarayonda o'quvchi jamoaviy ishlarga o'z munosabatini bildiradi, sinfdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat yurita olish qobiliyatiga egaligini ko'rsata olishi talab qilinadi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish – ularning qiziqish, qobiliyatini aniqlash orqali ongli ravishda kasb yoki hunar yo'nalishlarini tanlashiga ko'maklashish va harakatlarini tegishli yo'nalishga solish.

O'quvchilarning kasbga yo'nalganligini tashxislash – tashxis metodlari yordamida o'quvchilarning u yoki bu kasb, hunar asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, qobiliyat darajasini aniqlash.

O'quvchi – umumiy o'rta yoki o'rta-maxsus ta'lim muassasasida tahsil olayotgan shaxs.

Hamkorlik – tarbiyalovchi vaziyatning o'zaro harakati bo'lib, unga ko'ra sub'ektlardan biri ikkinchisining ruhiy-jismoniy holatini to'la xis etadi va voqelikka, masalaga nisbatan o'zining salbiy munosabatini o'zgartirgan holda, vaziyatning rivojlanishi va ijobiy tus olishiga sabab bo'lishi mumkin. Hamkorlik asosida sherigi bilan o'zaro harakat qilish, kayfiyati qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning osoyishtaligi haqida qayg'urish yotadi.

Hujjatlarni tahlil qilish (ta'lim muassasasi hujjatlarini o'rganish) metodi

– pedagogik hodisa va dalillarni har tomonlama tekshirish, ta'lim muassasasi tomonidan meyoriy talablarning bajarilishi holatini o'rganish, erishilgan yutuq, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or ilmiy-pedagogik hamda ta'lim muassasasi tomonidan to'plangan amaliy-pedagogik tajribalarni ommalashtirish maqsadida qo'llaniladigan usul.

Hunar – 1) muayyan ko'nikma, mahorat talab qilinadigan, tirikchilikning asosiy manbai hisoblanuvchi ish, mashg'ulot, kasb¹³⁸; 2) asosan qo'l kuchi bilan harakatlantiriladigan ish qurollari yordamida, ya'ni, qo'l mehnatiga asoslanib mahsulotlarni tayyorlashga qaratilgan faoliyat.

¹³⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Шукрона – X / 5 жилдли. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев таҳр.остида. Таҳрир хайъати: Э.Бегматов. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 561-б.

MUNDARIJA

	SO‘Z BOSHI	3
I BOB.	“PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA” FANINING NAZARIY ASOSLARI	
1-mavzu.	Pedagogik diagnostikaning predmeti va tarixiy rivoji.....	5
2-mavzu.	O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika.....	16
3-mavzu.	Pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq qilishning umumilmiy tamoyillari va darajalari.....	24
4-mavzu.	Pedagogik diagnostikaning umumiy metodlari.....	36
5-mavzu.	Ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘lchash va shkalalashning asosiy yo‘nalishlari.....	47
6-mavzu.	Uzluksiz ta‘limda pedagogik nazoratni tashkil qilishning ilmiy asoslari.....	60
II BOB.	PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING AMALIY ASOSLARI	
7-mavzu.	O‘quv jarayonini tashkil etishning umumiy diagnostikasi.....	72
8-mavzu.	O‘quvchilarning aqliy rivojlanish diagnostikasi.....	85
9-mavzu.	O‘quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish.....	102
10-mavzu.	O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda pedagogik diagnostikaning o‘rni.....	117
11-mavzu.	Sinf (guruh) jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxis etish.....	138
12-mavzu.	Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxis etish.....	152
III BOB.	KORREKSION FAOLIYAT VA UNI SAMARALI TASHKIL ETISH	
13-mavzu.	Korreksion faoliyat. Fanlarni o‘zlashtira olmaslik va uni korreksiyalash (pedagogik tuzatish).....	169
14-mavzu.	Ijtimoiy xulq ko‘nikmalarini o‘zlashtira olmaslik va uni korreksiyalash (pedagogik tuzatish).....	185
	XOTIMA	205
	GLOSSARIY	209
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	213

СОДЕРЖАНИЕ

	Предисловие.....	3
ГЛАВА I.	ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЧЕБНОГО ПРЕДМЕТА “ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА И КОРРЕКЦИЯ”	
1-тема.	Предмет и исторической развитии педагогического диагностики.....	5
2-тема.	Педагогическая диагностика в учебно-воспитательном процессе.....	16
3-тема.	Общенаучные принципы и уровни диагностического исследования педагогической действительности.....	24
4-тема.	Общие методы педагогической диагностики.....	36
5-тема.	Основные направления измерения и масштабирования в учебно-воспитательном процессе.....	47
6-тема.	Научные основы организации педагогического контроля в непрерывном образовании.....	60
ГЛАВА II.	ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ	
7-тема.	Общая диагностика организации учебного процесса.....	72
8-тема.	Диагностика умственного развития учащихся.....	85
9-тема.	Диагностирование уровня нравственной воспитанности учащихся.....	102
10-тема.	Роль педагогической диагностики в профессиональной ориентации учащихся.....	117
11-тема.	Диагностика образовательных возможностей коллектива класса (группы).....	138
12-тема.	Диагностирование воспитательного потенциала семьи.....	152
ГЛАВА III.	КОРРЕКЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ЕЁ ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ	
13-тема.	Коррекционная деятельность. Неуспеваемость и её коррекция.....	169
14-тема.	Неосвоение навыков социального поведения и его коррекция.....	185
	ЗАКЛЮЧЕНИЕ.....	205
	ГЛОССАРИЙ.....	209
	ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	213

CONTENT

	FOREWORD.....	3
CHAPTER I.	THEORETICAL BASICS OF THE SUBJECT “PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS AND CORRECTION”	
1 st theme.	Subject and historical development of pedagogical diagnostics.....	5
2 nd theme.	Pedagogical diagnostics in the educational process.....	16
3 rd theme.	General scientific principles and levels of diagnostic research of pedagogical reality.....	24
4 th theme.	General methods of pedagogical diagnostics.....	36
5 th theme.	The main directions of measurement and scaling in the educational process.....	47
6 th theme.	Scientific foundations of the organization of pedagogical control in continuous education.....	60
CHAPTER II.	PRACTICAL BASICS OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS	
7 th theme.	General diagnostics of the organization of the educational process.....	72
8 th theme.	Diagnostics of the mental development of students.....	85
9 th theme.	Diagnosing the level of moral education of students.....	102
10 th theme.	The role of pedagogical diagnostics in professional guidance of students.....	117
11 th theme.	Diagnostics of educational opportunities for the team of the class (group).....	138
12 th theme.	Diagnostics of the educational potential of the family.....	152
CHAPTER III.	CORRECTIONAL ACTIVITIES AND THEIR EFFECTIVE ORGANIZATION	
13 th theme.	Corrective activity. Poor academic progress and its correction.....	169
14 th theme.	Failure to master the skills of social behavior and its correction.....	185
	CONCLUSION.....	205
	GLOSSARY.....	209
	REFERENCES.....	213